1. James Stewart. Calculus. Brooks/cole, Cengage learning USA, 7 th edition, 2010.
2. Erwin Kreyszig. Advanced engineering mathematics. Wiley international edition, USA, 9 th edition, 2006.
3. N.P. Bali, P.N.Gupta, C.P.Gandhi. A textbook of B.Pharmaceutical Mathematics. Vol -1,2. Laxmi publications (P)ltd. New Dehli. Boston, USA. 2007.
4. Soatov B. "Oliy matematika" t.1, 2-tom. Toshkent, "O'qituvchi", 1992.
5. Ulug'murodov N.X. va boshqalar. Oliy Matematika. 1-3 qismlar. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2013.
6. Ulug'murodov N.X. Matematik statistika kursi. Toshkent. Turon-iqbol. 2006.
7. Danko P.E. va boshqalar. Oliy matematika misol va masalalarda. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent. 2007.
8. Лобоцкая. "Высшая математика". Минск. 1987.
9. В.П. Минорский . Сборник задач по высшей математике. Москва. 1978

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Azlarov T, Mansurov H. Matematik analiz asoslari. 2005.
2. Berman: Matematik analizdan masalalar tuplami. 1989.
3. Piskunov N.S. Differentsial va integral xisob kursi. 1, 2 jildi. 1985.
4. Abdalimov B. va boshkalar. Oliy matematikadan masalalar echishda qo'llanma. Toshkent. 1985.
5. N.X.Samigova, D.A.Sunatova, B.E. Temirova. "Oliy matematika" dan oquv uslubiy qo'llanma. 2010.
6. N.X.Samigova, D.A.Sunatova, B.E. Temirova . Oliy matematika fanining ehtimollar nazariyasi bo'limidan oquv uslubiy qo'llanma. 2010.

7. Sh. R. Xurramov. Oliy matematika. Misol va masalalar, nazorat topshiriqlari. 1, 2 va 3- qismlar. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2015.
8. Minorskiy V.P. Oliy matematikadan masalalar to'plami. Moskva. 1987.
9. Ataxanov, Xodjaev. Matematik analizdan misol va masalalar to'plami. 2005.
10. Samigova N.X., Sunatova D.A., Temirova B.E. Oliy matematika fanining "Математик тахлил" dan o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013.

Internet va ziyonet saytlari:

1. <http://www.pharmi.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.rsl.ru>
4. <http://www.nlr.ru>
5. <http://www.msu.ru>

III. SILLABUS.

“MATEMATIKA” fanining

2016-2017 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan SILLABUSI

OTMning nomi va joylashgan manzili:	Toshkent farmatsevtika instituti				Oybek, 45			
Kafedra:	Fizika, matematika va axborot texnologiyalari				2 o‘quv binosi 4 qavat			
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:	510000 – Sog‘liqni saqlash		5510500 Farmatsiya (Klinik farmatsiya) 5510500 Farmatsiya (Farmasevtik taxlil) 5510500 Farmatsiya (Farmasevtika ishi) 5111000 kasb ta’limi (5510500-farmasevtika ishi)					
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:	Sunatova Dilfuza Abatovna katta o‘qituvchi		e-mail:		mirmoh@mail.ru bakhromjon1@rambler.ru			
	Samigova Nodira Xamidullayevna katta o‘qituvchi							
	Abdurahmonov Bahrom Alisherovich katta o‘qituvchi							
	Temirova Barno Erkinovna o‘qituvchi							
Dars vaqti va joyi:	Dars jadvali asosida kafedrada		Kursning Davomiyligi:		1 kurs I/II semestr			
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Payshanba va juma kunlari 13.30 dan 15.00 gacha							
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari						Mustaqil ta’lim	74
	Ma’ruza	36	Amaliyot	72	Laboratoriya mashg‘ulotlari	-		
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlar):	–kimyo, fizika fanlaridan olgan bilimlariga asoslanadi.							
(postrekvizitlar):	Ushbu fan barcha tabiiy va mutaxassislik fanlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi							


IV. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM USULLARI.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi.

Talabalarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materiallarini o'rganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodi bosqichlari




“Klaster” metodi

Talabalarga ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida firklash imkoniyatini beruvchi tuzilmani



aniqlashni talab etadi.

“Klaster” metodining bosqichlari



“Keys-stadi” metodi



Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida talabalar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatorida kirmoqda.

Ushbu metod talabalarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda oniyatini berishida ko'rish mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning analizi talabalarining kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jihatdan "ulg'ayishiga" xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi talabaning tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkonini beradi.

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	• Keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); • Axborotni umumlashtirish; • Axborot tahlili; • Muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlash-ritish va o'quv topshirig'ini belgilash	• Individual va guruhda ishlash; • Muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; • Asosiy muammoli vaziyatni aniqlash
3-bosqich: keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	• Individual va guruhda ishlash; • Muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; • Har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; • Muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	• Yakka va guruhda ishlash; • Muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini amalda qo'llash; • Ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • Yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Ushbu “Assesment”lardan ma'ruzachi mashg'ulotlaridan ma'ruza mashg'ulotlarida qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash



maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



“Mantiqiy chalkash zanjir” strategiyasi

Metod tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o'qituvchi mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri va noto'g'ri tartibda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirilgan holda uzatilgan zanjirni “ulashdan” iborat.

Mashg'ulotda metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'qituvchi talabalarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi

Talabalar bir necha kichik guruhlariga biriktiriladi

kichik guruhlariga chalkash ma'lumotlarni o'zida ifodalagan tarqatmali materiallar beriladi

topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi (5 minut) belgilanadi

kichik guruh tarqatmali materialda ifodalangan mantiqiy xato va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni "ulashga" harakat qiladi

belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi

jamoat guruhlarining javoblari yuzasidan muhokama qilish tashkil etiladi

o'qituvchi jamoaning fikriga tayanib, guruhlar ishini baholaydi.

4.1. O'ZGARUVCHI MIQDOR HAQIDA TUSHUNCHA, O'ZGARUVCHI MIQDORNI O'ZGARISH ORALIGI. ABSOLYUT VA NISBIY XATO. XATOLIKNI PROTSENTDAGI IFODASI. FUNKSIYANING TA'RIFI VA ANIQLANISH SOHASI. FUNKTSIYANING BERILISH USULLARI. KIMYO, BIOLOGIYA VA FARMATSIYA SOHALARIDAN FUNKTSIYAGA MISOL KELTIRISH.

Reja.

1. O'zgaruvchi va o'zgarmas miqdorlar.
2. Sonlar ketma – ketligi.
3. Funksiya ta'rifi.
4. Asosiy elementar funksiyalar.
5. Funksiyaning juft-toqligi, davriyligi
6. Farnatsevtik masalalarga tadbiri
7. Dasturiy paketlar yordamida hisoblash

Tayanch iboralar: sonlar ketma-ketligi, atrof, kamayuvchi, o'suvchi, limit, yaqinlashuvchi, uzoqlashuvchi, o'zgaruvchi va o'zgarmas miqdorlar oraliq (interval), kesma (segment), o'zgarish va aniqlash sohasi, o'zgaruvchining limiti.

1. O'zgaruvchi va o'zgarmas miqdorlar.

Biz amaliy faoliyatimizda mazmun jixatidan turlicha bo'lgan uzunlik, yuza, hajm, temperatura, tezlik kabi turli raiqdorlarga duch kelamiz. Bu miqdorlar aniq sharoitda ba'zan turli qiymatlarni qabul qilsa, ba'zan bir xil qiymatga teng bo'ladi. Masalan, tasodifiy 10 ta mashinaning tezligi tekshirilsa, ular har xil bo'lishi mumkin. Demak tezlik o'zgaruvchi miqdor.

Ma'lumki har qanday aylana uzunligi l ning diametri $2R$ ga nisbati har doim o'zgarmas son (miqdor) $\pi = 3,14...$ ga tengdir. Jismlarning erkin tushish tezlanishi ham o'zgarmas miqdordir.

Shunday qilib ikki xil o'zgaruvchi va o'zgarmas miqdorlar bo'ladi. Odatda o'zgaruvchi miqdorlar $x, y, z, ...$ o'zgarmas miqdorlar esa $a, b, c, ...$ harflar orqali belgilanadi. Agar x o'zgaruvchi miqdor berilgan bo'lsa, bu miqdorning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plamiga x o'zgaruvchi miqdorning o'zgarish sohasi deyiladi. x o'zgaruvchi miqdorning o'zgarish sohasini sonlar o'qida tasvirlasak, $a < x < b$ yoki $a \leq x \leq b$ tengsizliklardan x ning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari (a, b) , $[a, b]$ oraliqda yoki $[a, b]$ kesmalarda bo'lishi ravshan.

Ta'rif: Har xil son qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan har qanday x miqdorga o'zgaruvchi miqdor deyiladi. Barcha qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari bir xil bo'lgan miqdorga o'zgarmas miqdor deyiladi.

2. Sonlar ketma-ketligi.

1-ta'rif. Agar biror qonunga ko'ra $1, 2, 3, ..., n, ... (n \in \mathbb{N})$ natural sonlarga $x_1, x_2, x_3, ...$ haqiqiy sonlar mos keltirilgan bo'lsa, u holda $x_1, x_2, x_3, ...$ sonlar ketma-ketligi berilgan deyiladi.

Qisqacha ketma-ketlik $\{x_n\}$ ko'rinishda yoki $\{x_n\} = \{x_1, x_2, x_3, ... \}$ ko'rinishda yoziladi.

x_i -larga ($i=1, 2, ..., n, ...$) $\{x_n\}$ ketma-ketlikning elementlari, x_n -ga esa ketma-ketlikning umumiy hadi deyiladi.

Misol. $\left\{\frac{1}{n}\right\} = \left\{1, \frac{1}{2}, \frac{1}{3}, ... \right\}$ $\{n^2+1\} = \{2, 5, 10, 17, ... \}$ $\{1+(-1)^n\} = \{0, 2, 0, 2, ... \}$

2-ta'rif. Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlikning istalgan x_n elementi uchun $x_n \leq M$ (yoki $x_n \geq m$) tengsizlikni qanoatlantiruvchi M (yoki m) soni mavjud bo'lsa, u holda $\{x_n\}$ ketma-ketlikni yuqoridan (pastdan) chegaralangan deyiladi.

M va m larga yuqori va quyi chegaralari deyiladi. Ham pastdan, ham yuqoridan chegaralangan ketma-ketlik chegaralangan ketma-ketlik deyiladi.

3-ta'rif. Agar ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}$ uchun $x_n \leq x_{n+1}$ (yoki $x_n \geq x_{n+1}$) tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $\{x_n\}$ ketma-ketlikni kamaymaydigan (o'smaydigan) ketma-ketlik deyiladi.


4-ta'rif. Agar ixtiyoriy $n \in \mathbb{N}$ uchun $x_n < x_{n+1}$ bo'lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlik o'suvchi ketma-ketlik, agar $x_n > x_{n+1}$, bo'lsa $\{x_n\}$ ketma-ketlikni kamayuvchi ketma-ketlik deyiladi.

O'suvchi va kamayuvchi ketma-ketliklarga monoton ketma-ketliklar deyiladi.

5-ta'rif. Agar ixtiyoriy yetarlicha kichik $\varepsilon > 0$ son uchun shunday N natural son mavjud bo'lsaki, $n > N$ bo'lgan barcha n lar uchun $|x_n - a| < \varepsilon$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda a son $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti deyiladi va $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ yoki $x_n \rightarrow a$ ko'rinishlarda yoziladi

$a - \varepsilon < a < a + \varepsilon$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi

nuqtalar to'plamiga a nuqtaning ε atrofi deyiladi.



Ta'rifning geometrik ma'nosi quyidagicha: agar a berilgan $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti bo'lsa, u holda a nuqtaning ε atrofida $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksiz ko'p hadlari joylashgan bo'ladi. Shunday hadlarning nomerlari N dan katta bo'lib, bu atrofda tashqarida esa $\{x_n\}$ ketma-ketlikning x_1 dan x_n gacha bo'lgan chekli hadlari bo'ladi.

6-ta'rif. Limiti mavjud bo'lgan ketma-ketliklarga yaqinlashuvchi ketma-ketliklar deyiladi. Aks holda uzoqlashuvchi ketma-ketliklar deyiladi.

1-teorema. Yaqinlashuvchi sonli ketma-ketliklar faqat bitta limitga ega bo'ladi.

Isboti. Faraz qilaylik $\{x_n\}$ ketma-ketlik ikkita a va b limitlarga ega bo'lsin, u holda α va β nuqtalarni o'z ichiga olgan va bir-biri bilan kesishmaydigan $[c, d]$ va $[e, f]$ intervallarni olaylik. $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$, $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = b$ bo'lsin, bu holda $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$ bo'lgani uchun

$\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksiz ko'p elementlari $[c, d]$ da bo'lib $[e, f]$ da sanoqli elementlari qoladi. Bundan ko'rinadiki, $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksiz ko'p elementlari $[e, f]$ da bo'la olmaydi. Bu esa farazimizga qarama-qarshi.

2-teorema. Har qanday yuqoridan chegaralangan kamaymaydigan va quyidan chegaralangan o'smaydigan sonli ketma-ketliklar yaqinlashuvchi bo'lib, limitga ega bo'ladi.

3-teorema. Agar $\{x_n\}$ ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lsa, u albatta chegaralangan bo'ladi. Lekin aksi qarvaqt to'g'ri emas, ya'ni zarur lekin kifoya emas.

4-teorema. (Bolsiano Veyershtass). Ixtiyoriy cheksiz, chegaralangan va monoton bo'lgan $\{x_n\}$ ketma-ketlik limitga ega bo'ladi.

Agar cheksiz $\{x_n\}$ ketma-ketliklar yuqoridan yoki quyidan chegaralanmagan bo'lsa, u albatta uzoqlashuvchi bo'ladi, ya'ni chekli limitga ega bo'lmaydi.

Agar $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = 0$ bo'lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka cheksiz kichik ketma-ketlik deyiladi.

Boshqa so'z bilan aytganda, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday N nomer topish mumkin bo'lsaki, barcha $n > N$ lar uchun $|x_n| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa $\{x_n\}$ ketma-ketlikka cheksiz kichik ketma-ketlik deyiladi.

Agar $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = \infty$ bo'lsa, $\{x_n\}$ ketma-ketlikka cheksiz katta ketma-ketlik deyiladi.

Boshqa so'z bilan aytganda, ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday N nomer mavjud bo'lsaki, barcha $n > N$ lar uchun $|x_n| \geq M$ tengsizlik bajarilsa $\{x_n\}$ ketma-ketlikka cheksiz katta ketma-ketlik deyiladi.

Sonli ketma-ketlikning limiti uchun quyidagi xossalr o'rinli:

$$1^0. \lim_{n \rightarrow \infty} (x_n \pm y_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} x_n \pm \lim_{n \rightarrow \infty} y_n$$

$$2^0. \lim_{n \rightarrow \infty} (x_n \cdot y_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} x_n \cdot \lim_{n \rightarrow \infty} y_n$$

$$3^0. \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{x_n}{y_n} = \frac{\lim_{n \rightarrow \infty} x_n}{\lim_{n \rightarrow \infty} y_n} \quad (\lim_{n \rightarrow \infty} y_n \neq 0)$$

3. Funksiya.

Elementlari haqiqiy sonlardan iborat bo'lgan D va E to'plamlar berilgan bo'lib, o'zgaruvchi x miqdorning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari D to'plamda, y o'zgaruvchi miqdorning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari E to'plamda bo'lsin.

1-Ta'rif. Agar x o'zgaruvchining D to'plamdagi har bir qiymatiga biror qoida yoki qonunga ko'ra y o'zgaruvchining E to'plamdagi faqat aniq bitta qiymati mos qo'yilgan bo'lsa, u holda o'zgaruvchi y ni o'zgaruvchi x ning funksiyasi deyiladi va odatda $y=f(x)$ ko'rinishda yoziladi¹.



x ga erkli o'zgaruvchi yoki argument, y ga esa erksiz o'zgaruvchi yoki x o'zgaruvchining funksiyasi deyiladi.

x o'zgaruvchining qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar to'plami D ga funksiyaning aniqlanish sohasi deyiladi va $D(f)$ yoki $D(y)$ ko'rinishda belgilanadi. E to'plamga esa funksiyaning o'zgarish sohasi deyiladi va $E(f)$ yoki $E(y)$ ko'rinishda yoziladi.

Misol. $y = \sqrt{1-x^2}$ funksiyaning aniqlanish sohasi $[-1,1]$ to'plamdan ya'ni $D(y)=[-1,1]$ iborat bo'ladi. o'zgarish sohasi esa $E(y)=[0,1]$ bo'ladi.

2-Ta'rif. Funksiyaning aniqlanish sohasi D dagi har qanday x_1, x_2 lar uchun $x_1 < x_2$ tengsizlikdan $f(x_1) \leq f(x_2)$ kelib chiqsa, u holda $f(x)$ funksiyani D da o'suvchi deyiladi, agar $f(x_1) \geq f(x_2)$ kelib chiqsa, funksiyani D da kamayuvchi deyiladi. Funksiyaning berilish usullari.

- x va y o'zgaruvchi miqdorlar orasidagi bog'lanish matematik formulalar orqali berilishi mumkin, u holda funksiya analitik usulda beriigan deyiladi;
- o'zgaruvchi x va y lar orasidagi bog'lanish grafik usulda berilishi mumkin;
- x va y lar orasidagi bog'lanish jadval usulida ya'ni argument x ning qiymatlariga mos keluvchi y ning qiymatini jadval ko'rinishda berilishi mumkin.

4. Asosiy elementar funksiyalar.

Oshkor funksiyalar ikki sinfga bo'linadi: algebraik va transcendent funksiyalar.

Argument x ustida chekli sonda algebraik funksiya bo'ladi (ayirish, qo'shish va h.k)

Masalan: $y = ax^2 + bx + c$, $y = \frac{x}{x^3 + 4}$ va h.k.

Algebraik bo'lmagan barcha funksiyalar transcendent funksiyalar deyiladi.

Masalan: $y=a^x$ $y=\log_a x$ $y=\sin x$


Bu funksiyalrning eng soddalarini ko'rib chiqamiz.

1) Darajali funksiya

$y = ax^n$, bu yerda x , y – o'zgaruvchilar, a va n ixtiyoroy o'zgarvas sonlar.

Darajali funksiyaning aniqlanish sohasi daraja ko'rsatkichi n -ning ishorasiga bog'liq.

- $n \geq 0$ butun bo'lganda funksiyaning aniqlanish sohasi $-\infty < x < +\infty$
- $n < 0$ butun bo'lganda funksiyaning aniqlanish sohasi ikkita $]-\infty, 0[$ va $]0, +\infty[$ intervaldan iborat bo'lib,




3-расм

unga sonlar o'qining $x=0$ dan boshqa barcha nuqtalar kiradi

$n > 0$, II, III tartibli parabola
 $n < 0$, turli tartibdagi parabolalar

- Ko'rsatkichli funksiya: $y = a^x$, bu yerda $a \neq 1$ - musbat o'zgarvas son ($a > 0, a \neq 1$).



Ko'rsatkichli funktsiyaning aniqlanish sohasi $]-\infty, +\infty[$ dan iborat. Agar $0 < a < 1$ bo'lsa, u holda $y = a^x$ funktsiya qat'iy kamayuvchi.

3) Logarifmik funktsiya. Ko'rsatkichli funktsiya $y = a^x$ ga teskari funktsiya a asosga ko'ra logarifmik funktsiya deyiladi va $x = \log_a y$ deb yoziladi.

x ni y bilan almashtirilsa, $y = \log_a x$ hosil bo'ladi, bu yerda $a \neq 1, a > 0$. Boshqacha aytganda $y = \log_a x$ sonini hosil qilish

uchun a sonini ko'tarish kerak bo'lgan daraja ko'rsatkichi u bo'lib, $a^x = x$ deb tushuniladi. Logarifmik funktsiyaning asosiy xossalari: 1⁰. Logarifmik funktsiya faqat $]0, +\infty[$ interval-da aniqlangan, ya'ni haqiqiy sonlar sohasida faqat musbat qiymatlar uchun aniqlanadi, ya'ni manfiy sonning logarifmi bo'lmaydi.



Uning grafigi $0y$ o'qining o'ng tomonida joylashgan.

2⁰. Bir sonning logarifmi o'ga teng: $\log_a 1 = 0$.

Asosning logarifmi 1 ga teng $\log_a a = 1$.

3⁰. Musbat sonlar ko'paytmasining logarifmi ko'paytuvchilar logarifmlarining yig'indisiga teng:

$$\log_a(xy) = \log_a x + \log_a y.$$



4) Trigonometrik funktsiyalar. To'g'ri burchakli uchburchak turli tomonlarining nisbat-lari o'tkir burchakning trigonometrik funktsiyalarini beradi.

$f(x) = \sin x$ bu funktsiyaning sinusoida, u koordinata boshiga nisbatan simmetrik.

$f(x) = \cos x$ grafigi kosinusoida bo'lib, u

ordinata o'qiga nisbatan simmetrik. Uning grafigini sinusoida $0x$ o'qi bo'yicha chapga $\pi/2$ surish bilan hosil qilish umkin.


y funktsiyalar uchun:

1⁰. aniqlanish sohasi $]-\infty; +\infty[$ intervaldan iborat.

2⁰. $[-1; 1]$ oraliq $\sin x$ va $\cos x$ lar uchun qiymatlar to'plami bo'ladi, ya'ni $|\sin x| \leq 1$ va $|\cos x| \leq 1$, ular chegaralangan.

3⁰. Bular davriy funktsiya va davri 2π ga teng, ya'ni

$$\sin(x + 2\pi) = \sin x; \cos(x + 2\pi) = \cos x$$



4⁰. $\sin(-x) = -\sin x$ -toq funktsiya

$\cos(-x) = \cos x$ -juft funktsiya

5. $f(x) = \tan x$, $f(x) = \cot x$ lar ham toq funktsiyalardir.


Bular ham davriy funktsiyalar

bo'lib, davri π ga teng, ya'ni


$$\tan(x + \pi) = \tan x, \cot(x + \pi) = \cot x$$

Bu funktsiyalar grafigi tangensoida va kotangensoida bo'lib, ular koordinata boshiga nisbatan simmetrik.

5) Teskari trigonometrik funktsiyalar



- a) $y = \arcsin x$. Bu funksiya $[-1;1]$ oraliqda monoton bo'lib, $[-\pi/2; +\pi/2]$ qiymatlar sohasidagi har bir qiymatni bir martadan qabul qilib chiqadi. Demak, bu funksiya $[-\pi/2; +\pi/2]$ sohada teskarilanuvchi funksiya bo'lib, unga teskari funksiya $x = \arcsin y$ bo'ladi. Agar x va y lar o'zni almashtirilsa $y = \arcsin x$ teskari trigonometrik funksiya hosil bo'ladi.



$f(-x) = -f(x)$ shart bajarilgani uchun bu funksiya toqdir. Bu funksiyaning grafigi $y = \sin x$ ning $[-\pi/2; +\pi/2]$ oraliqdagi grafigini $y = x$ to'g'ri chizig'iga nisbatan simmetrik yasash bilan hosil qilinadi.

- b) $y = \arccos x$ funksiya. $[0; \pi]$ oraliqda $y = \cos x$ funksiya monoton bo'lib, $[-1;1]$ qiymatlar sohasidagi har bir qiymatiga bir martadan qabul qilib chiqadi. Demak, bu funksiya $[0; \pi]$ sohada teskarilanuvchi funksiya bo'lib, unga almashtirilsa, $y = \arccos x$ bo'ladi. Agar x va y lar o'zni almashtirilsa, $y = \arccos x$ teskari trigonometrik funksiya hosil bo'ladi. Bu funksiya toq ham emas, juft ham emas. Bu funksiya grafigi $y = \cos x$ ning $[0; \pi]$ oraliqdagi grafigini $y = x$ to'g'ri chizig'iga nisbatan simmetrik yasash bilan hosil qilinadi.

- v) $y = \arctg x$ funksiya. U $[-\pi/2; +\pi/2]$ oraliqda $y = tg x$ teskari funksiya $x = \arctg y$ bo'lib, bu yerda x va y lar o'zni almashtirilsa quyidagi $y = \arctg x$ ko'rinishda yoziladi. Bu funksiya toq funksiya bo'lib, grafigi $y = tg x$ ning $[-\pi/2; \pi/2]$ oraliqda $y = x$

- g) $y = \text{arcctg} x$ funksiya. U $[0; \pi]$ oraliqda $y = ctg x$ ga teskari funksiya $x = \text{arcctg} y$ mavjud bo'lib, bu yerda x va y lar o'zni almashtirilsa, quyidagi $y = \text{arcctg} x$ ko'rinishda yoziladi. Bu funksiyaning grafigi $y = ctg x$ ning $[0; \pi]$ oraliqda chizilgan grafigini $y = x$ to'g'ri chizig'iga nisbatan simmetrik yasash bilan hosil qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Funksiya tushunchasiga olib keluvchi qanday masalalarni bilasiz.
2. O'zgaruvchi va o'zgarmas miqdorlar nima.
3. Funksiyaning ta'rifi.
4. Funksiyaning o'zgarish va aniqlanish sohalari.
5. Berilgan nuqtadan aniqlanmagan funksiyaga misol keltiring.
6. Funksiya qanday usullarda berilishi mumkin.
7. Funksiyaning nuqtadagi qiymati qanday topiladi
8. Funksiya qiymatlari bo'yicha argument qiymatlarini aniqlash mumkinmi

MA'RUZA 2

4.2. FUNKSIYANING LIMITI. ANIQMASLIKLAR TURLARI. YECHISH USULLARI. AJOYIB LIMITLAR. DASTURIY PAKETLAR YORDAMIDA HISOBLASH.

Reja.

1. Funksiya limiti.
2. Funksiyaning limiti haqidagi teoremlar:
3. Ajoyib limitlar.
4. Asosiy aniqmasliklarni yechish.

Tayanch iboralar. Limit, ajoyib limitlar, aniqmaslik.

1. Funksiya limiti.

Ta'rif: x argument x_0 nuqtaga intilganda uning funksiyasi $f(x)$ biror A soniga intilsa, A soni $y = f(x)$ funksiyasining x_0 nuqtadagi limiti deyiladi va u $\lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = A$ ko'rinishda yoziladi.

Agar $f(x)$ funksiya $x = x_0$ nuqtada aniqlangan bo'lsa, u holda $y(x_0)$ ifoda funksiyaning x_0 nuqtadagi qiymati bo'ladi. Agarda funksiyaning x_0 nuqtadagi limiti A , shu x_0 nuqtadagi funksiya qiymatiga teng bo'lsa, ya'ni $\lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = f(x_0)$ bo'lsa, shu x_0 nuqtada funktsiyani uzluksiz deyiladi.²

2. Funksiyaning limiti haqidagi teoremlar:

1. O'zgarmas $y = C$ funksiyaning limiti shu o'zgarmasning o'ziga teng:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} C = C$$

2. O'zgarmas ko'paytuvchini limit ishorasidan tashqariga chiqarish mumkin:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} [kf(x)] = k \lim_{x \rightarrow x_0} f(x)$$

$$x \rightarrow x_0 \quad x \rightarrow x_0$$

3. Funksiyalar yig'indisining (ayirmasining) limiti shu funksiya limitlarining yig'indisi (ayirmasiga) teng:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} [f_1(x) \pm f_2(x) \pm \dots \pm f_n(x)] = \lim_{x \rightarrow x_0} f_1(x) \pm \lim_{x \rightarrow x_0} f_2(x) \pm \dots \pm \lim_{x \rightarrow x_0} f_n(x)$$

4. Funksiyalar ko'paytmasining limiti shu funksiya limitlarining ko'paytmasiga teng:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} [f_1(x) \cdot f_2(x) \cdot \dots \cdot f_n(x)] = \lim_{x \rightarrow x_0} f_1(x) \cdot \lim_{x \rightarrow x_0} f_2(x) \cdot \dots \cdot \lim_{x \rightarrow x_0} f_n(x)$$

Natija: Agar $\lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = A$ bo'lsa, u holda $\lim_{x \rightarrow x_0} [f(x)]^n = A^n$ bo'ladi,

$$A \geq 0 \text{ da } \lim_{x \rightarrow x_0} \sqrt[n]{f(x)} = A^{1/n} \text{ bo'ladi.}$$

5. Agar bo'luvchi $f_2(x)$ ning limiti 0 ga teng bo'lmasa, $f_1(x)$ va $f_2(x)$ ikki funksiya nisbatining limiti shu funksiya limitlarining nisbatiga teng:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f_1(x)}{f_2(x)} = \frac{\lim_{x \rightarrow x_0} f_1(x)}{\lim_{x \rightarrow x_0} f_2(x)}$$

3. Ba'zi bir muhim limitlar:

$$1. \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{\sin x}{x} = 1 \text{ yoki } \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{x}{\sin x} = 1$$

$$2. \lim_{x \rightarrow \infty} (1 + 1/x)^x = e \text{ yoki } \lim_{x \rightarrow \infty} (1 + x)^{1/x} = e$$

Limitlarning yuqoridagi teoremlaridan foydalanib, ba'zi funksiya limitlarini hisoblaymiz:

$$1. \lim_{x \rightarrow 1} (x^2 + x + 2) = \lim_{x \rightarrow 1} x^2 + \lim_{x \rightarrow 1} x + \lim_{x \rightarrow 1} 2 = 1 + 1 + 2 = 4$$

$$2. \lim_{x \rightarrow \pi/6} \frac{x}{\sin x} = \frac{\lim_{x \rightarrow \pi/6} x}{\lim_{x \rightarrow \pi/6} \sin x} = \frac{\pi/6}{1/2} = \frac{\pi}{3}$$

$$3. \lim_{x \rightarrow 10} (x^2 \cdot \lg x) = \lim_{x \rightarrow 10} x^2 \cdot \lim_{x \rightarrow 10} \lg x = 100 \cdot 1 = 100$$

4. Aniqlashtirishni o'zlashtirish.

² James Stewart Calculus 7E 62-72 betlar

Ba'zi hollarda $\frac{f(c)}{\varphi(c)}$ kasr ko'rinishidagi funksiyalarni tekshirganimizda

$x \rightarrow +\infty, x \rightarrow -\infty, x \rightarrow a, x \rightarrow 0$ intilganda $\frac{0}{0}$ yoki $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarga uchraymiz. Bu aniqmasliklarni hosila yordamida Lopital qoidasiga ko'ra ochishni ko'raylik.

Teorema. Agar $f(x), \varphi(x)$ funksiyalar $x=a$ nuqta atrofidagi ($x=a$ dan tashqari) barcha nuqtalarda differensiallanuvchi bo'lib,

$\lim_{x \rightarrow a} f(x) = \varphi(x) = 0$ (yoki $\lim_{x \rightarrow a} f(x) = \lim_{x \rightarrow a} \varphi(x) = \infty$) va $\varphi'(a) \neq 0$ bo'lsa, u holda

$$\lim_{x \rightarrow a} \frac{f(x)}{\varphi(x)} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)} \quad (1).$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Isboti. Anqlik uchun $\lim_{x \rightarrow a} f(x) = \lim_{x \rightarrow a} \varphi(x) = f(a) = \varphi(a) = 0$ hol uchun isbotlaylik.

Bu holda $f(x), \varphi(x)$ funksiyalar $[a, b]$ kesmada Koshi teoremasining shartlarini qanoatlantiradi. Jumladan $[a, x]$ ($a < x < b$) kesma uchun ham o'rinli bo'ladi:

$$\frac{f(x) - f(a)}{\varphi(x) - \varphi(a)} = \frac{f(x) - f(a)}{\varphi(x) - \varphi(a)} = \frac{f'(c)}{\varphi'(c)} \quad (2)$$

(2) dagi c kattalik x ga bo'liq bo'lib, $x \rightarrow a$ da c ham a ga intiladi, chunki $a < c < x$ bo'lgani uchun.

$$\text{Demak, } \lim_{x \rightarrow a} \frac{f(x)}{\varphi(x)} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{f'(c)}{\varphi'(c)} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)} \Rightarrow \lim_{x \rightarrow a} \frac{f(x)}{\varphi(x)} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)}$$

eslatma. Agar $\lim_{x \rightarrow a} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)}$ limit yana $\frac{0}{0}$ yoki $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmaslikka olib kelsa, va

$f'(x), \varphi'(x)$ funksiyalar esa $f(x), \varphi(x)$ funksiyalar qanoatlantirgan barcha shartlarni qanoatlantirsa, u holda

$$\frac{f'(x)}{\varphi'(x)}$$

ga yana Lopital qoidasini qo'llash mumkin:

$$\lim_{x \rightarrow a} \frac{f(x)}{\varphi(x)} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{f''(x)}{\varphi''(x)}.$$

Agar zaruriyat bo'lib, teorema sharti qanoatlantirilsa shu jarayonni davom ettirish mumkin.

eslatma. $0 \cdot \infty, \infty - \infty$ ko'rinishdagi aniqmasliklar ham $\frac{0}{0}$ yoki $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmaslikka keltiriladi.

eslatma. $0^0, 1^\infty, \infty^0$ ko'rinishdagi aniqmasliklar odatda $(f(x))^{\varphi(x)}$ ko'rinishdagi ifodani logarifmlash natijasida $\frac{0}{0}$ yoki $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarga keltiriladi.

Misollar.

$$1. \lim_{x \rightarrow a} \frac{\sin 5x}{5x} = \left(\frac{0}{0}\right) = \lim_{x \rightarrow a} \frac{(\sin 5x)'}{(5x)'} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{5 \cos 5x}{1} = 5$$

$$2. \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^2}{e^x} = \left(\frac{\infty}{\infty}\right) = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{2x}{e^x} = \left(\frac{\infty}{\infty}\right) = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{2}{e^x} = 0$$

$$3. \lim_{x \rightarrow 0} (x \ln x) = (0 \cdot \infty) \lim_{x \rightarrow 0} = \frac{1 \ln x}{\frac{1}{x}} = \left(\frac{\infty}{\infty}\right) = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\frac{1}{x}}{-\frac{1}{x^2}} = -\lim_{x \rightarrow 0} x = 0$$

$$4. \lim_{x \rightarrow \frac{\pi}{2}} \left(\frac{1}{\cos x} - \frac{\sin x}{\cos x} \right) = (\infty - \infty) = \lim_{x \rightarrow \frac{\pi}{2}} \frac{1 - \sin x}{\cos x} = \left(\frac{0}{0} \right) = \lim_{x \rightarrow \frac{\pi}{2}} \frac{-\cos x}{-\sin x} = 0$$

$$5. \lim_{x \rightarrow \infty} (1 + x^2)^{\frac{1}{x}}; \text{ bu } \infty^0 \text{ ko'rinishdagi aniqmaslik}$$

$$y = (1 + x^2)^{\frac{1}{x}} \text{ desak } \ln y = \frac{1}{x} \ln(1 + x^2);$$

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \ln y = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{\ln(1 + x^2)}{x} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{\frac{2x}{1 + x^2}}{1} = 0$$

$$\ln(\lim_{x \rightarrow \infty} y) = \lim_{x \rightarrow \infty} (\ln y) = 0 \Rightarrow \lim_{x \rightarrow \infty} y = 1 \Rightarrow \lim_{x \rightarrow \infty} (1 + x^2)^{\frac{1}{x}} = 1.$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Limit tushunchasi qanday kiritiladi.
2. Cheksiz kichik va cheksiz katta funksiyalarning ta'rifi.
3. Funksiya limitining xossalari.
4. Ajoyib limitlar.
5. Asosiy aniqmasliklarning turlari va ularni ochish.

MA'RUZA 3

4.3. FUNKSIYANING HOSILASI, HOSILANING TA'RIFI. UNING GEOMETRIK VA MEXANIK MA'NOSI. HOSILA OLIQSH QOIDALARI. ASOSIY ELEMENTAR FUNKSIYALARNING HOSILALARI.

Reja.

1. Funksiyaning hosilasi.
2. Hosilaning geometrik ma'nosi
3. Hosilaning mexanik ma'nosi.
5. Yig'indi, ko'paytma va bo'linmaning hosilasi.
6. Asosiy elementar funksiyalarning hosilalari.

Tayanch so'zlar: Hosila, orttirma, hosilaning geometrik va mexanik ma'nosi, urinma.

1. Funksiyaning hosilasi.

Ta'rif. Agar $y = f(x)$ funksiyaning $x = x_0$ nuqtadagi orttirmasi Δy ning argument orttirmasi Δx ga nisbatining Δx nolga intilganda chekli limiti mavjud bo'lsa, bu limit $f'(x_0)$ funksiyaning x_0 nuqtadagi hosilasi deb ataladi va y' yoki $y'(x_0)$ yoki $f'(x_0)$ yoki $\frac{dy}{dx}$

yoki $\frac{df}{dx}$ ko'rinishlarda belgilanadi.³

$$\text{Demak ta'rifga ko'ra } f'(x_0) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(x_0 + \Delta x) - f(x_0)}{\Delta x}$$

Misollar.

1. $y = f(x) = c = \text{const}$ bo'lsin. $\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x) = c - c = 0$ $y' = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = 0$
2. $y = f(x) = x$ bo'lsin $\frac{\Delta y}{\Delta x} = \frac{(x + \Delta x) - x}{\Delta x} = 1$; $y' = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = 1$
3. $y = x^2$ funksiyaning $x = 3$ nuqtadagi hosilasini toping;

³ James Stewart Calculus 7E 104-140betlar

$$y_0=9; y_0+\Delta y=(3+\Delta x)^2=9+6\Delta x+(\Delta x)^2$$


$$y'=\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{(6+\Delta x)\Delta x}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} (6+\Delta x) = 6$$

$$4. y=f(x)=\sqrt{x}, (x>0)$$

$$y'=\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\sqrt{x+\Delta x}-\sqrt{x}}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{1}{\sqrt{x+\Delta x}+\sqrt{x}} = \frac{1}{2\sqrt{x}}$$

2. Hosilaning geometrik ma'nosi.

Biror (a, b) oraliqda aniqlangan $y=f(x)$ funksiyaning grafigi egri chiziqdan iborat bo'lsin. L da $M_0(x_0, y_0)$ va $M_1(x_0+\Delta x, y_0+\Delta y)$ nuqtalar olib, ularni birlashtiruvchi M_0M_1 kesuvchini ko'raylik. Agar M_1 nuqtani M_0 nuqtaga cheksiz yaqinlashtirsak M_0M_1 kesuvchining limit holati bo'lgan M_0T to'g'ri chiziqqa L egri chiziqning M_0 nuqtasiga o'tkazilgan urinma deyiladi.



Yuqoridagi chizmadan ko'rinadiki Ox o'qining musbat yo'nalishi bilan urinma α burchak, M_0M_1 kesuvchi esa β burchak tashkil qiladi. $\operatorname{tg} \alpha = \frac{\Delta y}{\Delta x}$ ekanligi ma'lum. $\Delta x \rightarrow 0$ da $M_1 \rightarrow M_0$ intilib $\beta \rightarrow \alpha$.

$$\text{Bundan } \operatorname{tg} \alpha = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \operatorname{tg} \beta = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = f'(x) \Rightarrow f'(x) = \operatorname{tg} \alpha.$$

Shunday qilib, $y=f(x)$ funksiyaning $x=x_0$ nuqtadagi hosilasining qiymati funksiya grafigidagi shu $M_0(x_0, y_0)$ nuqtaga o'tkazilgan urinmaning Ox o'qining musbat yo'nalishi bilan hosil qilgan burchak tangensiga teng bo'lar ekan. Boshqacha aytganda urinmaning burchak koeffitsiyentiga teng bo'lar ekan: $k=\operatorname{tg} \alpha = f'(x_0)$

Agar $M_0(x_0, y_0)$ ya'ni $M_0(x_0; f(x_0))$ nuqtaga o'tkazilgan urinma tenglamasini $y=kx+b$ ko'rinishda olsak, urinma shu $M_0(x_0, f(x_0))$ nuqtadan o'tgani uchun

$$f(x_0)=kx_0+b \Rightarrow b=f(x_0)-kx_0.$$

Bu holda $y=kx+b \Rightarrow y=kx+f(x_0)-kx_0 \Rightarrow y=f(x_0)+k(x-x_0) \Rightarrow y=f(x_0)+f'(x_0)(x-x_0)$ urinma tenglamasi.

Misol. $y=\frac{1}{x}$ giperbolaning $x=x_0=1$ ya'ni $(1;1)$ nuqtasiga o'tkazilgan urinma tenglamasini tuzing.

$$y(x_0)=f(1)=1; f'(x)=-\frac{1}{x^2}; f'(1)=-1 \quad y=1-1(x-1) \Rightarrow y=2-x.$$

3. Hosilaning mexanik ma'nosi.

Moddiy M nuqta $y=f(t)$ qonun bo'yicha to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlansin. Moddiy nuqta boshlang'ich holatda 0 nuqtada bo'lib, t_0 momentda esa M_0 holatni olib, $y_0=f(t_0)$ masofani bossin. $t=t_0+\Delta t$ momentda esa M_1 holatni olib, bosib o'tgan yo'li $y=f(t_1)=f(t_0+\Delta t)$ bo'ladi. Δt vaqtda bosib o'tgan yo'li esa $\Delta y=f(t_0+\Delta t)-f(t_0)$ bo'ladi.

$\frac{\Delta y}{\Delta t}$ nisbat moddiy nuqtaning Δt vaqtdagi o'rtacha tezligi deyiladi.

$$v = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta t} \text{ — moddiy nuqtaning } t \text{ momentdagi tezligini beradi. } \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta t} = u'.$$

$$\frac{f(t_0) \quad \Delta y \quad f(t_1)}{0 \quad M_0 \quad \Delta t \quad M_1} \xrightarrow{t}$$

Demak, hosilaning mexanik ma'nosi harakatlanayotgan moddiy nuqtaning ma'lum momentdagi tezligini ifodalaydi.

4. Teskari funksiyaning hosilasi.

Teskari funksiyaning mavjudligi haqidagi teoremani isbotsiz keltirib o'taylik.

Teorema. Agar $y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo'lib, shu kesmada o'suvchi (kamayuvchi) bo'lsa, bu funksiyaga teskari bo'lgan $x=\varphi(y)$ funksiya mavjud bo'ladi. $y=f(x)$ ga teskari bo'lgan funksiyani topish uchun tenglamani x ga nisbatan yechish kerak.

Teorema. Agar $y=f(x)$ funksiya x nuqtada chekli $f'(x) \neq 0$ hosilaga ega bo'lsa, u holda bu funksiyaga teskari bo'lgan $x=\varphi(y)$ funksiya ham shu nuqtada $\varphi'(y)=\frac{1}{f'(x)}$ hosilaga ega

bo'ladi. **Isboti.** $y'_x=f'(x)$ mavjud bo'lsin. $x=\varphi(y)$ funksiya argumenti u ga Δy orttirma bersak

$$\Delta x = \varphi(y + \Delta y) - \varphi(y), \quad \frac{\Delta x}{\Delta y} = \frac{1}{\Delta y} \Rightarrow x'_y = \varphi'(y) = \lim_{\Delta y \rightarrow 0} \frac{\Delta x}{\Delta y} = \lim_{\Delta y \rightarrow 0} \frac{1}{\frac{\Delta y}{\Delta x}} = \frac{1}{\lim_{\Delta y \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}} = \frac{1}{f'(x)}$$

$$\varphi'(y) = \frac{1}{f'(x)} \quad \text{yoki} \quad x'_y = \frac{1}{y'(x)}$$

5. Yig'indi, ko'paytma va bo'linmaning hosilasi.

Teorema. Agar $u(x)$ va $v(x)$ funksiyalar $X \in (a,b)$ nuqtada $u'(x)$ va $v'(x)$ hosilalarga ega bo'lsa, u holda ularning algebraik yig'indisi, ko'paytmasi va bo'linmasi shu x nuqtada hosilaga ega bo'lib, quyidagi formulalar bo'yicha topiladi:

$$(u \pm v)' = u' \pm v'; \\ (uv)' = u'v + uv'$$

$$\left(\frac{u}{v}\right)' = \frac{u'v - uv'}{v^2} \quad (v(x) \neq 0)$$

Isboti. $[u(x)+v(x)]' = u'(x)+v'(x)$ ekanligini ko'rsataylik. $y=u(x)+v(x)$ deb x ga Δx orttirma bersak $u(x)$, $v(x)$ funksiyalar ham orttirma oladi: $\Delta u = u(x+\Delta x) - u(x)$

$$\Delta u = u(x + \Delta x) - u(x)$$

$\Delta y = y(x+\Delta x) - y(x) = [u(x+\Delta x) - u(x)] + [v(x+\Delta x) - v(x)] = \Delta u + \Delta v$ teoremaning shartiga ko'ra $u(x)$, $v(x)$ funksiyalar differensiallanuvchi bo'lgani uchun

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \left[\frac{\Delta u}{\Delta x} + \frac{\Delta v}{\Delta x} \right] = u'(x) + v'(x) \Rightarrow u(x)+v(x)' = u'(x)+v'(x)$$

Qolganlari ham shunga o'xshash isbot qilinadi.

6. Asosiy elementar funksiyalarning hosilalari.

1. $y=x^n$ ($x>0$) darajali funksiyamng hosilasini topaylik. Funksiya hosilasining ta'rifiga ko'ra Δ

$$y=(x+\Delta x)^n - x^n = x^n \left[\left(1 + \frac{\Delta x}{x}\right)^n - 1 \right], \quad \frac{\Delta y}{\Delta x} = \frac{x^n \left[\left(1 + \frac{\Delta x}{x}\right)^n - 1 \right]}{\Delta x} = \frac{x^{n-1} \left[\left(1 + \frac{\Delta x}{x}\right)^n - 1 \right]}{\frac{\Delta x}{x}};$$

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\left[\left(1 + \frac{\Delta x}{x}\right)^n - 1 \right]}{\frac{\Delta x}{x}} = n \quad \text{ajoyib limitni e'tiborga olsak}$$

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\left[\left(1 + \frac{\Delta x}{x}\right)^n - 1 \right]}{\frac{\Delta x}{x}} \cdot x^{n-1} = nx^{n-1}$$

$$y' = (x^n)' = nx^{n-1}.$$

2. $y=a^x$ ($a>0, a \neq 1$) ko'rsatkichli funksiyaning hosilasi.

$$\Delta y = a^{\Delta x + x} - a^x = a^x(a^{\Delta x} - 1); \quad \frac{\Delta y}{\Delta x} = \frac{a^x(a^{\Delta x} - 1)}{\Delta x},$$

$$\lim_{x \rightarrow 0} \frac{a^x - 1}{x} = \ln a \quad \text{ajoyib limitga ko'ra} \quad y' = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{a^x(a^{\Delta x} - 1)}{\Delta x} = a^x$$

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{a^{\Delta x} - 1}{\Delta x} = \ln a \quad \text{Demak, } y' = (a^x)' = a^x \ln a$$

3. $y = \log_a x$ ($a > 0$, $a \neq 1$) logarifmik funksiyaning hosilasi ham $y' = (\log_a x)' = \frac{1}{x} \log_a e$ formula bilan topiladi.

Agar $\log_a e = \frac{1}{\ln e}$; $\log_e a = \ln a$; $\log_e x = \ln x$; $\log_x e = \frac{1}{\ln x}$. ekanligini e'tiborga olsak

$y' = (\log_a x)' = \frac{1}{x \ln a}$ kelib chiqadi.

Agar $a = e$ desak $\ln a = \ln e = 1$ bo'lib, $y = \ln x$; $y' = (\ln x)' = \frac{1}{x}$ bo'ladi.

4. $y = \sin x$ funksiyaning hosilasini topish uchun x ga Δx orttirma bersak, y ham Δy orttirma olib $\Delta y = \sin(x + \Delta x) - \sin x = 2 \sin\left(\frac{\Delta x}{2}\right) \cos\left[\frac{(2x + \Delta x)}{2}\right]$,

$$y' = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \left[\frac{\sin \frac{\Delta x}{2} \cos\left(x + \frac{\Delta x}{2}\right)}{\frac{\Delta x}{2}} \right] = \cos x.$$

$$y' = (\sin x)' = \cos x$$

xuddi shuningdek o'rta maktab dasturidan bizga ma'lum bo'lgan boshqa trigonometrik funksiyalarning hosilalarini hisoblash mumkin:

$$(\cos x)' = -\sin x; \quad (\operatorname{tg} x)' = \frac{1}{\cos^2 x}; \quad (\operatorname{ctg} x)' = -\frac{1}{\sin^2 x}$$

5. Endi $y = \arcsin x$ teskari trigonometrik funksiyaning hosilasini hisoblashni ko'raylik.

$y = \arcsin x$ funksiya $x = \sin y$ funksiya teskari funksiya bo'lgani uchun, teskari funksiyalarning hosilalariga ko'ra

$$y' = (\arcsin x)' = \frac{1}{(\sin y)'} = \frac{1}{\cos y} = \frac{1}{\sqrt{1 - \sin^2 y}} = \frac{1}{\sqrt{1 - x^2}}$$

$$(\arcsin x)' = \frac{1}{\sqrt{1 - x^2}}, \quad (-1 < x < 1).$$

$$\text{Xuddi shuningdek } (\arccos x)' = -\frac{1}{\sqrt{1 - x^2}}; \quad (\operatorname{arctg} x)' = \frac{1}{1 + x^2}; \quad (\operatorname{arcctg} x)' = \frac{1}{1 + x^2}.$$

$$6. y = \ln x \text{ bo'lsa, } y' = \frac{1}{x}. \quad x' = \frac{1}{x}; \quad \text{Agar } y = \ln u \text{ bo'lib } u = f(x) \text{ bo'lsa, } y' = (\ln u)' = \frac{u'}{u} \cdot \frac{f(x)'}{f(x)};$$

Agar $y = u^{v(x)}$ bo'lsa, $\ln y = v \ln u$ - bundan hosila olsak

$$\frac{y'}{y} = v' \ln u + v \cdot \frac{u'}{u}, \quad y' = u^v \left[v' \ln u + v \cdot \frac{u'}{u} \right].$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. To'g'ri chiziqli notekis harakatning o'rtacha tezligiga ta'rif.
2. Oniy tezlik nima?
3. Funksiya hosilasini ta'rifini bering. Hosilani belgilanishlari.
4. Hosila qanday geometrik va mexanik manoga ega?
5. Qanday funksiyaning hosilasi nol bo'ladi?

6. Hosila olish qoidalari.
7. Asosiy elementar funksiyalarning hosila jadvalini yozing

MA'RUZA 4

4.4. MURAKKAB FUNKSIYANING HOSILASI. OSHKORMAS VA PARAMETRIK KO'RINISHDA BERILGAN FUNKSIYALARNING HOSILASI

Reja.

1. Murakkab funksiyaning hosilasi.
2. Parametrik ko'rinishda berilgan funksiyaning hosilasi.
3. Oshkormas funksiya hosilasi.
4. Hosila jadvali (Umumiy hol).

Tayanch iboralar. Murakkab funksiya, parametrik ko'rinishda berilgan funksiyalarning hosilasi, oshkormas funksiya, yuqori tartibli hosila.

1. Murakkab funksiyaning hosilasi.

Agar y o'zgaruvchi u o'zgaruvchining $y=f(u)$ funksiyasi bo'lib, u esa o'z navbatida x ning funksiyasi $u=\varphi(x)$ bo'lsa, u holda $y=f(\varphi(x))$ funksiyani x ning murakkab funksiyasi deyiladi.

Teorema. Agar $u=\varphi(x)$ funksiya o'zgaruvchi x nuqtada $u'_x=\varphi'(x)$ hosilaga, $y=f(u)$ funksiya esa o'zgaruvchi u bo'yicha $y'_u=f'(u)$ hosilaga ega bo'lsa, u holda $y=f(\varphi(x))$ murakkab funksiya ham shu x nuqtada

$$y'_x = f'_u(u) \cdot \varphi'(x)$$

hosilaga ega bo'ladi.

2. Parametrik ko'rinishda berilgan funksiyaning hosilasi.

Agar tenglamamizi $\begin{cases} x = \varphi(t) \\ y = \psi(t) \end{cases}$ parametrik ko'rinishda berilgan bo'lib, $\varphi(t)$, $\psi(t)$ funksiyalar

differensiallanuvchi va $\varphi'(t) \neq 0$ bo'lsa $y'_x = \frac{\psi'_x(t)}{\varphi'_t(t)}$ ya'ni $y'_x = \frac{y'_t(t)}{x'_t(t)}$ formula o'rinli bo'ladi.

3. Oshkormas funksiya hosilasi.

$F(x, y) = 0$ ko'rinishda berilgan oshkormas funksiyaning hosilasini hisoblashda, tenglikning chap tomonini x argumentning murakkab funksiyasi deb qaraladi va tenglikning ikkala tomonidan hosila olinadi. Bunda y x ning murakkab funksiyasi deb qaraymiz.

Misol. Oshkormas ko'rinishda berilgan funksiyaning hosilasini hisoblang. $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$

Yechish. Tenglikning ikkala tomonidan x bo'yicha hosila olamiz:

$$\frac{2x}{a^2} + \frac{2yy'}{b^2} = 0, \text{ bundan } y'_x = -\frac{b^2x}{a^2y}.$$

4. Hosila jadvali (Umumiy hol).

$u=u(x)$, $v=v(x)$ funksiyalar differensiallanuvchi funksiyalar bo'lsin.

1. $C'=0$; C-o'zgaras 2. $x'=1$, x-argument 3. $(u^n)'=nu^{n-1}u'$. $(n \in \mathbb{N}, u>0)$ 4. $\left(\frac{1}{u}\right)'=-\frac{u'}{u^2}$ 5. $(\sqrt{u})'=\frac{u'}{2\sqrt{u}}$ 6. $(a^u)'=a^u \ln a \cdot u'$; $(a>0; a \neq 1)$	7. $(e^u)'=e^u u'$ 8. $(\log_a u)'=\frac{u'}{u \cdot \ln a}$ $(u>0; a>0; a \neq 1)$ 9. $(\ln u)'=\frac{u'}{u}$ 10. $(\sin u)'=\cos u \cdot u'$ 11. $(\cos u)'=-\sin u \cdot u'$ 12. $(\operatorname{tg} u)'=\frac{u'}{\cos^2 u}$	13. $(\operatorname{ctg} u)'=-\frac{u'}{\sin^2 u}$ 14. $(\arcsin u)'=\frac{u'}{\sqrt{1-u^2}}$ 15. $(\arccos u)'=-\frac{u'}{\sqrt{1-u^2}}$ 16. $(\operatorname{arctg} u)'=\frac{u'}{1+u^2}$ 17. $(\operatorname{arcctg} u)'=-\frac{u'}{1+u^2}$.
---	--	--

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Murakkab funksiyaning hosilasi qanday topiladi?
2. Oshkormas funksiya hosilasi qanday topiladi?
3. Differensialning ta'rifi, geometrik ma'nosi.
4. Ikkinchi tartibli hosilani ta'rifi va uning geometrik manosi

MA'RUZA 5

4.5.YUQORI TARTIBLI HOSILA. LOPITAL QOIDASI. $\frac{0}{0}, \frac{\infty}{\infty}$ KO'RINISHDAGI ANIQMASLIKLARNI OCHISH.

Reja.

1. Yuqori tartibli hosila.

2. Lopital qoidasi. $\frac{0}{0}, \frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochish.

Tayanch iboralar. yuqori tartibli hosila, aniqmasliklar, Lopital qoidasi.

1. Yuqori tartibli hosila.

Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada differentsiallanuvchi bo'lsa, u holda bu funksiyaning hosilasi $f'(x)$ umuman aytganda yana x ning funksiyasi bo'ladi. Shuning uchun undan x bo'yicha hosila olsak, hosil bo'lgan hosilaga berilgan funksiya olingan ikkinchi tartibli hosila deyiladi va y'' yoki $f''(x)$ lar bilan belgilanadi. Shunday qilib $y=f(x)$ funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasi

$$y''=f''(x)=(y')'=(f'(x))'.$$

$y''=f''(x)$ ikkinchi tartibli hosiladan olingan hosilaga $y=f(x)$ funksiyaning uchinchi tartibli hosilasi deyiladi:

$$y'''=f'''(x)=(f''(x))'$$

Shu jarayonni n marta davom ettirsak $y=f(x)$ funksiyaning n tartibli hosilasi

$$y^{(n)}=f^{(n)}(x)=(y^{(n-1)})'=(f^{(n-1)}(x))'$$
 ko'rinishda bo'ladi.

Misol. $y=f(x)=2x^4+3x^3-5x^2+6x-8$

$$y'=8x^3+9x^2-10x+6$$

$$y''=24x^2+18x-10$$

$$y'''=48x+18$$

Agar $u(x), v(x)$ funksiyalar differentsiallanuvchi bo'lib, $u^{(n)}(x), v^{(n)}(x)$ hosilalarga ega bo'lsa, u holda

$$1. (Cu)^{(n)}=Cu^{(n)} \quad (C\text{-o'zgaras son})$$

$$2. (u+v)^{(n)}=u^{(n)}+v^{(n)}$$

$$3. (uv)^{(n)} = u^{(n)} + nu^{(n-1)}v' + \frac{n(n-1)u^{(n-2)}v''}{1 \cdot 2} + \dots + uv^{(n)}.$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. Oxirgi tenglikka Leybnis formulasi deyiladi.

2. Lopital qoidasi

1-teorema $\left(\frac{0}{0} \text{ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochishning Lopital qoidasi} \right)$

x_0 nuqtaning biror atrofida $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalkar uzluksiz, differensiallanuvchi va $g'(x) \neq 0$ bo'lsin. Agar $\lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = 0$ va $\lim_{x \rightarrow x_0} g(x) = 0$ bo'lib,

$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} = k$ (chekli yoki cheksiz) limit mavjud bo'lsa, u holda

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} \quad (4.2.9)$$

bo'ladi.

Isboti. $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalar uchun x_0 nuqtaning biror atrofida yotuvchi $[x_0; x]$ kesmada Koshi teoremasini qo'llaymiz.

U holda $\frac{f(x) - f(x_0)}{g(x) - g(x_0)} = \frac{f'(c)}{g'(c)}$, bu yerda c nuqta x va x_0 nuqtalar orasida yotadi.

$f(x_0) = g(x_0) = 0$ ni hisobga olib topamiz:

$$\frac{f(x)}{g(x)} = \frac{f'(c)}{g'(c)} \quad (4.2.10)$$

$x \rightarrow x_0$ da c ham x_0 ga intiladi. (4.2.10) tenglikda limitga o'tamiz:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{c \rightarrow x_0} \frac{f'(c)}{g'(c)}.$$

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} = k \text{ ekanidan } \lim_{c \rightarrow x_0} \frac{f'(c)}{g'(c)} = k. \text{ Shu sababli } \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)}.$$

Izohlar: 1. 1- teorema $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalkar $x = x_0$ da aniqlanmagan, ammo $\lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = 0$ va $\lim_{x \rightarrow x_0} g(x) = 0$ bo'lganda ham o'rinli bo'ladi. Bunda

$f(x_0) = \lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = 0$ va $g(x_0) = \lim_{x \rightarrow x_0} g(x) = 0$ deb olish etarli.

2. 1-teorema $x \rightarrow \infty$ da ham o'rinli bo'ladi. Haqiqatan ham $x = \frac{1}{z}$ deb, topamiz:

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{z \rightarrow 0} \frac{f\left(\frac{1}{z}\right)}{g\left(\frac{1}{z}\right)} = \lim_{z \rightarrow 0} \frac{\left(f\left(\frac{1}{z}\right)\right)'}{\left(g\left(\frac{1}{z}\right)\right)'} = \lim_{z \rightarrow 0} \frac{f'\left(\frac{1}{z}\right) \cdot \left(-\frac{1}{z^2}\right)}{g'\left(\frac{1}{z}\right) \cdot \left(-\frac{1}{z^2}\right)} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f'(x)}{g'(x)}.$$

3. $f'(x)$ va $g'(x)$ funksiyalar 1-teoremaning shartlarini qanoatlantirsa teorema takror qo'llanishi mumkin:

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} = \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f''(x)}{g''(x)} \text{ va hokazo.}$$

Misol

$$\lim_{x \rightarrow 1} \frac{x^2 - 1 + \ln x}{e^x - e} \text{ limitni topamiz.. } f(x) = x^2 - 1 + \ln x, \quad g(x) = e^x - e$$

funksiyalar $x = 1$ nuqta atrofida aniqlangan. $\lim_{x \rightarrow 1} f(x) = \lim_{x \rightarrow 1} g(x) = 0$, ya'ni $\frac{0}{0}$

ko'rinishdagi aniqmaslik hosil bo'ladi. $\lim_{x \rightarrow 1} \frac{f'(x)}{g'(x)} = \lim_{x \rightarrow 1} \frac{2x + \frac{1}{x}}{e^x} = \frac{3}{e}$ mavjud va

$g'(x) = e \neq 0$. U holda 1-teoremaga ko'ra

$$\lim_{x \rightarrow 1} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \rightarrow 1} \frac{f'(x)}{g'(x)}.$$

Demak,

$$\lim_{x \rightarrow 1} \frac{x^2 - 1 + \ln x}{e^x - e} = \frac{3}{e}.$$

1-teorema $\frac{0}{0}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochish imkonini beradi. $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi

aniqmasliklarni ochish haqidagi teoremani isbotsiz keltiramiz.

2-teorema $\left(\frac{\infty}{\infty} \text{ ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochishning Lopital qoidasi} \right)$

x_0 nuqtaning biror atrofida $f(x)$ va $g(x)$ funksiyalkar uzluksiz, differensiallanuvchi va $g'(x) \neq 0$ bo'lsin. Agar $\lim_{x \rightarrow x_0} f(x) = \lim_{x \rightarrow x_0} g(x) = \infty$ bo'lib,

$$\lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} \text{ limit mavjud bo'lsa, u holda } \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f(x)}{g(x)} = \lim_{x \rightarrow x_0} \frac{f'(x)}{g'(x)} \text{ bo'ladi.}$$

Misol

$$\lim_{x \rightarrow a} \frac{\ln(x-a)}{\ln(e^x - e^a)} \text{ limitni topamiz.}$$

$$\begin{aligned} \lim_{x \rightarrow a} \frac{\ln(x-a)}{\ln(e^x - e^a)} &= \left(\frac{\infty}{\infty} \right) = \lim_{x \rightarrow a} \frac{\frac{1}{x-a}}{\frac{e^x - e^a}{e^x(x-a)}} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{e^x}{e^x(x-a)} = \left(\frac{0}{0} \right) = \\ &= \lim_{x \rightarrow a} \frac{e^x}{e^x(x-a) + e^x} = \lim_{x \rightarrow a} \frac{1}{1 + (x-a)} = \frac{1}{1 + (a-a)} = \frac{1}{1+0} = 1. \end{aligned}$$

$\frac{0}{0}$ va $\frac{\infty}{\infty}$ ko'rinishdagi aniqmasliklarga asosiy aniqmasliklar deyiladi.

$0 \cdot \infty$ yoki $\infty - \infty$ ko'rinishdagi aniqmasliklar algebraik almashtirishlar yordamida asosiy aniqmasliklarga keltiriladi. 0^0 , ∞^0 yoki 1^∞ ko'rinishdagi aniqmasliklardan

$f(x)^{g(x)} = e^{g(x) \ln f(x)}$ formula yordamida asosiy aniqmasliklar

hosil qilinadi. Hosil qilingan asosiy aniqmasliklar yuqorida keltirilgan teoremlar

yordamida ochiladi.

Misollar

$$1. \lim_{x \rightarrow 0} x^3 \ln x = (0 \cdot \infty) = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\ln x}{\frac{1}{x^3}} = \left(\frac{\infty}{\infty} \right) = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\frac{1}{x}}{-3 \frac{1}{x^4}} = -\frac{1}{3} \lim_{x \rightarrow 0} x^3 = 0.$$

$$2. \lim_{x \rightarrow 0} \left(\frac{1}{x} - \operatorname{ctg} x \right) = (\infty - \infty) = \lim_{x \rightarrow 0} \left(\frac{\sin x - x \cos x}{x \sin x} \right) = \left(\frac{0}{0} \right) =$$

$$= \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\cos x - \cos x + x \sin x}{\sin x + x \cos x} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{x \sin x}{\sin x + x \cos x} = \left(\frac{0}{0} \right) =$$

$$= \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\sin x + x \cos x}{\cos x + \cos x - x \sin x} = \frac{0}{2} = 0.$$

$$3. \lim_{x \rightarrow 0} x^{\sin x} = (0^0) = \lim_{x \rightarrow 0} e^{\ln x^{\sin x}} = e^{\lim_{x \rightarrow 0} \sin x \ln x} = e^{\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\ln x}{\frac{1}{\sin x}}} =$$

$$= e^{-\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\frac{1}{x}}{\cos x}} = e^{-\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\sin^2 x}{x \cos x}} = e^{-\lim_{x \rightarrow 0} \left(\operatorname{tg} x \cdot \frac{\sin x}{x} \right)} = e^0 = 1.$$

$$4. \lim_{x \rightarrow +0} \ln \left(\frac{1}{x} \right)^x = (\infty^0) = e^{\lim_{x \rightarrow +0} x \ln \left(\frac{1}{x} \right)} = e^{\lim_{x \rightarrow +0} \frac{\ln \left(\ln \left(\frac{1}{x} \right) \right)}{\frac{1}{x}}} =$$

$$= e^{\lim_{x \rightarrow +0} \frac{\left(\ln \left(\ln \left(\frac{1}{x} \right) \right) \right)'}{\left(\frac{1}{x} \right)'}} = e^{\lim_{x \rightarrow +0} \frac{\frac{1}{\ln \left(\frac{1}{x} \right)} \left(-\frac{1}{x^2} \right)}{\left(-\frac{1}{x^2} \right)}} = e^{\lim_{x \rightarrow +0} \frac{1}{\ln \left(\frac{1}{x} \right)}} = e^{\frac{1}{\infty}} = e^0 = 1.$$

$$5. \lim_{x \rightarrow 0} (1 + \sin x)^{\operatorname{ctg} x} = (1^\infty) = e^{\lim_{x \rightarrow 0} \operatorname{ctg} x \ln(1 + \sin x)} = e^{\lim_{x \rightarrow 0} \frac{\ln(1 + \sin x)}{\operatorname{tg} x}} =$$

$$= e^{\lim_{x \rightarrow 0} \frac{(\ln(1 + \sin x))'}{(\operatorname{tg} x)'}} = e^{\lim_{x \rightarrow 0} \cos x \cdot \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\ln(1 + \sin x)}{\sin x}} = e^{1 \cdot \lim_{x \rightarrow 0} \frac{1 + \sin x}{\cos x}} = e^{\lim_{x \rightarrow 0} \frac{1}{1 + \sin x}} = e^1 = e.$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yuqori tartibli hosila qanday topiladi?
2. Lopital qoidalaridan qanday hollarda foydalaniladi?
3. Qanday aniqlasliklarni turini bilasiz?

MA'RUZA 6

4.6. FUNKSIYANI HOSILA YORDAMIDA TEKSHIRISH. FUNKSIYANING O'SUVCHI VA KAMAYUVCHI BO'LISHI. FUNKSIYANING EKSTREMUM QIYMATI. FUNKSIYANING ASIMTOTALARI. FUNKSIYANING BOTIQLIGI VA QABARIQLIGI. BURILISH NUQTASI. DASTURIY PAKETLAR YORDAMIDA HISOBLASH.

Reja.

1. Funksiyaning o'sishi va kamayishi.
2. Funksiyaning ekstremum qiymatlari.

3. Funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlari.
4. Funksiyaning ekstremumini ikkinchi tartibli hosila yordamida topish.
5. Funksiya grafigining qavariqligi, botiqligi va egilish nuqtalari.
6. Funksiya grafigining asimptotalari.


Tayanch iboralar. O'suvchi, kamayuvchi funksiya, qavariqligi, botiqligi va egilish nuqtalari, ekstremumlari qiymatlari, asimptotalar.

1. Funksiyaning o'sishi va kamayishi.

1-teorema. Agar $f(x)$ funksiya (a,b) da differensiallanuvchi bo'lib unda o'suvchi bo'lsa, uning hosilasi shu intervalda $f'(x) > 0$ manfiy bo'lmaydi va aksincha (a,b) da $f'(x) < 0$ bo'lsa funksiya o'suvchi bo'ladi.⁴

2-teorema. Agar $f(x)$ funksiya (a,b) da differensiallanuvchi bo'lib unda kamayuvchi bo'lsa, uning hosilasi shu intervalda $f'(x) < 0$ musbat bo'lmaydi va aksincha (a,b) da $f'(x) > 0$ bo'lsa, funksiya kamayuvchi bo'ladi. Bu teoremaning isboti chizmadan kelib

chiqadi. Haqiqatan AB yoyda funksiya o'sadi. Demak AB egri chiziqning istalgan nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning Ox o'qining musbat yo'nalishi bilan tashkil qilgan burchak tangensi musbat $\text{tg}\alpha > 0$ ya'ni $\text{tg}\alpha = f'(x) > 0$. BC yoyda funksiya kamayadi. Demak BC egri chiziqning istalgan nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning Ox o'qi bilan tashkil qilgan burchagi o'tmas burchak β . Shuning uchun $\text{tg}\beta < 0$ bundan $\text{tg}\beta = -f'(x) < 0$;



Misol. $y=x^4$; $y'=4x^3 \rightarrow x>0$ da $y'>0$ bo'lib, funksiya o'sadi; $x<0$ bo'lsa, $y'<0$ bo'lib, funksiya kamayadi.

2. Funksiyaning ekstremum qiymatlari.

$f(x)$ funksiya (a,b) da aniqlangan bo'lib $x_1 \in (a,b)$ bo'lsin.

1-ta'rif Absolyut miqdori bo'yicha yetarli darajada kichik bo'lgan ixtiyoriy (musbat yoki manfiy) Δx uchun $f(x_1 + \Delta x) < f(x_1)$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiyani x_1 nuqtada maksimumga ega deyiladi.

2-ta'rif. Absolyut miqdori bo'yicha yetarli darajada kichik bo'lgan ixtiyoriy (musbat yoki manfiy) Δx uchun $f(x_2 + \Delta x) > f(x_2)$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiyani x_2 nuqtada minimumga ega deyiladi. Ta'riflardan ko'rinadiki $f(x)$ funksiya (a,b) kesmada bir nechta nuqtalarda maksimumga va bir nechta nuqtalarda minimumga erishishi mumkin. Funksiyaning maksimum va minimum qiymatlariga funksiyaning ekstremum qiymatlari ham deyiladi.



1-teorema. (ekstremum mavjudligining zaruriy sharti) (a,b) intervalda differensiallanuvchi bo'lgan $f(x)$ funksiya $x_1 \in (a,b)$ nuqtada ekstremumga ega bo'lsa, u holda $f'(x_1) = 0$ bo'ladi. Lekin $f(x)$ funksiyaning biror $x=x_0 \in (a,b)$ nuqtada chekli hosilasi mavjud bo'lib, $f'(x_0) = 0$ bo'lsa, $f(x)$ funksiyaning $x=x_0$ da ekstremumga ega bo'lishi har doim kelib chiqmaydi. Masalan $f(x)=x^3$ funksiya uchun $f'(x)=3x^2$ bo'lib, $x=0$ da $f(0)=0$ bo'lsa ham $x=0$ nuqtada funksiya ekstremumga ega emas, chunki bu funksiya qafiy o'suvchi funksiya.

Demak 1-teorema funksiya ekstremum qiymatlariga erishishi uchun zarur lekin yetarli emas. Odatda funksiyaning hosilasini nolga aylantiradigan nuqtalarga funksiyaning kritik (tursun, stasionar) nuqtalari deyiladi.

a) $f(x)=|x|$ funksiyaning $x=0$ nuqtada ($f'(0^+) = 1$; $f'(0^-) = -1$) hosilasi mavjud emas. Lekin funksiya $x=0$ nuqtada minimumga ega bo'lishi ravshan. Demak funksiyaning hosilasi mavjud bo'lmagan nuqtalarda uning ekstremum qiymatlari mavjud bo'lishi mumkin.

b) $f(x)=x^{2/3}$ funksiyaning $x=0$ nuqtadagi hosilasi cheksiz, lekin funksiya $x=0$ da minimumga ega ekanligini ko'rish qiyin emas. Demak funksiya hosilasi cheksizga aylanadigan nuqtalarda ham ekstremum qiymatlariga erishar ekan.

⁴ James Stewart Calculus 7E 198-210 betlar



Shunday qilib, $f(x)$ funksiyaning ekstremum qiymatlariga erishadigan nuqtalarini

1) funksiyaning kritik nuqtalari;

2) funksiyaning hosilasi mavjud bo'lmagan nuqtalari;

3) funksiyaning hosilasi cheksiz bo'ladigan nuqtalari orasidan izlash kerak ekan.

2-teorema. (ekstremum mavjudligining yetarli sharti) Agar $f(x)$ funksiya $x=x_1$ kritik nuqtani o'z ichiga olgan biror intervalda uzluksiz va uning barcha nuqtalarida $f'(x)$, $x=x_1$ kritik nuqtadan chapdan o'nga o'tganda o'z ishorasini «+» dan «-» ga o'zgartirsa funksiya bu x_1 nuqtada maksimumga erishadi. Agar «-» dan «+» ga o'zgartirsa esa minimumga ega bo'ladi.

Isboti. $f'(x)$ hosila $x=x_1$ kritik nuqtadan o'tishda o'z ishorasini «+» dan «-» ga o'zgartirsin. Bu esa hosilaning x_1 nuqtadagi musbat, o'ngida manfiy ekanligini ya'ni $x < x_1$ da $f'(x) > 0$, $x > x_1$ da $f'(x) < 0$ ekanini bildiradi.

Funksiyaning o'sish va kamayish haqidagi teoremlarga ko'ra, agar $x_1 - \Delta x < x < x_1$, bo'lsa, $f'(x) > 0$, agar $x_1 < x < x_1 + \Delta x$ bo'lsa, $f'(x) < 0$ bo'ladi.

Bu esa $f(x)$ funksiyamiz $[x_1 - \Delta x; x_1]$ da o'sadi $[x_1; x_1 + \Delta x]$ da kamayadi degan so'z. Demak funksiyaning x_1 nuqtadagi qiymati $[x_1 - \Delta x; x_1 + \Delta x]$ kesmadagi eng katta qiymati bo'ladi, bu esa funksiya x_1 nuqtada maksimumga ega ekanligini bildiradi. Minimumga ega bo'lgan hol ham shu yo'l bilan isbotlanadi.

Eslatma. Agar $f'(x)$ hosila kritik nuqtadan o'tayotganda o'z ishorasini o'zgartirmasa, u holda funksiya bu nuqtada maksimumga ham minimumga ham erishmaydi.

$f'(x)$ hosilaning x_1 kritik nuqtadan o'tishdagi ishorasi			Kritik nuqtaning harakteri
$x < x_1$	$x = x_1$	$x > x_1$	
+	$f'(x)=0$ yoki mavjud emas	-	Maksimum
-	$f'(x)=0$ yoki mavjud emas	+	Minimum
+	$f'(x)=0$ yoki mavjud emas	+	Funksiya o'sadi
-	$f'(x)=0$ yoki mavjud emas	-	Funksiya kamayadi

Shunday qilib, differensiallanuvchi funksiyalarning birinchi tartibli hosila yordamida maksimum va minimumlarini topish uchun:

1. $f'(x)$ topiladi.

2. $f'(x)=0$ tenglamani yechib kritik nuqtalar topiladi.

3. Hosilaning kritik nuqtalardan chapdan o'ngga o'tishdagi ishoralari aniqlanadi.

4. Kritik nuqtalardagi funksiyaning qiymati hisoblanadi.

Misol. $y=f(x)=x^3(x-5)^2$

1. $y'=5x^2(x-3)(x-5)$


2. $y'=0 \Leftrightarrow 5x^2(x-3)(x-5)=0 \Leftrightarrow x_1=0; x_2=3; x_3=5$.

3. Topilgan kritik nuqtalar funksiyaning aniqlanish sohasi $(-\infty; +\infty)$ ni to'rtta intervalga bo'ladi:

$(-\infty; 0)$, $(0; 3)$, $(3; 5)$, $(5; +\infty)$;

Bu intervallarda hosilaning ishoralarini tekshiramiz. 4. Kritik nuqtalarda funksiyaning qiymatlarini hisoblab hammasini quyidagi jadvalga kiritamiz

x	$(-\infty, 0)$	0	$(0; 3)$	3	$(3; 5)$	5	$(5; \infty)$
y	+	0	+	0	-	0	+
y	$\rightarrow$	0	$\rightarrow$	max	$\rightarrow$	min	$\rightarrow$



3. Funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlari.

$[a, b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo'lgan $f(x)$ funksiyaning shu kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatlari quyidagicha aniqlanadi.

1. $f(x)$ funksiyaning (a, b) intervaldagi hamma maksimum va minimum qiymatlari topiladi.

2. $f(a)$ va $f(b)$ lar hisoblanadi.

3. $f(x)$ funksiyaning $[a, b]$ dagi barcha maksimum qiymatlari va $f(a), f(b)$ larning ichidagi eng kattasi $f(x)$ funksiyaning $[a, b]$ kesmadagi eng katta qiymati bo'ladi. $f(x)$ funksiyaning $[a, b]$ dagi barcha minimum qiymatlari va $f(a), f(b)$ larning ichidagi eng kichigi $f(x)$ funksiyaning $[a, b]$ kesmadagi eng kichik qiymati bo'ladi.

Misol. $y = x^3 - 3x^2 - 45x + 225$ funksiyaning $[0, 6]$ kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatini toping.

1. $y' = 3x^2 - 6x - 45$;

2. $y' = 0 \quad 3x^2 - 6x - 45 = 0 \Leftrightarrow x^2 - 2x - 15 = 0, \quad x_1 = -3; \quad x_2 = 5, \quad x_1 = -3 \in [0, 6]; \quad x_2 = 5 \in [0, 6] \Rightarrow y(0) = 225; \quad y(5) = 50; \quad y(6) = 63. \quad y(0) = 225$ eng katta qiymati; $y(5) = 50$ eng kichik qiymati.

4. Funksiyaning ekstremumini ikkinchi tartibli hosila yordamida topish.

Faraz qilaylik $y = f(x)$ funksiyaning $f'(x), f''(x)$ hosilalari mavjud bo'lib, $x = x_1$ nuqtada $f'(x) = 0, f''(x) \neq 0$ bo'lsin.

Teorema. Agar $f(x)$ funksiyaning $x = x_1$ nuqtadagi hosilasi $f'(x_1) = 0, f''(x_1) \neq 0$ bo'lib, $f''(x_1) > 0$ bo'lsa, $f(x)$ funksiya $x = x_1$ nuqtada minimumga erishadi.

Agar $f''(x_1) < 0$ bo'lsa funksiya $x = x_1$ nuqtada maksimumga erishadi.

Misol. $f(x) = x - 2\sin x$ funksiyaning $[0; 2\pi]$ da ekstremumini toping.

1. $f'(x) = 1 - 2\cos x$

2. $f'(x) = 0 \Leftrightarrow 1 - 2\cos x = 0 \Rightarrow \cos x = \frac{1}{2}; \quad x_1 = \frac{\pi}{3}; \quad x_2 = \frac{5\pi}{3}$

3. $f''(x) = 2\sin x. \quad f'(\frac{\pi}{3}) = 2\sin \frac{\pi}{3} = \sqrt{3} > 0. \quad$ Demak $x_1 = \frac{\pi}{3}$ nuqtada funksiya minimumga ega.




$f_{\min}(\frac{\pi}{3}) = \frac{\pi}{3} - 2\sin \frac{\pi}{3} = \frac{\pi}{3} - \sqrt{3} \approx -0,68. \quad f''(\frac{5\pi}{3}) = 2\sin \frac{5\pi}{3} = -\sqrt{3} < 0$ Demak

funksiya $x_2 = \frac{5\pi}{3}$ nuqtada maksimumga erishadi. $f_{\max}(\frac{5\pi}{3}) = \frac{5\pi}{3} - 2\sin(\frac{5\pi}{3}) = \frac{5\pi}{3} + \sqrt{3} \approx 6,96.$

5. Funksiya grafigining qavariqligi, botiqligi va egilish nuqtalari.

Bir qiymatli va differensiallanuvchi bo'lgan $y = f(x)$ funksiyaning grafigini ko'raylik.

1-ta'rif. Agar $y = f(x)$ funksiyaning (a, b) intervaldagi grafigi shu intervaldagi ixtiyoriy nuqtasiga o'tkazilgan urinmadan pastda bo'lsa, funksiya grafigini shu intervalda qavariq deyiladi; Agar yuqorida bo'lsa funksiya grafigini shu intervalda botiq deyiladi.



2-ta'rif. $y=f(x)$ funksiya grafigining qavariq qismini botiq qismidan ajratuvchi nuqtaga egri chiziqning egilish (yoki burilish) nuqtasi deyiladi.

1-teorema. Agar $y=f(x)$ funksiyaning (a,b) intervaldagi $f''(x)$ hosilasi mavjud bo'lib, $f''(x)<0$ bo'lsa, u holda funksiya grafigi shu intervalda qavariq bo'ladi, agar $f''(x)>0$ bo'lsa botiq bo'ladi.

Misollar. 1. $y=2-x^2 \Rightarrow y''=-2<0$. Demak egri chizik hamma joyda qavariq.

2. $y=ye^x \Rightarrow y''=ye^x>0$ Demak egri chizik hamma joyda botik.

3. $y=x^3 \Rightarrow y''=6x$; $x<0$ da qavariq, $x>0$ da botiq. $x=0$ burilish nuqtasi bo'ladi.

2-teorema. Agar $y=f(x)$ funksiyaning $x=x_0$ nuqtadagi hosilasi $f'(x_0)=0$ (yoki mavjud bo'lmasa) bo'lib, $f''(x)$ ning ishorasi x_0 dan o'tganda o'zgarsa, u holda $x=x_0$ nuqta $f(x)$ funksiyaning burilish nuqtasi bo'ladi.

Misol. $y=x^3-3x$ funksiyaning tekshiring.'

Yechish. $y'=3x^2-3$; $y'=0 \Rightarrow 3x^2-3=0 \Rightarrow x^2=1 \Rightarrow x=\pm 1$; $x<-1$ da $f''(x)=6x<0$ demak funksiya $(-\infty;-1)$ da qavariq, $-1<x<1$ da $f''(x)=6x>0$ demak funksiya $(-1;1)$ da botiq. $x=1$ nuqta esa burilish nuqtasi bo'ladi.

6. Funksiya grafigining asimptotalari.

Ta'rif. Agar egri chiziqning o'zgaruvchi $M(x,y)$ nuqtasi koordinata boshidan cheksiz uzoqlashgan-da uning biror to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofasi δ nolga intilsa bu to'g'ri chiziq egri chiziqning asimptotasi deyiladi.

Biz vertikal ya'ni ordinata o'qiga parallel va og'ma ya'ni ordinata o'qiga parallel bo'lmagan asimptotalarni ko'ramiz.

Vertikal asimptotalar. Asimptotaning ta'rifidan ko'rinadiki agar $x=a$ to'g'ri chiziq $y=f(x)$ egri chiziqning asimptotasi bo'lsa,

$$\lim_{x \rightarrow a+0} f(x) = \infty \text{ yoki } \lim_{x \rightarrow a-0} f(x) = \infty \text{ yoki}$$

$$\lim_{x \rightarrow a} f(x) = \infty \text{ bo'ladi va aksincha bu munosabat-}$$

larning birontasi o'rinli bo'lsa, $x=a$ to'g'ri

chiziq $y=f(x)$ egri chiziqning asimptotasi bo'ladi.

Demak $y=f(x)$ funksiya grafigining vertikal asimptotalarini topish uchun absissasining shunday $x=a$ qiymatini topish kerakki x shu a ga yaqinlashganda $y=f(x)$ cheksizlikka intilsin. Bu holda $x=a$ to'g'ri chiziq berilgan egri chiziqning vertikal asimptotasi deyiladi.

Misol. $y = \frac{2}{x-5}$ egri chiziqning vertikal

asimptotasi $\lim_{x \rightarrow 5} \frac{2}{x-5} = \pm \infty$ lardan

ko'rinadiki $x=5$ to'g'ri chiziq bo'lar ekan.

Og'ma asimptota. Faraz qilaylik $y=f(x)$ egri chiziq

osma ya'ni OY o'qiga parallel bo'lmagan asimptotaga ega bo'lib, uning tenglamasi $y=kx+b$

(1) ko'rinishda bo'lsin. k va b larni aniqlaylik. $M(x,y)$ nuqta egri chiziqda yotgan o'zgaruvchi nuqta, $N(x,y)$ asimptotada yotgan nuqta bo'lsin. MP asimptotadan $M(x,y)$ nuqtachacha bo'lgan masofa.




Asimptota ta'rifiga ko'ra $\lim_{x \rightarrow +\infty} MP=0$ (2)

NMP uchburchakdan $NM = \frac{MP}{\cos \varphi}$ (2)

$M(x,y)$

ga ko'ra $\lim_{x \rightarrow +\infty} NM=0$ (3).

Ikkinchi torondan $NM=QM-QN=$



Yechish- $\bar{y}$ asim= $f(x)-(kx+b)$ bundan (3) ko'ra $\lim_{x \rightarrow +\infty} (f(x)-kx-b)=0$

$$(4) \Rightarrow \lim_{x \rightarrow +\infty} \left[\frac{f(x)}{x} - k - \frac{b}{x} \right] = 0 \quad (5)$$

(5) o'rinli bo'lishi uchun $\lim_{x \rightarrow +\infty} \left[\frac{f(x)}{x} - k - \frac{b}{x} \right]$ topgandan keyin uni (4) ga qo'ysak


$b = \lim_{x \rightarrow +\infty} [f(x)-kx]$ (7) (6) va (7) lardan aniqlangan k va b larni (1) ga qo'ysak asimptota tenglamasi kelib chiqadi.

Misol. $y = \frac{x^2 + 2x - 1}{x}$ egri chiziqning asimptotalarini toping.

1. Vertikal asimptotalarni topaylik.

$$\lim_{x \rightarrow -0} f(x) = \lim_{x \rightarrow -0} \frac{x^2 + 2x - 1}{x} = +\infty;$$

$$x \lim_{x \rightarrow +0} f(x) = \lim_{x \rightarrow +0} \frac{x^2 + 2x - 1}{x} = -\infty;$$



Demak $x=0$ to'g'ri chiziq berilgan egri chiziqning vertikal asimptotasi.

2.Endi osma asimptotasini topaylik. $k = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{y}{x} = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{x^2 + 2x - 1}{x} = 1$

$$b = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} [y-x] = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \left[\frac{x^2 + 2x - 1}{x} - x \right] = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \left(2 - \frac{1}{x} \right) = 2.$$

$k=1$; $b=2$; $y=kx+b \Rightarrow y=x+2$ og'ma asimptota.

(5) o'rinli bo'lishi uchun $\lim_{x \rightarrow +\infty} \left[\frac{f(x)}{x} - k - \frac{b}{x} \right]$ topgandan keyin uni (4) ga qo'ysak


$b = \lim_{x \rightarrow +\infty} [f(x)-kx]$ (7) (6) va (7) lardan aniqlangan k va b larni (1) ga qo'ysak asimptota tenglamasi kelib chiqadi.

Misol. $y = \frac{x^2 + 2x - 1}{x}$ egri chiziqning asimptotalarini toping.

2. Vertikal asimptotalarni topaylik.

$$\lim_{x \rightarrow -0} f(x) = \lim_{x \rightarrow -0} \frac{x^2 + 2x - 1}{x} = +\infty;$$

$$x \lim_{x \rightarrow +0} f(x) = \lim_{x \rightarrow +0} \frac{x^2 + 2x - 1}{x} = -\infty;$$



Demak, $x=0$ to'g'ri chiziq berilgan egri chiziqning vertikal asimptotasi.

2.Endi osma asimptotasini topaylik. $k = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{y}{x} = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \frac{x^2 + 2x - 1}{x} = 1$

$$b = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} [y-x] = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \left[\frac{x^2 + 2x - 1}{x} - x \right] = \lim_{x \rightarrow \pm\infty} \left(2 - \frac{1}{x} \right) = 2.$$

$k=1$; $b=2$; $y=kx+b \Rightarrow y=x+2$ og'ma asimptota.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Funksiyaning kritik nuqtalari qanday topiladi?
2. Funksiyaning o'sish va kamayish oraliqlari.
3. Funksiyaning ekstremumlari.
4. Funksiyaning egilish nuqtalari qanday topiladi?
5. Og'ma, vertikal asimptotalarni topish qonuniyatlari.
6. Funksiyaning to'la tekshirish sxemasi.

4.7. FUNKSIYANING DIFFERENSIALI. DIFFERENSIALNING TA'RIFI. DIFFERENSIALNI TAQIRIBIY HISOBLASHGA TADBIQI. YUQORI TARTIBLI DIFFERENTSIALLAR.

Reja. 1. Funksiyaning differensiallanuvchanligi.

2. Differensial va hosila orasidagi boshlanish.

3. Differensialning taqribiy hisoblaiga tatbiqi

4. Yuqori tartibli differensial.

5. Differensiallanuvchi funksiyalar haqida ba'zi teoremlar

Tayanch so'zlar. Differensiallanuvchi funksiya, uzluksizlik, urinma, hosila.

1. Funksiyaning differensiallanuvchanligi.

1-ta'rif. Agar $y=f(x)$ funksiya $x=x_0$ nuqtada chekli $f'(x_0)$ hosilaga ega bo'lsa, uni shu nuqtada differensiallanuvchi funksiya deyiladi.

2-ta'rif. Agar $y=f(x)$ funksiya ixtiyoriy $x \in [a,b]$ da differensiallanuvchi bo'lsa, bu funktsiyani shu kesmada differensiallanuvchi deyiladi.

2. Differensial va hosila orasidagi boshlanish.

Agar $y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada differensiallanuvchi bo'lsa, bu funktsiyaning $x \in [a,b]$

nuqtadagi hosilasi $f'(x) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}$ (1) tenglik bilan aniqlanar edi. Limitning ta'rifiga ko'ra Δx

$\rightarrow 0$ da $\frac{\Delta y}{\Delta x}$ nisbat $f'(x)$ ga intiladi. Boshqacha aytganda ular orasidagi farq cheksiz kichik miqdor bo'ladi. Shuning uchun

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = f'(x) + \alpha \Rightarrow \Delta y = f'(x) \Delta x + \alpha \Delta x \quad (\Delta x \rightarrow 0 \text{ da } \alpha \rightarrow 0).$$

Bundan ko'rinadiki funksiya orttirmasi Δy ikkita qo'shiluvchidan iborat bo'lar ekan. Shularning birinchisi $f'(x) \Delta x$ ga funktsiyaning differensial deyiladi va dy orqali belgilanadi.

$$dy = f'(x) \Delta x \quad (2)$$

desak (2) dan $dx = x' \Delta x \Rightarrow dx = \Delta x$ ekanligini e'tiborga olsak

$$dy = f'(x) dx \quad (3)$$

yoki

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = f'(x) \quad (4)$$

(4) dan ko'rinadiki $f'(x)$ hosilani funksiya differensialining argument differensialiga nisbati deb qarash mumkin ekan.

Endi differensialning geometrik ma'nosini ko'rib o'taylik.

Tenglamasi $y=f(x)$ bo'lgan egri chiziqning $M(x,y)$ nuqtasiga

urinma o'tkazib, bu urinmaning Ox o'qining musbat

yo'nalishi bilan tashkil qilgan burchagini α deylik. Agar x ga

Δx orttirma bersak y ham Δy orttirma olib natijada

$M(x + \Delta x, y + \Delta y)$ nuqta hosil bo'ladi. $MN = \Delta x$, $M_1N = \Delta y$,


$\operatorname{tg} \alpha = f'(x)$ ekanliklarini e'tiborga olsak MNT uchburchakdan

$$NT = MN \operatorname{tg} \alpha = f'(x) \Delta x = dy.$$

$NT = dy$ kelib chiqadi. Bundan ko'rinadiki $f(x)$ funktsiyaning $M(x,y)$ nuqtadagi differensial, shu nuqtadagi urinma ordinatasining orttirmasiga teng bo'lar ekan. (3) tenglikdan ko'rinadiki differensialni topish uchun uning hosilasini topib, argument differensialiga ko'paytirish kifoya ekan. Shuning uchun hosilaga tegishli barcha nazariya va formulalar differensial uchun ham o'z kuchini saqlab qoladi. Jumladan quyidagi formulalar ham o'rinli bo'ladi:

1. $dC = 0$ (C -o'zgarmas)

2. $d(Cu) = Cdu$



$$3. d(u+v)=du+dv$$

$$4. d(uv)=vdu+udv$$

$$5. d\left(\frac{u}{v}\right)=\frac{du \cdot v - u \cdot dv}{v^2} (v(x) \neq 0)$$

3. Differensialning taqribiy hisoblaiga tatbiqi.

Agar $y=f'(x)=\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}$ chekli limit mavjud bo'lsa, $\Delta y=f'(x)\Delta x + o(\Delta x)$ ($\Delta x \rightarrow 0$ da $o(\Delta x) \rightarrow 0$ cheksiz kichik funksiya) yoki

$$Dy = dy + o(Dx) \text{ yoki } \frac{Dy}{Dx} = 1 + \frac{o(Dx)}{Dx} = 1 + \frac{o(1)}{1} = 1 + o(1)$$

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{Dy}{Dx} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \left(1 + \frac{o(1)}{1}\right) = 1 \text{ yoki } Dy \approx dy \text{ yoki } f(x+\Delta x) - f(x) \approx f'(x)\Delta x$$

yoki $f(x+\Delta x) \approx f(x) + f'(x)\Delta x$

Misol.

$$\sin 31^\circ = \sin(30^\circ + 1^\circ) = \sin\left(\frac{\pi}{6} + \frac{\pi}{180}\right); \Delta x = \frac{\pi}{180}; x + \Delta x = 30^\circ + 1^\circ = \frac{\pi}{6} + \frac{\pi}{180};$$

$$\sin(30^\circ + 1^\circ) = \sin\left(\frac{\pi}{6} + \frac{\pi}{180}\right) \approx \sin \frac{\pi}{6} + (\sin x)'_{x=\frac{\pi}{6}} \cdot \frac{\pi}{180} = \frac{1}{2} + \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot \frac{\pi}{180} = 0,515.$$

4. Yuqori tartibli differensial.

Agar $u(x), v(x)$ funksiyalar differensiallanuvchi bo'lib, $u^{(n)}(x), v^{(n)}(x)$ hosilalarga ega bo'lsa, u holda

$$1. (Cu)^{(n)} = Cu^{(n)} \quad (C - o'zgarmas son)$$

$$2. (u+v)^{(n)} = u^{(n)} + v^{(n)}$$

$$3. (uv)^{(n)} = u^{(n)} + nu^{(n-1)}v' + \frac{n(n-1)u^{(n-2)}v''}{1 \cdot 2} + \dots + uv^{(n)}.$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. Oxirgi tenglikka Leybnis formulasi deyiladi.

Endi yuqori tartibli qosila tushunchasi kabi, yuqori tartibli differensial tushunchasini kiritaylik. Agar $y=f(x)$ funksiya differensiallanuvchi bo'lsa, uning differensial $dy=f'(x)dx=y'dx$ formula bilan hisoblanishini ko'rgan edik. Bu yerda x ga faqat $f'(x)$ bog'liq bo'lib, dx bog'liq bo'lmaydi, chunki $dx=\Delta x$ bo'lib argument orttirmasini ifodalaydi. Shuning uchun dy differensialidan yana differensial olsak, hosil bo'lgan differensialga $y=f(x)$ funksiyaning ikkinchi tartibli differensial deyiladi va d^2y yoki $d^2f(x)$ lar bilan belgilanadi:

$$d^2y = d(dy) = d(y'dx) = (y'')dx = (y'')'dx dx = y''dx^2$$

$$d^2y = y''dx^2$$

$$\text{yoki } d^2y = f''(x)dx^2.$$

Xuddi shuningdek uchinchi, to'rtinchi va xokazo tartibli differensiallarni topish mumkin:

$$d^3y = y'''dx^3, d^4y = y^{IV}dx^4, \dots, d^ny = y^{(n)}dx^n.$$

Misol.

$$y=4x^5-3x^2+6, d^4y=?$$

$$dy=(20x^4-6x)dx, d^2y=(80x^3-6)dx^2, d^3y=240x^2dx^3, d^4y=480xdx^4$$


5. Differensiallanuvchi funksiyalar haqida ba'zi teoremlar.

Roll teoremasi (1652-1719y. fransuz).

Agar $y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzluksiz va uning barcha ichki nuqtalarida differensiallanuvchi bo'lib, kesmaning chetki nuqtalarida $f(a)=f(b)$ yoki $f(a)=f(b)=0$ bo'lsa, u holda shunday $x=c$ ($a < c < b$) nuqta topiladiki, unda $f'(c)=0$ bo'ladi.

Teoremaning geometrik ma'nosi.

Agar har bir nuqtasida urinmaga ega



bo'lgan uzluksiz egri chiziqli absissalari
 a va b bo'lgan nuqtalarda $f(a)=f(b)$ yoki
 $f(a)=f(b)=0$ bo'lsa, u holda bu egri chiziqli
shunday bir $x=c$ ($a < c < b$) nuqta topiladiki,
bu $(c; f(c))$ nuqtaga o'tkazilgan urinma
 Ox o'qiga parallel bo'ladi.

0 a c b x

Lagranj teoremasi (1736-1813 y. fransuz).

Agar $y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzluksiz va uning barcha ichki nuqtalarida differensiallanuvchi bo'lsa, u holda $[a,b]$ kesmada shunday $x=c$ ($a < c < b$) nuqta topiladiki, bu nuqtada hosila


$$f'(c) = \frac{f(b) - f(a)}{b - a} \quad (1) \quad \text{bo'ladi.}$$

Bu teorema ba'zi hollarda chekli orttirmalar haqidagi Lagranj teoremasi deyilib, quyidagicha ham ifodalanadi; $[a,b]$ da differensiallanuvchi bo'lgan $y=f(x)$ funksiyaning shu kesmadagi orttirmasi, shu kesma uzunligi bilan c ($a < c < b$) nuqtadagi funksiya hosilasi ko'paytmasiga teng bo'ladi:

$$f(b) - f(a) = (b - a)f'(c).$$

Endi Lagranj teoremasining geometrik ma'nosini ko'raylik. Chizmadan ko'rinadiki, (1) ning chap tomonidagi $f'(c)$ kattalik $y=f(x)$ egri chiziqli

$x=c$ nuqtasiga o'tkazilgan
urinmaning Ox o'qining musbat
yo'nalishi bilan tashkil qilgan
burchagining tangensidir: $f'(c) = \tan \alpha$
(1) ning o'ng tomoni esa A va B
nuqtalardan o'tuvchi vatarining Ox
o'qining musbat yo'nalishi bilan
tashkil qilgan burchakning
tangensidir:



$$\tan \beta = \frac{f(b) - f(a)}{b - a}$$

Demak $\tan \alpha = \tan \beta$.

Bundan chiqadigan xulosa:

Agar $y=f(x)$ funksiya grafigining hamma nuqtalarida urinma mavjud bo'lsa, u holda A va B ($x=a$, $x=b$) nuqtalar orasida shunday bir C ($x=c$) nuqta topiladiki, bu C nuqtada o'tkazilgan urinma A va B nuqtalardan o'tgan vatarga parallel bo'ladi.

Misol. $F(x)=x^4$ funksiya $[0,1]$ da berilgan. Urinmasi $x=a=0$, $x=b=1$ nuqtalardan o'tgan vatarga parallel bo'lgan nuqtaning ordinatasini toping.

Yechish. $F(a)=f(0)=0$; $f(b)=f(1)=1$, $1-0=(1-0)f'(c)$, $f'(c)=1$ ikkinchi tomondan
 $f'(x)=4x^3$, $f'(c)=4c^3$ $4c^3=1$, $c=0,63$

Koshi teoremasi. Agar $f(x), \varphi(x)$ funksiyalar $[a,b]$ kesmada uzluksiz va uning barcha ichki nuqtalarida differensiallanuvchi bo'lib, ixtiyoriy $x \in (a,b)$ uchun $\varphi'(x) \neq 0$ bo'lsa, u holda shunday bir $x=c$ ($a < c < b$) nuqta topiladiki, unda

$$\frac{f(b) - f(a)}{\varphi(b) - \varphi(a)} = \frac{f'(c)}{\varphi'(c)} \quad (2)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Isboti: $\varphi(b) - \varphi(a) \neq 0$ chunki aks holda $\varphi'(b)=\varphi'(a)=0$ bo'lib, Roll teoremasiga ko'ra kesma ichida $\varphi'(x)=0$ bo'lib qolar edi. Bu esa teoremaning shartiga ziddir.

Quyidagi yordamchi funksiyani ko'raylik:

$$F(x) = f(x) - f(a) - \frac{f(b) - f(a)}{\varphi(b) - \varphi(a)} [\varphi(x) - \varphi(a)] \quad (3)$$

(2) Roll teoremasining barcha shartlarini qanoatlantiradi, u holda shunday $x=c$ ($a < c < b$) nuqta topiladiki, bu nuqtada $F'(c)=0$ bo'ladi. Bu holda (3) dan

$$F'(c) = f'(c) - \frac{f(b) - f(a)}{\varphi(b) - \varphi(a)} \cdot \varphi'(c) = 0 \Rightarrow \frac{f(b) - f(a)}{\varphi(b) - \varphi(a)} = \frac{f'(c)}{\varphi'(c)}.$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Funksiya hosilasi va differensial orasidagi bog'lanish nimadan iborat?
2. Funksiya qiymatini taqribiy hisoblashda differensialning o'rni.
3. Yuqori tartibli differensial qanday hisoblanadi?
4. Differensiallanuvchi funksiyalar haqidagi teoremlar.

MA'RUZA 8

4.8.BOSHLANG'ICH FUNKSIYA VA ANIQMAS INTEGRAL. ANIQMAS INTEGRALNING TA'RIFI VA ASOSIY XOSSALARI. ASOSIY ELEMENTAR FUNKSIYALARNING INTEGRALLASH JADVALI. O'ZGARUVCHINI ALMASHTIRIB INTEGRALLASH.

Reja. 1. Boshlang'ich funksiya.

2. Aniqmas integralning xossalari.
3. Aniqmas integrallar jadvali.
4. Bevosita integrallash usuli.
5. Differensial belgisi ostiga kiritib integrallash
6. Aniqmas integralda o'zgaruvchilarni almashtirib integrallash.
7. Bo'laklab integrallash.

Tayanch so'zlar. Funksiya, hosila, differensial, boshlang'ich funksiya, uzluksizlik, chegaralangan, o'zgaruvchilarni almashtirish, bo'laklab integrallash.

1. Boshlang'ich funksiya

Bizga biror funksiya berilgan bo'lsa, ma'lum formulaga yoki qoidaga ko'ra bu funksiyaning hosilasini topishni bilamiz.

Masalan $F(x) = x^3$ bo'lsa, $F'(x) = 3x^2$; $F(x) = \sin x$ bo'lsa, $F'(x) = \cos x$.

Endi bu masalaning teskarisini ya'ni hosilasiga ko'ra funksiyaning o'zini topish masalasini ko'raylik. Boshqacha aytganda differensiallash amaliga teskari bo'lgan masalani yechishga to'g'ri keladi.

1-ta'rif. Agar $F(x)$ funksiya (a,b) oraliqda uzluksiz va differensiallanuvchi bo'lib, $\forall x \in (a,b)$ nuqtada $F'(x)=f(x)$ (yoki $dF(x)=f(x)dx$) tenglik o'rinli bo'lsa, u holda $F(x)$ funksiyaning shu oraliqda $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi deyiladi.⁵ Yuqoridagi misollardan x^3 funksiya $3x^2$ ning, $\sin x$ esa $\cos x$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasidir.

Boshlang'ich funksiyaning ta'rifiga ko'ra quyidagi ikkita savol tug'iladi:

1. Qanday funksiyalarning boshlang'ich funksiyalari mavjud bo'ladi?
2. Agar berilgan funksiyaning boshlang'ich funksiyasi mavjud bo'lsa, u yagona bo'ladimi?

1-teorema. $[a,b]$ kesmada uzluksiz bo'lgan $\forall f(x)$ funksiyaning shu kesmada boshlang'ich funksiyasi mavjud bo'ladi (teoremaing isboti Nyuton-Leybnis formulasida ko'riladi).

Agar $f(x)$ funksiya boshlang'ich funksiyaga ega bo'lsa, uning boshlang'ich funksiyasi cheksiz ko'p bo'lishini misolda osongina ko'rish mumkin: $F_1(x) =$

$$\frac{x^4}{4}, F_2(x) = \frac{x^4}{4} + 7, F_3(x) = \frac{x^4}{4} + C \quad (C\text{-o'zgarmas}) \quad \text{funksiyalar } f(x)=x^3 \text{ funksiyaning}$$

boshlang'ich funksiyasidir.

⁵ James Stewart Calculus 7E 321-327 betlar

2-teorema. Agar $F_1(x)$ va $F_2(x)$ funksiyalar $[a,b]$ kesmada $f(x)$ funksiya uchun boshlang'ich funksiyalar bo'lsa, u holda $F_1(x)$, $F_2(x)$ lar bir-biridan o'zgarmas songa farq qiladi:

$F_1(x) - F_2(x) = C$, C - ixtiyoriy o'zgarmas.

Isboti. $\varphi(x) = F_1(x) - F_2(x)$ deylik. Teoremaning shartiga ko'ra, $F_1'(x) = f(x)$, $F_2'(x) = f(x)$ bo'lgani uchun differensiallash qoidasiga ko'ra

$\varphi'(x) = [F_1(x) - F_2(x)]' = F_1'(x) - F_2'(x) = f(x) - f(x) = 0 \Rightarrow \varphi'(x) = 0 \Rightarrow [F_1(x) - F_2(x)]' = 0 \Rightarrow F_1(x) - F_2(x) = C$.

3-teorema. Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ dagi boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiyaning shu kesmadagi har qanday boshqa boshlang'ich funksiyasi $F(x) + C$ ko'rinishda bo'ladi.

Isbot. Agar $f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ dagi ixtiyoriy boshqa boshlang'ich funksiyasini $F(x)$ desak, 2-teoremaning isbotidan kelib chiqadi. $[F(x) - F(x)]' = 0 \Rightarrow F(x) = F(x) + C$

2-ta'rif. Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ dagi boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, u holda $f(x)$ funksiyaning shu kesmadagi barcha boshlang'ich funksiyalari to'plami $F(x) + C$ ga funksiyaning shu kesmadagi aniqmas integrali deyiladi va odatda $\int f(x)dx$ simvol bilan belgilanadi.

Shunday qilib ta'rifga ko'ra $F'(x) = f(x)$ bo'lsa $\int f(x)dx = F(x) + C$ bo'ladi. Bu yerda $f(x)$ ga - integral ostidagi funksiya, $f(x)dx$ ga integral ostidagi ifoda deyiladi. Berilgan $f(x)$ funksiyaning aniqmas integralini topish integrallash amali deyiladi.

Shunday qilib berilgan $f(x)$ funksiyaning aniqmas integrali $y = F(x) + C$ funksiyalar to'plamidan iborat bo'lib, geometrik nuqtai nazardan esa aniqmas integral egri chiziqlar to'plamidan (oilasidan) iborat bo'lib, ularning hammasi bir-biridan ixtiyoriy C masofaga farq qilib o'zaro parallel joylashgan bo'ladi.

2. Aniqmas integralning xossalari.

1. $(\int f(x)dx)' = f(x)$
2. $\int dF(x) = F(x) + c$
3. $d[\int f(x)dx] = f(x)dx$
4. $\int kf(x)dx = k\int f(x)dx$ k -o'zgarmas.
5. $\int [f(x) \pm \varphi(x)]dx = \int f(x)dx \pm \int \varphi(x)dx$

Aniqmas integrallarni hisoblaganda yuqoridagi xossalardan tashqari quyidagi uchta muhim qoidani nazarda tutish amaliy mashg'ulotlar uchun katta ahamiyatga ega.

Agar $\int f(x)dx = F(x) + C$ bo'lsa

1. $\int f(ax) dx = \frac{1}{a} F(ax) + C$
2. $\int f(x+b) dx = F(x+b) + C$
3. $\int f(ax+b)dx = \frac{1}{a} F(ax+b) + C$

3. Aniqmas integrallar jadvali.

Bu formulalarning to'g'riligini ularning o'ng tomonidagi ifodalarni bevosita differensiallash bilan ko'rsatish mumkin.

1. $\int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C (n \neq -1)$	11. $\int \frac{dx}{1+x^2} = -\arctg x + C$
2. $\int \frac{dx}{x} = \ln x + C$	12. $\int \frac{dx}{a^2+x^2} = \frac{1}{a} \arctg \frac{x}{a} + c$
3. $\int e^x dx = e^x + C$	13. $\int \frac{dx}{a^2-x^2} = \frac{1}{2x} \ln \left \frac{a+x}{a-x} \right + C$
4. $\int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + C$	14. $\int \frac{dx}{x^2-a^2} = \frac{1}{2a} \ln \left \frac{x-a}{x+a} \right + C$
5. $\int \sin x dx = -\cos x + C$	15. $\int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \arcsin x + C$
6. $\int \cos x dx = \sin x + C$	16. $\int \frac{dx}{\sqrt{a^2-x^2}} = \arcsin \frac{x}{a} + C$
7. $\int \frac{dx}{\cos^2 x} = \tg x + C$	17. $\int \frac{dx}{\sqrt{x^2 \pm a^2}} = \ln \left x + \sqrt{x^2 \pm a^2} \right + C$
8. $\int \frac{dx}{\sin^2 x} = -\ctg x + C$	a, c –lar ixtiyoriy o'zgarmas sonlar.
9. $\int \tg x dx = -\ln \cos x + C$	
10. $\int \ctg x dx = \ln \sin x + C$	

Misollar. 1-misol sifatida 14-formulani ko'raylik

$$\left(\frac{1}{2a} \ln \left| \frac{x-a}{x+a} \right| + C \right) = \frac{1}{2a} \cdot \frac{x-a}{x+a} \cdot \frac{x+a-x+a}{(x+a)^2} = \frac{1}{x^2-a^2}$$

2-misol. $\int (2x^3 + 5\sqrt{x}) dx = \frac{1}{2} x^4 + \frac{10}{3} x\sqrt{x} + C$

3-misol. $\int \frac{dx}{3x+6} = \frac{1}{3} \ln|3x+6| + C$

4-misol. $\int \cos 10x dx = \frac{1}{10} \sin 10x + C$

4. Bevosita integrallash usuli.

Aniqmas integralni bevosita integrallar jadvalidan va aniqmas integralning xossalaridan foydalanib integrallashga bevosita integrallash usuli deyiladi. Ba'zi hollarda integral ostidagi funktsiyani iloji boricha yig'indiga yoyib so'ngra bevosita integrallash maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-misol. $\left(3 - 4x^3 + 7\cos x - \frac{6}{x} - \frac{1}{x^2+1} \right) dx = 3 \int dx - 4 \int x^3 dx + 7 \int \cos x dx - 6 \int \frac{dx}{x} - \int \frac{dx}{x^2+1} =$
 $= 3x - x^4 + 7\sin x - 6 \ln|x| - \arctg x + C$

2-misol.

$$\int (x^2 - 2x)^2 dx = \int (x^4 - 4x^3 + 4x^2) dx = \int x^4 dx - 4 \int x^3 dx + 4 \int x^2 dx = \frac{x^5}{5} - x^4 + \frac{4}{3} x^3 + C$$

5. Differensial belgisi ostiga kiritib integrallash

Differensial belgisi ostiga kiritib integrallash usuli esa integral ostidagi ifodani almashtirishdan iboratdir.

1-misol. $\int e^{\sin x} \cos x dx = \int \cos x dx = d(\sin x)$, desak $\int e^{\sin x} \cdot d(\sin x) = e^{\sin x} + C$

2-misol. $\int \sin^8 x \cos x dx = \int \cos x dx = d(\sin x) = \int \sin^8 x d(\sin x) = \frac{1}{9} \sin^9 x + C$

3-misol. $\int e^{\arctg x} \cdot \frac{dx}{1+x^2} = \int \frac{dx}{1+x^2} = d(\arctg x) = \int e^{\arctg x} d(\arctg x) = e^{\arctg x} + C$

$$4\text{-misol. } \int x e^{x^2} dx = \left| x dx = \frac{1}{2} d(x^2) \right| = \frac{1}{2} \int e^{x^2} d(x^2) = \frac{1}{2} e^{x^2} + C$$

$$5\text{-misol. } \int \frac{dx}{x+5} = \int \frac{d(x+5)}{x+5} = \ln |x+5| + C$$

6. Aniqmas integralda o'zgaruvchilarni almashtirib integrallash.

Integrallar jadvaliga kirmagan $\int f(x)dx$ integralni hisoblash uchun, ya'ni $f(x)$ funksiyani boshlang'ich funksiyasini topish uchun $x = \varphi(t)$ (1) almashtirish bajarib, $\varphi(t)$ funksiyani uzluksiz va uzluksiz $\varphi'(t)$ hosilaga ega hamda unga teskari bo'lgan $t = \psi(x)$ funksiya mavjud deb faraz qilamiz.

Bu holda (1) dan $dx = \varphi'(t)dt$ ekanligini e'tiborga olsak berilgan integral

$$\int f(x)dx = \int f[\varphi(t)]\varphi'(t) dt \quad (2)$$

ko'rinishda bo'ladi. (2) ga aniqmas integralda o'zgaruvchini almashtirish formulasi deyiladi.

Bu yerda $\varphi(t)$ ni shunday tanlash kerakki natijada (2) ning o'ng tomonidagi integral chap tomonidagi integraldan soddaroq bo'lsin. Aniqmas integralni o'zgaruvchilarni almashtirib integrallaganda chiqqan natijada yangi o'zgaruvchidan dastlabki o'zgaruvchiga qaytish shart.

$$1\text{-misol. } \int \frac{x dx}{1+x^2} = \left| \begin{matrix} t = 1+x^2 \\ dt = 2x dx \end{matrix} \right| = \frac{1}{2} \int \frac{dt}{t} = \frac{1}{2} \ln t + C = \frac{1}{2} \ln |1+x^2| + C$$

2-misol.

$$J = \int \sqrt{R^2 - x^2} dx = \left| \begin{matrix} x = R \sin t \\ dx = R \cos t dt \\ \sqrt{R^2 - x^2} = R \cos t \end{matrix} \right| = R^2 \int \cos^2 t dt = R^2 \int \frac{1 + \cos 2t}{2} dt = \frac{R^2}{2} [t + \int \cos 2t dt] =$$

$$= \frac{R^2}{2} t + \frac{R^2 \sin 2t}{4} + C$$

$$\text{Eski o'zgaruvchi } x \text{ ga qaytsak } x = R \sin t \Rightarrow \frac{x}{R} = \sin t \Rightarrow t = \arcsin \frac{x}{R}$$

$$R^2 \sin 2t = 2(R \sin t)(R \cos t) = 2x\sqrt{R^2 - x^2}.$$

$$J = \frac{R^2}{2} \arcsin \frac{x}{R} + \frac{x}{2} \sqrt{R^2 - x^2} + C.$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Boshlang'ich funksiya nima? Misollar bilan tushuntiring.
2. Qanday funksiyalarning boshlang'ich funksiyasi mavjud?
3. Qanday hollarda funksiyalar bir-biridan o'zgarish songa farq qiladi?
4. Berilgan funksiyani boshlang'ich funksiyasi yagona bo'ladimi?
5. Aniqmas integral qanday ta'riflanadi?
6. Integrallashning qanday usullarini bilasiz?
7. Differensial ostiga kiritib integrallash.
8. O'zgaruvchilarni almashtirish uslubining mohiyati nimada?
9. Bo'laklab integrallashning ma'nosini qanday tushunasiz?

MA'RUZA 9

4.9. BO'LAKLAB INTEGRALLASH. RATSIONAL KASRLARNI SODDA KASRLARGA YOYIB INTEGRALLASH. TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARNI INTEGRALLASH.

Reja.

1. Bo'laklab integrallash
2. Kasr ratsional funksiya

3. Sodda ratsional kasrlarni integrallash.
4. Kasr ratsional funksiyalarni sodda kasrlarga keltirish.
5. $\int R(\sin x, \cos x) dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash.
6. $J = \int R(\sin x) \cos x dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash.
7. $J = \int R(\tan x) dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash
8. $J = \int \sin^m x \cdot \cos^n x dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash
9. $\int \cos^m x \cdot \cos^n x dx$; $\int \sin^m x \cdot \cos^n x dx$; $\int \sin^m x \cdot \sin^n x dx$ ($m \neq n$) ko'rinishidagi integrallarni integrallash

Tayanch so'zlar. Ko'phad, ratsional kasr, to'g'ri va noto'g'ri kasr, ko'phad ildizlari, karrali ildiz

1. Bo'laklab integrallash.

Agar x bo'yicha differensiallanuvchi bo'lgan $u(x)$, $v(x)$ funksiyalar berilgan bo'lsa, u holda uv ko'paytmaning differensialiy quyidagi formula bilan hisoblanar edi :

$$d(uv) = u dv + v du \quad (3)$$

(3) ning har ikkala tomonini integrallasak:

$$\int d(uv) = \int u dv + \int v du \Rightarrow \int u dv = uv - \int v du \quad (4)$$

(4) formulaga bo'laklab integrallash formulasi deyiladi. (4) formula $\int v du$ integralni hisoblash $\int u dv$ integralni hisoblashdan osonroq bo'lgan holda foydalaniladi.

Bo'laklab integrallash usuli bilan hisoblanadigan ayrim integrallarni ko'rib o'taylik.

I. $\int P(x)e^{kx} dx$, $\int p(x)\sin kx dx$, $\int P(x)\cos kx dx$, ($P(x)$ - ko'phad, k esa biror o'zgarmas son) ko'rinishdagi integrallarni bo'laklab integrallaganda $u=P(x)$, qolganlarini dv deb olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

II. $\int P(x)\ln x dx$, $\int P(x)\arcsin x dx$, $\int P(x)\arccos x dx$, $\int P(x)\arctg x dx$, $\int P(x)\text{arctg} x dx$, ko'rinishdagi integrallarni integrallaganda u deb $\ln x$, $\arcsin x$, $\arccos x$, $\arctg x$, $\text{arctg} x$ larni olish kerak.

III. $\int e^{ax} \sin b x dx$, $\int e^{ax} \cos b x dx$, ko'rinishdagi integrallar ikki martabo'laklab integrallanadi.

$$\textbf{1-misol.} \int x e^x dx = \left| \begin{array}{l} u = x, du = dx \\ dv = e^x dx, v = e^x \end{array} \right| = x e^x - \int e^x dx = x e^x - e^x + C$$

2-misol.

$$\int x^2 \ln x dx = \left| \begin{array}{l} u = \ln x, du = \frac{dx}{x} \\ dv = x^2 dx, v = \frac{x^3}{3} \end{array} \right| = \frac{x^3}{3} \ln x - \int \frac{x^3}{3} \ln x - \int \frac{x^3}{3} \cdot \frac{dx}{x} = \frac{1}{9} x^3 \ln x - \frac{1}{9} x^3 + C$$

$$\textbf{3-misol.} J = \int e^x \cos x dx = \left| \begin{array}{l} u = e^x, du = e^x dx \\ dv = \cos x dx, v = \sin x \end{array} \right| = -e^x \sin x - \int e^x \sin x dx$$

$$\int e^x \sin x dx = \left| \begin{array}{l} u = e^x, du = e^x dx \\ dv = \sin x dx, v = -\cos x \end{array} \right| = -e^x \cos x + \int e^x \cos x dx$$

$$\int e^x \cos x dx = e^x \sin x + e^x \cos x - \int e^x \cos x dx \Rightarrow 2 \int e^x \cos x dx = e^x (\sin x + \cos x) + C$$

$$\int e^x \cos x dx = \frac{1}{2} e^x (\sin x + \cos x) + C$$

2. Kasr ratsional funksiya

Ma'lumki $P_n(x) = a_0 x^n + a_1 x^{n-1} + \dots + a_{n-1} x + a_n$ ($a_0 \neq 0$) (1) ko'phad butun ratsional funksiya deyiladi.

$$\frac{P_n(x)}{Q_m(x)} = \frac{a_0 x^n + a_1 x^{n-1} + \dots + a_{n-1} x + a_n}{b_0 x^m + b_1 x^{m-1} + \dots + b_{m-1} x + b_m} \quad (a_0 \neq 0, b_0 \neq 0)$$

esa kasr ratsional funksiya deyiladi.

Butun va kasr ratsional funksiyalar umuman ratsional funksiyalar deb ataladi.

Butun ratsional funksiyalarni integrallash integralning asosiy xossalriga ko'ra bajariladi.

$$\int P_n(x) dx = \int (a_0 x^n + a_1 x^{n-1} + \dots + a_{n-1} x + a_n) dx = \frac{a_0}{n+1} x^{n+1} + \frac{a_1}{n} x^n + \dots + \frac{a_{n-1}}{n-1} x^2 + a_n x + C$$

Agar (2) kasr ratsional funksiya berilgan bo'lib $n < m$ bo'lsa (2) ga to'g'ri kasr deyiladi. Agar $n > m$ bo'lsa (2) ga noto'g'ri kasr deyiladi.

Agar kasr noto'g'ri bo'lsa, suratini maxrajiga bo'lib, berilgan kasrni biror butun ratsional funksiya bilan biror to'g'ri kasrning yig'indisi ko'rinishda ifodalash mumkin, ya'ni

$$\frac{P_n(x)}{Q_m(x)} = M(x) + \frac{P_k(x)}{Q_m(x)}, \text{ bu yerda } M(x) - \text{butun ratsional funksiya, } \frac{P_k(x)}{Q_m(x)} - \text{to'g'ri kasr}$$

chunki $k < m$ bo'ladi.

Ko'phadlarni integrallash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi, shuning uchun biz asosan to'g'ri ratsional kasrlarni integrallash bilan shug'ullanamiz.

Ta'rif. Quyidagi to'g'ri ratsional kasrlarga eng sodda ratsional kasrlar deyiladi:

I. $\frac{A}{x-a};$

II. $\frac{A}{(x-a)^n} (n=2,3,\dots)$

III. $\frac{Ax+B}{x^2+px+q} \left(D = \frac{p^2}{4} - q < 0 \right)$

IV. $\frac{Ax+B}{(x^2+px+q)^n} \left(n=2,3,\dots; D = \frac{p^2}{4} - q < 0 \right)$

Bu yerda A, B, a, p, q lar haqiqiy sonlar $x^2 + px + q$ kvadrat uchhad haqiqiy ildizga ega emas, ya'ni $D < 0$ deb qaraladi

3. Sodda ratsional kasrlarni integrallash.

Endi yuqoridagi to'rtta eng sodda ratsional kasrlarni integrallashni ko'raylik.

I. $\int \frac{A dx}{x-a} = A \int \frac{d(x-a)}{x-a} = A \ln |x-a| + C$

II. $\int \frac{A dx}{(x-a)^n} = A \int (x-a)^{-n} d(x-a) = \frac{A}{(1-n)(x-a)^{n-1}} + C$

III. $\int \frac{Ax+B}{x^2+px+q} dx = \int \frac{\frac{A}{2}(2x+p) - \frac{Ap}{2} + B}{x^2+px+q} dx = \frac{A}{2} \int \frac{2x+p}{x^2+px+q} dx + \left(B - \frac{Ap}{2}\right) \int \frac{dx}{x^2+px+q}$

Oxirgi tenglikning o'ng tomonidagi birinchi integral $\ln|x^2|$ tengligi ravshan, chunki surati maxrajining hosilasiga teng.

Ikkinchi integralda esa, quyidagi almashtirishlar bajaramiz.

$$x^2 + px + q = \left(x + \frac{p}{2}\right)^2 + \left(q - \frac{p^2}{4}\right) = \begin{vmatrix} \left(x + \frac{p}{2}\right) = t \text{ desak } dx = dt \\ \left(q - \frac{p^2}{4}\right) = k^2 \end{vmatrix} = t^2 + k^2$$

$$\int \frac{Ax+B}{x^2+px+q} dx = \frac{A}{2} \int \frac{d(x^2+px+q)}{x^2+px+q} + \left(B - \frac{Ap}{2}\right) \int \frac{dx}{t^2+k^2} + \frac{A}{2} \ln |x^2+px+q| + \\ + \frac{1}{k} \left(B - \frac{Ap}{2}\right) \arctg \frac{t}{k} + C = \frac{A}{2} \ln |x^2+px+q| + \frac{2B-Ap}{\sqrt{4q-p^2}} \arctg \frac{2x+p}{\sqrt{4q-p^2}} + C$$

Misollar.

1. $\int (5x^3 + 4x^2 - 7x + 12) dx = \frac{5}{4} x^4 + 4x^3 - \frac{7}{2} x^2 + 12x + C$

2. $\int \frac{7dx}{(x+3)^5} = 7 \int (x+3)^{-5} dx = \frac{7}{-4} (x+3)^{-4} + C = -\frac{7dx}{4(x+3)^4} + C$

3. $\int \frac{2x-6}{x^2-6x+13} dx = \int \frac{d(x^2-6x+13)}{x^2-6x+13} \ln |x^2-6x+13| + C$

$$4. \int \frac{11dx}{x^2 - 8x + 25} = 11 \int \frac{dx}{(x-4)^2 + 9} = 11 \int \frac{dx(x-4)}{(x-4)^2 + 9} = \frac{11}{3} \operatorname{arctg} \frac{x-4}{3} + C$$

Agar maxrajdagi kvadrat uchhadning diskriminanti musbat bo'lsa, ya'ni kvadrat uchhad haqiqiy ildizga ega bo'lsa integrallar jadvalidagi natural logarifmni beradi.

$$5. \int \frac{dx}{x^2 + 6x + 5} = \int \frac{dx}{(x-3)^2 - 4} = \frac{1}{2 \cdot 2} \ln \left| \frac{x-3-2}{x-3+2} \right| + C = \frac{1}{4} \ln \left| \frac{x-5}{x-1} \right| + C$$

VI.

$$\int \frac{Ax+B}{(x^2+px+q)^n} dx = \int \frac{\frac{A}{2}(2x+p) - (B - \frac{Ap}{2})}{(x^2+px+q)^n} dx = \frac{A}{2} \int \frac{(2x+p)dx}{(x^2+px+q)^n} + (B - \frac{Ap}{2}) \int \frac{dx}{(x^2+px+q)^n}$$

O'ng tomonidagi birinchi integralni integrallasak

$$\int \frac{(2x+p)dx}{(x^2+px+q)^n} = \left| \begin{array}{l} x^2+px+q=t \\ (2x+p)dx=dt \end{array} \right| = \int \frac{dt}{t^n} = \frac{t^{-n+1}}{-n+1} + C = \frac{1}{(1-n)(x^2+px+q)^{n-1}} + C$$

Ikkinchi integralni esa J_n deb belgilasak:

$$J_n = \int \frac{dx}{(x^2+px+q)^n} = \int \frac{dx}{\left[\left(x + \frac{p}{2} \right)^2 + \left(q - \frac{p^2}{4} \right) \right]^n} = \left| x + \frac{p}{2} = t, q - \frac{p^2}{4} = k^2 \right| = \int \frac{dt}{(t^2+k^2)^n} =$$

$$= \frac{1}{k^2} \int \frac{t^2+k^2-t^2}{(t^2+k^2)^n} = \frac{1}{k^2} \int \frac{dt}{(t^2+k^2)^{n-1}} - \frac{1}{k^2} \int \frac{t^2 dt}{(t^2+k^2)^n} = \frac{1}{k^2} \left(J_{n-1} - \int \frac{t^2 dt}{(t^2+k^2)^n} \right)$$

Oxirgi integralni bo'laklab integrallasak

$$\int \frac{t^2 dt}{(t^2+k^2)^n} \left| \begin{array}{l} u=t; du=dt \\ dv=\frac{t dt}{(t^2+k^2)^n} \end{array} \right|; \quad v = \int \frac{t dt}{(t^2+k^2)^n} = \left| \begin{array}{l} t^2+k^2=z \\ 2t dt=dz \end{array} \right| = \frac{1}{2} \int \frac{dz}{z^n} = -\frac{1}{2(n-1)(t^2+k^2)^{n-1}} =$$

$$= -\frac{t}{2(n-1)(t^2+k^2)^{n-1}} + \frac{1}{2(n-1)} \int \frac{dt}{(t^2+k^2)^{n-1}} = -\frac{t}{2(n-1)(t^2+k^2)^{n-1}} + \frac{1}{2(n-1)} J_{n-1}$$

$$J_n = \frac{1}{k^2} \left(J_{n-1} - \frac{1}{2(n-1)} J_{n-1} + \frac{t}{2(n-1)(t^2+k^2)^{n-1}} \right)$$

$$J_n = \int \frac{dt}{(t^2+k^2)^n} = \frac{1}{k^2} \left(\frac{1}{(2n-2)(t^2+k^2)^{n-1}} + \frac{2n-3}{2n-2} J_{n-1} \right) \quad (n>1)$$

Bunga rekkurent (keltirish) formulasi deyiladi.

Shu jarayonni n marta davom ettirsak

$$J_1 = \int \frac{dt}{(t^2+k^2)} = \frac{1}{k} \operatorname{arctg} \frac{t}{k} + c \text{ ga kelamiz.}$$

Misol.

$$J = \int \frac{(3x+5)dx}{(x^2+2x+2)^2} = \int \frac{\frac{3}{2}(2x+2) - 3+5}{(x^2+2x+2)^2} dx = \frac{3}{2} \int \frac{(2x+2)dx}{(x^2+2x+2)^2} + 2 \int \frac{dx}{[(x+1)^2+1]} = \left| \begin{array}{l} x+1=t \\ dx=dt \end{array} \right| =$$

$$= -\frac{3}{2(x^2+2x+2)} - 2 \int \frac{dt}{(t^2+1)^2};$$

$$J_2 = \int \frac{dt}{(t^2+1)^2} = \int \frac{(t^2+1-t^2)dt}{(t^2+1)^2} = \int \frac{dt}{t^2+1} - \frac{1}{2} \int \frac{t \cdot 2tdt}{(t^2+1)^2} = \left| \begin{array}{l} u=t, du=dt \\ dv=\frac{2tdt}{(t^2+1)^2}, v=\frac{1}{t^2+1} \end{array} \right| =$$

$$= \operatorname{arctgt} - \frac{1}{2} \left(-\frac{t}{t^2+1} + \int \frac{dt}{t^2+1} \right) = \operatorname{arctgt} + \frac{1}{2(t^2+1)} - \frac{1}{2} \operatorname{arctgt} + C = \frac{t}{2(t^2+1)} + \frac{1}{2} \operatorname{arctgt} + C$$

$$J_2 = \frac{x+1}{2(x^2+2x+2)} + \frac{1}{2} \operatorname{arctg}(x+1) + C \quad J = -\frac{3}{2(x^2+2x+2)} + \frac{x+1}{x^2+2x+2} + \operatorname{arctg}(x+1) + C$$

4. Kasr ratsional funksiyalarni sodda kasrlarga keltirish.

Agar bizga biror $\frac{P_n(x)}{Q_m(x)}$ (1) ko'rinishdagi ratsional kasr berilgan bo'lsa, bu kasrni to'g'ri kasr deb ya'ni $n < m$ deb faraz qilib, uni eng sodda kasrlarga ajratishni va ularni integrallashni ko'raylik.

Buyerda $Q_m(x)$ ko'phad ildizlarining haqiqiy, kompleks va karrali bo'lishlari katta ahamiyatga ega.

Biz bilamizki biror ko'phadning ildizi deb haqiqiy yoki mavqum bo'lgan shunday a songa aytiladiki bu son berilgan ko'phadni $-Q_m(a)=0$ nolga aylantiradi.

Masalan $x^3 + x^2 - 2x - 8$ ko'phadning $x=2$ ildizi bo'ladi
 $2^3 + 2^2 - 2 \cdot 2 - 8 = 0 \Rightarrow 0 = 0$

Bizga algebradan ma'lumki, agar $a, b, c, \dots, d$ sonlar m -darajali $Q_m(x)$ ko'phadning ildizlari bo'lsa, u holda bu ko'phadni

$Q_m(x) = a_0(x-a)(x-b)(x-c)\dots(x-d)$ (2) ko'rinishda yozish mumkin. Agar $Q_m(x)$ ko'phadning ildizlari takrorlanadigan ya'ni karrali bo'lsa

$x=a$ ko'phadning k_1 karrali ildizi

$x=b$ ko'phadning k_2 karrali ildizi

$x=d$ ko'phadning k_s karrali ildizi

bo'lsa, u holda $Q_m(x)$ ko'phadni quyidagicha yozish mumkin:

$$Q_m(x) = a_0(x-a)^{k_1}(x-b)^{k_2}(x-c)^{k_3}\dots(x-d)^{k_s} \quad (3) \quad (k_1+k_2+\dots+k_s=m)$$

Agar $Q_m(x)$ ning ildizi takrorlanmaydigan kompleks son bo'lsa, u holda:

$Q_m(x) = (x^2+p_1x+q_1)(x^2+p_2x+q_2)\dots(x^2+p_kx+q_k)$ (4) ko'rinishda bo'ladi.

Agar $Q_m(x)$ ko'phadning ildizlari kompleks karrali bo'lsa, bu holda ko'phadni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Q_m(x) = (x^2+p_1x+q_1)^{t_1}(x^2+p_2x+q_2)^{t_2}\dots(x^2+p_kx+q_k)^{t_r} \quad (5) \quad (t_1+t_2+\dots+t_r=m)$$

1-teorema. Agar (1) to'g'ri ratsional kasr maxrajidagi $Q_m(x)$ ko'phad m ta haqiqiy har xil $a, b, c, \dots, d$ ildizlarga ega bo'lib, (2) ko'rinishda bo'lsa, u holda (1) kasr I-tipdagi eng sodda kasrlarga ajraladi:

$$\frac{P_n(x)}{Q_m(x)} = \frac{A}{x-a} + \frac{B}{x-b} + \frac{C}{x-c} + \dots + \frac{D}{x-d} \quad (6)$$

$A, B, C, \dots, D$ lar noma'lum o'zgarmas koeffitsiyentlar.

2-teorema. Agar (1) to'g'ri kasr maxrajidagi $Q_m(x)$ ko'phad ildizlari haqiqiy karrali bo'lib, (3) ko'rinishda bo'lsa, u holda (1) kasr I, II -tipdagi eng sodda kasrlarga ajraladi:

$$\left. \begin{aligned} \frac{P_n(x)}{Q_m(x)} = & \frac{A_1}{(x-a)^{k_1}} + \frac{A_2}{(x-a)^{k_1-1}} + \frac{A_3}{(x-a)^{k_1-2}} + \dots + \frac{A_{k_1}}{x-a} \\ & + \frac{B_1}{(x-b)^{k_2}} + \frac{B_2}{(x-b)^{k_2-1}} + \frac{B_3}{(x-b)^{k_2-2}} + \dots + \frac{B_{k_2}}{x-b} + \\ & + \dots + \frac{D_1}{(x-d)^{k_s}} + \frac{D_2}{(x-d)^{k_s-1}} + \frac{D_3}{(x-d)^{k_s-2}} + \dots + \frac{D_{k_s}}{x-d} + \end{aligned} \right\} \quad (7)$$

3-teorema. Agar (J) to'g'ri kasr maxrajidagi $Q_m(x)$ ko'phad ildizlari takrorlanmaydigan kompleks sonlar bo'lib, (4) ko'rinishda bo'lsa, u holda (1) kasr III -tipdagi eng sodda kasrlarga ajraladi:

$$\frac{P_n(x)}{Q_m(x)} = \frac{M_1x+N_1}{x^2+p_1x+q_1} + \frac{M_2x+N_2}{x^2+p_2x+q_2} + \dots + \frac{M_kx+N_k}{x^2+p_kx+q_k} \quad (8)$$

$M_1, N_1, M_2, N_2, \dots, M_k, N_k$ lar noma'lum o'zgarmas koeffitsiyentlar.

4-teorema. Agar (1) to'g'ri kasr maxrajidagi $Q_m(x)$ ko'phad ildizlari kompleks karrali bo'lib, (5) ko'rinishda bo'lsa, u holda (1) kasr III va IV -tipdagi eng sodda kasrlarga ajraladi:

$$\left. \begin{aligned} \frac{P_n(x)}{Q_m(x)} &= \frac{M_1x + N_1}{(x^2 + p_1x + q_1)^{t_1}} + \frac{M_2x + N_2}{(x^2 + p_1x + q_1)^{t_1-1}} + \dots + \frac{M_{t_1}x + N_{t_1}}{x^2 + p_1x + q_1} + \\ &+ \frac{E_1x + F_1}{(x^2 + p_2x + q_2)^{t_2}} + \frac{E_2x + F_2}{(x^2 + p_2x + q_2)^{t_2-1}} + \dots + \frac{E_{t_2}x + F_{t_2}}{(x^2 + p_2x + q_2)} + \\ &+ \dots + \frac{A_1x + B_1}{(x^2 + p_rx + q_r)^{t_r}} + \frac{A_2x + B_2}{(x^2 + p_rx + q_r)^{t_r-1}} + \dots + \frac{A_{t_r}x + B_{t_r}}{(x^2 + p_rx + q_r)} \end{aligned} \right\} \quad (9)$$

$M_1, N_1, \dots, A_t, B_t$ lar noma'lura o'zgarmas koeffitsiyentlar.

Shunday qilib (1) to'g'ri kasr raaxrajidagi $Q_m(x)$ ko'phadning ildizi haqiqiy har xil, haqiqiy karrali, kompleks va kompleks karrali bo'lsa, u holda (1) kasrni I,II,III,IV - tiplardagi eng sodda kasrlardan tashkil topgan (6),(7),(8),(9) ko'rinishdagi eng sodda kasrlarga ajratish murakin ekan.

(6),(7),(8),(9) ifodalardagi $A_i, B_i, \dots, D_i, M_i, N_i$ o'zgarmas noma'lumlarni topish uchun (6)-(9) tengliklarni (ayniyatlarini) umumiy maxrajga keltirib, chap va o'ng tomonlarida bir xil darajali ko'phad hosil qilamiz. So'ngra suratlaridagi chap va o'ng tomonidagi bir xil darajali x larning oldidagi koeffitsiyentlarni tenglashtirib, yuqoridagi nomalum o'zgarmas $A_i, B_i, \dots, D_i, M_i, N_i$ koeffitsiyentlarga nisbatan algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz va uni yechib noma'lum koeffitsiyentlar aniqlanadi. So'ngra topilgan noma'lumlar o'rinlariga qo'yilib (6),(7),(8),(9) kasrlar bizga ma'lum bo'lgan eng sodda kasrlar kabi integrallanadi.

1-misol. $\frac{25x^2 - 20x + 2}{x^3 - 5x^2 + 4x}$ integrallang.

$$x^3 - 5x^2 + 4x = x(x^2 - 5x + 4) = x(x-4)(x-1)$$

$$\frac{25x^2 - 20x + 2}{x^3 - 5x^2 + 4x} = \frac{25x^2 - 20x + 2}{x(x-4)(x-1)} = \frac{A}{x} + \frac{B}{x-4} + \frac{D}{x-1} \Rightarrow \text{umumiy maxrajga keltirsak}$$

$$\frac{25x^2 - 20x + 2}{x(x-4)(x-1)} = \frac{A(x-4)(x-1) + Bx(x-1) + Dx(x-4)}{x(x-4)(x-1)} \quad \text{suratlarini tenglashtirib quyidagini hosil}$$

qilamiz:

$$25x^2 - 20x + 2 = A(x-4)(x-1) + Bx(x-1) + Dx(x-4)$$

$$25x^2 - 20x + 2 = Ax^2 - Ax - 4Ax + 4A + Bx^2 - Bx + Dx^2 - 4Dx$$

O'ng va chap tomonidagi bir xil darajali x ning oldidagi koeffitsiyentlarini tenglashtirib, quyidagi algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\left. \begin{aligned} x^2 : 25 &= A + B + D \\ x : -20 &= -A - 4A - B - 4D \\ x^0 : 2 &= 4A \end{aligned} \right\} \Rightarrow A = \frac{1}{2}; B = \frac{161}{6}; D = -\frac{7}{3}$$

$$\frac{25x^2 - 20x + 2}{x(x-4)(x-1)} = \frac{1}{2x} + \frac{161}{6(x-4)} - \frac{7}{3(x-1)} \quad \text{endi integrallasak}$$

$$\frac{25x^2 - 20x + 2}{x(x-4)(x-1)} dx = \frac{1}{2} \int \frac{dx}{x} + \frac{161}{6} \int \frac{dx}{x-4} - \frac{7}{3} \int \frac{dx}{x-1} = \frac{1}{2} \ln|x| + \frac{161}{6} \ln|x-4| - \frac{7}{3} \ln|x-1| + C$$

2-misol. $\int \frac{x^3 - 2x^2 + 4}{x^3(x-2)^2} dx$

$$\frac{x^3 - 2x^2 + 4}{x^3(x-2)^2} = \frac{A}{x^3} + \frac{B}{x^2} + \frac{D}{x} + \frac{E}{(x-2)^2} + \frac{F}{x-2}$$

$$\frac{x^3 - 2x^2 + 4}{x^3(x-2)^2} = \frac{A(x-2)^2 + Bx(x-2)^2 + Dx^2(x-2)^2 + Ex^3 + Fx^3(x-2)}{x^3(x-2)^2}$$

$$x^3 - 2x^2 + 4 = Ax^2 - 4Ax + 4A + Bx^3 - 4Bx^2 + 4Bx + Dx^4 - 4Dx^3 + 4Dx^2 + Ex^3 + Fx^4 - 2Fx^3$$

$$\left. \begin{array}{l} x^4 : 0 = D + F \\ x^3 : 1 = -4D + E - 2F + B \\ x^2 : -2 = A - 4B + 4D \\ x : 0 = -4A + 4B \\ x^0 : 4 = 4A \end{array} \right\} \Rightarrow A=1, B=1, D=\frac{1}{4}, E=\frac{1}{2}; F=-\frac{1}{4}$$

$$\int \frac{x^3 - 2x^2 + 4}{x^3(x-2)^2} dx = \int \frac{dx}{x^3} + \int \frac{dx}{x^2} + \frac{1}{4} \int \frac{dx}{x} + \frac{1}{2} \int \frac{dx}{(x-2)^2} - \frac{1}{4} \int \frac{dx}{x-2} = -\frac{1}{2x^3} - \frac{1}{x} + \frac{1}{4} \ln|x| - \frac{1}{4} \ln|x-2| - \frac{1}{2(x-2)}$$

3-misol. $\int \frac{xdx}{(x^2+1)(x^2+2x+5)}$ integrallang.

$$X^2+1=0 \Rightarrow x_1\sqrt{-1}=i; x_2=-\sqrt{-1}=-i$$

$$x^2+2x+5=0 \Rightarrow x_3=-1+2i; x_4=-1-2i$$

$$\frac{x}{(x^2+1)(x^2+2x+5)} = \frac{M_1x+N_1}{x^2+1} + \frac{M_2x+N_2}{x^2+2x+5}$$

$$\frac{x}{(x^2+1)(x^2+2x+5)} = \frac{(M_1x+N_1)(x^2+2x+5) + (M_2x+N_2)(x^2+1)}{(x^2+1)(x^2+2x+5)}$$

$$x = M_1x^3 + 2M_1x^2 + 5M_1x + N_1x^2 + 2N_1x + 5N_1 + M_2x^3 + N_2x^2 + M_2x + N_2$$

$$\left. \begin{array}{l} x^3 : 0 = M_1 + M_2 \\ x^2 : 0 = 2M_1 + N_1 + N_2 \\ x : 1 = 5M_1 + 2N_1 + M_2 \\ x^0 : 0 = 5N_1 + N_2 \end{array} \right\} \Rightarrow M_1 = \frac{1}{5}; M_2 = -\frac{1}{5}; N_1 = \frac{1}{10}; N_2 = -\frac{1}{2}$$

$$\frac{x}{(x^2+1)(x^2+2x+5)} = \frac{2x+1}{10(x^2+1)} - \frac{2x+5}{10(x^2+2x+5)} = \frac{2x+1}{10(x^2+1)} - \frac{2x+2+3}{10(x^2+2x+5)}$$

$$\begin{aligned} \frac{xdx}{(x^2+1)(x^2+2x+5)} &= \frac{1}{10} \int \frac{2xdx}{x^2+1} + \frac{1}{10} \int \frac{dx}{x^2+1} - \frac{1}{10} \int \frac{(2x+2)dx}{x^2+2x+5} - \frac{1}{10} \int \frac{3dx}{(x+1)^2+4} = \\ &= \frac{1}{10} \ln|x^2+1| + \frac{1}{10} \arctg x - \frac{1}{10} \ln|x^2+2x+5| - \frac{3}{20} \arctg \frac{x+1}{2} C \end{aligned}$$

5. $\int R(\sin x, \cos x) dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash.

Biz shu paytgacha algebraik funksiyalarni ya'ni ratsional va irratsional funksiyalarni integrallashni ko'rdik. Endi $\int R(\sin x, \cos x) dx$ (1) ko'rinishdagi integralni ko'raylik. Bu integralni har vaqt $\operatorname{tg} \frac{x}{2} = t$ (2) almashtirish yordamida ratsional funksiyaning integraliga keltirish mumkin.

$$\sin x = 2 \sin \frac{x}{2} \cdot \cos \frac{x}{2} = \frac{2 \sin \frac{x}{2} \cdot \cos \frac{x}{2}}{\sin^2 \frac{x}{2} + \cos^2 \frac{x}{2}} = \frac{2 \operatorname{tg} \frac{x}{2}}{1 + \operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}} = \frac{2t}{1+t^2}$$

$$\cos x = \cos^2 \frac{x}{2} - \sin^2 \frac{x}{2} = \frac{\cos^2 \frac{x}{2} - \sin^2 \frac{x}{2}}{\cos^2 \frac{x}{2} + \sin^2 \frac{x}{2}} = \frac{1 - \operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}}{1 + \operatorname{tg}^2 \frac{x}{2}} = \frac{1-t^2}{1+t^2} \quad \operatorname{tg} \frac{x}{2} = t \Rightarrow x = 2 \arctg t \Rightarrow dx = \frac{2dt}{1+t^2}$$

$$\text{Shunday qilib} \quad \left. \begin{array}{l} \sin x = \frac{2t}{1+t^2}; \cos x = \frac{1-t^2}{1+t^2} \\ x = 2 \arctg t; dx = \frac{2dt}{1+t^2} \end{array} \right\}$$

(3) ni (1) ga qo'ysak $\int R(\sin x, \cos x) dx = \int R\left(\frac{2t}{1+t^2}, \frac{1-t^2}{1+t^2}\right) \frac{2dt}{1+t^2}$ ratsional funksiyaning integrali

hosil bo'ladi. (2) almashtirish (1) ko'rinishdagi har qanday integralni integrallashga imkon beradi. Shuning uchun (2) ga universal almashtirish ham deyiladi.

Endi ba'zi bir xususiy hollarni ko'rib o'taylik.

6. $J = \int R(\sin x) \cos x dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash.

$J = \int R(\sin x) \cos x dx$ ko'rinishdagi integral $\sin x = t$, $\cos x dx = dt$ almashtirish bilan $J = \int R(t) dt$ ko'rinishdagi ratsional funksiya'ning integraliga keladi.

7. $J = \int R(\tan x) dx$ ko'rinishdagi integrallarni integrallash

$J = \int R(\tan x) dx$ ko'rinishdagi integral esa $\tan x = t$, $x = \arctg t$, $dx = \frac{dt}{1+t^2}$ almashtirish bilan

$J = \int R(t) \frac{dt}{1+t^2}$ ko'rinishga keladi.

8. $J = \int \sin^m x \cdot \cos^n x dx$ integrallarni integrallash

$J = \int \sin^m x \cdot \cos^n x dx$ integralda n va n larning bittasi toq bo'lsin, masalan $n=2p+1$ desak

$$J = \int \sin^m x \cdot \cos^{2p+1} x dx = \int \sin^m x \cdot \cos^{2p} x \cos x dx = \int \sin^m x \cdot (1 - \sin^2 x)^p \cos x dx = \left| \begin{array}{l} \sin x = t \\ \cos x dx = dt \end{array} \right| = \int t^m (1-t^2)^p dt$$

-bu esa t ning ratsional funksional.

$J = \int \sin^m x \cdot \cos^n x dx$ integralda m va n lar juft bo'lib, ularning bittasi manfiy bo'lsa $\tan x = t$ yoki $\cot x = t$ almashtirish bajariladi.

Agar m, n lar manfiy bo'lmagan juft sonlar bo'lsa, bu holda

$$\sin^2 x = \frac{1}{2}(1 - \cos 2x), \cos^2 x = \frac{1}{2}(1 + \cos 2x) \text{ formuladan foydalaniladi.}$$

9. $\int \cos^m x \cdot \cos^n x dx$; $\int \sin^m x \cdot \cos^n x dx$; $\int \sin^m x \cdot \sin^n x dx$ ($m \neq n$) ko'rinishidagi integrallarni integrallash

ko'rinishdagi integrallarni hisoblashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$\cos^m x \cdot \cos^n x = \frac{1}{2} [\cos(m+n)x + \cos(m-n)x]$$

$$\sin^m x \cdot \cos^n x = \frac{1}{2} [\sin(m+n)x + \sin(m-n)x]$$

$$\sin^m x \cdot \sin^n x = \frac{1}{2} [\cos(m-n)x - \cos(m+n)x]$$

Misol

$$1. J = \int \frac{dx}{3+5\cos x} = \left| \cos x = \frac{1-t^2}{1+t^2}; dx = \frac{2dt}{1+t^2} \right| = \int \frac{dt}{4-t^2} = \frac{1}{4} \ln \left| \frac{2+t}{2-t} \right| + C = \frac{1}{4} \ln \left| \frac{2+tg \frac{x}{2}}{2-tg \frac{x}{2}} \right| + C$$

$$2. \int \sin^2 x \cdot \cos^3 x dx = \int \sin^2 x (1 - \sin^2 x) \cdot \cos x dx = \left| \begin{array}{l} \sin x = t \\ dt = \cos x dx \end{array} \right| = \int t^2 (1-t^2) dt = \frac{t^3}{3} - \frac{t^5}{5} + C = \frac{1}{3} \sin^3 x - \frac{1}{5} \sin^5 x + C$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ko'phad nima?
2. Ratsional kasr nima? Ildiz nima?
3. Ratsional kasr eng sodda kasrlarga qanday ajratiladi?
4. Ratsional kasr sodda kasrlarga ajratishda qanday hollar bo'lishi mumkin?
5. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishni bilasizmi?
6. Maxraji kompleks ildizlarga ega bo'lgan holda ratsional kasrlar qanday integrallanadi?
7. Trigonometrik funksiyalarni integrallashda qanday almashtirishlar ishlatiladi?
8. Qanday trigonometric funksiyalarni integrallashda $\tan x = t$ yoki $\cot x = t$ almashtirish bajariladi?

4.10. ANIQ INTEGRALNING TA'RIFI. N'YUTON-LEYBNIS FORMULASI. O'ZGARUVCHINI ALMASHTIRIB, BO'LAKLAB INTEGRALLASH. ANIQ INTEGRAL YURDAMIDA YUZA VA HAJMLARNI HISOBLASH. XOSMAS INTEGRAL. TURLI DASTURIY PAKETLAR YORDAMIDA AMALIY MASALALAR YECHISH

Reja.

1. Egri chiziqli trapetsiyaning yuzini topish.
2. Kuch ta'srida bajarilgan ishni hisoblash masalasi.
3. Aniq integral va uning ta'rif.
4. Aniq integrallning xossalari.
5. Yuqori chegarasi o'zgaruvchi bo'lgan integral va Nyuton-leybnis formulasi
6. To'g'ri burchakli koordinatalar sistemasida Yuzalarni hisoblash.
7. Aniq integralda o'zgaruvchini almashtirish.
8. Aniq integralni bo'laklab integrallash
9. Xosmas integral.


Tayanch so'zlar. Funksiya, egri chiziqli trapesiya, kesma, yuza, ish, kuch, integral yig'indi, limit.

1. Egri chiziqli trapetsiyaning yuzini topish.

Yuqoridan tenglamasi $y=f(x)$ egri chiziq bilan, pastdan OX o'qi bilan, yon tomonlaridan $x=a$, $x=b$ to'g'ri chiziqlari bilan chegaralangan egri chiziqli trapesiyaning yuzini toping.

Faraz qilaylik $[a,b]$ kesmada $y=f(x)$ funksiya aniqlangan, uzuliksiz va $f(x) \geq 0$ bo'lsin. $[a,b]$ kesmasini $a=x_0 < x_1 < x_2 < \dots < x_n=b$ nuqtalar bilan $n[x_{i-1}, x_i]$, ($i=\overline{1,n}$) ta bo'lakchalarga bo'lib va bo'linish nuqtalaridan OY o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkazsak natijada **acdb** egri chiziqli trapesiyamiz n ta kichik egri chiziqli trapesiyalarga (trapesiyachalarga) ajraladi. Endi har bir $[x_{i-1}, x_i]$ kesmachada ixtiyoriy ξ_i , ($i=\overline{1,n}$) nuqta tanlab olinib, $f(x)$ funksiyaning bu ξ_i nuqtalaridagi qiymatlarini $f(\xi_i)$, asosi $\Delta x_i = x_i - x_{i-1}$ bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuziga teng bo'ladi:

$$s_i \approx f(\xi_i) \Delta x_i \quad (i=\overline{1,n}) \quad c$$



Butun ya'ni **acdb** egri chiziqli trapesiyaning yuzi taxminan hamma kichik egri chiziqli trapesiyalar yuzlarining yigindisiga teng bo'ladi:

$$s \approx f(\xi_1) \Delta x_1 + f(\xi_2) \Delta x_2 + \dots + f(\xi_n) \Delta x_n = \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i$$


(1)

Agar $[x_{i-1}, x_i]$ kesmalar uzunliklarining eng kattasini $\lambda \rightarrow$

$$S = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i \quad (2)$$

desak bo'ladi.

2. Kuch ta'srida bajarilgan ishni hisoblash masalasi.



Faraz qilaylik biror D moddiy nuqtaga OX o'qi yo'nalishida biror o'zgaruvchan $F=f(x)$ kuch ta'sir qilinsin. Moddiy D nuqtaning F kuch ta'sirida biror a nuqtadan b nuqtagacha harajatangandagi bajarilgan ishini hisoblaylik.

$[a,b]$ kesmasini n ta $[x_{i-1}, x_i]$ ($i = \overline{1, n}$)

bo'lakchalarga bo'lib har bir $[x_{i-1}, x_i]$

bo'lakchada F kuchini deyarli



o'zgarmas deb hisoblasak u holda har bir bo'lakchada bajarilgan ish taxminan $A_i \approx f(\xi_i) \Delta x_i$ bo'ladi. Bu erda $\xi \in [x_{i-1}, x_i]$, $f(\xi_i)$ esa kesmadagi ta'sir etayotgan kuch.

U holda $[a,b]$ da $F=f(x)$ kuch ta'sirida bajarilgan taxminan

$$A \approx f(\xi_1) \Delta x_1 + f(\xi_2) \Delta x_2 + \dots + f(\xi_n) \Delta x_n = \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i$$

Agar $\max\{\Delta x_i\} = \lambda$ desak va $\lambda \rightarrow 0$ bo'lsa, u holda bajarilgan ish quyidagicha bo'ladi:

$$A = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i \quad (3)$$

Juda ko'p texnika, mexanika va fizika masalalarini yechishda (2),(3) ko'rinishdagi yigindilarning limitini hisoblashga to'g'ri keladi.

3. Aniq integral va uning ta'rifi.

$y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada aniqlangan bo'lsin. $[a,b]$ ni $a=x_0 < x_1 < \dots < x_n=b$ nuqtalar bilan n ta bo'lakchalarga ajratib va har bir $[x_{i-1}, x_i]$ ($i = \overline{1, n}$) kesmada ixtiyoriy ξ_i , ($i = \overline{1, n}$) nuqta olib bu nuqtalardagi $f(x)$ funksiyasining qiymatlarini $f(\xi_i)$ deylik $[x_{i-1}, x_i]$ kesmalarning uzunliklarini $\Delta x = x_i - x_{i-1}$ deb belgilab quyidagi ko'paytmalar yigindisini tuzaylik:

$$s = f(\xi_1) \Delta x_1 + f(\xi_2) \Delta x_2 + \dots + f(\xi_n) \Delta x_n = \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i \quad (1)$$

(-1)ga funksiyaning $[a,b]$ kesmadagi integral yigindisi deyiladi.

Ta'rif. Agar $[a,b]$ da aniqlangan $f(x)$ funksiya uchun tuzilgan (1) integral yigindi, $\lambda \rightarrow 0$ da $[a,b]$ ni ixtiyoriy n ta bo'lakchalarga bo'lish usuliga va har bir $[x_{i-1}, x_i]$ bo'lakchada ixtiyoriy ξ_i nuqtani tanlab olish usuliga bog'liq bo'lmagan limitga ega bo'lsa, bu limitga $[a,b]$ kesmada $f(x)$ funksiyadan olingan aniq integral deyiladi va

$$\int_a^b f(x) dx$$

ko'rinishida yoziladi.⁶

Shunday qilib ta'rifga ko'ra
$$\int_a^b f(x) dx = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i \quad (2)$$

a, b -larga mos ravishda integralning quyi va yuqori chegarasi, $[a,b]$ ga integrallash sohasi deyiladi.

Agar $f(x)$ funksiya uchun (2) limit mavjud bo'lsa $f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ kesmada integrallanuvchi funksiya deyiladi.

Aniq integralning geometric ma'nosi yuqoridagi

1-masaladagi egri chiziqli rapesiyaning yuzini beradi:

$$s = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i = \int_a^b f(x) dx$$

2- masalada esa bajarilgan ish $F=f(x)$ kuchdan olingan integralga teng:

⁶ James Stewart Calculus 7E 296-310- betlar

$$A = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta_i = \int_a^b f(x) dx$$

1-teorema. $[a, b]$ kesmada uzulisiz bo'lgan har qanday $f(x)$ funksiya shu kesmada integrallanuvchi bo'ladi.

2-teorema. $f(x)$ funksiya $[a, b]$ da integrallanuvchi bo'lishi uchun shu kesmada chegaralangan bo'lishi zarur.

1-eslatma. $[a, b]$ da chegaralanmagan funksiya shu kesmada integrallanuvchi bo'lmaydi.

2-eslatma. Agar $f(x)$ funksiya $[a, b]$ da chekli, ya'ni sanoqli uzilish nuqtalariga ega bo'lib, chegaralangan bo'lsa, bu funksiya shu kesmada integrallanuvchi bo'ladi.

Agar $a > b$ bo'lsa $\int_a^b f(x) dx = -\int_b^a f(x) dx$ bo'ladi, chunki $a = x_0 > x_1 > x_2 > \dots > x_n = b$

Bo'lib $\Delta x_i = x_i - x_{i-1} < 0$ bo'ladi. Agar $a = b$ bo'lsa $\int_a^b f(x) dx = 0$ bo'ladi:

Integral o'zgaruvchini har qanday harif bilan belgilash mumkin:

$$\int_a^b f(x) dx = \int_a^b f(t) dt = \int_a^b f(z) dz = \int_a^b f(y) dy$$

4. Aniq integrallning xossalari.

1-xossa. O'zgarmas ko'paytuvchini aniq integral belgisidan tashqari chiqarish mumkin:

$$\int_a^b A f(x) dx = A \int_a^b f(x) dx \quad (A - \text{o'zgarmas son})$$

$$\begin{aligned} \text{Isboti. } \int_a^b A f(x) dx &= \left(\text{aniq integral} \right) = \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n A f(\xi_i) \Delta x_i = \left(\lim \text{itning} \right) \\ &= A \lim_{\lambda \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \Delta x_i = A \int_a^b f(x) dx \end{aligned}$$

Keyingi xossalari ham aniq integralning ta'rifidan va limitning xossalaridan foydalanib osongina isbotlanadi. Shuning uchun biz ularning isbotini o'qituvchilarga havola qilib, ba'zilarining geometric ma'nosini ko'rsatib beramiz.

$$\text{2-xossa} \quad \int_a^b [f_1(x) \pm f_2(x)] dx = \int_a^b f_1(x) dx \pm \int_a^b f_2(x) dx$$

3-xossa Agar $[a, b]$ da $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar $f(x) \leq \varphi(x)$ tengsizlikni qanoatlantirsalar, u holda

$$\int_a^b f(x) dx \leq \int_a^b \varphi(x) dx \quad \text{munosabat o'rinli bo'ladi.}$$

Isboti. Geometrik nuqtai

Nazardan ko'raylik. Agar $f(x) > 0$,


$\varphi(x) > 0$ bo'lib, $f(x) \leq \varphi(x)$ bo'lsa u holda

aA_1B_1b egri chiziqli trapesiyaning yuzidan kichik bo'lmaydi.

4-xossa. Agar $f(x)$ funksiya $[a, c], [c, b]$ ($a < c < b$) kesmalarning har biriga integrallanuvchi bo'lsa, u holda bu funksiya shu $[a, b]$ da ham integrallanuvchi bo'lib.

$$\int_a^b f(x) dx = \int_a^c f(x) dx + \int_c^b f(x) dx$$

bo'ladi



Bu hossaning geometrik ma'nosi: asosi $[a,b]$ bo'lgan egri chiziqli trapesiyaning yuzi asoslari $[a,c]$ va $[c,b]$ bo'lgan egri chiziqli trapesiyalar yuzlarining yigindisiga teng bo'ladi.

5-xossa. Agar $[a,b]$ da diffrensiallanuvchi bo'lgan $f(x)$ funksiyaning shu kichik va eng katta qiymatlari mos ravishda m va M bo'lib, $a \leq b$ bo'lsa, u holda

$$m(b-a) \leq \int_a^b f(x)dx \leq M(b-a)$$

Munosabat o'rinli bo'ladi.


$$\text{Isboti. } m \leq f(x) \leq M \Rightarrow \int_a^b m dx \leq \int_a^b f(x)dx \leq \int_a^b M dx \Rightarrow m(b-a) \leq \int_a^b f(x)dx \leq M(b-a)$$

6-xossa. (O'rta qiymat haqidagi teorema). Agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzuliksiz bo'lsa, u holda bu kesmada shunday ξ nuqta topiladiki, vu nuqtada

$$\int_a^b f(x)dx = (b-a)f(\xi)$$

Munosabat o'rinli bo'ladi.

Isboti.geometrik nuqtai nazardan aA_1B_1 egri chiziqli trapesiyaning yuzi taxminan $aABb$ to'g'ri to'rtburchak ning yuziga teng



5. Yuqori chegarasi o'zgaruvchi bo'lgan integral va [Nyuton-leybonis formulasi](#).

Faraz qilaylik $[a,b]$ kesmada integrallanuvchi bo'lgan $f(x)$ funksiyadan olingan integral

$$\int_a^b f(x)dx$$

bo'lsin.

Biz bilamizki integral o'zgaruvchini istalgan harf bilan belgilash mumkin, shuning uchun


$$\int_a^b f(x)dx = \int_a^b f(u)du$$

deylik.

Biz bilamizki agar $f(x)$ funksiya $[a,b]$ da integrallanuvchi bo'lsa $[a,x]$ da ($a \leq x \leq b$) ya'ni $\forall x \in [a,b]$ ham integrallanuvchi bo'lib, integral qiymati x ning funksiyasi bo'ladi.

$$\Phi(x) = \int_a^x f(u)du \quad (1)$$

(1)integral $acdx$ egri chiziqli trapesiyaning yuzini ifodalaydi. Agar $[a,b]$ da x o'zgarsa $\Phi(x)$ ham o'zgarishi ravshan.



Teorema. Agar $f(u)$ funksiya $u=x \in [a,b]$ nuqtada uzuliksiz bo'lsa u holda $\int_a^x f(u)du$

integraldan yuqori chegarasi bo'yicha olingan hosila integral ostidagi funlsiyaga teng b'lib, unda integrallash o'zgaruvchisi o'rniga integralning yuqori chegarasi qo'yiladi, ya'ni

$$\Phi'(x) = f(x) \text{ yoki } \left(\int_a^x (u)du \right)' = f(x) \text{ bo'ladi.}$$

Isboti. x ga Δx orttirma bersak $\Phi(x)$ orttirma oladi.

$$\Delta \Phi(x) = \Phi(x + \Delta x) - \Phi(x) = \int_a^{x+\Delta x} f(u) du - \int_a^x f(u) du = \int_a^x f(u) du + \int_x^{x+\Delta x} f(u) du - \int_a^x f(u) du = \int_x^{x+\Delta x} f(u) du$$

$\Delta \Phi(x) = \int_x^{x+\Delta x} f(u) du$. Agar $\int_x^{x+\Delta x} f(u) du$ integralka o`rta qiymat haqidagi teoremani tadbiq qilsak

$$\int_x^{x+\Delta x} f(u) du = f(\xi) \Delta x \quad (x < \xi < x + \Delta x) \text{ bo`lib, } \Delta \Phi(x) = f(\xi) \Delta x \text{ bo`ladi.}$$

$$\text{hosilaning ta`rifiga ko`ra } \Phi'(x) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta \Phi(x)}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(\xi) \Delta x}{\Delta x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} f(\xi) = f(x)$$

chunki $\Delta x \rightarrow 0$ da $x + \Delta x \rightarrow x$ demak $x < \xi < x + \Delta x$ bo`lgani uchun $\Delta x \rightarrow 0$ da $\xi \rightarrow x$ ravshan. Shunday qilib $\Phi'(x) = f(x)$

Bu isbot qilingan, matematik analiz kursining asosiy teoremlarining biri bo`lgan teoremdan ko`rinadiki $[a, b]$ da uzuliksiz bo`lgan har qanday  $f(x)$  funksiya uchun  $\int_a^x f(u) du$  aniq integrak bshlang`ich funksiyasi cheksiz ko`p bo`lgani uchun ularning ixtiyoriy bittasini $F(x)$ boshqasiga esa $\int_a^x f(u) du$ desak ular bir biridan o`zgarmas sonda farq qiladi:

$$F(x) = \int_a^x f(u) du + C$$

O`zgarmas C ni topish uchun, $x=a$ desak $F(a) = \int_a^a f(u) du + C \Rightarrow C = F(a)$, $x=b$ desak

$$F(b) = \int_a^b f(u) du = F(a) \Rightarrow \int_a^b f(u) du = F(b) - F(a) \text{ yoki } \int_a^b f(x) dx = F(b) - F(a)$$


Nyuton-leybnis formulasi kelib chiqadi.

$$F(b) - F(a) = F(x) \Big|_a^b \text{ deb ham belgilanadi.}$$

6. To`g`ri burchakli koordinatalar sistemasida Yuzalarni hisoblash.

Biz bilamizki agar $y=f(x)$ funksiya $[a, b]$ kesmada aniqlangan, aniqlangan uzuliksiz va $f(x) \geq 0$ bo`lsa, u holda yuqoridan tenglamasi  $y=f(x)$  bo`lgan egri chiziq bilan va yon tomonlaridan $x=a$, $x=b$, to`g`ri chiziqlar bilan chegaralangan egrichiziqli


$$\text{trapesiyaning yuzi } S = \int_a^b f(x) dx \quad (1) \text{ bo`lar edi}$$



a) Agar $[a, b]$ kesmada $f(x) < 0$ bo`lsa, u holda

$$\int_a^b f(x) dx \text{ integral qiymati ham manfiy bo`ladi,}$$


$$\text{ya`ni } S = \int_a^b [-f(x)] dx = - \int_a^b f(x) dx$$



b) agar $y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada ishorasini chekli son marta almashtirsa u holda $f(x) \geq 0$ bo'lgan kesmalar uchun alohida, $f(x) < 0$ bo'lgan kesmalar uchun alohida aniq integrallar hisoblanib so'ngra ular qo'shiladi

$a < c < d < b$ bo'lsa

$$S = \int_a^c f(x)dx - \int_c^d f(x)dx + \int_d^b f(x)dx$$



Aslida yuzalar manfiy bo'lmagani uchun yuzalar yig'indisinin odatdagi ma'noda hosil qilish uchun integrallar absolyut qiymatlar yig'indisini olish kerak ya'ni


$$S = \int_a^b |f(x)|dx$$

v) Agar yuqoridan $y=f_1(x)$, pastdan $y=f_2(x)$ egri chiziqlar bilan yn tomonlardan esa $x=a$, $x=b$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan yuza

$f_1(x) \geq f_2(x)$, $a < b$ bo'lgan holda

$$S = \int_a^b [f_1(x) - f_2(x)]dx = \int_a^b f_1(x)dx - \int_a^b f_2(x)dx$$

(2) formula bilan hisoblanadi.




x

g) agar egri chiziqli trapesiyamiz yuqoridan parametric tenglamasi $x=\varphi(t)$, $y=\psi(t)$ ($a \leq t \leq \beta$ va $\varphi(\alpha)=a$, $\varphi(\beta)=b$) bo'lgan negri chiziq bilan chegaralangan bo'lsa, u holda bu yuzani

topish uchun $S = \int_a^b f(x)dx = \int_a^b ydx$ formulada $x=\varphi(t)$ $dx=\varphi'(t)$

$y=f(x)=f[\varphi(t)]=\psi(t)$ almashtirish bajarsak $S = \int_{\alpha}^{\beta} \psi(t)\varphi'(t)dt$ (3) formul hosil bo'ladi.

Misollar. 1) Tenglamasi $y=y^2$ va $x=a$ bo'lgan chiziqlar bilan chegaralangan yuzani toping.



$$S = 2 \int_0^a ydx = 2 \int_0^a \sqrt{x}dx = \frac{4}{3} x^{\frac{3}{2}} \Big|_0^a = \frac{4}{3} a\sqrt{a}$$

7. Aniq integralda o'zgaruvchini almashtirish.

Faraz qilaylik bizda $[a,b]$ kesmada integrallanuvchi bo'lgan funksiya $f(x)$ berilgan bo'lib,

undan shu kesmada olingan $\int_a^b f(x)dx$ (1) aniq integral mavjud bolsin.

Bizning maqsad shu (1) aniq integralni hisoblash uchun o'zgaruvchini shunday almashtiraylikki natijada hosil bo'lgan aniq integral berilgan aniq integralga nisbatan ancha soda bo'lsin.

Teorema. Agar (1) da $x=\varphi(t)$ (2) almashtirish bajarganimizda $\varphi(t)$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

1. $\varphi(t)$ funksiya $[c,d]$ kesmadagi aniqlangan va uzuliksiz $\varphi'(t)$ hosilaga ega bo'lsin.
2. yangi o'zgaruvchi t $[c,d]$ kesmada o'zgarganda $\varphi(t)$ funksiyaning qiymati $[a,b]$ dan chiqmasin.
3. $\varphi(c)=a$, $\varphi(d)=b$ bo'lsin, bu holda

$$\int_a^b f(x)dx = \int_c^d f(\varphi(t))\varphi'(t)dt \quad (3)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Isboti. $f(x)$ funksiya $[a,b]$ da uzuliksiz bo'lgani uchun uning sgu kesmadagi boshlang'ich funksiyasini $F(x)$ desak u holda Nyuton-Leybnis formulasiga ko'ra $\int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a)$

(4). Tenglik o'rinli bo'ladi. Agar $x=\varphi(t)$ desak $F(x)=F(\varphi(t))$ funksiyaning $f(\varphi(t)) \varphi'(t)$ funksiya uchun boshlang'ich funksiya ekanligini ko'rish qiyin emas.

$$\text{haqiqattan } [F(\varphi(t))]' = \begin{pmatrix} \text{murakkab} \\ \text{funksiyaning} \\ \text{hosilasigako'ra} \end{pmatrix} = F'[\varphi(t)]\varphi'(t) = f[\varphi(t)]\varphi'(t) \text{ chunki}$$

$$F'(x)=f(x)$$

$$x=\varphi(t) \text{ desak } F'[\varphi(t)] = f[\varphi(t)].$$

demak Nyuton-leybnis formulasiga ko'ra

$$\begin{aligned} \int_c^d f[\varphi(t)]\varphi'(t)dt &= F[\varphi(t)]_c^d = F[\varphi(d)] - F[\varphi(c)] = F(b) - F(a) = \left(\text{Agako'ra} = \right. \\ &= \int_a^b f(x)dx \Rightarrow \int_c^d f[\varphi(t)]\varphi'(t)dt \end{aligned}$$

Misol yechganda integral osidagi funksiya yuqoridagi shartlarni qanoatlantirishi shart.

$$\text{Misol.1)} \int_0^1 \sqrt{1-x^2} dx = \left| \begin{array}{l} x = \sin t \\ 0 \leq t \leq \frac{\pi}{2} \\ dx = \cos t dt \end{array} \right| = \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sqrt{1-\sin^2 t} \cdot \cos t dt = \frac{1}{2} \int_0^{\frac{\pi}{2}} (1 + \cos 2t) dt = \frac{\pi}{4}$$


$$2) \int_3^8 \frac{x dx}{\sqrt{x+1}} \left| \begin{array}{l} x+1 = t^2 \\ dx = 2t dt \\ x=3 \text{ da } t=2 \\ x=8 \text{ da } t=3 \end{array} \right| = \int_2^3 \frac{t^2-1}{t} \cdot 2t dt = 2 \int_2^3 (t^2-1) dt = 10 \frac{2}{3};$$

8. Aniq integralda bo'laklab integrallash.

Teorema. Agar $u(x)$, $v(x)$ funksiyalar $[a,b]$ kesmada uzuliksiz bo'lgan $u'(x)$ va $v'(x)$ hosilalarga ega bo'lsa, u holda

$$\int_a^b u dv = (uv) \Big|_a^b - \int_a^b v du \quad (1)$$

formula o'rinli bo'ladi.



Isboti. Haqiqitan $[u(x) \cdot v(x)]' = u'(x)v(x) + u(x)v'(x)$ dank o'rinadiki $u(x) \cdot v(x)$ funksiya, bu holda Nyuton-Leybnis formulasiga ko'ra

$$\int_a^b [u'(x)v(x) + u(x)v'(x)] dx = [u(x)v(x)]_a^b$$

$$\text{Yoki } \int_a^b u(x)v'(x) dx = [u(x)v(x)]_a^b - \int_a^b v(x)u'(x) dx \quad \text{yoki} \quad \int_a^b u dv = (uv) \Big|_a^b - \int_a^b v du$$

Bu erdagi asosiy maqsad $\int_a^b u dv$ integralda u va v adav deb shunday tanlash kerakli natijada $\int_a^b u dv$ integralga nisbatan ancha soddaro bo'lishi kerak.

$$1) \int_0^1 \arctg x dx = \left| \begin{array}{l} u = \arctg x \\ du = \frac{dx}{1+x^2} \\ dv = dx \\ v = x \end{array} \right| = x \cdot \arctg x \Big|_0^1 - \int_0^1 \frac{x dx}{1+x^2} = \frac{\pi}{4} - \frac{1}{2} \ln(1+x^2) \Big|_0^1 = \frac{\pi}{4} - \ln 2$$

$$2) \int_1^2 x e^x dx = \left| \begin{array}{l} u = x, e^x dx = dv \\ du = dx, v = e^x \end{array} \right| = (x e^x) \Big|_1^2 - \int_1^2 e^x dx = (e^x(x-1)) \Big|_1^2 = e^2$$


9. Chegarasi cheksiz bo'lgan integral.

Biz $\int_a^b f(x) dx$ aniq integralda chegaralari chekli bo'lib, integral ostidagi funksiya uzluksiz va chegaralangan bo'lsin degan edik. Endi bu shartlarning bajarilmagan hollarini ko'raylik.

$f(x)$ funksiya $[a, +\infty]$ oraliqda aniqlangan, uzluksiz va uning ixtiyoriy chekli qismida integrallanuvchi bo'lsin, Ixtiyoriy $B > a$ sonni olamiz. Shartga ko'ra $f(x)$ funksiya $[a, b]$ ($a < B < +\infty$) da integrallanuvchi.

Demak $\int_a^B f(x) dx$ integral V ning funksiyasi

$$\text{bo'ladi} \quad F(B) = \int_a^B f(x) dx.$$



Ta'rif. Agar $B \rightarrow +\infty$ da $\lim_{B \rightarrow +\infty} \int_a^B f(x) dx$ chekli limit mavjud bo'lsa, bu limitga $f(x)$


funksiyaning $[a, +\infty]$ oraliqdagi xosmas integrali deyiladi va $\int_a^{+\infty} f(x) dx$ ko'rinishda yoziladi.

Demak ta'rifga ko'ra $\int_a^{+\infty} f(x) dx = \lim_{B \rightarrow +\infty} \int_a^B f(x) dx$ bo'ladi. Bu holda $\int_a^{+\infty} f(x) dx$ xosmas integralni mavjud yoki yaqinlashuvchi deyiladi.

Agar $\lim_{B \rightarrow +\infty} \int_a^B f(x) dx$ chekli limit mavjud bo'lmasa, u holda $\int_a^{+\infty} f(x) dx$ xosmas integralni mavjud emas yoki uzoqlashuvchi deyiladi.

Agar $f(x) > 0$ desak xosmas integralning geometric ma'nosi $y = f(x)$, $x = a$, $y = 0$ chiziqlar orasidagi cheksiz soha yuzini ifodalashi chizmadan ko'rinadi.

Xuddi shuningdek $\int_{-\infty}^b f(x)dx$ integralni ko'rsak $\int_{-\infty}^b f(x)dx = \lim_{A \rightarrow -\infty} \int_A^b f(x)dx$



Agar xosmas integral $\int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx$ ko'rinishda bo'lsa, u holda quyidagi ikkita xosmas integrallar yig'indisi sifatida qaraladi

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx = \int_{-\infty}^c f(x)dx + \int_c^{+\infty} f(x)dx \quad c \in]-\infty, +\infty[$$

Agar o'ng tomondagi xosmas integrallarning har bir mavjud bo'lsa, u holda chap tomondagi integral mavjud bo'ladi.

Misol. $\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2} = \int_{-\infty}^0 \frac{dx}{1+x^2} + \int_0^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2}$

$$\int_{-\infty}^0 \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{A \rightarrow -\infty} \int_A^0 \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{A \rightarrow -\infty} \arctg|_A^0 = 0 - \left(-\frac{\pi}{2}\right) = \frac{\pi}{2}$$

$$\int_0^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{B \rightarrow +\infty} \int_0^B \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{B \rightarrow +\infty} \arctg|_0^B = \frac{\pi}{2} - 0 = \frac{\pi}{2}$$

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2} = \frac{\pi}{2} + \frac{\pi}{2} = \pi \quad \text{Demak xosmas integral yaqinlashuvchi ekan.}$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Aniq integral tushunchasi qanday paydo bo'lgan?
2. Egri trapetsiya nima?
3. Kuch ta'sirida bajarmagan ish qanday hisoblanadi?
4. Aniq integralning qa'tiy ta'rifi?
5. Aniq integralning xossalarini keltirib o'ting.
6. Aniq integralning 3-xossasini geometrik izoxi qanday?
7. 6- xossasining ma'nosini tushuntiri bering.
8. Bitta chegarasi o'zgaruvchi integral.
9. Nyuton - Leybnis formulasi.
10. Aniq integralni hisoblash usullari, ularni aniqmas integraldan farqi.
11. Aniq integralning qanday hisoblash usullarini bilasiz?
12. O'zgaruvchini almashtirib integrallashning mohiyati nimadan iborat?

MA'RUZA 11

4.11. KO'P ARGUMENTLI FUNKSIYANING ANIQLANISH SOHASI, LIMITI VA UZLUKSIZLIGI. XUSUSIY VA TO'LA ORTTIRMA, XUSUSIY HOSILA. TURLI DASTURIY PAKETLAR YORDAMIDA AMALIY MASALALAR YECHISH.

Reja. 1. Ko'p argumentli funksiya ta'rifi.

2. Ikki argumentli funksiya limiti. Funksiya orttirmalari.

3. Ikki argumentli funksiyaning xususiy hosilalari.


4. Xususiy differensiyalar.

Tayanch so'zlar. Ko'p argumentli funksiya, funksiya limiti, orttirmalari, xususiy hosila, xususiy differensiallar.

1. Ko'p argumentli funksiya ta'rif.

Biz shu vaqtgacha faqat bitta argument (x) ga bog'liq bo'lgan funksiyalarni o'rgandik. Lekin qiymatni bittagina emas, balki bir necha boshqa miqdorlarga bog'liq erksiz miqdorlar ham tez-tez uchrab turadi. Misollar ko'raylik (77-chizma).

1) To'g'ri to'rburchak perimetri (z) –
ikki argumentning: eni (x) va bo'yi (y)
ning funksiyasidir: $z = 2x + 2y$.



2) trapetsiyaning yuzi uchta
argument funksiyasidir:


$$z = \frac{x+y}{2} h.$$

3) Markaziy koordinatalar boshida
bo'lgan shar sirtidagi har bir

nuqtaning applikatsi (z) bu nuqta

absissasi va ordinatasi (x va y)

ning funksiyasidir:



$$z = \pm \sqrt{R^2 - x^2 - y^2} \quad \text{yoki} \quad x^2 - y^2 + z^2 = R^2.$$

1-ta'rif. Agar $x, y, z, \dots, t$ o'zgaruvchilar qabul qila oladigan har bir qiymatlar to'plamiga u miqdor x, y, z bog'liqmas miqdorlarning funksiyasi deb ataladi va $u = f(x, y, z, \dots, t)$ kabi yoziladi.

2-ta'rif. $u = f(x, y, z, \dots, t)$ funksiyasining mavjudlik (aniqlanish) sohasi deb $x, y, z, \dots, t$ argumentlarning shunday qiymatlari sistemalari to'plamiga aytiladiki, bunday har bir qiymatlar sistemasi uchun u ning muayyan haqiqiy son qiymati mos keladi.

Masalan, $z = \sqrt{4 - x^2 - y^2}$ funksiyaning aniqlanish sohasi x va y ning $x^2 + y^2 \leq 4$ tenglikni qiymatlaridan, ya'ni markazi koordinatalar boshida bo'lib, radiusi 2 ga teng bo'lgan doira ichidagi nuqtalardan iborat.

2. Ikki argumentli funksiya limiti. Funksiya orttirmalari.

3-ta'rif. Agar $z = f(x, y)$ funksiyasining $M_0(x_0; y_0)$ nuqtaga yetarlicha yaqin hamma $M(x; y)$ nuqtalari uchun $f(x, y) - a$ ayirmaning absolyut qiymati oldindan berilgan ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ dan kichik bo'lsa, ya'ni $|f(x, y) - a| < \varepsilon$ bo'lsa, a son $M_0(x_0; y_0)$ nuqtada $f(x, y)$ funksiyaning limiti deyiladi.

4-ta'rif. $M_0(x_0; y_0)$ nuqtada $f(x, y)$ funksiya argumentlarining cheksiz o'zgarishi z ning kichik o'zgarishi mos kelsa, boshqacha aytganda, $\lim_{\substack{x \rightarrow x_0 \\ y \rightarrow y_0}} f(x; y) = f(x_0; y_0)$ tenglik bajarilsa,

z funsiya M_0 nuqtada uzluksiz deyiladi.

5-ta'rif. $z = f(x, y)$ funksiyaning x argumenti bo'yicha esa xususiy orttirmasi deb faqat x nigina o'zgaruvchi (y ni esa o'zgarmas) deb topilgan.

$\Delta_x z = f(x + \Delta x, y) - f(x, y)$ orttirma aytiladi.

Shuningdek, y bo'yicha xususiy orttirma quyidagicha boladi: $\Delta_y z = f(x, y + \Delta y) - f(x, y)$.

Misol. $z = x \cdot y$ funksiya xususiy orttirmalarini toping. Ularni geometrik tasvirlang.

Yechish chizmadan ko'rish mumkin:

$$\Delta_x z = (x + \Delta x) \cdot y - x \cdot y = y \Delta x,$$

$$\Delta_y z = x(y + \Delta y) - x \cdot y = x \Delta y$$

Bir argumentli funksiya orttirmasi kabi ikki argumentli funksiya orttirmalari ham real ma'noga ega ekan.

Uch o'zgaruvchili tenglama geometrik jihatdan biror sirtni ifoda etadi. Chindan ham xOy tekislikdagi $M(x, y)$ nuqta $f(x, y)=0$ chiziqda joylashgan bo'lsa, $z=f(x, y)$ tenglamani qanoatlantiruvchi nuqtalar xOy tekislik bilan kesimi $f(x, y)=0$ chiziqdan iborat sirtni ifoda etadi.

3. Ikki argumentli funksiyaning xususiy hosilalari.

1-ta'rif. $z=f(x, y)$ funksiyaning x argumenti bo'yicha xususiy hosilasi deb ushbu

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(x + \Delta x, y) - f(x, y)}{\Delta x} = \frac{\partial z}{\partial x} = z'_x = f'_x(x, y) \quad \text{limitiga aytiladi.}$$

Shuningdek, y argumenti bo'yicha xususiy hosilasi

$$\lim_{\Delta y \rightarrow 0} \frac{f(x, y + \Delta y) - f(x, y)}{\Delta y} = \frac{\partial z}{\partial y} = z'_y = f'_y(x, y) \quad \text{bo'ladi.}$$

Misollar. 1. $z=7x^3+3x^2y^3-xy^5-6y+1$; $\frac{\partial z}{\partial x} = ?$ $\frac{\partial z}{\partial y} = ?$

$$\frac{\partial z}{\partial x} = 21x^2 + 6x \cdot y^3 - y^5;$$

$$\frac{\partial z}{\partial y} = 9x^2y^2 - 5xy^4 - 6.$$

2. $z=x^y$; $z'_x=?$ $z'_y=?$

$$z'_x=y \cdot x^{y-1}, \quad z'_y=x^y \ln x.$$

$z'_y=x^7$ (chunki ikkinchi holda x o'zgarmas bo'lib, y ko'rsatkichli funksiya bo'ladi.)

Funksiyaning xususiy hosilalari yana funksiyadan iborat.

4. Ko'p argumentli funksiyaning xususiy differensiyalari.

$y=f(x)$ ning differensial kabi $z=f(x, y)$ ning differensial to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Birinchi tartibli xususiy hosila ta'rifiga ko'ra: $\frac{\partial z}{\partial x} = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta_x z}{\Delta x}$ edi. Bundan limit ta'rifiga

ko'ra: $\frac{\Delta_x z}{\Delta x} - \frac{\partial z}{\partial x} = \alpha_1$ (α_1 —cheksiz kichik miqdor), bundan

$$\Delta_x z = \frac{\partial z}{\partial x} \Delta x + \alpha_1 \Delta x. \quad (a)$$

Demak, z funksiyaning x argument bo'yicha orttirmasi ikki qismdan iborat ekan.

Ta'rif. orttirmaning bosh qismi bo'lgan $\frac{\partial z}{\partial x} \cdot \Delta x$ ko'paytmaga z funksiyaning x argument

bo'yicha *xususiy differensial* deb ataladi va $d_x z$ kabi belgilanadi.

Shunday qilib $d_x z = \frac{\partial z}{\partial x} \Delta x$ yoki $\Delta x = dx$ ekanligini e'tiborga olsak,

$$d_x z = \frac{\partial z}{\partial x} dx.$$

(1) dan

$$\frac{d_x z}{dx} = \frac{\partial z}{\partial x} \quad (1')$$

ya'ni xususiy differensialning mos argument differensialiga bo'lgan nisbati mos xususiy hosilaga teng bo'ladi. Xuddi (1)ga o'zshash.

$$d_x z = \frac{\partial z}{\partial y} \cdot dy \quad \text{yoki} \quad \frac{[d_y z]}{\partial y} = \frac{\partial z}{\partial y}.$$

Misol. $z = \ln \operatorname{tg}(x^2 - 3y)$ funksiyaning xususiy differensiallarini toping.

$$\text{Yechish. } d_x z = \frac{1}{\operatorname{tg}(x^2 - 3y)} \cdot \frac{2x \cdot dx}{\cos^2(x^2 - 3y)} = \frac{4x \cdot dx}{\sin 2(x^2 - 3y)} dx.$$

$$d_y z = \frac{1}{\operatorname{tg}(x^2 - 3y)} \cdot \frac{-3 \cdot dy}{\cos^2(x^2 - 3y)} = -\frac{6 \cdot dy}{\sin 2(x^2 - 3y)}.$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ko'p argumentli funksiya tushunchasiga olib keluvchi misollardan keltiring.
2. Ko'p argumentli funksiyaning aniqlanish sohasi deganda nima tushunasiz?
3. Xususiy hosila nima?
4. To'la differensial qanday topiladi?

MA'RUZA 12

4.12.DIFFERENSIAL TENGLAMALARGA OLIB KELADIGAN BA'ZI BIR MASALALAR. DIFFERENSIAL TENGLAMA TA'RIFI. DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING XUSUSIY VA UMUMIY YECHIMLARI. KOSHI MASALASI. O'ZGARUVCHILARGA AJRALADIGAN, BIR JINSLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR

Reja.

1. Umumiy tushunchalar.
2. Birinchi tartibli differensial tenglamalar.
3. O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamalar.
4. Bir jinsli tenglamalar.
5. Bir jinsli differensial tenglamalarga misollar

Tayanch so'zlar. Differensial tenglamalar, xususiy hosila, oddiy differensial tenglamalar, tenglamaning tartibi, bir jinsli differensial tenglama

1. Umumiy tushunchalar.

Ta'rif: Noma'lum funksiya argumentini funksiya va funksiyaning hosilasi yoki differensial bilan bog'laydigan tenglamaga *differensial tenglama* deyiladi.

Differensial tenglamaning umumiy ko'rinishi

$$F(x, y, y', y'', \dots, y^{(n)}) = 0 \quad (1)$$

yoki

$$F(x, y, \frac{dy}{dx}, \frac{d^2 y}{dx^2}, \dots, \frac{d^n y}{dx^n}) \quad (2) \text{ kabi bo'ladi.}^7$$

Agar tenglamadagi funksiya bir argumentli bo'lsa, bunday tenglamani *oddiy differensial tenglama* deyiladi. Agar differensial tenglamada ikkita Yoki bir nechta $x, y, \dots$

o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lgan noma'lum z funksiya hamda $\frac{dz}{dx}, \frac{dz}{dy}, \frac{d^2 y}{dx^2}$, va hokazo

xususiy hosilalar ishtirok etsa, bunday tenglama *xususiy hosilali differensial tenglama* deyiladi. Biz soddalik uchun bundan keyin oddiy differensial tenglamalar bilan ish ko'ramiz. Tenglamadagi hosila (Yoki differensial)ning eng yuqori tartibiga differensial tenglamaning

tartibi deyiladi. Masalan, $x dy - y^2 dx = 0$ va $yy' = \frac{x}{y}$, tenglamalar birinchi tartibli, $y'' - 4x^3 = 0$

ikkinchi tartibli, $5xy' - y''' = 8x$ uchinchi tartibli differensial tenglamalardir. Differensial tenglamani yechish tenglamani qanoatlantiruvchi funksiyaning topishdan iborat. Differensial tenglamaning *yechimi* deb differensial tenglamaga keltirib qo'yilganda uni ahamiyatga aylantiruvchi har qanday $y = f(x)$ funksiya aytiladi.

⁷ James Stewart Calculus 7E 603-618 betlar

Oddiy tenglamalar kabi differensial tenglamalar ham hayolan o'ylab topilgan bo'lmay, balki real zaruriyatlardan kelib chiqqan. Differensiallar ko'proq fizika va mexanikaga doir masalalarni yechish tufayli kelib chiqqan.

Misollar. 1. Shunday egri chiziqni topingki, uning har bir nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning burchak koeffitsiyenti $\operatorname{tg}\alpha = k = -\frac{x}{y}$, bo'lsin.

Yechish. Hosilaning geometrik ma'nosidan bilamizki, $\operatorname{tg}\alpha = k = y' = \frac{dy}{dx}$, Shartga ko'ra $\operatorname{tg}\alpha = -\frac{x}{y}$.

Demak, $\frac{dy}{dx} = -\frac{x}{y}$, Oddiy differensial tenglamani hosil qildik. Buni $ydy = -x dx$ deb yozish mumkin.

Tenglikning ikkala tomonini integrallash mumkin:

$$\int y dy = \int (-x) dx,$$

Integrallaymiz, natijada

$$\frac{y^2}{2} = -\frac{x^2}{2} + C \quad \text{Yoki } x^2 + y^2 = C$$

funksiyani hosil qilamiz. Bu funksiya $y = -\frac{x}{y}$, differensial tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

2. h balandlikdagi havo bosimining o'zgarishi qonunini toping.

Yechish: Fizikadan bizga ma'lumki, bosim P havo zichligiga proporsionaldir u holda h balandlik Δh ga o'zgarganda bosim orttirmasi ΔP quyidagiga teng bo'ladi: $\Delta P = -k \cdot p \Delta h$ (bosim orttirmasi asosning yuzi 1 birlikka, balandligi h ga teng bo'lgan havo) ustunining og'irligiga teng). Orttirmani differensial bilan almashtirib, quyidagi differensial tenglamani hosil qilamiz:

$$Dp = -k p dh \quad \text{Yoki} \quad \frac{dp}{p} = -k dh.$$

Yechimi: $p = C e^{-kh}$.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, birinchi tartibli differensial tenglama yechimida bittadan o'zgarmas miqdor C ishtirok etayapti.

C o'zgarmas miqdorga aniq qiymatlar berib differensial tenglamaning aniq yechimlarini hosil qilamiz (Masalan, $x^2 + y^2 = 1$, $x^2 + y^2 = 4$ va hokazo). Bularni *xususiy yechimlar* deyiladi. Umumiy holda (1) va (2) differensial tenglamaning umumiy yechimi

$$\varphi(x, y_1, C_1, C_2, \dots, C_n) \quad (3)$$

ko'rinishida bo'ladi.

Umumiy yechimdan xususiy yechimni Ajratib olish uchun oldindan boshlang'ich shartlar deb atalgan shartlar berilgan bo'lishi kerak. Masalan,

$$x = x_0 \text{ bo'lganda } y = y_0 \text{ va } \frac{dy}{dx} = a_0 \quad (4)$$

Umumiy holda boshlang'ich shartlar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$x = x_0 \text{ bo'lganda } y = y_0; y' = (y_0), \dots, y^{(n-1)} = y_0^{(n-1)}. \quad (5)$$

(5) ga boshlang'ich shart yoki [Koshi sharti](#) deyiladi.

2. Birinchi tartibli differensial tenglamalar.

Birinchi tartibli differensial tenglamalarning umumiy ko'rinishi

$$F(x, y, y') = 0 \quad (6)$$

Kabi bo'ladi. (6) ning umumiy ko'rinishdagi yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$\varphi(x, y, C_1) = 0 \quad (7)$$

Birinchi tartibli differensial tenglamalarning turlarini qarab chiqaylik.

1. Eng sodd ko'rinishdagi differensial tenglama

$$\frac{dy}{dx} = f(x)$$

shaklda bo'ladi. Uning umumiy yechimi

$$dy = f(x) dx$$

$$y = \int f(x) dx + C \quad (9)$$

ko'rinishda bo'ladi.

3. O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamalar.

(6) tenglamani quyidagi ko'rinishda ham yozsak bo'ladi:

$$M(x, y) dx + N(x, y) dy = 0 \quad (10)$$

bu yerda $M(x, y)$ va $N(x, y)$ funksiyalar x va y ga bog'liq bo'lib, quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

a) $M(x, y) = M(x)$, $N(x, y) = N(y)$ bo'lsin. U holda (10) tenglama

$$M(x) dx + N(y) dy = 0 \quad (11)$$

Ko'rinishda bo'lib

$$\int N(y) dy = - \int M(x) dx$$

bo'ladi. Bu yerda $\int N(y) dy = \varphi_1(y)$, $\int M(x) dx = \varphi_2(x)$ deb belgilasak, $\varphi_1(y) = \varphi_2(x) + C_2$ funksiya berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

$M(x, y) = M_1(x) M_2(y)$; $N(x, y) = N_1(x) \cdot N_2(y)$ bo'lsin.

U holda (10) tenglamaning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$M_1(x) M_2(y) dx + N_1(x) \cdot N_2(y) dy = 0. \quad (12)$$

O'zgaruvchilarni ajratamiz:

$$\frac{N_2(y)}{M_2(y)} dy + \frac{M_1(x)}{N_1(x)} dx = 0$$

Integrallab, umumiy yechimni topiladi.

(11) va (12) tenglamalar o'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalar deyiladi.

Misollar. 1. $(x-1) dx + y dy = 0$.

Yechish: $(x-1) dx = -y dy$.

Ikkala tomonidan integral olsak,

$$\int (x-1) dx = - \int y dy,$$

$$\frac{x^2}{2} - x = -\frac{y^2}{2} + C,$$

$$x^2 - 2x + y^2 + C_1 = 1 \quad (C_1 = -2C).$$

Bu funksiya berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

$$2. \frac{2x+1}{y+1} = \frac{dx}{dy}.$$

$$\text{Yechish: Tenglamadan: } \frac{dy}{dx} = \frac{y+1}{2x+1}.$$

O'zgaruvchilarni ajratamiz:

$$\frac{dy}{y+1} = \frac{dx}{2x+1}.$$

Tenglamani integrallaymiz:

$$\int \frac{dy}{y+1} = \frac{1}{2} \int \frac{d(2x+1)}{2x+1}.$$

$$\ln(y+1) = \frac{1}{2} \ln(2x+1) + \ln C,$$

$$y+1 = C\sqrt{2x+1} - 1.$$

Demak, berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi $y = C\sqrt{2x+1} - 1$. bo'ladi.

4. Bir jinsli tenglamalar.

Agar t ning har qanday qiymatida

$$M(tx, ty) = t^k M(x, y)$$

Ayniyat o'rinli bo'lsa, $M(x, y)$ funksiya x va y o'zgaruvchilarga nisbatan k o'lchovli bir jinsli funksiya deyiladi. Masalan,

$$x \cos \frac{y}{x}; x - y \cos \frac{y}{x}; \sqrt[3]{x^3 + y^3}; \frac{x^2 - y^2}{xy}$$
 funksiylar bir jinsli funksiylardir.

Agar (10) tenglamada $M(x, y)$ va $N(x, y)$ funksiylar 0 o'lchovli bir jinsli funksiylardan iborat bo'lsa, (10) tenglamaga *bir jinsli differensial tenglama* deyiladi. Bir jinsli differensial tenglamalarni yechish uchun $y = xu$ almashtirish kiritamiz. U holda

$\frac{dy}{dx} = u + x \frac{du}{dx}$ bo'ladi. Buni keltirib (10) tenglamaga qo'ysak, o'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama hosil bo'ladi.

Eslatma. (10) tenglamani $\frac{dy}{dx} = P(x, y)$ ko'rinishda ham yozish mumkin.

$$\left[P(x, y) = \frac{N(x, y)}{M(x, y)} \right].$$

$P(x, y)$ 0 o'lchovli bir jinsli funksiya bo'lganligi uchun $P(x, y) = P\left(1 \frac{y}{x}\right)$ bo'lib,

$$\frac{y}{x} = u; y = xu \text{ almashtirish bajaramiz.}$$

5. Bir jinsli differensial tenglamalarga misollar.

Misol. $(x^2 - 2xy)dy - (xy - y^2)dx = 0$.

$y = xu$ almashtirish kiritamiz:

$$dy = xdu + udx.$$

Bularni keltirib tenglamaga qo'yamiz va soddalashtiramiz:

$$(x^2 - 2x \cdot xu)(xdu + udx) - (xxu - x^2u^2)dx = 0$$

$$x(1 - 2u)du + (1 - 2u)udx = (u - u^2)dx$$

$$x(1 - 2x)du = u^2dx.$$

O'zgaruvchilarni ajratamiz:

$$\frac{1 - 2u}{u^2} du = \frac{dx}{x}.$$

Ikkala tomonidan integral olamiz:

$$\int \frac{1 - 2u}{u^2} du = \int \frac{dx}{x},$$

$$\int \frac{1}{u^2} du + \int \frac{-2}{u} du = \int \frac{dx}{x}$$

$$\int u^2 du - 2 \int \frac{du}{u} = \int \frac{dx}{x};$$

$$\frac{u^{-1}}{-1} - 2 \ln u = \ln x + \ln C;$$

$$-\frac{1}{u} = \ln u^2 + \ln x + \ln C_1;$$

$$\ln(u^2 x C_1) = -\frac{1}{u}; u = \frac{y}{x};$$

$$\ln\left(\frac{y^2}{x^2} x C_1\right) = -\frac{x}{y}; \frac{y^2 C_1}{x} = e^{-\frac{x}{y}}; \frac{y^2 C_1}{x} e^{\frac{x}{y}} - 1 = 0$$

Bu tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

Eslatma. C ixtiyoriy son bo'lgani uchun differensial tenglamaning umumiy yechimi C ga nisbatan har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

$$\frac{dy}{dx} = \frac{ax + by + C}{a_1x + b_1y + C}$$

ko'rinishdagi differensial tenglamalarni $x=x_1+\alpha$, $y=y_1+\beta$ almashtirishni bajarib, bir jinsli tenglamaga keltirish mumkin. Bu yerda α va β lar

$$a\alpha + b\beta + C = 0$$

$$a_1\alpha + b_1\beta + C_1 = 0$$

tengliklar o'rinli bo'ladigan qilib tanlab olinadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Differensial tenglama deb qanday tenglamalarga aytiladi?
2. Differensial tenglamaning umumiy yechimi nima?
3. Differensial tenglamaning xususiy yechimi nima?
4. O'zgaruvchisi ajraladigan differensial tenglamalar qanday yechiladi?
5. Bir jinsli differensial tenglama deb nimaga aytiladi?
6. Bir jinsli differensial tenglamalarni yechishda qanday almashtirish bajariladi?

MA'RUZA 13

4.13.YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. TARTIBI PASAYUVCHI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. IKKINCHI TARTIBLI O'ZGARMAS KOEFFISIYENTLI, BIR JINSLI VA BIR JINSLI BO'LMAGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR. DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI FARMASEVTIKA MASALALARIGA TADBIQI. DASTURIY PAKETLAR YORDAMIDA HISOBLASH

Reja.

1. Tartibi pasayadigan differensial tenglamalar
2. Bir jinsli o'zgarmas koeffisientli differensial tenglamalar.
3. Xarakteristik tenglama.
4. Differensial tenglamalarni farmatsevtika masalalariga taqbiqi
5. Dasturiy paketlar yordamida hisoblash

Tayanch so'zlar. Differensial tenglamalar, xususiy hosila, oddiy differensial tenglamalar, tenglamaning tartibi, chiziqli differensial tenglama, bir jinsli chiziqli tenglamalar

1. Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar.

1. $y'' = f(x)$ ko'rinishdagi tenglamalar rng soda, ikkinchi tartibli differensial tenglamalar deyiladi.

Bunday tenglamalarni $y' = \frac{dy}{dx} = p$ belgilash kiritib yechiladi. U holda

$$y' = \frac{dy}{dx} = f(x)$$

yoki

$$dp = f(x)dx$$

bo'ladi.

Ikkala tomondan integral olsak:

$$p = \int f(x)dx = F_1(x) + C_1$$

bo'ladi. Bundan

$$p = \frac{dy}{dx} = F_1(x) + C$$

$$dy = [F_1(x) + C_1]dx$$

yana bir marta integral olsak:

$$y = \int F_1(x)dx + C_1 \int dx \quad \text{Yoki}$$

$$y = F_2(x) + C_1x + C_2.$$

Bu berilgan, ikkinchi tartibli differensial tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

Misol. $y'' = \sin x$ tenglamani yeching.

Yechishi. $y' = \frac{dy}{dx} = p$ belgilash kiritamiz, natijada:

$$y' = \frac{dy}{dx} \quad \text{yoki} \quad \frac{dy}{dx} = \sin x$$

$$p = \int \sin x dx = -\cos x + C_1 \quad \frac{dy}{dx} = -\cos x + C_1, \text{ bundan } dy = (-\cos x + C_1)dx \text{ Integral olsak:}$$

$$y = -\int \cos x dx + C_1 \int dx.$$

Shunday qilib, umumiy yechim quyidagicha bo'ladi:

$$y = -\sin x + C_1x + C_2.$$

Tekshirish: $y' = -\sin x + C_1$ yoki $y' = -\cos x + C_1$; $y'' = \sin x$.

Bir jinsli chiziqli tenglamalar. Ushbu

$$a_0 y'' + a_1 y' + a_2 y = f(x) \quad (21)$$

(bunda $a_0, a_1, a_2, f(x)$ lar x ning funksiyalari yoki o'zgarmas sonlar) ko'rinishdagi tenglama ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglama deyiladi.

Agar $f(x) = 0$ bo'lsa (21) tenglama, ya'ni

$$y'' + a_1 y' + a_2 y = f(x) \quad (22)$$

tenglama bir jinsli chiziqli tenglama deyiladi. (21) va (22) tenglamalarning chap tomoni y, y', y'' larga nisbatan birinchi darajali bir jinsli funksiyadir.

1 – teorema. Agar y_1 va y_2 – ikkinchi tartibli bir jinsli

$$y' + a_1 y'' + a_2 y = 0$$

differensial tenglamaning ikkita xususiy yechimi bo'lsa, u holda $y_1 + y_2$ ham bu tenglamaning yechimi bo'ladi.

Isbot. y_1 va y_2 lar tenglamaning yechimi bo'lgani uchun

$$y_1 + a_1 y_1' + a_2 y_1 = 0 \quad (23)$$

$$y_2 + a_1 y_2' + a_2 y_2 = 0$$

bo'ladi. (22) tenglamaga $y_1 + y_2$ ni qo'yamiz va (23) ni e'tiborga olsak:

$$(y_1 + y_2)'' + a_1(y_1 + y_2)' + a_2(y_1 + y_2) = (y_1'' + a_1 y_1' + a_2 y_1) + (y_2'' + a_1 y_2' + a_2 y_2) = 0 + 0 = 0$$

bo'ladi va $y_1 + y_2$ ham tenglamaning yechimi ekanligi kelib chiqadi.

2 – teorema. Agar y_1 (22) tenglamaning yechimi bo'lib, C ixtiyoriy o'zgarmas miqdor bo'lib, u holda Cy_1 ham (22) tenglamaning yechimi bo'ladi.

Isbot. (22) tenglamaga Cy_1 ni qo'yamiz, u holda

$$Cy_1'' + Cay_1' + Ca_2y = C(y_1'' + ay_1' + a_2y) = C \cdot 0 = 0$$

Bo'ladi. Teorema isbotlandi.

3 – teorema. Agar y_1 va y_2 (22) tenglamaning ikkita chiziqli erkli yechimi bo'lsa, u holda

$$y = C_1y_1 + C_2y_2$$

(bu yerda C_1 va C_2 ixtiyoriy o'zgarmas miqdorlar) ham (22) tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

Bu teoremaning isboti 1 – va 2 – teoremlarda kelib chiqadi.

2. O'zgarmas koeffitsiyentli ikkinchi tartibli bir jinsli chiziqli tenglamalar.

Ta'rif: O'zgarmas koeffitsiyentli bir jinsli differensial tenglama deb $y'' + py' + qy = 0$ (1) ko'rinishdagi tenglamaga aytiladi.

Bunda yuqoridagi teoremlarga asosan bu tenglamaning umumiy yechimini topish uchun uning ikkita chiziqli erkli xususiy yechimini topish yetarlidir.

Tenglamani yechish uchun $y = e^{kx}$ deb faraz qilamiz, bu yerda k nolga teng bo'lmagan o'zgarmas son.

Hosilalarni topamiz:

$$y' = ke^{kx}, \quad y'' = k^2 e^{kx}.$$

Bularni (1) tenglamaga keltirib qo'yamiz:

$$k^2 e^{kx} + pke^{kx} + qe^{kx} = 0 \quad (2)$$

$e^{kx} \neq 0$ bo'lgani uchun (25) tenglamada

$$k^2 + pk + q = 0 \quad (3)$$

bo'ladi. Demak, k (2) tenglamani qanoatlantirsa, e^{kx} tenglamaning yechimi bo'ladi.

3. Xarakteristik tenglama.

(3) tenglama (1) tenglamaning *xarakteristik tenglamasi* deyiladi. (2) tenglama ikkita ildizga ega bo'ladi, ularni k_1 va k_2 bilan belgilaymiz:

$$k_1 = -\frac{p}{2} + \sqrt{\frac{p^2}{4} - q}; \quad k_2 = -\frac{p}{2} - \sqrt{\frac{p^2}{4} - q};$$

Bu yerda quyidagi hollar bo'lishi mumkin:

1. k_1 va k_2 haqiqiy va bir – biriga teng emas ($k_1 \neq k_2$):

2. k_1 va k_2 haqiqiy va bir – biriga teng ($k_1 = k_2$):

3. k_1 va k_2 kompleks sonlar;

Har bir holni alohida – alohida ko'rib chiqamiz:

a) xarakteristik tenglamaning ildizlari haqiqiy va har xil ($k_1 \neq k_2$).

Bu holda

$$y_1 = e^{k_1 x}, \quad y_2 = e^{k_2 x}$$

funksiyalar xususiy yechimlar bo'lib, tenglamaning umumiy yechimi

$$y = C_1 e^{k_1 x} + C_2 e^{k_2 x} \quad (3)$$

ko'rinishda bo'ladi.

Haqiqatan ham, y' va y'' larni topamiz:

$$y_1 C_1 k_1 e^{k_1 x} + C_2 k_2 e^{k_2 x}, \quad y'' = C_1 k_1^2 e^{k_1 x} + C_2 k_2^2 e^{k_2 x};$$

bularni (25) tenglamaga qo'yamiz:

$$C_1 k_1^2 e^{k_1 x} + C_2 k_2^2 e^{k_2 x} + 3(C_1 k_1 e^{k_1 x} + C_2 k_2 e^{k_2 x}) + q(C_1 e^{k_1 x} + C_2 e^{k_2 x}) = 0.$$

Chap tomondagi qavslarni ochib, gruppalaymiz:

$$(C_1 k_1^2 e^{k_1 x} + p C_1 k_1 e^{k_1 x} + q C_1 e^{k_1 x}) + (C_2 k_2^2 e^{k_2 x} + q C_2 e^{k_2 x}) = 0$$

Yoki

$$C_1 e^{k_1 x} (k_1^2 + p k_1 + q) + C_2 e^{k_2 x} (k_2^2 + p k_2 + q) = 0. \quad (4)$$

k_1 va k_2 lar (2) tenglamaning ildizlari bo'lganligi uchun, (4) ning chap tomonidagi qavs ichidagi ifodalar nolga teng va umuman chap tomoni ham nolga teng bo'ladi.

Demak, $y = C_1 e^{k_1 x} + C_2 e^{k_2 x}$ funksiya berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi.

Misol. $y'' - 8y' + 15y = 0$ tenglamaning xarakteristik tenglamasi $k_1=5$; $k_2=3$ ildizga ega.

Demak, tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo'ladi

$$y = C_1 e^{5x} + C_2 e^{3x}.$$

b) xarakteristik tenglamaning ildizlari haqiqiy va teng.

Bu holda $k_1 = k_2 = \frac{p}{2}$ bo'lib, $2k_1 = -p$ Yoki $2k_1 + p = 0$

bo'ladi.

Bitta xususiy yechimi $y_1 = e^{k_1 x}$ ma'lumdir. Ikkinchi xususiy yechimini

$$y_2 = u(x) e^{k_1 x}$$

ko'rinishda izlaymiz. Bu yerda $u(x)=u$ aniqlanishi kerak bo'lgan noma'lum funksiya. $u(x)$ ni aniqlash uchun y_2' va y_2'' larni topamiz:

$$y_2' = u' e^{k_1 x} + u k_1 e^{k_1 x} = e^{k_1 x} (u' + u k_1),$$

$$y_2'' = u' e^{k_1 x} + u' k_1 e^{k_1 x} + u' k_1 e^{k_1 x} + u k_1^2 e^{k_1 x} = e^{k_1 x} (u'' + 2k_1 u' + u k_1^2).$$

Bularni (25) tenglamaga keltirib qo'yamiz:

$$e^{k_1 x} [(u'' + 2k_1 u' + k_1^2 u) + p e^{k_1 x} (u' + k_1 u) + q u] = 0$$

yoki

$$e^{k_1 x} [u'' + (2k_1 + p)u' + (k_1^2 + k_1 p + q)u] = 0$$

k xarakteristik tenglamaning karrali ildizi va $k_1 + p = 0$ bo'lgani uchun $e^{k_1 x} u'' = 0$ yoki $u'' = 0$ bo'lishi kerak. Uni integrallab

$$u(x) = Ax + B$$

ni topamiz. Xususiy holda $B=0$, $A=1$ deb olsak,

$$u(x) = x \text{ bo'ladi.}$$

Shunday qilib, ikkinchi xususiy yechim kabi

$$y_2 = x e^{k_1 x} \text{ bo'ladi.}$$

Bularni nazarda tutsak, umumiy yechimni

$$y = C_1 e^{k_1 x} + C_2 x e^{k_1 x} = e^{k_1 x} (C_1 + C_2 x)$$

ko'rinishida yozish mumkin.

Misol. $4y'' - 12y' + 9y = 0$ tenglamaning xarakteristik tenglamasi

$$4k^2 - 12k + 9 = 0$$

bo'lib uning ildizlari $k_1 = k_2 = \frac{3}{2}$ dir.

Demak, tenglamaning umumiy yechimi

$$y = (C_1 + C_2 x) e^{\frac{3}{2} x}.$$

v) xarakteristik tenglamaning ildizlari komoleks sonlar bo'lgan hol. Ildizlar $k_1 = \alpha + i\beta$.

$$k_2 = \alpha - i\beta. \text{ ko'rinishda bo'lsin.}$$

U holda differensial tenglamaning xususiy yechimlari

$$y_1 = e^{(\alpha + i\beta)x}, \quad y_2 = e^{(\alpha - i\beta)x}$$

ko'rinishda bo'ladi. y_1 va y_2 lar (26) tenglamani qanoatlantiradi. Biz quyidagi natijadan foydalanamiz:

Agar haqiqiy koeffitsiyentli bir jinsli chiziqli tenglamaning xususiy yechimi kompleks sonlardan iborat bo'lsa, u holda uning haqiqiy va mavhum qismlari ham shu tenglamaning yechimi bo'ladi.

Binobarin, xususiy yechim

$$e^{(\alpha+i\beta)x} = e^{\alpha x} \cos \beta x + i e^{\alpha x} \sin \beta x$$

bo'lgani uchun $e^{\alpha x} \cos \beta x, e^{\alpha x} \sin \beta x$ lar ham (26) tenglamaning yechimi bo'ladi. shunday qilib, (2) differensial tenglamaning umumiy yechimi

$$y = e^{\alpha x} (C_1 \cos \beta x + C_2 \sin \beta x)$$

ko'rinishda bo'ladi.

Misol. $y'' - 4y' + 7y = 0$ tenglamaning xarakteristik tenglamasi $k^2 - 4k + 7 = 0$ bo'lib, uning ildizlari

$k_1 = 2 + i\sqrt{3}; \quad k_2 = 2 - i\sqrt{3};$ dan iborat. Tenglamaning umumiy yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$y = e^{2x} (C_1 \cos \sqrt{3}x + C_2 \sin \sqrt{3}x).$$

DIFFERENSIAL TENGLAMALAR YORDAMIDA TABIIY FAN SOHALARIDAGI MASALALARNI ECHISH

Hozirgi vaqtda fanning turli sohalarida fundamental fanlarning jumladan, oliy matematika fanining usullaridan keng foydalanish va matematik tushunchalarni o'rganishga ehtiyoj ortib borayotgani, hozirgi zamon fan taraqqiyotining tabiiy taqazosi deb qarash lozim.


Matematik analizning muhim qismini tashkil etuvchi differensial tenglamalar fizika, kimyo, farmatsevtika, biologiya, tibbiyot va ko'pgina fan tarmoqlarida qo'yilgan masalalarni echishda yuqori o'rin egallaydi. Uning yordamida berilgan jarayon va hodisani tavsiflovchi o'zgaruvchi miqdorlar orasidagi bog'lanishni o'rnatish mumkin.

Matematik analiz yordamida har qanday masalani echish uch bosqichga bo'linadi:

- 1) masala shartlarini matematik tilga ko'chirish;
- 2) masalani echish;
- 3) natijani baholash.

Ishning birinchi qismining asosi differensial tenglama tuzishdan iborat bo'lib, buning uchun ko'proq malaka kerak bo'ladi. Chunki differensial tenglama tuzish uchun umumiy usullar yo'q va bu sohada bilimlar aniq misollarni o'rganish natijasida egallanadi. Quyida bir necha masalalarni differensial tenglamalar yordamida echilishini ko'rib chiqamiz:

Erkin tushish tezlanishi



Yuqoridan tashlangan m massali jismni erkin tushishidagi v -tezligini o'zgartirish qonuniyatini ifodalovchi tenglamani tuzing (Bunda jismga havo qarshiligi hisobga olinmaydi). Nyutonning ikkinchi qonuniga ko'ra

$$m \frac{dv}{dt} = mg. \quad (1)$$

Bu erda $mg = F$ og'irlik tortilish kuchi. Bu tenglama differensial tenglamadir, chunki noma'lum funksiya v bo'lsa uni hosilasi $\frac{dv}{dt}$ qatnashadi.

Tenglamani qanoatlantiradigan $v = qt + c$ (2) (S -ixtiyoriy o'zgarmas son)ni tenglamaga qo'ysak qanoatlantirishiga ishonch xosil qilamiz. Demak, (1) tenglamani echimi (2) funksiyadan iborat. Echimda, ya'ni (2) da S qatnashadi. Chunki differensial tenglamada hosila qatnashgani uchun, noma'lum funktsiyani topishda, integrallash amali bajariladi. SHuning uchun S qatnashgan funksiya kelib chiqadi. Bunday (2) echimni differensial tenglamaning umumiy echimi deb ataladi. Agar biror shart berilsa, echimga tatbiq qilib S ni aniqlansa, hosil bo'lgan echim hususiy echim deyiladi.

SHuning uchun differensial tenglamani echganimizda birinchi navbatda umumiy echim aniqlanadi, so'ngra berilgan shartni qanoatlantiruvchi xususiy echim topiladi.

❖ YUqoridagi masalada $t = 0$, $v = v_0$ bo'lsin deb shart qo'ysak (odatda bunday shartni

boshlang'ich shart yoki Koshi sharti deyiladi). $v_0 = q \cdot 0 + c$, $c = v_0$ kelib chiqadi.

Umumiy echimdagi S ni o'rniga qo'ysak (2) echim $v = v_0 + qt$ (3) xususiy echim ko'rinishiga keladi.

Jismni sovush qonuni



Agar xavo temperaturasi (harorati) $20^{\circ} S$ bo'lsa va 20 min davomida $100^{\circ} S$ dan $60^{\circ} S$ gacha sovusa, qancha vaqtdan so'ng jism harorati $30^{\circ} S$ ga tushadi?

Echish: Jismni sovush tezligi Nyuton qonuniga ko'ra jism harorati va havo harorati orasidagi farqqa to'g'ri

proporsional bo'ladi. Jismning temperaturasi T desak, jism haroratining o'zgarish tezligi $\frac{dT}{dt}$ bo'lgani uchun $\frac{dT}{dt} = \kappa(T - 20)$. Bu differensial tenglamadir. Echimi: $T - 20 = C e^{kt}$, $t=0$ bo'lganda $T=100^\circ$ bo'lib $t=20$ min, bo'lsa $T=60^\circ$ $S=80$, $40 = 80 e^{20k}$ bo'lsa, $e^k = \left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{1}{20}}$, $T = 20 + 80\left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{20}}$.

$2T=30^\circ$ desak, $\frac{1}{8} = \left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{20}}$ yoki $\left(\frac{1}{2}\right)^3 = \left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{20}}$ bundan $t=60$ minutdan so'ng jism harorati 100° dan 30° ga tushadi.

Mushaklarni qisqarish qonuni




Mushaklarni qisqarish tezligi $x_0 - x$ ga mutanosib bo'lsa, mushaklarni vaqt davomida qisqarish qonuniyati topilsin. Organizmda mushaklarni qisqarishi t momentdagi xolatini $x=x(t)$ deb olamiz. x_0 - mushaklarni to'la qisqarishi $t=0$ da mushaklarni qisqarishi $x=0$ bo'lsin. V - o'zgarmas bo'lib, organizmga tushadigan yukka bog'liq.

Echish: $\frac{dx}{dt} = B(x_0 - x)$ differensial tenglamani echib

$x(t) = x_0(1 - e^{-Bt})$ topiladi.

Radiy miqdorining vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ifodalovchi qonun



Radiyning emirilishi shunday boradiki, emirilish tezligi radiyning boshlang'ich miqdoriga proporsional bo'ladi. Agar **1600** yildan keyin mavjud radiy miqdorining yarmi qolishi ma'lum bo'lsa, radiy miqdorining vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ifodalovchi qonunni toping.

Echish. Aytaylik, x - radiy miqdori va t vaqt (yillarda) bo'lsin. x ning t ga bog'lanishi $x = x(t)$ ni topish kerak. Tenglamani darhol masala shartiga asosan tuzamiz, unga asosan o'zgarish tezligi vaqt bo'yicha hosiladan iboratdir:

$$\frac{dx}{dt} = kx.$$

Bu erda k - proporsionallik koeffitsienti. Uni quyidagi ko'rinishda qayta yozamiz: $\frac{dx}{x} = k dt$ va $d(\ln x) = d(kt)$ differensiallar tengligidan funksiyalarning o'zlari o'zgarmasga farq qiladi degan hulosaga kelamiz:

$$\ln x = kt + C.$$

Tenglikda bitta ixtiyoriy o'zgarmas bor. Uni topish uchun boshlang'ich momentda ($t = 0$ da) radiy miqdori $x = x_0$ deb faraz qilamiz. Bu qiymatni tenglikga qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz: $\ln x_0 = C$.

SHunday qilib, $\ln \frac{x}{x_0} = kt$; bundan radiy miqdorining vaqt o'tishi x_0 bilan o'zgarishini ifodalovchi qonunni xosil qilamiz:

$$x = x_0 e^{kt}.$$

Kulchasimon ko'rinishdagi dorivor moddalarning erish qonuni



Kulchasimon ko'rinishdagi dorivor moddaning erish tezligi dori tarkibidagi moddaning miqdoriga proporsional. Eriyotgan dorivor moddaning tarkibidagi dorivor modda massasining o'zgarishini vaqtga bog'liqligini aniqlash kerak. t vaqtga kelib dori miqdorining qolgan miqdori m bilan belgilaymiz. U holda

$$\frac{dm}{dt} = -kt, \text{ bu erda } k - \text{erish tezligi doimiysi.}$$

Tenglamadagi "–" vaqt o'tishi bilan dorivor ko'rinishidagi miqdor kamayib borishini ko'rsatadi.

Tenglamani echib $m = m_0 e^{-kt}$ formulani hosil

qilamiz. Bu formula tabletkadagi dorivor ko'rinishdagi modda erish qonunini integral ko'rinishda ifoda etadi. Boshlang'ich shartlar yordamida k – erish tezligi doimiysini topish mumkin:

$$k = \frac{\ln\left(\frac{m_0}{m}\right)}{t}.$$

Vaqt o'tishi bilan bakteriyalarning ko'payish qonuni




Ba'zi bakteriyalarning ko'payish tezligi muayyan vaqtdagi bakteriyalar miqdoriga proporsional bo'ladi. Bakteriyalar miqdori o'zgarishining vaqtga bog'liqligini aniqlash kerak. Muayyan vaqtdagi bakteriyalar miqdorini x bilan belgilaymiz. U vaqtda $\frac{dx}{dt} = kx$, bu erda k – proporsionallik koefitsienti. Hosil qilgan tenglamani boshlang'ich shartlar asosida echib, quyidagi bakteriyalarni ko'payish qonunini hosil qilamiz:

$$x = x_0 e^{kt}.$$

Bu formula qulay sharoitda vaqt o'tishi bilan bakteriyalarning ko'payish miqdori eksponensial qonun bo'yicha borishini ko'rsatadi.

Hujayralarning vaqt o'tishi bilan ko'payish qonuni



Hujayra sirti uning hajmiga nisbatan o'zgarmas bo'lib qoluvchi tayoqchasimon hujayralarda hujayra ko'payish tezligi $\frac{dl}{dt}$ muayyan vaqtdagi hujayra uzunligi l ga proporsional:

$$\frac{dl}{dt} = (a - b)l.$$

Bu erda a – hosil bo'lish va b – emirilish jarayonlarini harakterlovchi kattalikdir.

Boshlang'ich shartlar $t = 0, l = l_0$ lardan foydalangan holda hosil qilgan tenglamani echamiz:

$$l = l_0 e^{(a-b)t}.$$

Demak, tayoqchasimon hujayralarning ko'payishi ham eksponensial qonunga bo'ysinar ekan.

Epidemiya nazariyasi uchun differensial tenglama tuzish va uni echish



Tekshirilayotgan kasallik uzoq vaqt davom etuvchi bo'lganda epidemiya nazariyasida differensial tenglamalarni qanday tuzish va ularning echilishi bilan tanishamiz. Bunda infeksiyani uzatish jarayoni kasallikning davom etishiga nisbatan ancha tez va kasallikni yuqtirgan kishilar to'dada qolgan holda boshqa kishilarga kasallikni yuqtirishni davom ettiradilar.

Boshlang'ich vaqt $t = 0$ da a – kasallikni yuqtirgan manba'lar, b – yuqtirmagan manba'lar bo'lsin. $x(t)$, $y(t)$ – vaqtga kelib hosil bo'lgan kasallikni yuqtirgan va yuqtirmagan manba'lar soni bo'lsin. Bir avlod hayoti vaqtidan kichik har qanday vaqt oralig'idan t momentida quyidagi tenglik o'rinli:

$$x + y = a + b.$$

Mana shu shartda vaqt o'tishi bilan kasallanmagan manba'lar sonining o'zgarish qonuni, ya'ni $y = f(t)$ aniqlash kerak.

Infeksiya (kasallikni uzatish) kasallangan manba' bilan kasallanmaganlarning muloqati orqali o'tgani uchun kasallanmagan manba'lar vaqt o'tishi bilan kasallangan va kasallanmagan manba'lar muloqati miqdoriga proporsional ravishda kamayib boradi, dt vaqt oralig'i uchun $dy = -kxydt$ kelib chiqadi, bu erda k – proporsionallik koefitsienti. Bu tenglamaga yuqoridagi tenglamadan x ning qiymatini olib kelib qo'ysak, quyidagi differensial tenglama hosil bo'ladi:

$$\frac{dy}{dt} = -ky(a + b - y).$$

Boshlang'ich $t = 0$ da $y = b$ bo'lishidan foydalanib differensial tenglamani echimini topamiz.

$$y(t) = \frac{a(a+b)}{b + ae^{k(a+b)t}}.$$

Topilgan formula kasallanmagan manbalarning vaqt o'tishi bilan kamayish qonunini ifodalaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan masalalar oddiy differensial tenglamalarni echish usullari orqali echildi. Differensial tenglamalar yordamida boshqa sohalarga oid ko'plab masalalar ham echish mumkin. Odatda amaliy masalalarni echishda tuzilgan tenglamalar noxiziqli differensial tenglamalarga keladi. Bunday tenglamalarni echishni umumiy usullari ishlab chiqilmagan. Ularni ayrim hususiy hollardagi echimini topishimiz mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. II-tartibli o'zgarmas koeffisientli differensial tenglamaning umumiy ko'rinishi.
2. Xarakteristik tenglama nima?
3. Xarakteristik tenglama yechimlari qanday topiladi?
4. Xarakteristik tenglama yechimlari kompleks son bo'lgan holda yechimning umumiy ko'rinishi qanday bo'ladi?
5. Xarakteristik tenglama yechimlari haqiqiy bo'lgan holda yechimning umumiy ko'rinishi qanday bo'ladi?

6. II-tartibli o'zgarmas koeffisientli differensial tenglamaning yechimlarining umumiy ko'rinishi qanday va ularga misol keltiring.

MA'RUZA 14

4.14.KOMBINATORIKA ELEMENTLARI. EHTIMOLLAR NAZARIYASINING ASOSIY PREDMETI, VOQEA VA HODISALAR HAQIDA TUSHUNCHA. EHTIMOLNING STATISTIK VA KLASSIK TA'RIFI. HODISALAR YIG'INDISINING EHTIMOLI, QARAMA-QARSHI HODISALAR. KAMIDA BITTA HGODISANING RO'Y BERISH EHTIMOLI.

Reja.

1. Ehtimol haqida tushuncha.
2. Ehtimolning klassik va statistik ta'riflari.
3. Hodisalar yig'indisining ehtimoli.
4. Qarama-qarshi hodisalar.

Tayanch so'zlar: ehtimol, tasodifiy hodisa, elementlar, muqarrar, mumkin bo'lmagan hodisalar, ehtimolning klassik va statistik ta'riflari, qarama qarshi hodisalar.

1. Ehtimol haqida tushuncha.

Ehtimollar nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri «tajriba» va tajriba natijasida kuzatilishi mumkin bo'lgan hodisa tushunchasidir.

Tajriba hodisani ro'yobga keltiruvchi shartlar to'plamining bajarilishini ta'minlashdan iboratdir. Tajribadan tajribaga o'tganda ro'y berayotgan hodisalar o'zgarib turadigan hollar hayotda keng miqyosda uchrab turadi, bu erda, albatta, tajribani vujudga keltiruvchi shartlar to'plami o'zgarmas bo'lgan hollar tushuniladi

Masalan: a) bir ish kuni mobaynida texnik xizmat ko'rsatilgan avtomobillar soni.

b) oilada tugilgan birinchi farzandning o'gil bola bo'lishi hodisasi ro'y beradi yoki ro'y bermaydi.

Tajriba natijasida ro'y berishi oldindan aniq bo'lmagan hodisa tasodifiy hodisa deyiladi.

Bir necha marta takrorlanuvchi tajribalar natijasida ro'y berishi mumkin bo'lgan elementlar hodisalar, hodisalar to'plamini vujudga keltiradi va bu hodisalar to'plami chekli, cheksiz bo'lishi mumkin.

Har qanday tasodifiy hodisa esa elementar hodisalar to'plamidan tashkil topgan bo'ladi. Tasodifiy hodisalarni, odatda, lotin alfavitining bosh harflari A, B, C,.....lar bilan belgilanadi. Tajriba natijasida har gal ro'y beradigan hodisa, muqarrar hodisa deyiladi va uni U harfi bilan belgilaymiz. Birorta ham elementar hodisani o'z ichiga olmagan hodisa mumkin bo'lmagan hodisa deyiladi va uni V harfi bilan belgilaymiz.

A va B hodisalar bir vaqtda ro'y berishi mumkin bo'lmasa, u holda A va B hodisalar birgalikda bo'lmagan hodisalar deyiladi, aks holda A va B hodisalar birgalikda deyiladi.

n ta teng imkoniyat (har birini ro'y berish imkoniyatlari bir xil), birgalikda bo'lmagan va har bir tajriba natijasida faqatgina bittasi ro'y berishi aniq bo'lgan $A_1, A_2, \dots, A_n$, elementlar hodisalar to'plamini hodisalarning to'lik gruppasini tashkil etuvchi to'plam deyiladi.

2. Ehtimolning klassik va statistik ta'riflari.

Ta'rif. A tasodifiy hodisaning ehtimoli deb, A hodisaning ro'y berishiga «qulaylik tug'diruvchi» elementar hodisalar soni m ni, ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha elementar hodisalar soni n ga nisbatiga aytiladi va

$P(A)=m/n$ tenglik bilan aniqlanadi.⁸

n ta takroriy tajribalarda A hodisani kuzataylik. U k marta ro'y berdi deylik.

Ta'rif. A hodisaning nisbiy chastotasi deb, shu hodisaning ro'y bergan hollar soni k ni o'tkazilgan tajribalarning umumiy soni n ga nisbatiga aytiladi.

$W=k/n$

⁸ [Erwin Kreyzing]_Advanced_engineerring_mathematics(BookZZ.org)-1000-1001 betlar

Agar biror A hodisa ustida o'tkazilgan etarlicha ko'p sondagi takror tajribalar seriyasida hodisaning nisbiy chastotasi biror o'zgarmas son atrofida tebransa, shu o'zgarmas sonni A hodisaning statistik ehtimoli deb qabul qilinadi.

3. Hodisalar yig'indisining ehtimoli.⁹

1-xossa. Ikkita biragiklarda bo'lmagan A va B hodisalar yig'indisining ro'y berish ehtimoli, shu hodisalar ehtimollarining yig'indisiga teng, ya'ni

$$P(A+B) = P(A) + P(B).$$

Natija. Bir necha chekli sondagi birgalikda bo'lmagan hodisalar yig'indisining ehtimoli, shu hodisalar ehtimollarining yig'indisiga teng, ya'ni

$$P(A_1+A_2+\dots+A_n) = P(A_1) + P(A_2) + \dots + P(A_n)$$

2-xossa: Ixtiyoriy A va B tasodifiy hodisalar yig'indisining ehtimoli shu hodisalar ehtimollarining yig'indisidan, bu hodisalarni birgalikda ro'y berish ehtimolini ayrilganiga teng, ya'ni

$$P(A+B) = P(A) + P(B) - P(AB).$$

1-ta'rif. Agar A va B hodisalarning birgalikda ro'y berish ehtimoli:

$$P(AB) = P(A)P(B)$$

bo'lsa, A va B hodisalar bog'liq bo'lmagan hodisalar deyiladi.

Ko'p hollarda A hodisaning ehtimolini biror B hodisa ($P(B) > 0$) deb faraz qilinadi) ro'y bergandan so'ng hisoblashga to'g'ri keladi.

2-ta'rif. A hodisaning B hodisa ro'y berish sharti ostidagi shartli ehtimoli deb, ushbu formula bilan aniqlanadigan ehtimolga aytiladi:

$$P_B(A) = P(AB)/P(B), \quad P(B) > 0$$

3-xossa. A va B bog'liqli hodisalarning birgalikda ro'y berish ehtimoli ulardan birining ehtimolini shu hodisa ro'y berish sharti ostida hisoblan ikkinchi hodisaning shartli ehtimoliga ko'paytmasiga teng:

$$P(AB) = P(A)P_B(A) \text{ yoki } P(AB) = P(B)P_B(A).$$

4-xossa. Bir nechta bog'liqli hodisalarning birgalikda ro'y berish ehtimoli birining ehtimolini qolganlarining shartli ehtimollariga ko'paytmasiga teng, bunda har bir keyingi hodisaning ehtimoli, undan oldingi hamma hodisalarning ro'y berdi degan shartida hisoblanadi.

$$P(A_1A_2\dots A_n) = P(A_1)P_{A_1}(A_2)\dots P_{A_1\dots A_{n-1}}(A_n).$$

4. Qarama-qarshi hodisalar.

A hodisaga teskari hodisasiga qarama-qarshi hodisalar deyiladi va $\bar{A}$ bilan belgilandi.

$$P(A) = p \text{ va } P(\bar{A}) = q \text{ bo'lsa, } P(A) + P(\bar{A}) = 1 \Rightarrow P(A) = 1 - P(\bar{A}) = 1 - q \text{ bo'ladi.}$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hodisa nima?
2. Hodisaning qanday turlarini bilasiz?
3. Hodisa ehtimoliga ta'rif bering.
4. Hodisa ehtimolining yig'indisi.
5. Qarama-qarshi hodisa nima?

MA'RUZA 15

4.15.SHARTLI EHTIMOL. TO'LA EHTIMOL. O'ZARO BOG'LIQSIZ TAKRORIY SINASHLAR.

Reja.

1. Shartli ehtimol
2. To'la ehtimol
3. Bayes formulasi

⁹ [Erwin Kreyzing]_Advanced_engineerring_mathematics(BookZZ.org)-1002-1005 betlar

4. Bernulli formulasi.
5. Tajribalarning takrorlanishida hodisannig eng katta ehtimollik bilan ro'y berish soni
6. Laplas formulasi.
7. Puasson formulasi.

Tayanch so'zlar: Bernulli formulasi, Laplas formulasi, Puasson formulasi.

1. Shartli ehtimol.

1-ta'rif. Agar A va B hodisalarning birgalikda ro'y berish ehtimoli:

$$P(AB)=P(A)P(B)$$

bo'lsa, A va B hodisalar bog'liq bo'lmagan hodisalar deyiladi.

Ko'p hollarda A hodisaning ehtimolini biror B hodisa ($P(B)>0$ deb faraz qilinadi) ro'y bergandan so'ng hisoblashga to'g'ri keladi.

2-ta'rif. A hodisaning B hodisa ro'y berish sharti ostidagi shartli ehtimoli deb, ushbu formula bilan aniqlanadigan ehtimolga aytiladi:

$$P_B(A)=P(AB)/P(B), \quad P(B) > 0$$

3-xossa. A va B bog'liqli hodisalarning birgalikda ro'y berish ehtimoli ulardan birining ehtimolini shu hodisa ro'y berish sharti ostida hisoblan ikkinchi hodisaning shartli ehtimoliga ko'paytmasiga teng:

$$P(AB)=P(A)P_A(B) \text{ yoki } P(AB)=P(B)P_B(A).$$

4-xossa. Bir nechta bog'liqli hodisalarning birgalikda ro'y berish ehtimoli birining ehtimolini qolganlarining shartli ehtimollariga ko'paytmasiga teng, bunda har bir keyingi hodisaning ehtimoli, undan oldingi hamma hodisalarning ro'y berdi degan shartida hisoblanadi.

$$P(A_1A_2...A_n)=P(A_1)P_{A_1}(A_2)...P_{A_1...A_{n-1}}(A_n).$$

2. To'la ehtimol formulasi.

To'la grupp tashkil etadigan, juft-juti bilan birgalikda bo'lmagan $B_1, B_2, ..., B_n$ hodisalarning gipotezalarining biri ro'y bergandagina ro'y berishi mumkin bo'lgan A hodisaning ehtimoli, gipotezalaridan har birining ehtimolini A hodisaning ehtimoli tegishli shartli ko'paytmalari yig'indisiga teng.

$$P(A)=P(B_1)P_{B_1}(A)+P(B_2)P_{B_2}(A)+...+P(B_n)P_{B_n}(A) \quad (**)$$

Bu erda

$$P(B_1)+P(B_2)+...+P(B_n)=1$$

(**) tenglik «to'la ehtimol formulasi» deyiladi.

3. Bayes formulasi.

A hodisa, hodisalarning to'la gruppasini tashkil etadigan, juft-jufti bilan birgalikda bo'lmagan, $B_1, B_2, ..., B_n$ hodisalarning (gipotezlarning) biri ro'y bergandagina ro'y berishi mumkin bo'lsin. Agar A hodisa ro'y bergan bo'lsa, u holda hodisalarining ehtimollarini ushbu Bayes formulalari bo'yicha qayta baholash mumkin.

$$P_A(B_i)=P(B_i)P_{B_i}(A)/P(A); \quad i=1,2,...,n$$

Bu yerda

$$P(A)=P(B_1)P_{B_1}(A)+P(B_2)P_{B_2}(A)+...+P(B_n)P_{B_n}(A)$$

Misol 1. Davlatimizdan armiya safiga chaqiriluvchi o'smirlardan 50% i 1-viloyatdan, 30% i 2-viloyatdan va 20% 3-viloyatdan to'plandi. 1-viloyatdan har 100 o'smirdan 10 tasi, 2-viloyatdan esa 15 tasi va 3-viloyatdan 20 tasi qandaydir kasallik bilan kasallangan bo'lsin. Armiya safiga chaqirilgan o'smirlardan ixtiyoriy biri tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda sog'lom ekanligi aniqlandi. Shu o'smirning 1-viloyatdan bo'lish ehtimoli topilsin.

Echish A-o'smirning sog'lom bo'lish hodisasi topilsin. Bu yerda uchta gipoteza

B_1 -o'smir 1-viloyatdan, B_2 -o'smir 2-viloyatdan, B_3 -o'smir 3-viloyatdan chaqirganligi bo'lsa, $P(B_1)=0,5; P(B_2)=0,3; P(B_3)=0,2$ o'smirning sog'lom bo'lishining shartli ehtimollari:

$$P_{B_1}(A)=0,9; P_{B_2}(A)=0,85; P_{B_3}(A)=0,8$$

Tavakalliga chaqirilgan o'smirning sog'lom bo'lish ehtimoli:

$$P(A)=P(B_1)P_{B_1}(A)+P(B_2)P_{B_2}(A)+P(B_3)P_{B_3}(A)=0,5*0,9+0,3*0,85+0,2*0,8=0,865$$

U holda izlanayotgan ehtimol

$$P_A(B_1) = P(B_1)P_{B_1}(A)/P(A) \approx 0,52$$

Telegraf axboroti «nuqta» va «tire» signallaridan iborat. Axborotning «nuqta» dan iborat qismining urtacha 2/3 bo'lagi va «tire» dan iborat qismining o'rtacha 1/3 bo'lagi statistik kuzatishlarda noto'g'ri ko'rsatiladi. Uzatilayotgan signallar ichida 5:3 nisbatda «nuqta» va «tire» signallari uchraydi. Uzatilayotgan signallar qabul qilinganligi ma'lum. Uning a)



b) «nuqta» signali qabul qilingan. b) «tire» signali qabul qilinganligining ehtimoli topilsin.

Echish A-«nuqta» signali qabul qilinganlik hodisasi.

B- «tire» signali qabul qilinganlik hodisasi bo'lsin.

H_1 -uzatilgan signal «nuqta» va H_2 -uzatilgan signal «tire»dan iborat ikkita gipoteza bo'lib, shartga ko'ra

$$P(H_1):P(H_2)=5:3 \quad \text{va} \quad P(H_1)+P(H_2)=1. \quad \text{bulardan} \\ P(H_1)=5/8; \quad P(H_2)=3/8$$

Masalaning shartiga ko'ra :

$$P_{H_1}(A)=3/5; \quad P_{H_1}(B)=2/5; \quad P_{H_2}(A)=1/3; \\ P_{H_2}(B)=2/3;$$

A va B hodisalarning ehtimollarini, to'la ehtimollik formulasiga ko'ra topamiz:

$$P(A)=P(H_1) P_{H_1}(A)+ P(H_2)P_{H_2}(A)=\frac{5}{8} \cdot \frac{3}{5} + \frac{1}{3} \cdot \frac{3}{5} = \frac{1}{2}$$

$$P(B)=P(H_1) P_{H_1}(B)+ P(H_2)P_{H_2}(B)=\frac{5}{8} \cdot \frac{2}{5} + \frac{2}{3} \cdot \frac{3}{8} = \frac{1}{2}$$

$$\text{Izlanayotgan ehtimollar: a) } P_A(H_1)=P(H_1)P_{H_1}(A)/P(A)=\frac{5}{8} \cdot \frac{3}{5} : \frac{1}{2} = \frac{3}{4}$$

$$\text{b) } P_B(H_2)=P(H_2)P_{H_2}(B)/P(B)=\frac{3}{8} \cdot \frac{2}{3} : \frac{1}{2} = \frac{1}{2}$$

3. Bernulli formulasi.

Biror hodisani kuzatish uchun bir nechta tajriba o'tkazilsa, bu tajribalar bir-biriga bog'liq bo'lishlari yoki bog'liq bo'lmasliklari mumkin. Faraz qilaylik, bog'liq bo'lmagan n ta tajriba o'tkazilayotgan bo'lib, har bir tajribada kuzatilayotgan A hodisaning ro'y berish ehtimoli p va ro'y bermaslik ehtimoli $q=1-p$ bo'lsin. Kuzatilayotgan A hodisaning n ta tajribada k marta ro'y berish ehtimoli quyidagi $P_n(k)$ bernulli formulasi bilan topiladi.

$$P_n(k)=C_n^k p^k q^{n-k} \quad \text{yoki} \quad P_n(k) = \frac{n!}{k!(n-k)!} \cdot p^k \cdot q^{n-k}.$$

- Hodisanig: a) k dan kam marta;
 b) k dan ko'p marta;
 c) kamida k marta;
 d) ko'pi bilan k marta

ro'y berish ehtimollari mos ravishda quyidagi formulalar bo'yicha topiladi.

$$\text{a) } P_n(0)+P_n(1)+\dots+P_n(k-1) ;$$

$$\text{b) } P_n(k+1)+P_n(k+2)+\dots+P_n(n) ;$$

$$\text{c) } P_n(k)+P_n(k+1)+\dots+P_n(n)$$

$$\text{d) } P_n(0)+P_n(1)+\dots+P_n(k) .$$

4. Tajribalarning takrorlanishida hodisannig eng katta ehtimollik bilan ro'y berish soni

Agar (har bir tajribada kuzatilayotgan hodisaning ro'y berish ehtimoli p ga teng bo'lgan tajribalar ketma-ketligida) hodisaning k_0 marta ro'y berish ehtimol, tajribalarning boshqa, mumkin bo'lgan natijalari ehtimollaridan ortiq (yoki hech bo'lmaganda kichik emas) bo'lsa, u holda shu k_0 son eng katta ehtimolli son deyiladi.



Абраам де Муавр
(1667-1754)



Пьер-Симон Лаплас
(1749-1827)

Eng katta ehtimolli k_0 son ushbu qo'sh tengsizlikdan aniqlanadi:

$$np - q < k_0 < np + p$$

Bunda

a) agar $np - q$ son kasr bo'lsa, u holda bitta eng katta ehtimolli son k_0 mavjud bo'ladi.

b) agar $np - q$ son butun bo'lsa, u holda ikkita eng katta ehtimolli son, chunonchi k_0 va $k_0 + 1$ mavjud bo'ladi;

c) agar np butun son bo'lsa, u holda $k_0 = np$ bo'ladi.

Misol. 15 ta elementli biror

qurilmaning har bir elementi sinalmoqda. Elementning sinovga bardosh berish ehtimoli 0.9 ga teng. Sinovga bardosh beradigan elementarning eng katta ehtimolli sonini toping.

Echish.

Shartga ko'ra $n=15$; $p=0.9$; $q=0.1$; $np - p \leq k_0 \leq np + p$

Bunga masalada berilgan ma'lumotlarni qo'yib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$15 \cdot 0.9 - 0.1 \leq k_0 \leq 15 \cdot 0.9 + 0.9 \Rightarrow 13.4 \leq k_0 \leq 14.4 \Rightarrow k_0 = 14.$$

5. Muavr-Laplasning lokal teoremasi.

Har birida hodisaning ro'y berish ehtimoli p ($0 < p < 1$)ga teng bo'lgan, n ta bog'liq bo'lmagan tajribada hodisaning k marta yuz berish ehtimoli taqriban

$$P_n(k) = \frac{\varphi(x)}{\sqrt{npq}}$$

ga teng. Bu erda $\varphi(x) = \frac{e^{-\frac{x^2}{2}}}{\sqrt{2\pi}}$, $x = \frac{k - np}{\sqrt{npq}}$. x ning musbat qiymatlari uchun $\varphi(x)$ funksiya

jadvali 1-ilovada keltirilgan, x ning manfiy qiymatlari uchun ham o'sha jadvaldan foydalaniladi $\varphi(x)$ -juft funksiya, yani $\varphi(-x) = \varphi(x)$.

2. Muavr-Laplasning integral teoremasi. Har birida hodisaning ro'y berish ehtimoli p ($0 < p < 1$)ga teng bo'lgan, n ta bog'liq bo'lmagan tajribada hodisaning kamida k_1 marta ko'pi bilan k_2 marta yuz berish ehtimoli taqriban

$P_n(k_1, k_2) = \Phi(x'') - \Phi(x')$ gat eng bo'lib, bu yerda Laplas funksiyasi:

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_0^x e^{-\frac{u^2}{2}} du, \quad x' = \frac{k_1 - np}{\sqrt{npq}}; \quad x'' = \frac{k_2 - np}{\sqrt{npq}};$$

X ning ($0 \leq x < 5$) musbat qiymatlari uchun Laplas funksiyasining jadvali 2-ilovada keltirilgan $x \geq 5$ qiymatlari uchun $\Phi(x) = 0.5$ deb olinadi; x ning manfiy qiymatlari uchun Laplas funksiya toqligini $\Phi(-x) = -\Phi(x)$ hisobga olish lozim.

6. Puasson formulasi. Agar tajribalar soni n katta bo'lib, har bir tajribada hodisaning ro'y berish ehtimoli $p = \frac{\lambda}{n}$ ko'rinishda bo'lsa, u xolda

$$P_k \approx \frac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}.$$

Taqribiy formula yordamida hisoblanadi. Bu yerda k hodisaning n ta bog'lik bo'lmagan tajribada ro'y berishlar soni $\lambda = np$. λ va k ning qiymatlari uchun 3-ilovaga Puasson funksiyasining jadvali keltirilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zaro bog'liqsiz takroriy sinashlar deganda nima tushunasiz?
2. Qanday takroriy sinashlarda Bernulli formulasidan foydalaniladi?
3. Muavr-Laplas formulasidan qanday hollarda foydalaniladi?
4. Puasson formulasining mohiyati nimadan iborat?

MA'RUZA 16

4.16.TASODIFIY MIQDORLAR: DISKRET VA UZLUKSIZ TASODIFIY MIQDORLAR. DISKRET TASODIFIY MIQDORLARNING TAQSIMOT QONUNI VA SONLI XARAKTERISTIKALARI. ZICHLIK VA TAQSIMOT FUNKSIYALAR.TEKIS VA NORMAL TAQSIMOTLAR. UZLUKSIZ TASODIFIY MIQDORLAR VA ULARNING SONLI XARAKTERISTIKALARI. TURLI DASTURIY PAKETLAR YORDAMIDA AMALIY MASALALAR YECHISH

Reja.

1. Diskret tasodifiy miqdorda va ularning taqsimot qonuni.
2. Diskret tasodifiy miqdorining sonli xarakteristikalar
3. Uzluksiz tasodifiy miqdor va uning taqsimot funksiyasi.
4. Uzluksiz tasodifiy miqdorning zichlik (differensial) funksiyasi.
5. Uzluksiz tasodifiy miqdorning sonli xarakteristikalar

Tayanch so'zlar: Uzluksiz tasodifiy miqdor, taqsimot funksiyasi, zichlik funksiya, diskret tasodifiy miqdor, DTM ning taqsimot qonuni, matematik kutilma, dispersiya, o'rtacha kvadratik chetlatish.

1. Diskret tasodifiy miqdorda va ularning taqsimot qonuni

Ta'rif: muayyan sharoitda tasodifiy sabablarga bog'liq holda turli son qiymatlar qabul qilish mumkin bo'lgan o'zgaruvchi miqdorga tasodifiy miqdor deyiladi.¹⁰

Ta'rif: Agar tasodifiy miqdor o'zining o'zgarish sohasida chekli yoki sanoqli qiymatlarni ma'lum ehtimollar bilan qabul qilishi mumkin bo'lsa, bunday tasodifiy miqdor diskret tasodifiy miqdor deyiladi.

Ta'rif: Diskret tasodifiy miqdorning mumkin bo'lgan qiymatlari bilan shu qiymatlarni qabul qilish ehtimollari orasidagi moslikka tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni deyiladi va u

$$X : x_1, x_2, \dots, x_n, \dots$$

$$P : p_1, p_2, \dots, p_n, \dots$$

Ko'rinishida berilishi mumkin.

Bu yerda

$$p_1 + p_2 + \dots + p_n = 1.$$

Diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini grafik usulda ham tasvirlash mumkin. Buning uchun to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasida $M_1(x_1, p_1), M_2(x_2, p_2), \dots, M_n(x_n, p_n)$ nuqtalar yasaladi va ular to'g'ri chiziq kesmalari orqali tutashtiriladi. Hosil qilingan figura taqsimot ko'pburchagi deyiladi.

X tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni analitik usulda

$$F_x(x_i) = P(X = x_i)$$

ko'rinishda beriladi. Analitik usulda berilgan ayrim misollarda qaraymiz.

1. Binomial taqsimot. Agar X tasodifiy miqdor $0, 1, 2, \dots, n$ qiymatlarni mos ravishda.

$$P_n(k) = C_n^k p^k q^{n-k}, k = 0, 1, 2, \dots, n$$

¹⁰ James Stewart Calculus 7E 592-594 betlar

ehtimollar bilan qabul qilsa, X binomial qonun bo'yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi.

2. Puasson taqsimoti. Agar X tasodifiy miqdor $0, 1, 2, \dots, n$ qiymatlarni mos ravishda

$$P_n(k) = \frac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}$$

ehtimollar bilan qabul qilsa, X Puasson qonun bo'yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi, bu yerda $\lambda = np$ (hodisaning n ta bog'lik bo'lmagan tajribalarda ro'y berishining o'rtacha soni)

a) DTM ning matematik kutilmasi.

Ta'rif: X diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi (o'rtacha qiymati) deb X tasodifiy miqdorning mumkin bo'lgan qiymatlarini, shu qiymatlarni qabul qilish ehtimollari mos ko'paytmalarining yig'indisiga aytiladi. U odatda MX orqali belgilanadi. X tasodifiy miqdor Ushbu

$$X : x_1; x_2; \dots; x_n$$

$$P : p_1; p_2; \dots; p_n$$

taqsimot bilan berilgan bo'lsa, uning matematik qutilmasi quyidagicha

$$MX = x_1 \cdot p_1 + x_2 \cdot p_2 + \dots + x_n \cdot p_n, \quad \text{bo'ladi.}$$

$$p_1 + p_2 + \dots + p_n = 1$$

Agar tasodifiy miqdor sanoqli qiymatlarni qabul qilsa, u holda $MX = \sum_{i=1}^{\infty} x_i p_i$ bo'lib,

tenglikning o'ng tarafidagi qator absolyut yaqinlashuvchi deb olinadi va $\sum_{i=1}^{\infty} p_i = 1$ bo'ladi.

Xossalari:

1. $M(C)=0$, C-o'zgarmas son.
2. $M(X_1+X_2+\dots+X_n)=MX_1+MX_2+\dots+MX_n$
3. O'zaro bog'liq bo'lmagan tasodifiy miqdorlar ko'paytmalarini matematik kutilmasi shu tasodifiy miqdorlar matematik kutilmalarining ko'paytmasiga teng:

$$M(X_1 \cdot X_2 \cdot \dots \cdot X_n) = MX_1 \cdot MX_2 \cdot \dots \cdot MX_n$$

4. $M(cX+b)=cM$

b) DTM ning dispersiyasi.

Ta'rif: X tasodifiy miqdorning dispersiyasi deb, uning matematik kutilishidan chetlanishi kvadrati $(X - MX)^2$ ning matematik kutilishiga aytiladi va u odatda DX yoki $D(X)$ orkali belgilanadi:

$$DX = M[X - M(X)]^2$$

Diskret X tasodifiy miqdor uchun bu formula ushbu ko'rinishni oladi.

$$DX = \sum_{i=1}^n (x_i - MX)^2 \cdot p_i \quad \text{yoki}$$

$$\sum_{i=1}^{\infty} (x_i - MX)^2 \cdot p_i$$

Ta'rif: X tasodifiy miqdorning o'rtacha kvadratik chetlanishi deb dispersiyasidan olingan kvadrat ildizining arifmetik qiymatiga aytiladi va u odatda $\sigma(X)$ orqali belgilanadi.

$$\sigma(X) = \sqrt{DX}$$

ПУАССОН, СИМЕОН ДЕНИ (Poisson, Simeon-Denis) (1781–1840 гг.)



Французский математик, механик и физик. В 1811 он вывел получившее широкое применение уравнение, связывающее электрический потенциал с плотностью пространственного распределения заряда (уравнение Пуассона).

Dispersiya xossalari.

1. $D(C)=0$, C -uzgarmas son.

2. O'zgarmas ko'paytuvchini kvadratga ko'tarib dispersiya belgisidan tashqariga chiqarish mumkin: $D(aX)=a^2 DX$

3. Chekli sondagi bog'likmas tasodifiy miqdorlar yig'indisining dispersiyasi ularning dispersiyalarining yigindisiga teng.

$$D(X_1 + X_2 + \dots + X_n) = DX_1 + DX_2 + \dots + DX_n$$

4. Bog'liqmas tasodifiy miqdorlar ayirmasining dispersiyasi ular dispersiyalarining ayirmasiga teng: $D(X-Y)=DX-DY$

$$5. DX=MX^2-(MX)^2$$

1. Uzlüksiz tasodifiy miqdor va uning taqsimot funksiyasi.¹¹

Shunday tasodifiy miqdorlar borki, uning mumkin bo'lgan qiymatlarini doim ham chekli yoki sanoqli to'plamga ekvivalent bo'lavermaydi. Balki uning mumki bo'lgan qiymatlari biror interval, kesma yoki butun sonlar o'qidan iborat bo'lishi mumkin. Bunday tasodifiy miqdorga uzluksiz tasodifiy miqdor deyiladi.

Ta'rif: Har bir haqiqiy x ga « X tasodifiy miqdor x dan kichik qiymat qabul qiladi» ($X < x$) degan hodisa ehtimolini mos qo'yuvchi funksiyaga X tasodifiy miqdorning taqsimot (interval taqsimot) funksiyasi deyiladi u odatda $F(x)$ orqali belgilanadi.

$$F(x) = P(X < x).$$

Xossalari.

1. $DF(x)=(-\infty; +\infty)$; $EF(x)=[0,1]$;

2. $F(x)$ kamaymaydigan funksiya;

3. Agar $x \in (a,b)$ bo'lib, $x=a$ bo'lsa, $F(x)=0$ va $x>b$ bo'lsa, $F(x)=1$ bo'ladi.

Natijalar. 1. $x \in (a,b) \Rightarrow F(a < x < b) = F(b) - F(a)$.

2. Uzlüksiz x tasodifiy miqdor yagona x_0 qiymatni qabul qilsa, u holda $P(X=x_0)=0$.

3. $x \rightarrow -\infty$ da $F(x) \rightarrow 0$ va $x \rightarrow +\infty$ da $F(x) \rightarrow 1$

2. Uzlüksiz tasodifiy miqdorning zichlik (differensial) funksiyasi.

Ta'rif: Uzlüksiz X miqdorning zichlik (differensial) funksiyasi deb X tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasidan olingan birinchi tartibli hosilasiga aytiladi. U odatda $f(x)$ orqali belgilanadi: $f(x)=F'(x)$.

Xossalari:

$$1. f(x) \geq 0$$

$$2. F(x) = \int_{-\infty}^x f(t)dt$$

$$3. P(a \leq X \leq b) = \int_a^b f(x)dx$$


$$4. \int_{-\infty}^{+\infty} f(x)dx = 1$$

Eslatma: Agar x tasodifiy miqdorning mumkin bo'lgan qiymatlari $[a; b]$ oraliqda bo'lsa, u holda

$$\int_a^b f(x)dx \quad \text{bo'ladi.}$$

1. Tekis taqsimot.

Ta'rif: Tekis taqsimlangan X uzluksiz tasodifiy miqdor deb, $f(x)$ zichligi biror $[a; b]$ kesmada o'zgarmas $\frac{1}{b-a}$ ga teng, bu kesmadan tashqarida esa nolga teng, yani:




¹¹¹¹ [Erwin Kreyzing]_Advanced_engineerring_mathematics(BookZZ.org)-1020-1023 betlar

$$f(x) = \begin{cases} 0, & \text{agar } x \notin [a; b] \\ \frac{1}{b-a}, & \text{agar } x \in [a; b] \end{cases}$$

bo'lgan miqdorga aytiladi.

Tekis taqsimlangan tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi ushbu

$$F(x) = \begin{cases} 0, & \text{agar } x < a \\ \frac{x-a}{b-a}, & \text{agar } x \in [a, b] \\ 1, & \text{agar } x > b \end{cases}$$



2. Ko'rsatkichli taqsimot.

Ta'rif. Ko'rsatkichli taqsimlangan tasodifiy miqdor deb, taqsimot zichligi

$$f(x) = \begin{cases} \lambda e^{-\lambda x}, & \text{agar } x \geq 0 \\ 0, & \text{agar } x < 0 \end{cases}$$

ko'rinishda bo'lgan X uzluksiz tasodifiy miqdorga aytiladi. Bu yerda λ -parametr biror tayin musbat songa teng.

Ko'rsatkichli tasodifiy miqdorning taqsimot

funksiyasi ushbu $F(x) = \begin{cases} 1 - e^{-\lambda x}, & \text{agar } x \geq 0 \\ 0, & \text{agar } x < 0 \end{cases}$

3. Normal taqsimot. (Gauss taqsimoti)

Ta'rif. (a, σ^2) -parametrli normal taqsimlangan tasodifiy miqdor deb, zichlik funksiyasi

$$f(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}, (\sigma > 0, -\infty < x < \infty)$$
 ko'rinishda

bo'lgan X uzluksiz tasodifiy miqdorga aytiladi.

Parametrik $(0, 1)$ bo'lgan normal taqsimlangan tasodifiy miqdorga standart normal taqsimotga ega deyiladi.

Xossalari.

1. $Df(x) = (-\infty; +\infty)$, $Ef(x) = (0; \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}})$, juft

funksiya.

2. $(-\infty; a)$ oraliqda o'sadi, $(a; +\infty)$ - oraliqda kamayadi.

3. $x \rightarrow \pm\infty$ da grafigi Ox o'qiga asimtotik joylashadi.


4. Yagona $x=a$ nuqtada yagona maksimumga ega.

5. $x = a \pm \sigma$ nuqtalarda burilishga ega.

Rasmda (a, σ^2) parametrli zichlik funksiya grafigi tasvirlangan. (a, σ^2) parametrli normal taqsimlangan tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi ushbu

$$F(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{(t-a)^2}{2\sigma^2}} dt, (\sigma > 0, -\infty < a < \infty)$$
 ko'rinishda bo'ladi.

$(0, 1)$ -parametrli standart taqsimot funksiya ushbu ko'rinishda bo'ladi.:



$$F_0(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{t^2}{2}} dt = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^0 e^{-\frac{t^2}{2}} dt + \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_0^x e^{-\frac{t^2}{2}} dt = 0,5 + \Phi(x)$$

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_0^x e^{-\frac{t^2}{2}} dt \quad \text{Laplas funksiyasi deyilib uning qiymatlari jadvali berilgan, u quyidagi}$$

xossalarga ega:

1. $(-\infty; +\infty)$ oraliqda aniqlangan va uzluksiz.
2. Toq funksiya va $(-\infty; +\infty)$ oraliqda o'suvchi.
3. $x \rightarrow -\infty$ da $\Phi(x) \rightarrow -0,5$ va $x \rightarrow +\infty$ da $\Phi(x) \rightarrow 0,5$.

3. Uzluksiz tasodifiy miqdorning sonli xarakteristikalar¹²

Tayanch so'zlar: Uzluksiz tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi, dispersiyasi, mediana, k-tartibli boshlang'ich va markaziy momoment.

Taqsimot zichlik funksiyasi $f(x)$ dan iborat va $(-\infty; +\infty)$ oralikda aniqlangan.

X-uzluksiz tasodifiy miqdorning kutilishi ushbu

$$MX = \int_{-\infty}^{+\infty} xf(x) dx$$

formula bilan aniqlanadi, bu erda tenglikning o'ng tomonidagi integralni absolyut yaqinlashuvchi deb olinadi

agar X t.m. (a,b) da aniqlangan bo'lsa u xolda

$$MX = \int_a^b xf(x) dx$$

formula orqali ifodalanadi.

Uzluksiz tasodifiy miqdorning dispersiyasi Ushbu

$$DX = \int_{-\infty}^{+\infty} (x - MX)^2 f(x) dx = \int_{-\infty}^{+\infty} x^2 f(x) dx - [MX]^2, \quad X \in (-\infty; +\infty).$$

$$DX = \int_a^b (x - MX)^2 f(x) dx = \int_a^b x^2 f(x) dx - [MX]^2, \quad X \in [a, b].$$

Formulalar orkali topiladi.

Agar $M_0(X)$ ning mumkin bulgan qiymatlari zichlik funksiyaning maksimumini bersa, M_0 -uzluksiz X tasodifik miqdorning modasi deyiladi.

Ushbu :

$R(X < Me(X)) = P(X > Me(X))$ tenglikni qanoatlantiruvchi $Me(X)$ ga X uzluksiz tasodifiy miqdorning medianasi deyiladi.

X uzluksiz tasodifiy miqdorning k-tartibli boshlang'ich momenti

$$\nu_k = \int_{-\infty}^{+\infty} x^k f(x) dx \quad \text{yoki} \quad \nu_k = \int_a^b x^k f(x) dx$$

X uzluksiz tasodifiy miqdorning k-tartibli markaziy momenti

$$\mu_k = \int_{-\infty}^{+\infty} (x - MX)^k f(x) dx \quad \text{yoki} \quad \mu_k = \int_a^b (x - MX)^k f(x) dx$$

Agar $k=1$ bo'lsa, u xolda $\nu_1 = MX$, $\mu_1 = 0$; agar $k=2$ bo'lsa $\mu_2 = DX$

Diskret tasodifiy miqdorlarning matematik kutilma va dispersiyasining xossalari uzluksiz tasodifiy miqdorlar uchun xam saqlanadi.

1. Tekis taksimlangan X uzluksiz t.m. ning sonli xarakteristikalar:

$$MX = (a+b)/2; \quad MX^2 = (a^2 + ab + b^2)/3;$$

¹² James Stewart Calculus 7E 594-597 betlar

$$DX = MX^2 - M^2X = (a-b)^2/12;$$

$$\sigma(X) = (b-a)/2\sqrt{3}$$

2. Kursatkichli X uzluksiz t.m. ning sonli xarakteristiklari

$$MX = 1/\lambda; \quad MX^2 = 2/\lambda^2;$$

$$DX = MX^2 - M^2X = 1/\lambda^2; \quad \sigma(X) = 1/\lambda.$$

3. Normal taqsimlangan X uzluksiz t.m. ning sonli xarakteristiklari:

$$MX = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{+\infty} x e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}} dx = \int_{-\infty}^{+\infty} z = (x-a)/\sigma, x = \sigma z + a, dx = \sigma dz = a;$$

$$M_0 = M_e = MX = a;$$

$$DX = \sigma^2; \quad \sigma(X) = \sqrt{DX} = \sigma;$$

$$P(\alpha \leq X \leq \beta) = \Phi[(\beta - a)/\sigma] - \Phi[(\alpha - a)/\sigma]$$

$\Phi(x)$ - Laplas funksiyasi,

$$MX = a; \quad P(|X - a| < \delta) = 2\Phi(\delta/\sigma).$$

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

2. Tasodifiy miqdorlar nima va ularga misollar keltiring.
3. Diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonunlari haqida ma'lumot keltiring.
4. Diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi va uning xossalari.
5. Diskret tasodifiy miqdorning dispersiyasi va uning xossalari
1. Uzluksiz tasodifiy miqdorlarga misollar keltiring.
2. Uzluksiz tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi nima?
3. Uzluksiz tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyalari.
6. Uzluksiz tasodifiy miqdorning sonli xarakteristiklari haqida ma'lumot bering

MA'RUZA 17

4.17. MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARI. BOSH TO'PLAM, TANLANMA TO'PLAM. VARIATION QATOR. TAQSIMOTNING EMPIRIC FUNKSIYASI

Reja.

1. Tanlama.
2. Variatsion qator.
3. Gruppalash
4. Gistogramma, poligon.
5. O'rta qiymatlar

Tayanch so'zlar: Tanlanma, bosh to'plam, varianta, variatsion qator

1 Tanlama.¹³

Statistik tahlil qilish uchun dastlab statistik ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Statistik ma'lumotlar kuzatuvlar yoki tajribalar o'rtacha yoshi, oilalardagi bolalarning o'rtacha soni va boshqa tomonlarini bilish uchun aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlari olib boriladi. Bunda mamalakatdagi barcha kishilar va oilalar haqidagi ma'lumotlar hisobga olinadi. Bu esa ular asosida chiqarilgan xulosalarning to'la va aniqroq bo'lishini ta'minlaydi. Lekin hamma vaqt ham barcha ma'lumotlarni yig'ishning iloji bo'lmaydi.

Masalan, bizni har bir paxta ko'chatidan olinadigan hosilning o'rtacha og'irligi qiziqdirsin (yoki katta partiyada keltirilgan har bir detalning talabga javob berishligi yoki har bir ishlab chiqarilgan elektr lampochkasining o'rtacha ishlash vaqti). Bu holda barcha paxta kuchatlari (yoki detallar yoki lampochkalar) haqida ma'lumotlarni yig'ish (har birini tekshirish) juda ko'p mehnat va mablag'ni talab qiladiki bu esa maqsadga muvofiq emas.

Yuqorida keltirilgan misollarda masalan, barcha paxta ko'chatlarini emas balki bir qismini (masalan 1 gektar) tanlab olish, barcha detal yoki lampochkalarni emas, balki bir qismini

¹³ [Erwin Kreyzing]_Advanced_engineering_mathematics(BookZZ.org)-1065-1067 betlar

(masalan 100 ta yoki 300 tasini) tanlab olish va ular haqida kerakli ma'lumotlarni yig'ib xulosalar chiqarish mumkin.

Albatta, chiqarilgan xulosalarning to'la va aniqroq bo'lishi, ko'p jihatdan tanlanmaning qanday tanlanishiga bog'liqdir.

Tanlamalar olingandan keyin undan olingan ma'lumotlar quyidagi ko'rinishda yoziladi.

$$x_1, x_2, \dots, x_n \quad (1)$$

budan keyin biz tanlanma deganda ana shu (1) ma'lumotlarni nazarda tutamiz. Tanlanmadagi elementlar soni n tanlanma deyiladi. Tanlanmadagi x_i variantlar deyiladi.

2. Variatsion qator.¹⁴

Tanlanmadagi variantlar ketma-ket bajarilgan kuzatuv yoki o'lchovlar natijasi bo'lgani uchun ular orasida biror tartib bo'lishi shart emas. Variantlarni ma'lum bir tartibga solish uchun ularni o'sish yoki kamayish tartibida yozib chiqiladi. Hosil bo'lgan qatorga (variantlar qatoriga) variatsion qator deyiladi.

Masalan, birorta kuzatuvlar natijasida quyidagi tanlanma hosil qilingan bo'lsin

$$6, 2, 8, 8, 4, 2, 6, 2, 3, 3, 1$$

Bu tanlanmadagi elementlarni o'sish tartibida yozib chiqsak, quyidagi variatsion qator hosil bo'ladi.

$$1, 2, 2, 2, 3, 3, 4, 6, 6, 8, 8$$

Variatsion qatorni quyidagicha yozish ham mumkin:

$$x_i: \quad x_1 \quad x_2 \quad \dots \quad x_n$$

$$n_i: \quad n_1 \quad n_2 \quad \dots \quad n_n$$

bu erda 1-qatorda tanlanmadagi variantlar o'sish tartibida va bir martadan yoziladi, 2-qatorda esa variantlarning takrorlanishlari soni yoziladi.

n_i ga x_i variantaning takrorlanish soni yoki chastotasi deyiladi.

Tabiiyki barcha chastotalar yig'indisi tanlanma hajmiga teng bo'ladi. Yuqorida olingan misol uchun variatsion qatorning bu ko'rinishi quyidagicha bo'ladi

$$x_i: \quad 1 \quad 2 \quad 3 \quad 4 \quad 6 \quad 8$$

$$n_i: \quad 1 \quad 3 \quad 2 \quad 1 \quad 2 \quad 2$$

(2) dan yana quyidagi jadvalni hosil qilish mumkin.

$$x_i \quad x_1 \quad x_2 \quad \dots \quad x_n$$

$$n_i \quad n_1/n \quad n_2/n \dots \quad n_n/n$$

bu jadvalga o'rganilayotgan belgining empirik taqsimoti deyiladi. n_i/n larni esa nisbiy chastotalar deyiladi va ularni w_i bilan ham belgilanadi. Nisbiy chastotalar yig'indisi birga teng bo'ladi.

Quyidagi funksiyaga empirik taqsimot funksiyasi deyiladi.

$$F(x) = \frac{m(x)}{n}$$

3. Gruppalar

Agar tanlanma hajmi kichik bo'lsa, variatsion qator tuzish va keyingi hisoblash ishlari oson kechadi. Lekin tanlanmaning hajmi katta bo'lganda bu ishlarni amalga oshirish ancha qiyin. Shuning uchun tanlanma hajmi katta bo'lgan hollarda ko'pincha tanlanma gruppalanadi.

Quyidagi

$$x_1, x_2, \dots, x_n$$

tanlanma berilgan bo'lsin. Bu tanlanmani gruppalar uchun avval tanlanmadagi eng katta

($\max(x_i)$) va eng kichik ($\min(x_i)$) varianlar topiladi. Undan keyin nechta gruppaga bo'lish aniqlanadi. Umuman olganda gruppalar sonini ixtiyoriy tanlab olish mumkin. Lekin bunda shuni nazarda tutish kerakki, gruppalar sonini kichik qilib olinsa, oxirgi xulosaning aniqlik darajasi pasayadi, agar gruppalar sonini katta qilib olinsa, hisoblash ishlari ko'payadi.

Shuning uchun gruppalar sonini hisoblashning bir nechta formulalari bor. Masalan, ularning biriga asosan gruppalar soni k uchun quyidagi tengsizlik o'rinli bo'lishi kerak.

$$k \leq 5 \cdot \lg n$$

bu erda n -tanlama hajmi

Umuman agar tanlanma hajmi 20 va 40 sonlari orasida bo'lsa, gruppalar soni 3 yoki 4 ta qilib, agar tanlanma hajmi 30 va 50 sonlari orasida bo'lsa, gruppalar sonini 4 yoki 5 qilib, agar tanlanma hajmi 40 va 60 sonlari orasida bo'lsa, gruppalar sonini 5 yoki 6 ta qilib olish mumkin.

Gruppalar soni k aniqlanganidan keyin gruppalar uzunligini quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$h_i = \frac{(\max(x_i) - \min(x_i))}{k - 1}.$$

Undan keyin gruppa chegaralari topiladi. 1-gruppaning quyi chegarasi α_1 va yuqori chegarasi α_1^* lar quyidagi formulalar bo'yicha topiladi.


$$\alpha_1 = \min(x_i) - \frac{h}{2}; \alpha_1^* = \min(x_i);$$

2-gruppaning quyi chegarasi α_2 sifatida 1-gruppaning yuqori chegarasi α_1^* olinadi (ya'ni $\alpha_2 = \alpha_1^*$), 2-gruppaning yuqori chegarasini topish uchun esa uning quyi chegarasiga h qo'shiladi. Qolgan gruppalarining chegaralari ham ana shu tarzda topiladi. Undan keyin quyidagi jadval to'ldiriladi.

Gruppa nomeri	Gruppa chegaralari	Gruppa o'rtalari	Gruppa chastotalari
1	$\alpha_1 - \alpha_1^*$	X_1	n_1
		X_2	n_2
2	$\alpha_2 - \alpha_2^*$	X_3	n_3
3	$\alpha_3 - \alpha_3^*$		
·	·	·	·
·	·	·	·
k	$\alpha_k - \alpha_k^*$	X_k	n_k

1. Gistogramma, poligon.

Tanlanmadagi variantlarni yaqqolroq tasvirlash uchun tanlanma gruppalaridan keyin gistogramma va poligon chiziladi. Buning uchun koordinatalar tekisligi olinib, gorizontall o'qda gruppalarining chegaralari belgilanadi.



2. O'rta qiymatlar

Har bir gruppada balandligi shu gruppning chastotasiga teng bo'lgan to'g'ri to'rt burchaklar chiziladi. Hosil bo'lgan rasmga gistogramma deyiladi. Agar to'g'ri to'rtburchaklarning yuqori tomonlarining o'rtalarini ketma-ket birlashtirilib chiqilsa, hosil bo'lgan siniq chiziqqa poligon deyiladi. (rasm) agar tanlanmadan variatsion qator tuzilgan bo'lsa, gorizontal o'qqa variatsion qatordagi variantlar belgilanadi. Ba'zan gistogramma chizilganda to'g'ri to'rtburchaklar balandligi chastotalarga emas, balki nisbiy chastotalarga teng qilib olinadi.

O'rgatilayotgan belgilar haqida statistik xulosalar chiqarish uchun bir nechta sonli xarakteristikalarni hisoblash kerak. Ularning dastlabkilari o'rta qiymat, moda va medianadir. O'rta qiymatning bir nechta turlari mavjud. Faraz qilaylik tanlanmadan quyidagi variatsion qator tuzilgan bo'lsin.

$x_i: x_1 \ x_2 \dots x_k$

$n_i: n_1 \ n_2 \dots n_k$

o'rta arifmetik

$$\bar{x} = [x_1 \cdot n_1 + x_2 \cdot n_2 + \dots + x_k \cdot n_k] / n$$

O'rta garmonikan:

$$\bar{x}_h = n / (n_1 : x_1 + n_2 : x_2 + \dots + n_k : x_k)$$

O'rta kvadratik

$$5.68. y = \log_{\cos x} \sin x$$

$$5.69. y = x^{\frac{1}{\ln x}}$$

$$5.70. y = x^2 e^{x^2} \ln x$$

5.71. $(u^v)' = vu^{v-1}u' + u^v v' \ln u$ ekanini ko'rsating.

Quyidagi tenglamalardan y' ni toping:

5.72. 1) $x^2 + y^2 = a^2$; 2) $y^2 = 2px$ 3) $\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$

5.73. 1) $x^2 + xy + y^2 = 6$; 2) $x^2 + y^2 - xy = 0$

5.74. 1) $x^{\frac{2}{3}} + y^{\frac{2}{3}} = a^{\frac{2}{3}}$; 2) $e^y - e^{-x} + xy = 0$

5.75. $e^x \sin u - e^{-y} \cos x = 0$ 5.76. $x = y + \arctg y$

5.77. 1) $x^2 + y^2 = a^2$; 2) $ax + ay - xy = c$; 3) $x^m y^n = 1$ tenglamalardan y'' topilsin.

5.78. $\frac{d^2 y}{dx^2} = \frac{\frac{dx}{dt} \frac{d^2 y}{dt^2} + \frac{dy}{dt} \frac{d^2 x}{dt^2}}{\left(\frac{dx}{dt}\right)^3}$ formuladan foydalanib tenglamalardan $\frac{d^2 y}{dx^2}$ topilsin:

1) $\begin{cases} x = a \cos t \\ y = a \sin t \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x = t^2 \\ y = \frac{t^3}{3} - t \end{cases}$ 3) $\begin{cases} x = a(t - \sin t) \\ y = a(1 - \cos t) \end{cases}$

5.79. Funktsiyalarning 2-tartibli hosilalari topilsin:

1) $y = e^{-x^2}$; 2) $y = \operatorname{ctg} x$; 3) $\arcsin \frac{x}{2}$

Funksiyalarning n-tartibli hosilalari topilsin:

5.80. $y = x^{\sqrt[n]{x}}$ 5.81. $y = \frac{1}{2x+1}$

5.82. $y = 5 - 3\cos^2 x$ 5.83. $y = 2^x + 2^{-x}$

5.84. $y = \frac{ax+b}{cx+d}$ 5.85. $y = e^{kx}$

5.86. $y = (2x-3)^3$ funksiyaning 1, 2, 3-tartibli differensiallarini toping.

6. DIFFERENSIALLANUVCHI FUNKSIYA UCHUN O'RTA QIYMAT HAQIDA TEOREMLAR. TEYLOR FORMULASI. LOPITAL QOIDASI

Roll teoremasi: $y = f(x)$ funksiya $[a; b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo'lsin. Agar funksiya $(a; b)$ intervalda differensiallanuvchi bo'lib, $f(a) = f(b)$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda $(a; b)$ intervalga tegishli hech bo'lmaganda bitta shunday c nuqta topiladiki, $f'(c) = 0$ bo'ladi.

Lagranj teoremasi: $y = f(x)$ funksiya $[a; b]$ kesmada aniqlangan va uzluksiz bo'lib, $(a; b)$ intervalda differensiallanuvchi bo'lsa, u holda $(a; b)$ intervalga tegishli hech bo'lmaganda bitta shunday c nuqta topiladiki, $f(b) - f(a) = f'(c)(b - a)$ munosabat o'rinli bo'ladi.

Koshi teoremasi: Agar ikkita $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiya $[a, b]$ kesmada uzluksiz va uning ichida differensiallanuvchi bo'lsa, shu bilan birga $\varphi'(x)$ shu kesma ichining hech qayerida nolga aylanmasa, u holda $[a, b]$ kesma ichida shunday $x=c$, $a < c < b$ nuqta topiladiki, unda

$$\frac{f(b) - f(a)}{\varphi(b) - \varphi(a)} = \frac{f'(c)}{\varphi'(c)}.$$

Taylor-Makloren formulasi

$$f(x) = f(a) + \frac{f'(a)}{1!}(x-a) + \frac{f''(a)}{2!}(x-a)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(x-a)^n + R_n(x) \quad \text{ifoda}$$

Taylor formulasi, $R_n(x)$ Taylor formulasining qoldiq hadi.

Taylor formulasining $a=0$ dagi hususiy ko'rinishi

$$f(x) = f(0) + \frac{f'(0)}{1!}x + \frac{f''(0)}{2!}x^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(0)}{n!}x^n + R_n(x)$$

Makloren formulasi deyiladi.

Bu formula funksiyaning erkli o'zgaruvchi x ning darajalari bo'yicha yoyilmasini beradi.

Lopital qoidasi: Aytaylik, biror $[a, b]$ kesmada $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar Koshi teoremasining shartlarini qanoatlantirsin va uning biror $x=a$ nuqtasida nolga aylansin, yani $f(a) = \varphi(a) = 0$ (yoki $\pm\infty$) bo'lsin; u holda $x \rightarrow a$ da $\frac{f'(x)}{\varphi'(x)}$ nisbatning limiti mavjud bo'lsa, $x \rightarrow a$ da $\frac{f(x)}{\varphi(x)}$ ham limiti mavjud bo'ladi, shu bilan birga

$$1) \lim_{x \rightarrow 0} \frac{f(x)}{\varphi(x)} = \left\{ \frac{0}{0} \right\} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)} = \left\{ \frac{0}{0} \right\} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{f''(x)}{\varphi''(x)} = \dots$$

$$2) \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f(x)}{\varphi(x)} = \left\{ \frac{\infty}{\infty} \right\} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f'(x)}{\varphi'(x)} = \left\{ \frac{\infty}{\infty} \right\} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f''(x)}{\varphi''(x)} = \dots$$

Quyidagi funksiyalar limitini hisoblang:

$$6.13. \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\sin x}{\sin bx} = \left\{ \frac{0}{0} \right\} = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{a \cos x}{b \cos x} = \frac{a}{b}$$

$$6.14. \lim_{x \rightarrow 4} \frac{x^2 - 16}{x^2 - 6x + 8}$$

$$6.15. \lim_{x \rightarrow a} \frac{e^x - e^a}{x - a}$$

$$6.16. \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\tan x - x}{x - \sin x}$$

$$6.17. \lim_{x \rightarrow 1} \frac{1 - 4 \sin^2 \frac{\pi x}{6}}{1 - x^2}$$

$$6.18. \lim_{x \rightarrow 0} \frac{x - \sin x}{x^3}$$

$$6.19. \lim_{x \rightarrow 1} \left(\frac{1}{x-1} - \frac{1}{\ln x} \right)$$

$$20. \lim_{x \rightarrow \infty} (1-x)^{\frac{1}{x}}; \quad y = (1-x)^{\frac{1}{x}} \text{ deb belgilab, tenglikning ikkala qismini logarifmlaymiz}$$

$$\ln y = \frac{1}{x} \ln |1-x| = \frac{\ln |1-x|}{x}.$$

Endi

limitga

o'tamiz

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \ln y = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{\ln |1-x|}{x} = \left\{ \frac{\infty}{\infty} \right\} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{-\frac{1}{|1-x|}}{1} = 0. \quad \ln y = 0, \quad y = 1$$

$$6.21. \lim_{x \rightarrow 0} \left(\frac{1}{x} \right)^{\tan x}$$

$$26.22. \lim_{x \rightarrow 0} \left(\frac{1}{x} \right)^{\sin x}$$

$$6.23. \lim_{x \rightarrow \frac{\pi}{2}} (\tan x)^{2 \cos x}$$

$$26.24. \lim_{x \rightarrow 0} (\sin x)^{\sin x}$$

$$6.25. \lim_{x \rightarrow 0} x \ln x$$

6.26. $f(x) = \sqrt[3]{8x - x^2}$ funksiya uchun $a=0$, $b=8$ bo'lganda Roll teoremasi shartlari x ning qanday qiymatlarida bajariladi?

6.27. $[-1; 2]$ segmentda $4/x$ va $1 - \sqrt[3]{x^2}$ funksiyalarga Lagranj teoremasini tatbiq qilish mumkin emasligi ko'rsatilsin.

6.28. Tenglamalari $x=t^2$, $y=t^3$ parametrik ko'rinishda berilgan egri chiziqning AB yoyida shunday M nuqtani topingki, bu nuqtada o'tkazilgan urinma AB vatarga parallel bo'lsin, A va B nuqtalarga $t=1$, $t=3$ qiymatlar mos keladi.

6.29. $y=x^3-3x$ egri chiziqning AB yoyining qaysi nuqtasida o'tkazilgan urinma AB vatarga parallel bo'ladi: $A(0;0)$, $B(3;8)$

6.30. Quyidagi funksiyalar uchun Lagranj formulasi yozilsin va $C(x,y)$ nuqta topilsin.

1) $[0;1]$ segmentda $f(x) = \arctg x$

2) $[0;1]$ segmentda $f(x) = \arcsin x$

$[1;2]$ segmentda $f(x) = \ln x$

6.31. Quyidagi funksiyalar uchun Koshi formulasi yozilsin va C nuqta topilsin:

1) $[0; \pi/2]$ segmentda $\sin x$ va $\cos x$ 2) $[1;4]$ segmentda x^2 va $\sqrt{x}$

Quyidagi funksiyalarni Makloren formulasi bo'yicha yozing:

6.32. $f(x) = \cos x$

6.33. $f(x) = (1+x)^a$

7. FUNKSIYANI HOSILA YORDAMIDA TO'LA TEKSHIRISH

Funksiyani tekshirish va grafigini yasash quyidagi umumiy chizma bo'yicha bajariladi:

1) Funksiyaning aniqlanish sohasi topiladi.

2) Funksiya juft ($f(-x) = f(x)$, $\pm x \in D(f)$), toqligi ($f(-x) = -f(x)$, $\pm x \in D(f)$) yoki juft ham emas, toq ham emasligi aniqlanadi. Agar funksiyaning juft yoki toqligi aniqlansa, funksiyani musbat yoki manfiy haqiqiy sonlar yarim o'qida tekshirish yetarli.

Agar funksiya juft bo'lsa, bu funksiyaning grafigi Oy o'qiga nisbatan simmetrik, toq bo'lsa koordinata boshiga nisbatan simmetrik bo'ladi.

3) Davriy yoki davriy emasligi aniqlanadi. Davriy funksiyaning bir davr oralag'ida tekshirish yetarli.

4) Funksiya grafigining koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalari topiladi. Ox o'qi bilan

kesishish nuqtalari $\begin{cases} y = f(x) \\ y = 0 \end{cases}$ chizma, Oy o'qi bilan kesishish nuqtalari esa $\begin{cases} y = f(x) \\ x = 0 \end{cases}$

chizmani yechish bilan topiladi. Funksiya grafigining asimptotalari quriladi.

5) Uzilish nuqtalari aniqlanadi va ularning atrofida funksiyaning o'zini tutishi tekshiriladi. Funksiyaning og'ma asimptotasi

$$(k = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f(x)}{x} \quad b = \lim_{x \rightarrow \infty} [f(x) - kx], \quad y = kx + b) \text{ tekshiriladi}$$

6) Funksiyaning o'sish va kamayish intervallari, maksimum va minimum nuqtalari topiladi.

7) Funksiya grafigining qavariqligi va egilish nuqtalari topiladi.

8) Yig'ilgan ma'lumotlar jadval ko'rinishida tuziladi.

9) Funksiya grafigi yasaladi.

7.1. Quyidagi berilgan funksiyaning tekshirib, grafigini chizing:

$$f(x) = \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} \text{ berilgan funksiya } D = \{(-\infty; -1) \cup (-1; 1) \cup (1; +\infty)\} \text{ to'plamda aniqlangan.}$$

Bu funksiya uchun $f(-x) = f(x)$ bo'lganidan u juftdir va uni $[0; +\infty]$ oraliqda tekshirish kifoya.

Funksiyaning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalari:

$$f'(x) = \frac{-4x}{(x^2 - 1)^2} \quad f''(x) = \frac{4(1 + 3x^2)}{(x^2 - 1)^3}$$

Birinchi tartibli hosila $[0; +\infty)$ oraliqning $x=1$ nuqtasidan boshqa barcha nuqtalarida aniqlangan va $x=0$ nuqtada nolga aylanadi. Ikkinchi tartibli hosilaning $x=0$ nuqtadagi qiymati $f''(0) = -4 < 0$, shuning uchun $f(x)$ funksiya $x=0$ nuqtada maksimumga ega va bu maksimum qiymat $f(0) = -1$ bo'ladi.

Endi $(0; 1)$ va $(1; +\infty)$ da $f'(x) < 0$ bo'lganidan bu to'plamda $f(x)$ ning kamayuvchiligi kelib chiqadi. So'ngra:

$$\lim_{x \rightarrow -1-0} \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} = +\infty$$

$$\lim_{x \rightarrow -1+0} \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} = -\infty$$

$$\lim_{x \rightarrow 1-0} \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} = -\infty$$

$$\lim_{x \rightarrow 1+0} \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} = +\infty$$

bo'lgani uchun $x = \pm 1$ (funksiyaning ikkinchi tur uzilish nuqtalari) to'g'ri chiziqlar vertical asimptotalar ekanligini va


$$k = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{f(x)}{x} = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} \cdot \frac{1}{x} = 0$$

$$b = \lim_{x \rightarrow \infty} [f(x) - kx] = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^2 + 1}{x^2 - 1} = 1$$

limitlarga ko'ra $y=1$ gorizontal to'g'ri chiziq $f(x)$ funksiya grafigining asimptotasi ekanligini hosil qilamiz.

Endi $1+3x^2=0$ tenglama xaqiqiy sonlar o'qida yechimga ega bo'lmaganligi sababli funksiyaning ikkinchi tartibli hosilasi nolga teng bo'lmashligi, ya'ni egilish nuqtasi yo'qligi kelib chiqadi. Ikkinchi tartibli hosilaning qiymatlari $[0; 1)$ da $f''(x)>0$, $(1; +\infty)$ da $f''(x)<0$. Demak, funksiya grafigi $(-1; 1)$ da qavariq, hamda $(-\infty; -1)$ va $(1; +\infty)$ da botiq bo'ladi.

	$(-\infty; -1)$	-1	$(-1; 0)$	0	$(0; 1)$	1	$(1; +\infty)$
$f'(x)$	+		+	0	-		-
$f''(x)$	+		-	-4	-		+
$f(x)$				-1			
	U	II tur uzilish	∩	max	∩	II tur uzilish	U



Mustaqil yechish uchun misollar

Quyidagi funksiyalar grafiklarining asimptotalarini toping:

7.2. $y = \frac{x^2 - 2x + 3}{x + 2}$

$\lim_{x \rightarrow -2} \frac{x^2 - 2x + 3}{x + 2} = \infty$, ya'ni $x=-2$ to'g'ri chiziq vertical asimptotadir.

$k = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{x^2 - 2x + 3}{x(x + 2)} = 1$ $b = \lim_{x \rightarrow \infty} \left[\frac{x^2 - 2x + 3}{x + 2} - x \right] = -4$ demak $y=kx+b$ formulaga ko'ra

$y=x-4$ to'g'ri chiziq og'ma asimptotadir.

7.3. $y = \frac{2x}{x-1}$

7.4. $y = \frac{x}{2x-1} + x$

7.5. $y = \frac{\ln x}{x}$

7.6. $y = \frac{1}{x} + 4x^2$

7.7. $y = 2\sqrt{x^2 + 4}$

7.8. $y = \frac{x}{x^2 + 1}$

7.9. $y = x + \frac{\sin x}{x}$

7.10. $\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$

Quyidagi berilgan funksiyalarni tekshirib, grafiklarini chizing:

7.11. $y = \sqrt[3]{1-x^3}$

7.12. $y = \sin^2 x$

7.13. $y = \ln x - \ln(x-1)$

7.14. $y = \frac{x^3}{x^2 - 4}$

7.15. $y = 16x(x-1)^3$

7.16. $y = 2\sin x + \cos 2x$ ($[0, \pi)$) oraliqda

7.17. $y = \frac{x^2}{x-2}$

7.18. $y = (x-1)\sqrt{x}$

7.19. $y = \ln \frac{x}{x-1}$

7.20. $y = \sin 2x - x$ $\left(-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right)$ oraliqda

7.21. $y = 2x \pm \operatorname{ctg} x$

(0, π) oraliqda

$$7.22. y = x + e^{-x}$$

$$7.23. y = \ln(x + \sqrt{x^2 + 1})$$

$$7.24. y = \frac{x^3}{(x-2)^2}$$

Quyidagi funksiyalar grafiklarining asimptotalarini toping:

$$7.25. y = 2x - \frac{\cos x}{x}$$

$$7.26. y = \frac{\ln^2 x}{x} - 3x$$

$$7.27. y = x^2 \cdot e^{-x}$$

$$7.28. y = 0.5x + \arctg x$$

$$7.29. y = -x \arctg x$$

8. ANIQ BO'LMAGAN INTEGRALNI INTEGRALLASH USULLARI

Integrallash amali differensiallashga teskari amal bo'lgani uchun asosiy integrallash formulalarini bevosita topish mumkin. Barcha formulalarda $u = u(x)$ x ning differensiallanuvchi funksiyasi deb belgilanadi. Ixtiyoriy formulani o'ng tomonidan hosila olib tekshirish mumkin.

Asosiy integrallash jadvali:

$$1. \int du = u + C$$

$$2. \int u^n du = \frac{u^{n+1}}{n+1} + C, \quad n \neq -1$$

$$3. \int \frac{du}{u} = \ln u + C$$

$$4. \int a^u du = \frac{a^u}{\ln a} + C$$

$$5. \int e^u du = e^u + C$$

$$6. \int \sin u du = -\cos u + C$$

$$7. \int \cos u du = \sin u + C$$

$$8. \int \frac{du}{\cos^2 u} = \tan u + C$$

$$9. \int \frac{du}{\sin^2 u} = -\cot u + C$$

$$10. \int \tan u du = -\ln |\cos u| + C$$

$$11. \int \cot u du = \ln |\sin u| + C$$

$$12. \int \frac{du}{u^2 + a^2} = \frac{1}{a} \arctg \frac{u}{a} + C$$

$$13. \int \frac{du}{a^2 - u^2} = \frac{1}{2a} \ln \left| \frac{u-a}{u+a} \right| + C$$

$$14. \int \frac{du}{\sqrt{a^2 - u^2}} = \arcsin \frac{u}{a} + C$$

$$15. \int \frac{du}{\sqrt{u^2 + \lambda}} = \ln |u + \sqrt{u^2 + \lambda}| + C.$$

Aniqmas integral xossalari:

$$1. (\int f(x) dx)' = f(x);$$

$$2. d(\int f(x) dx) = f(x) dx;$$

$$3. \int dF(x) = F(x) + C;$$

$$4. \int [f_1(x) \pm f_2(x) \pm \dots \pm f_n(x)] dx = \int f_1(x) dx \pm \int f_2(x) dx \pm \dots \pm \int f_n(x) dx;$$

$$5. \int af(x) dx = a \int f(x) dx;$$

$$6. \int u dv = uv - \int v du \quad (\text{bo'laklab integrallash formulasi})$$

Aniqmas integral $I = \int f(x) dx$ ko'rinishida yoziladi. Asosiy masala $y=f(x)$ funksiya uchun boshlang'ich $F(x)$ funksiyani topishdan iborat.

Boshlang'ich funksiya $F(x)$ turli usullarda topiladi, ulardan:

I. Bevosita integrallash. Bu usulda boshlang'ich funksiya integrallar jadvalidagi formulalar orqali topiladi.

Misol keltiramiz:

$$8.1. \int (\ln x)^4 \frac{dx}{x}; \quad \frac{dx}{x} \text{ ifodani diferensialning tarifiga ko'ra } d(\ln x) \text{ kabi yozish mumkin.}$$

Shuning uchun $\int (\ln x)^4 \frac{dx}{x} = \int (\ln x)^4 d(\ln x)$ tenglik o'rinli, bu ifoda $\ln x$ ga nisbatan darajaning integrali, demak,

$$\int (\ln x)^4 \frac{dx}{x} = \frac{\ln^5 x}{5} + C.$$

8.2.

$$\int \frac{2-x^4}{1+x^2} dx = \int \frac{1-x^4+1}{1+x^2} dx = \int (1-x^2) dx + \int \frac{dx}{1+x^2} = x - \frac{x^3}{3} + \arctg x + C$$

Bu yerda

$$\int dx = x + C, \quad \int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C, \quad \int \frac{dx}{1+x^2} = \operatorname{arctg} x + C$$

formulalardan foydalandik.

II. Aniqmas integralni yangi o'zgaruvchi kiritish usuli bilan integrallash.

Bu usulga ko'ra integral ostida biror funksiyani yangi o'zgaruvchi kiritish bilan integral jadvaldagi formula ko'rinishiga keltiriladi.

8.3. A) $J = \int \left(2\sin \frac{x}{2} + 3\right)^2 \cos \frac{x}{2} dx$ aniqmas integralni yangi o'zgaruvchi kiritish usuli bilan integrallang.

Buning uchun integral ostiga shunday yangi o'zgaruvchi kiritish kerakki, bu ifodani differensiallasak qolgan ifoda kelib chiqishi kerak.

$$J = \int \left(2\sin \frac{x}{2} + 3\right)^2 \cos \frac{x}{2} dx = \left| \begin{array}{l} 2\sin \frac{x}{2} + 3 = t \text{ differensiallaymiz} \\ 2\cos \frac{x}{2} \cdot \frac{1}{2} dx = dt, \quad \cos \frac{x}{2} dx = dt, \end{array} \right| =$$

$$= \int t^2 dt = \frac{t^3}{3} + C = \frac{(2\sin \frac{x}{2} + 3)^3}{3} + C$$

$$\int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C \text{ formuladan foydalandik.}$$

$$\text{B) } \int \frac{\sin 4x dx}{\cos^4 2x + 4} = \left| \begin{array}{l} \cos^2 2x = t \\ -2\cos 2x \cdot \sin 2x \cdot 2dx = dt \\ -2\sin 4x dx = dt, \quad \sin 4x dx = -\frac{dt}{2} \end{array} \right| = -\frac{1}{2} \int \frac{dt}{t^2 + 2^2} =$$

$$= -\frac{1}{2} \operatorname{arctg} \frac{t}{2} + C = -\frac{1}{2} \operatorname{arctg} \frac{\cos^2 2x}{2} + C;$$

Bu yerda $\int \frac{dx}{a^2 + x^2} = \frac{1}{a} \operatorname{arctg} \frac{x}{a} + C$ formuladan foydalandik.

C) $J = \int \sqrt{4 - x^2} dx$ aniqmas integralni integrallang.

Bu integral trigonometrik almashtirish yordamida integrallanadi:

$$J = \int \sqrt{4 - x^2} dx = \left| \begin{array}{l} x = 2\sin t \\ dx = 2\cos t dt \end{array} \right| = \int \sqrt{4 - 4\sin^2 t} \cdot 2\cos t dt = 4 \int \cos^2 t dt = 2t + \sin 2t + C$$

$x = 2\sin t$ dan $\sin t = \frac{x}{2}$, $t = \arcsin \frac{x}{2}$ ni oxirgi tenglikka qo'yamiz

$$J = 2\arcsin \frac{x}{2} + \sin 2\arcsin \frac{x}{2} + C;$$

III. Aniqmas integralni bo'laklab integrallash.

Aniqmas integralni bo'laklab integrallash formulasi $\int u dv = uv - \int v du$. Bu formulaga ko'ra $\int f(x) dx$ integral ostidagi ifoda shunday ikki bo'lakka bo'linadiki, $\int u dv$ ni hisoblash berilgan integralni hisoblashga qaraganda qulayroq bo'lsin.

$$8.4. \int x^2 \operatorname{arctg} x dx = \left| \begin{array}{l} u = \operatorname{arctg} x, du = \frac{dx}{1+x^2} \\ x^2 dx = dv, v = \frac{x^3}{3} \end{array} \right| = \frac{x^3}{3} \operatorname{arctg} x - \int \frac{x^3}{3} \cdot \frac{dx}{1+x^2} =$$

$$= \frac{x^3}{3} \operatorname{arctg} x - \frac{1}{3} \int \left(x - \frac{x}{x^2+1} \right) dx = \frac{x^3}{3} \operatorname{arctg} x - \frac{x^2}{6} + \frac{1}{6} \ln(x^2+1) + C.$$

Mustaqil yechish uchun misollar

Quyidagi integrallarni toping:

85. $\int x\sqrt{x} dx;$

8.6. $\int \frac{dx}{\sqrt[5]{x}};$

8.7. $\int \frac{2-\sqrt{1-x^2}}{\sqrt{1-x^2}} dx;$

8.8. $\int \left(x^2 + 2x + \frac{1}{x} \right) dx;$

8.9. $\int \frac{x-2}{x^3} dx;$

8.10. $\int (\sqrt{x} + \sqrt[3]{x}) dx;$

$$8.11. \int \frac{(\sqrt{x}-1)^3}{x} dx;$$

$$812. \int \frac{x-1}{\sqrt[3]{x^2}} dx;$$

$$8.13. \int \frac{\cos 2x}{\cos^2 x \sin^2 x} dx;$$

$$8.14. \int ctg^2 x dx;$$

$$8.15. \int \frac{dx}{\sin^2 x \cos^2 x};$$

O'zgaruvchini almashtirish usulidan foydalanib, integrallarni toping:

$$8.16. \int x \cos(x^2) dx;$$

$$8.17. \int \frac{e^{\sqrt{2x-1}}}{\sqrt{2x-1}} dx;$$

$$8.18. \int x^3 (1-2x^4)^3 dx;$$

$$8.19. \int x \sqrt{a-x} dx, \quad a-x=t^2;$$

$$8.20. \int \frac{dx}{x \ln x};$$

$$8.21. \int \frac{\cos x dx}{\sqrt{1+2\sin^2 x}};$$

$$8.22. \int \frac{\sin 2x}{\sqrt{2+\cos^2 x}} dx;$$

Bo'laklab integrallash usulidan foydalanib, integrallarni toping:

$$8.23. \int (x+1)e^x dx;$$

$$8.24. \int e^{2x} \cos x dx;$$

$$8.25. \int \frac{\ln x}{x^3} dx;$$

$$8.26. \int x^2 e^{3x} dx;$$

$$8.27. \int x \cos x dx;$$

$$8.28. \int \ln^2 x dx;$$

$$8.29. \int \frac{x \cos x dx}{\sin^3 x};$$

$$8.30. \int \frac{\arcsin \frac{x}{2}}{\sqrt{2^2-x^2}} dx;$$

Quyidagi integrallarni toping:

$$8.31. \int \frac{dx}{x^3};$$

$$8.32. \int \frac{dx}{\sqrt{2-x^2}};$$

$$8.33. \int \frac{dx}{2x^2-6};$$

$$8.34. \int (1+e^x)^2 dx;$$

$$8.35. \int \frac{2x+3}{x^2-5} dx;$$

$$8.36. \int tg^2 \varphi d\varphi;$$

$$8.37. \int \frac{2x dx}{x^4+3};$$

$$8.38. \int \frac{\sin x dx}{\sqrt{1+2\cos x}};$$

$$8.39. \int \frac{dx}{\sqrt{e^x+1}}; \quad (e^x+1=t^2);$$

$$8.40. \int \frac{e^x dx}{3+4e^x};$$

$$8.41. \int e^{\sin x} \cos x dx;$$

$$8.42. \int \frac{\sin 4x}{\cos^4 2x+4} dx;$$

$$8.43. \int \frac{2e^x dx}{\sqrt{16-e^{2x}}};$$

$$8.44. \int \frac{\sqrt{2-x^2}+\sqrt{2+x^2}}{\sqrt{4-x^4}} dx;$$

$$8.45. \int x \sin x dx;$$

$$8.46. \int x^3 e^x dx;$$

$$8.47. \int \sqrt{a^2-x^2} dx, \quad a>0, \quad u=\sqrt{a^2-x^2};$$

$$8.48. \int \sin \sqrt{x} dx; \quad \sqrt{x}=t;$$

$$8.49. \int (x^2+2x+3) \cos x dx;$$

$$8.50. \int \frac{3-2ctg^2 x}{\cos^2 x} dx.$$

9. ANIQ INTEGRAL

Aniq integral $I = \int_a^b f(x) dx$ ko'rinishida yoziladi va Nyuton-Leybnits formulasiga ko'ra hisoblanadi:

$$\int_a^b f(x) dx = F(x) \Big|_a^b = F(b) - F(a)$$

$F(x)$ funksiya $y=f(x)$ uchun boshlang'ich funksiya, a -integralning quyi, b -yuqori chegaralari.

Aniq integralni ham xuddi aniq bo'lmagan integralga o'xshab integrallab, so'ngra Nyuton-Leybnits formulasiga ko'ra hisoblanadi.

Aniq integral yordamida egri chiziqlar bilan chegaralangan yuzalarni, aylanma jismlar hajmini, egri chiziq yoyining uzunligini va h.k.larni hisoblash mumkin.

Quyidagi aniq integralni hisoblang:

$$9.1. \int_0^1 \sqrt{1+t} dt = \int_0^1 (1+t)^{\frac{1}{2}} d(t+1) = \frac{2}{3} (1+t)^{\frac{3}{2}} \Big|_0^1 = \frac{2}{3} (\sqrt{8}-1)$$

$$9.2. \int_0^{\pi/2} (1 - \cos^2 x) \sin x dx = \left| \begin{array}{l} \cos x = t \\ \sin x dx = -dt \\ x_1 = 0, t_1 = 1; x_2 = \frac{\pi}{2}, t_2 = 0 \end{array} \right| =$$

$$= - \int_1^0 (1 - t^2) dt = \left(t - \frac{t^3}{3} \right) \Big|_1^0 = 1 - \frac{1}{3} = \frac{2}{3}$$

9.3.

$$\int_0^1 x e^{-x} dx = \left| \begin{array}{l} u = x, du = dx \\ dv = e^{-x} dx, v = -e^{-x} \end{array} \right| = -x e^{-x} \Big|_0^1 + \int_0^1 e^{-x} dx = (-x e^{-x} - e^{-x}) \Big|_0^1 =$$

$$1 - \frac{2}{e}$$

$$9.4. \int_{\frac{\sqrt{2}}{2}}^1 \frac{\sqrt{1-x^2}}{x^2} dx = \left| \begin{array}{l} x = \sin t \\ dx = \cos t dt \\ t = \arcsin x \\ x_1 = \frac{\sqrt{2}}{2}, t_1 = \frac{\pi}{4}; \\ x_2 = 1, t_2 = \frac{\pi}{2} \end{array} \right| = \int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} \frac{\sqrt{1-\sin^2 t}}{\sin^2 t} \cos t dt =$$

$$= \int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} \frac{\cos^2 t}{\sin^2 t} dt = \int_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} \frac{1-\sin^2 t}{\sin^2 t} dt = (-ctgt - t) \Big|_{\frac{\pi}{4}}^{\frac{\pi}{2}} = \frac{\pi}{2} + 1 + \frac{\pi}{4} = 1 - \frac{\pi}{4}$$

31.5. $x^2 + y^2 = 8$ aylana $y = x^2/2$ bilan ikki qismga bo'lingan. Ikkala qismini yuzasini toping.
Yechish: Grafiklar kesishish nuqtalarini topamiz:

$$\frac{1}{2} x^2 = \sqrt{8-x^2}$$


$$\frac{x^4}{4} = 8 - x^2$$

$$\frac{x^4}{4} = 8 - x^2$$

$$-32 + 4x^2 + x^4 = 0$$

$$x_1 = 2, x_2 = -2,$$

$$S_d = \pi r^2 = 8\pi \quad r = 2\sqrt{2}$$



$$S_1 = \int_{-2}^2 \left(\sqrt{8-x^2} - \frac{x^2}{2} \right) dx = 2\sqrt{2} \int_{-2}^2 \sqrt{1 - \left(\frac{x}{2\sqrt{2}} \right)^2} dx - \frac{1}{2} \int_{-2}^2 x^2 dx =$$

$$= \left| \begin{array}{l} \frac{x}{2\sqrt{2}} = \sin t, \quad dx = 2\sqrt{2} \cos t dt, \\ x_1 = -2, \quad \sin t = -\frac{\sqrt{2}}{2}, \quad t = -\frac{\pi}{4} \\ x_2 = 2, \quad \sin t = \frac{\sqrt{2}}{2}, \quad t = \frac{\pi}{4} \end{array} \right| = (2\sqrt{2})^2 \int_{-\pi/4}^{\pi/4} \sqrt{1-\sin^2 t} \cos t dt -$$

$$-\frac{x^3}{6} \Big|_{-2}^2 = 8 \int_{-\pi/4}^{\pi/4} \frac{1 + \cos 2t}{2} dt - \frac{8}{6} - \frac{8}{6} = 8 \left(\frac{t}{2} + \frac{\sin 2t}{4} \right) \Big|_{-\pi/4}^{\pi/4} - \frac{16}{6} =$$


$$= 8 \left(\frac{\pi}{8} + \frac{\pi}{8} + \frac{1}{4} + \frac{1}{4} \right) - \frac{16}{6} = 2\pi + \frac{4}{3} \text{ (kv.birl.)}$$

$$S_2 = S_d - S_1 = 8\pi - \left(2\pi + \frac{4}{3} \right) = 6\pi - \frac{4}{3} \text{ (kv.birl.)}$$

9.6. $y = 2 - x^2$ va $y^3 = x^2$ egri chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping:

Yechish: Egri chiziqlar kesishish nuqtalarini topamiz:

$$2 - x^2 = \sqrt[3]{x^2}$$



$$8 - 12x^2 + 6x^4 - x^6 = x^2$$

$$x^6 - 6x^4 + 12x^2 - 8 = 0$$

$$x_1 = -1, \quad x_2 = 1,$$

$$0 \quad 1$$

$$S = \int_{-1}^1 (2 - x^2 - \sqrt[3]{x^2}) dx = 2 \int_0^1 (2 - x^2 - \sqrt[3]{x^2}) dx =$$

$$= \left(2x - \frac{x^3}{3} - \frac{3}{5} \sqrt[3]{x^5} \right) \Big|_0^1 = 2 \left(2 - \frac{1}{3} - \frac{3}{5} \right) = \frac{32}{15} \text{ (kv.birl.)}$$

9.7. $y=x^2$ va $x=y^2$ parabolalar bilan chegaralangan figurani Ox o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jism hajmini hisoblang: \$

Yechish: $\begin{cases} y = x^2 \\ x = y^2 \end{cases}$ sistemasidan kesishish nuqtalarini topamiz:

$$x_1 = 0, \quad x_2 = 1, \quad y_1 = 0, \quad y_2 = 1$$

$$V = V_1 + V_2 = \pi \int_0^1 x dx - \pi \int_0^1 x^4 dx = \pi \left(\frac{x^2}{2} - \frac{x^5}{5} \right) \Big|_0^1 = \pi \left(\frac{1}{2} - \frac{1}{5} \right) = \frac{3}{10} \pi \text{ (kub.birl.)}$$

9.8. $y^2 = \frac{2}{3}(x-1)^3$ yarim kubik parabolaning $y^2 = \frac{x}{3}$ parabola ichki qismi bilan chegaralangan yoy uzunligini hisoblang:

Yechish: Egri chiziqlarning kesishish nuqtasini aniqlaymiz: $\frac{2}{3}(x-1)^3 = \frac{x}{3}$

$$x = 2, \quad \partial a \quad y = \sqrt{\frac{2}{3}}, \quad chunki \quad y = \sqrt{\frac{2}{3}(x-1)(x-1)}, \quad u \quad holda \quad y' = \sqrt{\frac{3}{2}} \sqrt{x-1},$$

$$L = 2 \int_1^2 \sqrt{1 + \frac{3}{2}(x-1)} dx = 2 \frac{1}{\sqrt{2}} \int_1^2 \sqrt{3x-1} dx = \frac{2\sqrt{2}}{9} (5\sqrt{5} - 2\sqrt{2})$$

Mustaqil yechish uchun misollar

Quyidagi aniq integralni hisoblang:

$$9.9. \int_1^5 \sqrt{x-1} dx$$

$$9.10. \int_1^2 \frac{dx}{x^2 - 4x + 5}$$

$$9.11. \int_{-1}^4 \frac{x}{\sqrt{x+5}} dx$$

$$9.12. \int_1^e \frac{\sqrt[3]{1+\ln x}}{x} dx$$

$$9.13. \int_0^1 \frac{x dx}{\sqrt{1-x^2}}$$

$$9.14. \int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{4-x^2}}$$

$$9.15. \int_0^{\pi/4} \sin 4x dx$$

$$9.16. \int_1^e x^2 \ln x dx$$

$$9.17. \int_0^{\pi} e^x \sin x dx$$

$$9.18. \int_0^1 \arcsin x dx$$

$$9.19. \int_0^1 \ln(x+1) dx$$

$$9.20. \int_0^{\pi/2} \sin x \cos^2 x dx$$

$$9.21. \int_0^1 \frac{dx}{e^x + 1}$$

$$9.22. \int_0^4 \frac{dx}{1 + \sqrt{2x+1}}$$

$$9.23. \int_0^1 \frac{x^2 dx}{\sqrt{4-x^2}}$$

$$9.24. \int_0^1 \sqrt{1+x^2} dx$$

$$9.25. \int_1^3 \frac{dx}{x+x^2}$$

$$9.26. \int_1^2 \frac{dx}{2x-1}$$

$$9.27. \int_1^e \frac{dx}{x(1+\ln^2 x)}$$

$$9.28. \int_1^e x \arcsin x dx$$

$$9.29. \int_0^{\pi/2} x^2 \cos x dx$$

Berilgan chiziqlar bilan chegaralangan figuralar yuzalarini hisoblang:

$$9.30. y = 4 - x^2 \text{ va } Ox \text{ o'q bilan}$$

$$9.31. y = (x-1)^2 \text{ va } x^2 - \frac{y^2}{2} = 1$$

9.32. $y = x^2 + 1$ va $y = 3 - x$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.
Egri chiziqlar yo'plarining uzunliklari hisoblansin:

$$9.33. y = 1 - \ln \cos x, x = 0 \text{ dan } x = \frac{\pi}{6} \text{ gacha}$$

$$9.34. x = 8 \sin t + 6 \cos t, y = 6 \sin t - 8 \cos t, t = 0 \text{ dan } t = \frac{\pi}{2} \text{ gacha}$$

$$9.35. x = \frac{1}{3}t^3 - t, y = t^2 + 2, t = 0 \text{ dan } t = 3 \text{ gacha}$$

9.36. $x^2 - y^2 = 4, y = \pm 2$ chiziqlar bilan chegaralangan figurani Oy o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.

9.37. $y = \frac{1}{1+x^2}, x = \pm 1, y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan figurani Ox o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini toping.

9.38. $x^{\frac{2}{3}} + y^{\frac{2}{3}} = a^{\frac{2}{3}}$ Ox o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini hisoblang.

Integrallarni hisoblang:

$$9.39. \int_2^3 \frac{dx}{x^2}$$

$$9.40. \int_0^{\sqrt{3}} \frac{xdx}{\sqrt{4-x^2}}$$

$$9.41. \int_{\frac{\pi}{8}}^{\frac{\pi}{6}} \frac{dx}{\cos^2 2x}$$

$$9.42. \int_1^4 \frac{dx}{(1+\sqrt{x})^2}$$

$$9.43. \int_0^1 \frac{e^x dx}{1+e^{2x}}$$

$$9.44. \int_1^{\sqrt{2}} \sqrt{2-x^2} dx$$

$$9.45. \int_0^{\frac{\pi}{2}} x \cos x dx$$

$$9.46. \int_0^{\frac{\pi}{4}} tg^3 x dx$$

9.47. $y = x^2 + 1$ parabola va $y=0, x=-1, x=4$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.

9.48. $y = (x-1)^2$ va $x^2 - \frac{y^2}{2} = 1$ chiziqlar bilan chegaralangan figuraning yuzini toping.

9.49. $y^4 = 4x^3$ egri chiziqlarning $O(0,0)$ dan $V(\sqrt{3}; 2\sqrt{3})$ gacha bo'lgan yoyining uzunligini toping.

9.50. $y = \ln(\sin x)$ egri chiziqlarning $x = \frac{\pi}{3}$ dan $x = \frac{\pi}{2}$ gacha bo'lgan yoyining uzunligini toping.

9.51. $xy = 4$, $x = 1$, $x = 4$, $y = 1$, chiziqlar bilan chegaralangan figurani Ox o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan jismning hajmini hisoblang.

10. XOSMAS INTEGRALLAR. ANIQ INTEGRALNI TAQRIBIY HISOBLASH FORMULALARI

I. Xosmas integrallar ikki xil bo'ladi:

1-tur xos bo'lmagan integrallar chegaralari cheksiz bo'lgan integrallardir.

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx = \lim_{b \rightarrow +\infty} \int_a^b f(x)dx \quad (1)$$

Bu tenglikda o'ng tomonda turgan limit mavjud bo'lsa, u holda xos bo'lmagan integral

$$\int_a^{+\infty} f(x)dx \text{ yaqinlashuvchi integrallar deyiladi.}$$

Agar ko'rsatilgan limit cheksizga teng bo'lsa yoki mavjud bo'lmasa xosmas integral uzoqlashuvchi deyiladi.

$$\int_{-\infty}^b f(x)dx, \int_{-\infty}^{\infty} f(x)dx \text{ xosmas integrallar ham shunday aniqlanadi.}$$

2-tur xosmas integrallar.

Agar $y = f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmaning $x=a$ nuqtasida, $x=b$ nuqtasida yoki $[a;b]$ ga tegishli biror $x=c$ nuqta atrofida aniqlanmagan bo'lsa, bunday funksiya olingan integrallar 2-tur xosmas integrali deyiladi.

$y = f(x)$ funksiya $[a;b]$ oraliqda aniqlangan va uzliksiz bo'lib, $x=b$ nuqta atrofida

chegaralanmagan funksiya bo'lsa, u holda $\lim_{E \rightarrow 0} \int_a^{b-E} f(x)dx$ limitga $f(x)$ funksiyaning 2-tur

xosmas integrali deyiladi va $\int_a^b f(x)dx = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_a^{b-\varepsilon} f(x)dx$ tenglik bilan aniqlanadi. Agar o'ng

tomonda turgan limit mavjud bo'lsa, xosmas integral yaqinlashuvchi deyiladi. Agar limit mavjud bo'lmasa, xosmas integral uzoqlashuvchi deyiladi.

Boshqa 2-tur integrallar ham xuddi shunday aniqlanadi.

II. Aniq integrallarni taqribiy hisoblash. $I = \int_a^b f(x)dx$ aniq integralda $y = f(x)$ funksiya

uchun boshlang'ich funksiyaning har doim ham topib bo'lmaydi, bunday holda aniq integralni taqribiy hisoblash formulalaridan foydalaniladi.

1. To'g'ri to'rtburchaklar formulasi:

Ko'rsatma berish va yo'naltirish

n_2	a.	$(-\infty; 1/2)$
	b.	$[-1/2; \infty)$
n_3	c.	$[1/2; \infty)$
n_4	d.	$(-\infty; -1/2)$

$$\dots) = h y_i) y \sum_{+}^0 \frac{h}{+} y_{+}^{1 \ n \ 0} =)^{1 \ i} (\approx$$
$$\int_a^b f(x)dx \approx \frac{h}{3}(y_0 + 4y_1 + 2y_2 + 4y_3 + \dots + 2y_{n-2} + 4y_{n-1} + y_n) \quad (n=\text{juft son})$$

10.1. $I = \int_0^{+\infty} \cos x dx$ xosmas integrallarni taqribiy hisoblang va yaqinlashishini tekshiring:

$$I = \lim_{b \rightarrow +\infty} \int_0^b \cos x dx = \lim_{b \rightarrow +\infty} \sin x \Big|_0^b = \lim_{b \rightarrow +\infty} (\sin b - \sin 0) = \lim_{b \rightarrow +\infty} \sin b \quad \text{demak} \quad \text{xosmas} \quad \text{integral}$$

10.2. $I = \int_0^{+\infty} \frac{dx}{1+x^2}$ xosmas integralni hisoblang va yaqinlashishni tekshiring:

$$I = \lim_{b \rightarrow +\infty} \int_0^b \frac{dx}{1+x^2} = \lim_{b \rightarrow +\infty} \arctg x \Big|_0^b = \lim_{b \rightarrow +\infty} (\arctg b - \arctg 0) = \lim_{b \rightarrow +\infty} \arctg b = \frac{\pi}{2} \quad \text{xosmas} \quad \text{integral}$$

10.3. $\int_0^1 \frac{dx}{x}$; $f(x) = \frac{1}{x}$ funksiya $x=0$ nuqtada chegaralanmagan.

$$\int_0^1 \frac{dx}{x} = \lim_{a \rightarrow +0} \int_a^1 \frac{dx}{x} = \lim_{a \rightarrow +0} \ln x \Big|_a^1 = \lim_{a \rightarrow +0} (\ln 1 - \ln a) = \lim_{a \rightarrow +0} \ln a^-.$$

Bu limit mavjud emas. Berilgan

10.4. $\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}}$ xosmas integralni hisoblang va yaqinlashishini tekshiring:

$f(x) = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$ funksiya $x=1$ nuqtada uzulishga ega

$$\int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_0^{1-\varepsilon} \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \arcsin x \Big|_0^{1-\varepsilon} =$$

$$= \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} (\arcsin(1-\varepsilon) - \arcsin 0) = \frac{\pi}{2}$$

10.5. $I = \int_0^2 \frac{dx}{x^2 - 4x + 3}$ xosmas integralni yaqinlashishga tekshiring.

$f(x) = \frac{1}{x^2 - 4x + 3}$ $x=1$ nuqtada uzilishga ega, shuning uchun

$$I = \int_0^2 \frac{dx}{x^2 - 4x + 3} = \int_0^1 \frac{dx}{x^2 - 4x + 3} + \int_1^2 \frac{dx}{x^2 - 4x + 3};$$

$$\int_0^1 \frac{dx}{x^2 - 4x + 3} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_0^{1-\varepsilon} \frac{dx}{(x-2)^2 - 1} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \frac{1}{2} \ln \left| \frac{x-3}{x-1} \right| \Big|_0^{1-\varepsilon} = \frac{1}{2} \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} (\ln \frac{2+\varepsilon}{\varepsilon} - \ln 3) = \frac{1}{2} \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \ln \frac{2+\varepsilon}{\varepsilon} = \infty$$

Integral uzoqlashuvchi, demak berilgan xosmas integral ham uzoqlashuvchi.

10.6. $I = \int_0^6 (x^2 + 3)dx$ integralni taqribiy (trapetsiyalar formulasi yordamida) hisoblang ($n=6$).

$[0;6]$ oraliqni 6 teng qismga bo'lamiz:

x_i	0	1	2	3	4	5	6
y_i	3	4	7	12	19	28	39

$h = \frac{b-a}{n} = \frac{6-0}{6} = 1$ trapetsiyalar formulasi asosida:

$$I = h \left(\frac{y_0 + y_6}{2} + \sum_{i=1}^5 y_i \right) = \frac{3 + 39}{2} + (4 + 7 + 12 + 19 + 28) = 21 + 70 = 91$$

10.7. Simpson formulasi yordamida $I = \int_0^{10} x^3 dx$ integralni taqribiy hisoblang va aniq qiymati

bilan taqqoslang:

$$\text{N'yuton-Leybnits formulasiga asosan } I = \int_0^{10} x^3 dx = \frac{x^4}{4} \Big|_0^{10} = \frac{10^4}{4} = 2500$$

Simpson formulasini qo'llash uchun $[0;10]$ oraliqni 10 teng qismga bo'lamiz:

x_i	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
y_i	0	1	8	27	64	125	216	343	512	729	1000

$2k=10$, demak $k=5$

$$I = \int_0^{10} x^3 dx = \frac{10-0}{10 \cdot 3} [0 + 4(1 + 27 + 125 + 343 + 729) + 2(8 + 64 + 216 + 512) + 1000] = 2500$$

Quyidagi xosmas integralni hisoblang va ularni yaqinlashuvchi yoki uzoqlashuvchiligini aniqlang:

10.8. $\int_1^{\infty} \frac{dx}{\sqrt{x}}$

10.9. $\int_0^{\infty} x e^{-x^2} dx$

10.10. $\int_1^{\infty} \frac{dx}{x^2 \sqrt{x^2 - 1}}$

10.11. $\int_0^{\infty} x^2 e^{\frac{x}{2}} dx$

$$10.12. \int_2^6 \frac{dx}{\sqrt[3]{(4-x)^2}}$$

$$10.13. \int_1^{\infty} \frac{\arctg x dx}{x^2}$$

$$10.14. \int_0^2 \frac{dx}{(x-1)^2}$$

$$10.15. \int_1^{\infty} \frac{\sin x dx}{x^2}$$

$$10.16. \int_1^{\infty} x^2 e^{-x^3} dx$$

$$10.17. \int_1^e \frac{dx}{x \ln x}$$

$$10.18. \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{x dx}{1+x^2}$$

$$10.19. \int_1^3 \frac{dx}{\sqrt{4x-x^2-3}}$$

$$10.20. \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{(x^2+1)(x^2+4)}$$

$$10.21. \text{Trapetsiyalar formulasi yordamida hisoblang: } \ln 2 = \int_1^2 \frac{dx}{x}$$

$$10.22. \text{Simpson formulasi yordamida hisoblang: } \int_1^2 \sqrt{1+x^3} dx \quad (2n=4)$$

$$10.23. \text{Simpson formulasi yordamida hisoblang: } \int_0^4 \frac{dx}{1+x^4} \quad (2n=4)$$

$$10.24. \text{Simpson formulasi yordamida } \pi = 6 \int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{4-x^2}} \text{ ni taqribiy hisoblang.}$$

Quyidagi xosmas integrallarni hisoblang va yaqinlashishini tekshiring:

$$10.25. \int_0^{+\infty} \frac{\arctg x}{1+x^2} dx$$

$$10.26. \int_{-\infty}^0 \frac{dx}{4+x^2}$$

$$10.27. \int_0^{\frac{1}{e}} \frac{dx}{x(\ln x)^2}$$

$$10.28. \int_1^{+\infty} \frac{\ln(1+x)}{x} dx$$

$$10.29. \int_1^{+\infty} (1 - \cos \frac{x}{2}) dx$$

$$10.30. \int_{-1}^1 \frac{dx}{x^2}$$

$$10.31. \int_0^1 \frac{\cos^2 x}{\sqrt[3]{1-x^2}} dx$$

$$10.32. \int_0^{+\infty} \frac{dx}{(1+x)^3}$$

$$10.33. \int_0^{+\infty} e^{-x^2} dx$$

Simpson formulasi yordamida taqribiy hisoblang:

$$10.34. \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sqrt{3 - \cos 2x} dx \quad (2n=6)$$

$$10.35. \int_1^3 \sqrt{1+x^2} dx \quad (2n=6)$$

$$10.36. \int_{-1}^3 \ln(x+2) dx \quad (2n=10)$$

Trapetsiyalar formulasi yordamida taqribiy hisoblang:

$$10.37. \int_{-1}^1 \frac{dx}{\sqrt{1+x^2}} \quad (n=4)$$

$$10.38. \int_1^4 \frac{x dx}{\sqrt{1+2x}} \quad (n=6)$$

11. KO'P O'ZGARUVCHILI FUNKSIYA

Ikki, uch va undan ko'p o'zgaruvchiga bog'liq bo'lgan funksiyalar *ko'p o'zgaruvchiga bog'liq funksiyalar* deyiladi va

$$z=f(x,y)$$

$$u=f(x,y,z) \dots$$

$$v=f(x,y,z; \dots; t)$$

kabi yoziladi. Ko'p o'zgaruvchiga bog'liq funksialardan bir o'zgaruvchisi bo'yicha xususiy hosila hisoblaganda boshqa o'zgaruvchilari o'zgarmas deb qaraladi. *Ko'p o'zgaruvchiga bog'liq funksiyaning to'la differensial* quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$z=f(x,y)$ funksiya uchun

$$dz = \frac{\partial f}{\partial x} dx + \frac{\partial f}{\partial y} dy$$

$u=f(x,y,z)$ funksiya uchun

$$du = \frac{\partial f}{\partial x} dx + \frac{\partial f}{\partial y} dy + \frac{\partial f}{\partial z} dz$$

11.1. $z(x,y) = y\sqrt{x} + \frac{x}{\sqrt{y}}$ funksiya xususiy hosilalarini toping. $z(x,y)$ funksiya dan x

bo'yicha xususiy hosilani hisoblaganda o'zgaruvchi y ni o'zgarmas son deb qaraymiz:

$$\frac{\partial z}{\partial x} = \frac{1}{2\sqrt{x}} y + \frac{1}{\sqrt{y}};$$

$z(x,y)$ funksiya dan o'zgaruvchi y bo'yicha xususiy hosilani hisoblaganda o'zgaruvchi x ni o'zgarmas son deb qaraymiz:

$$\frac{\partial z}{\partial y} = \sqrt{x} - \frac{x}{2y\sqrt{y}}$$

11.2. $z(x,y) = \ln(x + \sqrt{x^2 + y^2})$ funksiyaning to'la differensialini toping:

$$dz = \frac{\partial z}{\partial x} dx + \frac{\partial z}{\partial y} dy$$

$$\frac{\partial z}{\partial x} = \frac{1}{x + \sqrt{x^2 + y^2}} \cdot (1 + \frac{x}{\sqrt{x^2 + y^2}}) = \frac{\sqrt{x^2 + y^2} + x}{(x + \sqrt{x^2 + y^2})\sqrt{x^2 + y^2}} = \frac{1}{\sqrt{x^2 + y^2}}$$

$$\frac{\partial z}{\partial y} = \frac{1}{x + \sqrt{x^2 + y^2}} \cdot \frac{y}{\sqrt{x^2 + y^2}} = \frac{y}{(x + \sqrt{x^2 + y^2})\sqrt{x^2 + y^2}}$$

$$dz = \frac{dx}{\sqrt{x^2 + y^2}} + \frac{y dy}{\sqrt{x^2 + y^2}(x + \sqrt{x^2 + y^2})};$$

Mustaqil yechish uchun misollar

Quyidagi funksiyalarning xususiy hosilalarini toping:

$$11.3. z(x,y) = \frac{x-y}{x+y}$$

$$11.4. u = e^{\frac{x}{y}} + e^{\frac{z}{y}}$$

$$11.5. z(x,y) = -\frac{\cos x}{\cos y}$$

$$11.6. z(x,y) = \ln(x^2 - y^2);$$

$$11.7. z(x,y) = x \sin(x+y);$$

$$11.8. z(x,y) = \frac{x}{\sqrt{x^2 + y^2}}$$

$$11.9. z(x,y)=\arcsin \frac{y}{x}$$

$$11.10. u = 2y\sqrt{x} + 3y^2 \sqrt[3]{z^2};$$

$$11.11. z(x,y)=\sqrt{xy+\frac{x}{y}}$$

$$11.12. z(x,y)=e^{\sin \frac{y}{x}};$$

Quyidagi funksiyalarning to'la differensiallarini toping:

$$11.13. z=5x^3y^2;$$

$$11.14. z = \frac{y}{x} - \frac{x}{y};$$

$$11.15. z = (\sin x)^{\cos y};$$

$$11.16. z = e^{x^2+y^2};$$

$$11.17. z = \arctg \frac{x}{y};$$

$$11.18. z = \sin^2 x + \cos^2 y;$$

$$11.19. z = x \ln \frac{y}{x};$$

$$11.20. z = x^y;$$

$$11.21. z = tg \frac{y}{x} + ctg \frac{x}{y};$$

$$11.22. z = tg(2x + \sqrt{y});$$

$$11.23. z = e^{xy}.$$

$$11.24. z = \sqrt{x} \sin \frac{y}{x}; \quad x \frac{\partial z}{\partial x} + y \frac{\partial z}{\partial y} = \frac{z}{2} \quad \text{ekani isbot qilinsin.}$$

$$11.25. z = \ln(\sqrt{x} + \sqrt{y}); \quad x \frac{\partial z}{\partial x} + y \frac{\partial z}{\partial y} = \frac{1}{2} \quad \text{ekani isbot qilinsin.}$$

Quyidagi funksiyalarning xususiy hosilalarini toping:

$$11.26. z = \cos(ax - by);$$

$$11.27. z = \frac{x}{3y-2x};$$

$$11.28. z = \ln \sin(x - 2y);$$

$$11.29. z = 2\cos^2\left(x - \frac{y}{2}\right);$$

$$11.30. z = \ln tg \frac{y}{x};$$

$$11.31. z = \arctg \sqrt{xy};$$

$$11.32. z = y e^{\frac{x}{y}};$$

$$11.33. u=(x-y)(x-z)(y-z).$$

Quyidagi funksiyalarning to'la differensialini toping:

$$11.34. z = x^m y^n;$$

$$11.35. z = y \sqrt[3]{x};$$

$$11.36. z = \sqrt{x^2 + y^2};$$

$$11.37. z = e^{\cos(xy)};$$

$$11.38. z = \frac{x}{y} e^{xy};$$

$$11.39. u = x^{y^2 z}.$$

12. YUQORI TARTIBLI XUSUSIY HOSILALAR

$z = f(x, y)$ funksiyaning biror $M_0(x_0, y_0) \in R^2$ nuqtadagi gradienti deb, koordinatalari M_0 nuqtadagi $f(x, y)$ funksiyaning mos xususiy hosilalar qiymatlariga teng bo'lgan ikki o'lchovli vektorga aytiladi va $\text{grad} \Big|_{M=M_0}$ kabi yoziladi.

$$\text{grad} u \Big|_{M_0} = \left\{ \frac{\partial z(x_0, y_0)}{\partial x}; \frac{\partial z(x_0, y_0)}{\partial y} \right\}$$

Gradient uzunligi $|\text{grad} z| = \sqrt{\left(\frac{\partial z}{\partial x}\right)^2 + \left(\frac{\partial z}{\partial y}\right)^2}$ formula bo'yicha hisoblanadi.

$u = f(x; y; z)$ funksiya uchun $M_0(x_0; y_0; z_0)$ nuqtadagi gradiyent va uning uzunligi

$$\text{grad} u \Big|_{M_0} = \left\{ \frac{\partial u}{\partial x}; \frac{\partial u}{\partial y}; \frac{\partial u}{\partial z} \right\}$$

$$|\text{grad} u| = \sqrt{\left(\frac{\partial u}{\partial x}\right)^2 + \left(\frac{\partial u}{\partial y}\right)^2 + \left(\frac{\partial u}{\partial z}\right)^2}$$

formulalar bo'yicha hisoblanadi.

Teorema: $z = f(x; y)$ funksiya $M_0(x_0; y_0)$ niqtani o'z ichiga olgan biror sohada uchunchu tartibgacha (uchunchu tartibli ham) uzluksiz xususiy hosilalarga ega bo'lsin; undan tashqari $M_0(x_0; y_0)$ nuqta $z = f(x; y)$ funksiyaning kritik nuqtasi, ya'ni

$$\frac{\partial f(x_0, y_0)}{\partial x} = 0, \quad \frac{\partial f(x_0, y_0)}{\partial y} = 0$$

bo'lsin. II tartibli xususiy hosilalarni kritik nuqtalardagi qiymatlarini $A = z''_{xx}$; $B = z''_{xy}$; $C = z''_{yy}$ ko'rinishda belgilaymiz. U holda:

1) agar $B^2 - AC < 0$ bo'lsa, M_0 statsionar nuqta lokal ekstremum nuqtasi bo'lib, a) $A < 0$ bo'lsa, maksimum nuqtasi; b) $A > 0$ bo'lsa, minimum nuqtasi.

2) agar $B^2 - AC > 0$ bo'lsa, u holda M_0 statsionar nuqta ekstremum nuqtasi bo'lmaydi;

3) agar $B^2 - AC = 0$ bo'lsa, u holda M_0 statsionar nuqtaning ekstremum nuqtasi bo'lishi ham, bo'lmashligi ham mumkin. Masala yechimi qo'shimch tekshirishni talab etadi.

12.1. Quyidagi funksiyalarning nuqtalardagi gradiyenti va uning gradiyent uzunligini toping:

a) $u = xy^2z^3$ funksiyaning $M_0(3; 2; 1)$ nuqtada:

Buning uchun berilgan funksiya xususiy hosilalarini topamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial x} = y^2z^3; \frac{\partial u}{\partial y} = 2xyz^3; \frac{\partial u}{\partial z} = 3xy^2z^2$$

$$\left. \frac{\partial u}{\partial x} \right|_{M_0} = 4; \left. \frac{\partial u}{\partial y} \right|_{M_0} = 12; \left. \frac{\partial u}{\partial z} \right|_{M_0} = 36$$

$$gradu|_{M_0} = \{4; 12; 36\}$$

$$|gradu|_{M_0} = \sqrt{4^2 + 12^2 + 36^2} = \sqrt{1456}$$

b) $z = \ln(x^2 + y^2)$, $M(3; 4)$ nuqtada.

$$\frac{\partial z}{\partial x} = \frac{2x}{x^2 + y^2}; \frac{\partial z}{\partial y} = \frac{2y}{x^2 + y^2}$$

$$\frac{\partial z(3,4)}{\partial x} = \frac{6}{25}; \frac{\partial z(3,4)}{\partial y} = \frac{8}{25};$$

$$|gradu| = \sqrt{\left(\frac{6}{25}\right)^2 + \left(\frac{8}{25}\right)^2} = \frac{2}{5}$$

Mustaqil yechish uchun misollar

Quyidagi funksiyalarning nuqtalardagi gradiyenti va uning uzunligini toping:

12.2. $z = \sqrt{4 + x^2 + y^2}$, $(2; 1)$ da

12.3. $z = \arctg \frac{x}{y}$, $(x_0; y_0)$ da

12.4. $u = xyz$, $(1; 2; 1)$ da

12.5. $u = t\lg x - x + 3\sin y - \sin^3 y + z + ct\lg z$, $\left(\frac{\pi}{4}; \frac{\pi}{3}; \frac{\pi}{2}\right)$ da

Quyidagi funksiyalarning ekstremum nuqtalarini toping:

12.6. $z = e^{\frac{x}{2}}(x + y^2)$

Avvalo kritik nuqtalarni topamiz. Buning uchun ikki o'zgaruvchi bo'yicha hosilani topib, ularni nolga tenglab, sistemani yechamiz:

$$\begin{cases} z'_x = \frac{1}{2}e^{\frac{x}{2}}(x + y^2 + 2) \\ z'_y = e^{\frac{x}{2}} \cdot 2y \end{cases} \quad \begin{cases} \frac{1}{2}e^{\frac{x}{2}}(x + y^2 + 2) = 0 \\ e^{\frac{x}{2}} \cdot 2y = 0 \end{cases}$$

Bu sistema $\begin{cases} x + y^2 + 2 = 0 \\ y = 0 \end{cases}$ sistemaga teng kuchli.

Bu sistemaning yechimi $x = -2$, $y = 0$ bo'ladi. Demak $(-2; 0)$ kritik nuqta. II tartibli xususiy hosilalarni $A = z''_{xx}$; $B = z''_{xy}$; $C = z''_{yy}$ ko'rinishda belgilab, ularni kritik nuqtalardagi qiymatlarini topamiz:

$$z''_{xx} = \frac{1}{4} e^{\frac{x}{2}} (x + y^2 + 4), \quad z''_{xy} = e^{\frac{x}{2}} \cdot y, \quad z''_{yy} = 2e^{\frac{x}{2}}$$

$$A = \frac{e^{-1}}{2}, \quad B = 0; \quad C = 2e^{-1}$$

Bundan $\Delta = B^2 - A \cdot C = -\frac{e^{-1}}{2} \cdot 2e^{-1} = -e^{-2}$, $\Delta < 0$ bo'lgani uchun

$(-2; 0)$ da funksiya ekstremumga ega, $A > 0$ bo'lgani uchun $(-2; 0)$ nuqtada nuqtada minimumga ega.

$$12.7. z = x^2 - xy + y^2 + 9x - 6y + 20$$

$$12.8. z = y\sqrt{x} - y^2 - x + 6y$$

$$12.9. z = x^3 + 8y^3 - 6xy + 1$$

$$12.10. z = 2xy - 4x - 2y$$

Funksiyaning ko'rsatilgan sohalaridagi eng katta va eng kichik qiymatlarini toping:

$$12.11. z = x^2 - y^2, \quad x^2 + y^2 \leq 4 \text{ doirada}$$

1) Funksiyaning berilgan sohada kritik nuqtalarini topamiz:

$$\begin{cases} z'_x = 2x \\ z'_y = -2y \end{cases} \quad \begin{cases} 2x = 0 \\ -2y = 0 \end{cases} \quad \begin{cases} x = 0 \\ y = 0 \end{cases}$$

Demak, $(0, 0)$ kritik nuqta va u sohaga tegishli.

2) Funksiyaning topilgan nuqtadagi qiymatini topamiz: $z_1 = (0; 0) = 0$

3) Funksiyaning sohaning chegarasidagi eng kichik va eng katta qiymatini topamiz.

Bu sohaning chegarasi $x^2 + y^2 = 4$ aylanadan iborat, $y^2 = 4 - x^2$ buni berilgan funksiya qo'yib $z = x^2 - (4 - x^2) = 2x^2 - 4$, $x^2 + y^2 = 4$ aylana ustidagi nuqtalar uchun $x \in [-2, 2]$, shuning uchun $z = 2x^2 - 4$ funksiyaning $[-2, 2]$ dagi eng kichik va eng katta qiymatlarini topamiz. Buning uchun bu funksiyaning kritik nuqtalarini topamiz $z' = 4x$, $4x = 0$, $x = 0$

b) Funksiyaning kritik nuqtalaridagi $z_2(0) = -4$ ni topamiz.

c) Funksiyaning chegaraviy nuqtalardagi qiymatini topamiz:

$$z_4(2) = 2 \cdot 2^2 - 4 = 4, \quad z_3(-2) = 2 \cdot (-2)^2 - 4 = 4$$

4) Topilgan z_1, z_2, z_3, z_4 qiymatlarni taqqoslaymiz. Demak, -4 funksiyaning eng kichik, 4 esa eng katta qiymatidir.

$$12.12. z = 2xy, \quad x^2 + y^2 \leq 1 \text{ doirada}$$

12.13. $z = x^2 + y^2 - xy + x + y$. $x = 0$, $y = 0$, $x + y = -3$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan uchburchakda.

$$12.14. z = 1 - x^2 - y^2, \quad (x-1)^2 + (y-1)^2 \leq 1 \text{ doirada.}$$

Berilgan nuqtada funksiylarning gradiyentlarini va ularning uzunliklarini toping:

$$12.15. z = x^2 + y^2 \quad (3; 2) \text{ da}$$

$$12.16. z = 2xy \quad (x_0; y_0) \text{ da}$$

$$12.17. z = \frac{4}{x^2 + y^2}, \quad (-1; 2) \text{ da}$$

$$12.18. u = \sqrt{x^2 + y^2 + z^2}, \quad (0; 3; 4) \text{ nuqtada}$$

Quyidagi funksiylarning ekstremal nuqtalarini toping:

$$12.19. z = xy^2(1-x-y)$$

$$12.20. z = 4 - (x^2 + y^2)^{\frac{2}{3}}$$

$$12.21. z = \sqrt{(a-x)(a-y)(x+y-a)}$$

$$12.22. z = x^3 + y^3 - 15xy$$

$$12.23. z = (x^2 + y^2)(e^{-(x^2 + y^2)} - 1)$$

Funksiylarning ko'rsatilgan sohalaridagi eng katta va eng kichik qiymatlarini toping:

12.24. $z = x^2 + 2xy - 4x + 8y$, $x = 0$, $y = 0$, $x = 1$, $y = 2$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan to'rtburchakda

12.25. $z = \arctg(x^2 - xy + y)$, $x = -2$, $x = 2$, $y = -3$, $y = 3$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan to'rtburchaklarda.

13. O'ZGARUVCHILARI AJRALADIGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR

Differensial tenglama deb, erkli o'zgaruvchi x , noma'lum funksiya $y(x)$ va uning turli tartibli hosilalari yoki differensiallarini bog'lovchi tenglamaga aytiladi va $F(x, y, y', y'', \dots, y^{(n)}) = 0$ ko'rinishda yoziladi.

Agar noma'lum funksiya birgina erkli o'zgaruvchiga bog'liq bo'lsa, bunday differensial tenglama oddiy differensial tenglama deyiladi. Birinchi tartibli differensial tenglama $F(x, y, y') = 0$ yoki hosilaga nisbatan yechilgan bo'lsa $y' = f(x, y)$ ko'rinishda yoziladi.

Birinchi tartibli differensial tenglamalarning umumiy yechimi deb, bitta ixtiyoriy o'zgarmas C miqdorga bog'liq bo'lgan hamda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $y = \varphi(x, C)$ funksiyaga aytiladi.

a) bu funksiya differensial tenglamani C o'zgarmas miqdorning har qanday aniq qiymatida ham qanoatlantiradi.

b) $x = x_0$ bo'lganda $y = y_0$ boshlang'ich shart har qanday bo'lganda ham C miqdorning shunday $C = C_0$ qiymatini topish mumkinki, $y = \varphi(x, C_0)$ funksiya berilgan boshlang'ich shartni qanoatlantiradi.

$y = \varphi(x, C_0)$ berilgan tenglamaning xususiy yechimi bo'ladi.

Biz o'zgaruvchilari ajratilgan va o'zgaruvchilari ajraladigan hamda bir jinsli va chiziqli differensial tenglamalarni qaraymiz.

$M(x)dx + N(y)dy = 0$ ko'rinishdagi tenglama o'zgaruvchilari ajralgan tenglama deyiladi. Bu tenglama yechimini topish uchun har bir o'zgaruvchi bo'yicha integrallanadi

I. $M(x)N(y)dx + P(x)Q(y)dy = 0$ ko'rinishdagi tenglama o'zgaruvchilari ajraladigan tenglama deyiladi. Bu tenglamada oldin o'zgaruvchilar ajratiladi, so'ngra integrallanadi.

Mislollar keltiramiz:

13.1. $y' = y \operatorname{ctg} x$, $(0 < x < \pi, -\infty < y < \infty)$ differensial tenglamaning $x_0 = \frac{\pi}{6}$,

$y_0 = 2$ shartni qanoatlantiruvchi yechimi topilsin:

Yechimi: $\frac{dy}{y} = y \operatorname{ctg} x$, $\frac{dy}{y} = \operatorname{ctg} x dx$, $\ln y = \ln \sin x + \ln C$;

$y = C \sin x$ umumiy yechim.

$x_0 = \frac{\pi}{6}$, $y_0 = 2$ shartlarni qo'yamiz, $2 = C \sin \frac{\pi}{6}$; $C = 4$;

$y = 4 \sin x$ xususiy yechim.

13.2. $x dx + y dy = 0$ o'zgartiruvchilari ajralgan tenglamani har bir o'zgaruvchi bo'yicha integrallaymiz

$$\int x dx + \int y dy = C, \quad \frac{x^2}{2} + \frac{y^2}{2} = C, \quad x^2 + y^2 = C_1^2$$

tenglamaning umumiy yechimi bo'lib, markazi koordinata boshida yotgan, radiusi C_1 ga teng bo'lgan aylanalar oilasining tenglamasidir.

13.3. $(1+x)y dx + (1-y)x dy = 0$ bu o'zgaruvchilari ajraladigan tenglamadir.

O'zgaruvchilarni ajratish uchun tenglamaning har bir hadini $xy \neq 0$ ga bo'lamiz

$$\frac{1+x}{x} dx + \frac{1-y}{y} dy = 0, \text{ integrallaymiz } \ln|x| + x + \ln|y| - y = \ln C,$$

$$\ln \left| \frac{xy}{C} \right| = y - x; \quad \frac{xy}{C} = e^{y-x}, \quad xy = Ce^{y-x} \text{ bu tenglamaning umumiy integrali.}$$

II $\frac{dy}{dx} = \varphi\left(\frac{y}{x}\right)$ ko'rinishdagi tenglamaga bir jinsli differensial tenglama deyiladi.

$\frac{y}{x} = u$ almashtirish bilan integrallanadi. $\frac{y}{x}$ – no'l o'lchovli bir jinsli funksiya.

13.4. $\frac{dy}{dx} = \frac{2x^2 y}{x^3 - y^3}$ tenglama bir jinsli differensial tenglama. Bu tenglamani $y=ux$

almashtirish bajarib, integrallaymiz, $y=ux$ dan $\frac{dy}{dx} = u + \frac{du}{dx} x$;

$$u + x \frac{du}{dx} = \frac{x^2 \cdot ux}{x^3 - u^3 x^3}; \quad x \frac{du}{dx} = \frac{u}{1-u^3} - u; \quad x \frac{du}{dx} = \frac{u^4}{1-u^3};$$

o'zgaruvchilarni ajratamiz

$$\frac{dx}{x} = \frac{1-u^3}{u^4} du \text{ integrallaymiz } \ln x + \ln C = -1/(3u^3) - \ln u;$$

$$\ln Cxu = \frac{-1}{3u^3}; \quad \ln Cx \frac{y}{x} = -\frac{x^3}{3y^3}; \quad \ln Cy = -\frac{x^3}{3y^3};$$

tenglamaning umumiy integrali.

III. Chiziqli differensial tenglamalar

I – tartibli chiziqli differensial tenglama deb

$$y' + P(x)y = Q(x) \quad (1)$$

ko'rinishdagi tenglamaga aytiladi. I-tartibli chiziqli tenglama ikki usulda integrallanadi.

1-usul. (1) tenglama yechimi ikki funksiya ko'paytmasi shaklida qidiriladi

$$y = u(x)v(x) \quad (2)$$

u, v lardan birini topish ixtiyoriy.

2-usul o'zgarmasni variatsiyalash usuli (1) tenglamaning umumiy yechimini topishda $Q(x)=0$ deb olib, uning umumiy yechimidagi o'zgarmas sonni, x ning funksiyasi deb qaraladi va $y' + P(x)y = 0$ bir jinsli chiziqli tenglama yechiladi.

Mislollar keltiramiz:

13.5. $\frac{dy}{dx} - 2xy = x - x^3$ chiziqli tenglamaning umumiy yechimini toping:

$$P(x) = -2x; \quad Q(x) = x - x^3.$$

Tenglamaning umumiy yechimini

$$y = u * v \quad (2)$$

ko'rinishda qidiramiz (2) tenglikni differensiallaymiz:

$$\frac{dy}{dx} = u \frac{dv}{dx} + v \frac{du}{dx} \quad (3);$$

(2), (3) ni berilgan tenglamaga qo'yamiz

$$u \frac{dv}{dx} + v \frac{du}{dx} - 2x * u * v = x - x^3; \quad u \left(\frac{dv}{dx} - 2xv \right) + v \frac{du}{dx} = x - x^3 \quad (4)$$

u, v lardan birini topish ixtiyoriy bo'lgani uchun v ni $\frac{dv}{dx} - 2xv = 0$ tenglikdan topamiz.

$$\frac{dv}{v} = 2x dx, \ln |v| = x^2 + \ln C, v = C e^{x^2} \text{ xususiyl holda } C=1 \text{ deb olsak } v = e^{x^2}$$

Bularni (4) ga qo'yib, o'zgaruvchilarni ajratib, integrallaymiz:

$$du = (x - x^3) e^{-x^2} dx$$

$$u = \int (x - x^3) e^{-x^2} dx = \int x e^{-x^2} dx - \int x^3 e^{-x^2} dx$$

Bu integrallarni bo'laklab, integrallaymiz:

$$u = -e^{-x^2} \left(1 - \frac{1}{2} x^2 \right) + C$$

$$y=uv=-e^{-x^2} \cdot e^{x^2} (1-\frac{x^2}{2})+C=\frac{x^2}{2}-1+C;$$

$$13.6. y' + 2xy = x e^{-x^2},$$

$$Q(x) = x e^{-x^2} = 0 \text{ deb olib,}$$

$y' + 2xy = 0$ tenglamani hosil qilamiz

$$\frac{dy}{dx} = -2xy; \quad \frac{dy}{y} = -2x dx; \quad \ln |y| = -x^2 + \ln C, y = C e^{-x^2}$$

Tenglamani umumiy echimidagi C ni x ning funksiyasi deb qarab, y ni x bo'yicha integrallaymiz

$$\frac{dy}{dx} = \frac{dC}{dx} e^{-x^2} - 2Cxe^{-x^2} \text{ ni berilgan tenglamaga qo'yamiz.}$$

$$\frac{dC}{dx} e^{-x^2} - 2Cxe^{-x^2} + 2Cxe^{-x^2} = xe^{-x^2}$$

$$\frac{dC}{dx} e^{-x^2} = xe^{-x^2}; \quad dC = x dx, \quad C = \frac{x^2}{2} + C_1,$$

$$y = C e^{-x^2} = \left(\frac{x^2}{2} + C_1\right) e^{-x^2} \text{ tenglamani umumiy yechimi hosil bo'ladi}$$

Mustaqil yechish uchun mashqlar

1-§. O'zgaruvchilarga ajraladigan va unga keltiriladigan tenglamalar

Quyidagi differensial tenglamalarni yeching:

$$1. (1+y^2)dx + (1+x^2)dy = 0$$

$$2. (1+y^2)dx + xydy = 0$$

$$3. y' \sin x - y \cos x = 0$$

$$4. x\sqrt{1+y^2} + yy'\sqrt{1+x^2} = 0$$

$$5. x\sqrt{1-y^2} + y'\sqrt{1-x^2} = 0$$

$$6. e^x(1+y') = 1$$

$$7. y \ln x dx + x dy = 0$$

$$8. y' = a^{x+y} \quad (a > 0, a \neq 1)$$

$$9. e^y(1+x^2)dy - 2x(1+e^y)dx = 0$$

$$10. 2x\sqrt{1-y^2} = y'(1+x^2)$$

$$11. e^x \sin^2 y + y'(1+e^{2x}) \cos y = 0$$

$$12. y^2 \sin x dx + \cos^2 x \ln y dy = 0$$

$$13. y' = y \sin x$$

$$14. y' = ax^2 + bx + c, (a, b, c - \text{const})$$

$$15. (x+1)^2 y' = a^2$$

$$16. xydx + (x+1)dy = 0$$

$$17. (x^2-1)y' + 2xy^2 = 0$$

$$18. 2x^2 yy' + y^2 = 2$$

$$19. y' \cot x + y = 2$$

$$20. e^{-s}(1+s') = 1$$

$$21. y'y = 2x-3$$

$$22. y' = \sqrt{4x(2y-1)}$$

$$23. \sqrt{1+y^2} dx = xydy$$

$$24. xy' + 1 = y^2$$

$$25. \ln \cos y dx + x tgy dy = 0$$

$$26. \frac{yy'}{x} + e^y = 0$$

$$27. 3e^{xtgy} dx + (1+e^x) \sec^2 y dy = 0$$

$$28. y' = 2^{x-y}$$

$$29. \frac{xdy}{\sqrt{1-y^2}} + \frac{ydx}{\sqrt{1-x^2}} = 0$$

$$30. y = y' \ln y$$

2. Bir jinsli differensial tenglamalar

Quyidagi differensial tenglamalarni yeching:

$$1. (x+2y)dx - xdy = 0$$

$$2. (x-y)dx + (x+y)dy = 0$$

$$3. (y^2 - 2xy)dx + x^2 dy = 0$$

$$4. (x^2 - y^2)y' = 2xy$$

$$5. 2x^3 y' = y(2x^2 - y^2)$$

$$7. (x - y) = y'(y + x)$$

$$9. xy' - y = (x + y) \ln \frac{x+y}{x}$$

$$11. xy' \sin\left(\frac{y}{x}\right) + x = y \sin\left(\frac{y}{x}\right)$$

$$13. xy' \ln\left(\frac{y}{x}\right) = x + y \ln \frac{y}{x}$$

$$15. xy' - y = x \operatorname{tg}\left(\frac{y}{x}\right), y(1) = \frac{\pi}{2}$$

$$17. y' = 4 + \frac{y}{x} + \left(\frac{y}{x}\right)^2, y(1) = 2$$

$$19. y' = \frac{x+y}{x-y}$$

$$21. xy' - y = \frac{x}{\operatorname{arctg} \frac{y}{x}}$$

$$23. xy + y^2 = (2x^2 + xy)y'$$

$$25. (x - y)dx + xdy = 0$$

$$27. x^2 dy = (y^2 - xy + x^2)dx$$

$$29. (y - x)dy = 2(y - \sqrt{xy})dx$$

$$6. y^2 + x^2 y' = xy y'$$

$$8. xy' = y - x e^{\frac{y}{x}}$$

$$10. xy' = y \ln \frac{y}{x}$$

$$12. xy + y^2 = (2x^2 + xy)y'$$

$$14. xyy' = y^2 + 2x^2$$

$$16. (3y - 7x)dx - (3x - 7y)dy = 0$$

$$18. (x^2 + y^2)dx - xydy = 0$$

$$20. xy' = x e^{\frac{y}{x}} + y, y(1) = 0$$

$$22. xy' = \sqrt{x^2 - y^2} + y$$

$$24. (2x + y)dx - (x + 2y)dy = 0$$

$$26. xy' = y(\ln y - \ln x)$$

$$28. 2x^2 y' = x^2 + y^2$$

$$30. (y - x)dx + (y + x)dy = 0$$

3. Birinchi tartibli, chiziqli tenglama va Bernulli tenglamasi

Quyidagi differensial tenglamalarni yeching:

$$1. xy' - y = x^2 \cos x$$

$$3. y' \cos x + y = 1 - \sin x$$

$$5. y' + 2xy = 2xy^2$$

$$7. y' \sqrt{1 - x^2} + y = \arcsin x, y(0) = 0$$

$$9. y' - \frac{y}{\sin x} = \operatorname{tg} \frac{x}{2}$$

$$11. (x^3 + e^x)y' = 3x^2$$

$$13. y' + 3y \operatorname{tg} 3x = \sin 6x, y(0) = \frac{1}{3}$$

$$15. (y^4 + 2x)y' = y$$

$$17. y' + \frac{2y}{x} = 3x^2 y^{\frac{4}{3}}$$

$$19. (2x + 1)y' + y = x$$

$$21. (xy + e^x)dx - xdy = 0$$

$$23. x^2 + xy' = y, y(1) = 0$$

$$25. y' \cos x - y \sin x = 2x, y(0) = 0$$

$$2. y' + 2xy = x e^{-x^2}$$

$$4. y' + \frac{n}{x} y = \frac{a}{x^n}; y(1) = 0$$

$$6. (1 + x^2)y' + y = \operatorname{arctg} x$$

$$8. 3xy^2 y' - 2y^3 = x^3$$

$$10. y' - \frac{y}{x \ln x} = x \ln x, y(e) = \frac{e^2}{2}$$

$$12. y' \sin x - y \cos x = 1, y\left(\frac{\pi}{2}\right) = 0$$

$$14. (2xy + 3)dy - y^2 dx = 0$$

$$16. y' - 2xy = e^{x^2}$$

$$18. xy' - 2y = 2x^4$$

$$20. y' + y \operatorname{tg} x = \sec x$$

$$22. y' - 2y e^x = 2\sqrt{y} e^x$$

$$24. y' - 2xy = 2x e^{x^2}$$

$$26. xy' - 2y = x^3 \cos x$$

$$27. y' - y \operatorname{tg} x = \frac{1}{\cos^2 x}, \quad y(0) = 0$$

$$28. y' \ln x - y = 3x^3 \ln^2 x$$

$$29. (2x - y^2)y' = 2y$$

$$30. y' \sin x + y \cos x = y^2 \sin^2 x.$$

4. To'la differensial tenglamalar. Integrallovchi ko'paytuvchi

Quyidagi differensial tenglamalarni yechin:

$$(x + \sin y)dx + (x \cos y + \sin y)dy = 0$$

$$(y + e^x \sin y)dx + (x + e^x \cos y)dy = 0$$

$$(xy + \sin y)dx + (0,5x^2 + x \cos y)dy = 0$$

$$(x^2 + y^2 + y)dx + (2xy + x + e^y)dy = 0$$

$$(2xye^{x^2} + \ln y)dx + \left(e^{x^2} + \frac{x}{y}\right)dy = 0$$

$$[\sin y + (1 - y) \cos x]dx + [(1 + x) \cos y - \sin x]dy = 0$$

$$(y + x \ln y)dx + \left(\frac{x^2}{2y} + x + 1\right)dy = 0$$

$$(\arcsin x + 2xy)dx + (x^2 + 1 + \arctg y)dy = 0$$

$$(3yx^2 + \sin x)dx + (x^3 - \cos y)dy = 0$$

$$(e^{x+y} + 3x^2)dx + (e^{x+y} + 4y^3)dy = 0, \quad y(0) = 0$$

$$\left(\frac{x}{\sqrt{x^2 + y^2}} + \frac{1}{x} + \frac{1}{y}\right)dx + \left(\frac{y}{\sqrt{x^2 + y^2}} + \frac{1}{y} - \frac{x}{y^2}\right)dy = 0$$

$$\left(3x^2 \operatorname{tg} y - \frac{2y^3}{x^3}\right)dx + \left(x^3 \sec^2 y + 4y^3 + \frac{3y^2}{x^2}\right)dy = 0$$

$$\left(2x + \frac{x^2 + y^2}{x^2 y}\right)dx = \frac{x^2 + y^2}{xy^2} dy$$

$$(3x^2 + 2y)dx + (2x - 3)dy = 0$$

$$(\operatorname{tg} y - y \cos ec^2 x)dx + (ctg x + x \sec^2 y)dy = 0$$

$$\left(\frac{y}{x^2 + y^2} - y\right)dx + \left(e^y - x - \frac{x}{x^2 + y^2}\right)dy = 0$$

$$\left(\frac{\sin 2x}{y} + x\right)dx + \left(y - \frac{\sin^2 x}{y^2}\right)dy = 0$$

$$\left(\frac{xy}{\sqrt{1+x^2}} + 2xy - \frac{y}{x}\right)dx + \left(\sqrt{1+x^2} + x^2 - \ln x\right)dy = 0$$

$$ydx - xdy + \ln xdx = 0, \quad \mu = \varphi(x)$$

$$(x^2 \cos x - y)dx + xdy = 0, \quad \mu = \varphi(x)$$

$$ydx - (x + y)dy = 0, \quad \mu = \varphi(y)$$

$$y\sqrt{1-y^2}dx + (x\sqrt{1-y^2} + y)dy = 0, \quad \mu = \varphi(y)$$

$$(1 - x^2 y)dx + x^2(y - x)dy = 0, \quad \mu = \varphi(x)$$

$$(x^2 + y)dx - xdy = 0, \quad \mu = \varphi(x)$$

$$(x^4 \ln x - 2xy^3)dx + 3x^2 y^2 dy = 0, \quad \mu = \varphi(x)$$

$$(x + \sin x + \sin y)dx + \cos y dy = 0, \quad \mu = \varphi(x)$$

$$(2xy^2 - 3y^3)dx + (7 - 3xy^2)dy = 0, \quad \mu = \varphi(y)$$

$$(3x + 2y + y^2) dx + (x + 4xy + 5y^2) dy = 0, \quad \mu = \varphi(x + y^2)$$

$$xdx + ydy + x(xdy - ydx) = 0, \quad \mu = \varphi(x^2 + y^2)$$

$$(x^2 + y^2 + 1) dx - 2xydy = 0, \quad \mu = \varphi(y^2 - x^2)$$

YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR

1-§. Darajani pasaytirib yechiladigan yuqori tartibli differensial tenglamalar

Quyidagi differensial tenglamalarni yeching:

$$1. 2yy'' = 1 + y^2$$

$$2. yy'' = y' + y'^2$$

$$3. yy'' + y'^2 = 0$$

$$4. yy'' = y'^2$$

$$5. y'' + y'^2 = 0$$

$$6. 3y'' = (1 + y'^2)^{\frac{2}{3}}$$

$$7. y'' = y'(1 + y')$$

$$8. xy'' = y'$$

$$9. xy'' = y' \ln \frac{y'}{x}$$

$$10. yy'' + 1 = (y')^2$$

$$11. y'' = (y')^2$$

$$12. y'' = 2(y' - 1) \operatorname{ctgx}$$

$$13. y'' + y'^2 = 2e^{-y}$$

$$14. y'' \ln x = y'$$

$$15. 2yy'' = (y')^2$$

$$16. (x^2 - 1)y'' + x y' = 2$$

$$17. xy'' = (1 + 2x^2)y'$$

$$18. xy'' + y' = 0$$

$$19. 2y'(y'' + 2) = x(y')^2$$

$$20. y'' \operatorname{tg} x = y' + 1$$

$$21. yy'' - 2yy' \ln y = (y')^2$$

$$22. 2x y' y'' = y'^2 - 1$$

$$23. y'^2 + 2yy'' = 0$$

$$24. y''(1 + x) = 2y'$$

$$25. y''(x + 1) - y' = 0$$

$$26. y'' \ln x = y'$$

$$27. x^2 y'' = y'^2$$

$$28. y'' \operatorname{tgy} = 2(y')^2$$

$$29. xy'' = y'(1 - x)$$

$$30. y'' = e^x$$

Bir jinsli, o'zgarmas koeffitsiyentli, yuqori tartibli, chiziqli differensial tenglamalar

Quyidagi differensial tenglamalarni yeching:

$$1. y'' + y' - 2y = 0$$

$$2. y'' + 4y' + 3y = 0$$

$$3. y'' + 4y = 0$$

$$4. y''' - y = 0$$

$$5. y''' - 64y = 0$$

$$6. y'' - 10y' + 9y = 0$$

$$7. y''' - 3y'' + 3y' - y = 0$$

$$8. y^{IV} - 5y'' + 4y' = 0$$

$$9. y''' - 8y = 0$$

$$10. y^{IV} - 4y = 0$$

$$11. y'' - 2y' + y = 0$$

$$12. y'' - 6y' + 9y = 0$$

$$13. y^{IV} + 2y'' + y = 0$$

$$14. y''' - y'' - y' + y = 0$$

$$15. y'' + 8y' + 16y = 0$$

$$16. y''' - 3y'' + 3y' - y = 0$$

$$17. y'' + 2y' + y = 0$$

$$18. y''' + 6y'' + 11y' + 6y = 0$$

$$19. y''' - y'' = 0$$

$$20. y^{IV} - y'' = 0$$

$$21. y''' + 2y'' - y' - 2y = 0$$

$$22. y''' - 2y'' + y' = 0$$

$$23. y''' - 3y' - 2y = 0$$

$$24. 2y''' - 3y'' + y' = 0$$

$$25. y''' + y'' = 0$$

$$26. y'' + 25y = 0$$

$$27. y'' - 4y' + 4y = 0$$

$$28. y^{IV} - 9y = 0 \quad y'' + 4y' + 5y = 10e^{-2x} \cos x$$

$$29. y^{IV} - 2y''' + y'' = 0$$

$$30. y'' + 6y' + 10y = 0$$

EHTIMOLLAR NAZARIYASI

1-§. Ehtimolning klassik ta'rifi

1-masala. 10 ta detaldan iborat partiyada 6 ta yaroqli detal bor. Tavakkaliga olingan 4 ta detallar orasida 3 ta yaroqli detallar bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } p = \frac{2}{7}$$

2-masala. Lotereya biletlarining umumiy soni 12 ta. Ulardan 5 tasi yutuqli. Tasodifan olingan 4 ta lotereyadan bittasiga ham yutug chiqmaslik ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = 0,07$$

3-masala. Ombordagi 25 ta televizorlardan 15 tasi rangli, golganlari oq-qora tasvirli ekanligi ma'lum. Tavakkaliga olingan 3 ta televizorlar orasida 2 ta-sining rangli bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = \frac{21}{46}$$

4-masala. Guruhda 16 talaba bor. Ularning 10 tasi qiz bolalar. Tasodifan ajratilgan 6 ta talaba orasida 4 tasi qiz bola bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = 0,4$$

5-masala. Idishda 9 ta yaroqli va 1 ta yaroqsiz detallar bor. Idishdan tavakkaliga 3 ta detal olindi. Bu detallardan 2 tasining yaroqli bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = \frac{3}{20}$$

6-masala. 8 ta bir xil shakldagi kartochkalarga mos ravishda 2,4,6,7,8,11,12,13 raqamlari yozilgan. Tavakkaliga 2 ta kartochka tanlandi. Shu tanlangan raqamlardan tuzilgan kasrni qisqartirish mumkin bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = \frac{5}{14}$$

7-masala. 10 ta biletlar orasida 2 ta yutuqlisi bor. Tavakkaliga 5 ta bilet tanlab olindi. Olingan biletlar orasida: a) 1 ta yutuqli bilet; b) 2 ta yutuqli bilet bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: a) } P = \frac{5}{9}; \text{ b) } P = \frac{2}{9}$$

8-masala. «N» ta biletlar orasida «n» ta yutuqlisi bor. Ulardan «k» tasi tasodifan olingan. Shu olingan «k» ta biletlar ichida «m» tasi yutuqli bo'lishi ehtimoli topilsin.

9-masala. Uzunliklari mos ravishda 9,7,5,3,1 sm bo'lgan kesmalardan Tavakkaliga 3 ta kesmalar olingan. Olingan shu 3 ta kesmalardan uchburchak yasash mumkin bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = 0,3$$

10-masala. Tavakkaliga tanlangan bir xonali, butun sonni kvadratga ko'targanda oxirgi raqami: a) bir bo'lishi ehtimoli topilsin, b) shu tanlangan sonni to'rtinchi darajaga ko'targanda oxirgi raqami bir bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: a) } P = 0,2, \text{ b) } P = 0,4$$

11-masala. 28 ta domino to'plamidan bittasi tavakkaliga tanlandi. Agar bu domino dubl domino bo'lmasa, ikkinchi tavakkaliga tanlangan dominoni birinchisiga ulash mumkin bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = \frac{4}{9}$$

12-masala. Ikkita o'yin kubigi tavakkaliga tashlandi. Kubik chiqqan raqamlar yig'indisi shu raqamlar ko'paytmasidan katta bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$\text{Javob: } P = \frac{11}{36}$$

13-masala. 9 ta bir xil kartochkalarda 0,1,2,3,4,5,6,7,8 raqamlari yozilgan. Shu kartochkalardan 2 tasi tavakkaliga tanlanib, yonma-yon qo'yildi. Hosil bo'lgan sonning juft son bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{5}{9}.$$

Javob:

14-masala. Idishda 10 ta mahsulot bo`lib, ulardan 4 tasi sifatlidir. Tasodifan ajratilgan 3 ta mahsulotlar orasida 2 tasi sifatli mahsulot bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,3$.

15-masala. Idishda 9 ta yaroqli va 1 ta yaroqsiz detallar bor. Idishdan tavakkaliga 3 ta detal olindi. Bu detallarning 3 lasi ham yaroqli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,7$.

16-masala. Abonent telefon raqamlarini terayotib, oxirgi 2 ta raqamni eslay olmadi. Bu raqamlar turli ekanligini bilgan holda, ularni tavakkaliga terdi. Abonent kerakli raqamlarni tergan bo`lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{1}{90}.$$

Javob:

17-masala. Idishda «a» ta oq va «b» ta qora sharlar bor. Tavakkaliga idishdan 2 ta shar olindi. Bu sharlar turli xil rangda bo`lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{2ab}{(a+b)(a+b-2)}.$$

Javob:

18-masala. Kitob 90 betdan iborat. Tavakkaliga ochilgan betning tartibida 4 raqami bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,2$

19-masala. Hamma tomoni bo`yalgan kub teng 64 ta kubikchalarga ajratilgan. Tavakkaliga olingan kubikchaning: a) bitta tomoni b) ikkita tomoni c) uchta tomoni bo`yalgan bo`lishi ehtimoli topilsin.

$$a) P = \frac{3}{8}, b) P = \frac{3}{8}, c) P = \frac{1}{8}.$$

Javob:

20-masala. 2 ta o`yin kubigi tavakkaliga tashlandi. Kubiklarning yoqlarida chiqqan raqamlar ko`paytmasi shu raqamlar yiq`indisidan katta bo`lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{2}{3}.$$

Javob:

21-masala. Guruhda 15 ta talaba bo`lib, ulardan 5 tasi a`lochi talabalardir. Tavakkaliga ajratilgan 2 ta talabadan 1 tasi a`lochi bo`lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{10}{21}$$

Javob:

22-masala. O`yin kubigi 2 marta tashlangan. Chiqqan raqamlar ayirmasi 4 dan kam bo`lmalik ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{1}{6}.$$

Javob:

23-masala. O`yin kubigi 2 marta tashlangan. Chiqqan ragamlar ayirmasi 3 dan kam bo`lmalik ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{1}{3}.$$

Javob:

24-masala. 10 ta bir xil kartochkalarda 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlar yozilgan. Tavakkaliga 2 ta kartochka olinib terilganda, hosil bo`lgan ikki xonali sonning 12 ga bo`linish ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{4}{45}.$$

Javob:

25-masala. 10 ta bir xil kartochkalarda 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlar yozilgan. Tavakkaliga 2 ta kartochka olinib terilganda, hosil bo'lgan ikki xonali sonning 18 ga bo'linish ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{1}{18}.$$

Javob:

26-masala. Hamma tomon bo'yalgan kub teng 1000 ta kubikchalarga ajratilgan. Yaxshilab aralashtirib, tavakkaliga olingan kubikchaning 1 ta tomoni bo'yalgan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,384$

27-masala. Hamma tomon bo'yalgan kub teng 1000 ta kubikchalarga ajratilgan. Yaxshilab aralashtirib, tavakkaliga olingan kubikchaning 2 ta tomoni bo'yalgan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,096.$

28-masala. Idishda 5 ta oq va 3 ta qora sharlar bor. Ulardan 4 tasi tavakkaliga olingan. Oq sharlar soni qora sharlar sonidan ko'p bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,5.$

29-masala. 2 ta o'yin kubigi tavakkaliga tashlangan. Kubiklarning tomonlarida chiqqan raqamlar ayirmasi 3 dan kam bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{2}{3}.$$

Javob:

30-masala. 6 ta bir xil kartochkalarda quyidagi harflar: a,sh,t,o,b,s yozilgan. Yaxshilab aralashtirib, tavakkaliga 4 ta harf tanlangan. Shu harflar yonma-yon qo'yib, o'qilganda «shtab» so'zining hosil bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{1}{360}.$$

Javob:

2-§. Ehtimollarni qo'shish va ko'paytirish teoremlari. Kamida bitta hodisaning ro'y berish ehtimoli

1-masala. Bemor o'ziga kerakli dorini 3 ta dorixonadan izlamoqda. Dorining 1-, 2-, 3-dorixonalarda bor bo'lishi ehtimoli mos ravishda 0,9, 0,8, 0,5 ga teng. Izlanayotgan dorining: a) faqat 1 ta dorixonada, b) faqat 2 ta dorixonada bor bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: **a) $P = 0,14$; b) $P = 0,49$**

2-masala. 10 ta bo'lak metall mavjud bo'lib, ular orasida 4 tasi qizg'ish rangda. Tavakkaliga 3 ta bo'lak metal tanlandi. Ulardan hech bo'lmaganda 1 tasi qizg'ish rangli metall bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{5}{6}.$$

Javob:

3-masala. 15 kishidan iborat ishchilar orasida 5 ta ayol kishi bor. Saylov komissiyada ishlash uchun ishchilar ro'yxatidan tavakkaliga 3 kishi tanlandi. Ular ichida kamida 1 ta ayol kishi bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{67}{91}.$$

Javob:

4-masala. Guruhda 10 ta talaba bo'lib, ulardan 3 tasi a'lochidir. Tavakkaliga ajratilgan 3 ta talabaning ham a'lochi bo'lmasligi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{7}{24}.$$

Javob:

5-masala. Ikki mergan nishonga qarata o'q uzmoqda. Bitta o'q uzganda nishonga tekkizish ehtimoli birinchi mergan uchun 0,9 ga, ikkinchi mergan uchun esa 0,6 ga teng bo'lsa, bir yo'la o'q uzganda merganlardan faqat bittasining nishonga tekkizish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,42$.

6-masala. 200 ta detaldan iborat idishda 150 tasi birinchi nav, 30 tasi ikkinchi nav, 16 tasi uchinchi nav va 4 tasi yaroqsizdir. Tavakkaliga olingan detalning 1-yoki 2-nav bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,9$.

7-masala. Ikki mergan nishonga qarata o'q uzmoqda. 1 ta o'q uzganda nishonga tekkizish ehtimoli birinchi mergan uchun 0,7 ga, ikkinchi mergan uchun 0,8 ga teng bo'lsa, bir yo'la o'q uzishganda merganlardan kamida bittasining nishonga tekkizish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,94$.

8-masala. Tovarshunos tekshirayotgan 15 ta mahsulot orasida 5 ta sifatsiz mahsulot bor. Tavakkaliga ajratilgan 3 ta mahsulotdan kamida 1tasining sifatli bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{89}{91}.$$

Javob:

9-masala. 2 ta erkli sinovlarda A hodisaning kamida bir marta ro'y berish ehtimoli 0,75 ga teng. Agar A hodisa ikkala sinovlarda ham bir xil ehtimol bilan ro'y bersa, A hodisaning bitta sinovda ro'y berish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,5$.

10-masala. 1-idishda 10 ta shar bo'lib, ulardan 8 tasi qizil va 2 tasi qora rangda. 2-idishda esa 10 ta sharlardan 7 tasi qizil 3 tasi qora rangda. Ikkala idishdan tavakkaliga bittadan shar olindi. Shu olingan 2 ta sharlardan kamida 1tasii qizil rangli bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,94$.

11-masala. 20 ta bilet ichida 2 ta yutuqlisi bor. Agar tavakkaliga 5 ta bilet olingan bo'lsa, ulardan kamida bittasi yutuqli bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{17}{38}.$$

Javob:

12-masala. Idishda 12 ta oq va 8 ta qora sharlar bor. Tavakkaliga 2 ta shar olindi. Bu sharlar turli rangda bo'lishi ehtimoli topilsin.

$$P = \frac{45}{98}.$$

Javob:

13-masala. 10 ta detallar orasida 2 tasi nostandartdir. Tavakkaliga olingan 2 ta detallardan kamida 1tasining standart detal bo'lishi ehtimolini toping.

$$\frac{44}{45}$$

Javob:

14-masala. Idishda 5 ta mahsulot bo'lib, ulardan 3 tasi yaroqli. Tavakkaliga 2 ta mahsulot tanlandi. Tanlangan mahsulotlardan hech bo'lmaganda 1 tasi yaroqli bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,9$.

15-masala. Buyumlar orasidan tovarshunos oliy nav buyumlarni ajratmoqda. Tavakkaliga olingan buyumning oliy nav bo'lishi ehtimoli 0,9 ga teng. Tekshirilgan uchta buyumdan faqat bittasining oliy nav bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,027$.

16-masala. Talaba o'ziga kerakli kitobni 3 ta magazindan izlamoqda. Kitobning 1-, 2-, 3-kitob magazinida bo'lishi ehtimollari mos ravishda 0,7, 0,8, 0,9 ga teng bo'lsa, kitobning faqat ikki magazinda bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,398$.

17-masala. Agar tavakkaliga tanlangan simning yaroqsiz bo'lishi ehtimoli 0,1 ga teng bo'lsa, telefon stansiyasida tekshirilayotgan 3 ta aloqa simlaridan faqat bittasining yaroqsiz bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,027$.

18-masala. Agar merganning nishonga tekkizish ehtimoli 0,9 ga teng bo'lsa, mergan otgan 3 ta o'qning ham nishonga tekkan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,729$.

19-masala. Uchta o'yin kubigi tavakkaliga tashlandi. Kamida bitta kubikda 5 raqami chiqish hodisasining ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{91}{216}$.

20-masala. 1-idishda 1-navli mahsulotlar 40%ni, 2-idishda esa 1-navli mahsulotlar 50% ni tashkil etadi. Har bir idishdan 1tadan tavakkaliga mahsulot olindi. Olingan ikkala mahsulotning ham 1-navli bo'lmashlik ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{3}{10}$,

21-masala. Taxta yashikda 6 ta detallar bo'lib, ulardan 4 tasi yaroqli. Shu yashikdan tavakkaliga 2 ta detal olindi. Olingan ikkala detalning ham yaroqsiz bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{1}{15}$.

22-masala. Hamshira o'ziga kerakli dorini 3 ta tokchadan izlamoqda. Dorining 1-, 2-, 3-tokchalarda bor bo'lishi ehtimollari mos ravishda 0,5, 0,8, 0,9 ga teng bo'lsa, izlanayotgan dorining faqat bitta tokchada bor bo'lish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,14$

23-masala. Haridor o'ziga kerakli oyoq kiyimni 3 ta do'kondan izlamoqda. Poyafzalning 1-, 2-, 3- do'konlarda bor bo'lish ehtimoli mos ravishda 0,7, 0,8, 0,9 ga teng. Izlanayotgan oyoq kiyimning faqat 2 ta do'konlarda bor bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,452$.

24-masala. 10 ta mahsulot ichida 3 tasi yaroqsizdir. Tavakkaliga ular orasidan 2 ta mahsulot ajratildi. Shu ajratilgan mahsulotlardan hech bo'lmaganda bittasi yaroqsiz bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{8}{15}$.

25-masala. Idishda 6 ta oq, 5 ta qizil va 9 ta ko'k rangli, bir xil o'lchovli sharlar bor. Idishdan tavakkaliga olingan sharning rangli bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,7$.

26-masala. 3 ta o'q uzishda kamida bitta o'qning nishonga tegish ehtimoli 0,936 ga teng bo'lsa, bitta o'q uzishda nishonga tegish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,6$.

27-masala. Tavakkaliga tanlangan musbat, ikki xonali, butun sonning 2 ga ham, 3 ga ham bo'linmaslik ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{1}{3}$.

28-masala. Tavakkaliga tanlangan musbat, butun sonning 2 ga yoki 3 ga bo'linmaslik ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{5}{6}$.

29-masala. Birinchi idishda 5 ta o'q, 11 ta qora, 8 ta qizil rangli sharlar bor. Ikkinchi idishda esa 10 ta oq, 8 ta qora, 6 ta qizil sharlar bor. Ikkala idishdan tavakkaliga 1 tadan sharlar olindi. Olingan ikkala sharning ham bir xil rangli bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,323$.

30-masala. Ikki idishda 10 tadan sharlar bo'lib, 1-idishda 8 ta qizil 2 ta qora, 2-sida esa, 7 ta qizil 3 ta qora sharlar bor. Ikkala idishdan tavakkaliga 1 ta dan shar olindi. Shu 2 ta shardan kamida bittasining qizil rangli bo'lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,94$.

3-§. To'la ehtimollik va Beyes formulasi

1-masala. Korxonaga keladigan mahsulotlarning 50% ini 1-zavod, 40% ini 2-zavod, 10% ini esa 3-zavodda ishlab chiqariladi. Shu mahsulotlarning yaroqsiz bo'lishi 1-zavod uchun 5% ini, 2-zavod uchun 3% ini, 3-zavod uchun esa 2% ni tashkil etadi. Tavakkaliga tanlangan mahsulotning yaroqsiz bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,039$.

2-masala. 1-idishda 8 ta oq, 2 ta qora sharlar, 2-idishda 6 ta oq, 4 ta qora sharlar mavjud. 1-idishdan tavakkaliga bitta shar olinib, 2-idishga solingan. So'ngra 2-idishdan tavakkaliga 1 ta shar olingan. Shu olingan sharning oq rangli bo'lish ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{34}{55}$.

3-masala. Yashikdagi detallardan 12 tasi 1-zavodga, 20 tasi 2-zavodga, 18 tasi esa 3-zavodga tegishli bo'lgan detallardir. Tanlangan detalning sifatli (yaroqli) bo'lish ehtimoli 1-zavodda ishlab chiqarilgan detallar uchun 0,9 ga, 2- va 3-zavodlar uchun esa bu ehtimol mos ravishda 0,6 va 0,9 ga teng. Yashikdan tavakkaliga 1ta detal tanlandi. Shu detalning yaroqli bo'lish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,78$.

4-masala. Dominoning to'liq to'plamidan (28 dona) tavakkaliga 1 tasi olindi. 2-tavakkaliga olingan dominoni 1-tanlangan dominoga ulash mumkin bo'lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{7}{18}$.

5-masala. Yig'uv sexiga 1-avtomatdan 20%, 2-avtomatdan 30% 3-avtomatdan esa 50% detallar kelib tushadi. 1-avtomatda tayyorlangan detallarning 0,2% yaroqsiz, 2-avtomatda tayyorlangan detallarning 0,3% yaroqsiz va 3-avtomatda tayyorlangan detallarning 0,1% yaroqsiz bo'lsa, tavakkaliga olingan detalning yaroqsiz bo'lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,0018$.

6-masala. 1-idishda 8 ta lampa bo'lib, ulardan 2 tasi yaroqsiz, 2-idishda 10 ta lampa bo'lib, ulardan 4 tasi yaroqsizdir. Har bir idishdan tavakkaliga bittadan lampa olindi. Keyin shu tanlangan lampadan yana biri ixtiyoriy ravishda tanlandi. Olingan lampaning yaroqsiz bo'lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{13}{40}$.

7-masala. Guruhda 10 ta mergan bo'lib, ulardan 5 tasi uchun nishonga tekkizish ehtimoli 0,8 ga teng, boshqa 3 tasi uchun 0,5 ga va qolgan 2 ta mergan uchun esa 0,25 ga teng. Tavakkaliga otilgan o'qning nishonga tekkan bo'lish ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{3}{5}$.

8-masala. Armiya safiga chaqiriluvchi o'smirlardan 50% i 1-viloyatga, 30% i 2-viloyatga va 20% i esa 3-viloyatga tegishlidir. 1-viloyatdagi har bir 100 ta o'smirdan 10 tasi qandaydir kasallik bilan, 2-viloyatda 15 tasi, va 3-viloyatda esa 20 tasi kasallangan. Tavakkaliga tanlangan o'smirlardan biri tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda sog'lom bo'lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,865$

9-masala. Ichida 3 ta bir xil detali bor idishga 1 ta standart detal tashlangan, so`ngra tavakkaliga shu idishdan 1 ta detal olingan. Olingan detalning standart bo`lishi ehtimoli topilsin. Idishdagi detallarning dastlabki tarkibi (standart yoki nostandart) haqidagi barcha mumkin bo`lgan taxminlar teng imkoniyatli deb faraz qilinadi.

Javob: $P = 0,625$.

10-masala. Birinchi idishda 40 ta detallar bo`lib, ulardan 36 tasi standartdir. Ikkinchi idishda 20 ta detallar bo`lib, ulardan 16 tasi standartdir. Ikkinchi idishdan tavakkaliga bitta detal olinib, birinchi idishga solingan, so`ngra birinchi idishdan tavakkaliga bitta detal olingan. Shu olingan detalning standart bo`lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,9$.

11-masala. Sportchilar orasida 18 ta chang`ichi, 5 ta velosipedchi va 2 ta yuguruvchi sportchilar bor. Agar normativni bajara olish ehtimoli chang`ichi uchun 0,8 ga, velosipedchi uchun 0,7 ga va yuguruvchi sportchilar uchun esa 0,6 ga teng bo`lsa, tavakkaliga tanlangan sportchining normativni bajara olish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,764$.

12-masala. 2 ta idishning har birida 10 ta qizil va 5 ta oq sharlar bor. Birinchi idishdan tavakkaliga bir shar olinib, ikkinchi idishga solindi. So`ngra ikkinchi idishdan tavakkaliga 1 ta shar olingan. Shu olingan sharning qizil rangli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{2}{3}$.

13-masala. 3 ta idishlarda sharlar bo`lib, birinchi idishda 2 ta qizil, 6 ta oq sharlar bor. Ikkinchi idishda esa, 3 ta qizil va 8 ta oq sharlar, uchinchi idishda esa 6 ta qizil va 5 ta oq sharlar bor. Tavakkaliga birinchi idishdan bitta shar olinib, ikkinchi idishga solindi. So`ngra 2-idishdan ham tavakkaliga 1 ta shar olinib, uchinchi idishga solindi. Shu uchinchi idishdan ixtiyoriy ravishda olingan sharning qizil rangli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,45$

14-masala. Ichida 4 ta shar bo`lgan idishga 1 ta oq shar solingan, so`ngra tavakkaliga idishdan bitta shar olindi. Agar idishdagi sharlarning rangi haqidagi barcha mumkin bo`lgan taxminlar teng imkoniyatli bo`lsa, idishdan olingan sharning oq bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,6$.

15-masala. 8-masala shartlari bajarilganda sog`lom bo`lgan o`smir 1- viloyatdan bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{90}{173}$.

16-masala. 3 ta bir xil idishlarda detallar mavjud bo`lib, 1-idishdagi detallarning  $\frac{1}{3}$  qismi yaroqsizdir. Qolgan 2 ta idishlarda esa yaroqsiz detallar yoq. Tekshiruvchi tavakkaliga ixtiyoriy idishdan bitta detal olgan. Shu olingan detalning yaroqsiz bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{1}{9}$.

17-masala. 20 ta mergandan 6 tasining o`q uzganda nishonga tekkizish ehtimoli 0,8 ga, 8 tasiniki 0,7 ga, 4 tasiniki ehtimoli 0,6 ga va qolgan 2 tasiniki 0,5 ga teng. Tavakkaliga tanlangan merganning nishonga tekkizish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,64$.

18-masala. Yerga ekiladigan o`simliklarning 50% ini A turdagi o`simliklar, 30% ini B turdagi va 20 % ni C turdagi o`simliklar tashkil etadi. A turdagi o`simliklarning unib chiqish ehtimoli 0,8 ga teng, B turdagi o`simliklarniki 0,7 ga va C turdagi o`simliklarniki unib chiqish ehtimoli 0,6 ga teng. Tavakkaliga tanlanib, ekilgan o`simlikning unib chiqish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,73$.

19-masala. 1-qutidagi 20 ta lampadan 18 tasi yaroqli. 2-qutidagi 10 ta lampadan 9 tasi yaroqli. Tavakkaliga 2-qutidan 1 ta lampa olinib, 1-qutiga solingan. 1-qutidan tavakkaliga 1 ta olingan lampaning yaroqli bo'lish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,9$.

20-masala. Korxonaga 3 ta zavoddan maxsulotlar keltirilgan. 1- zavodning mahsuloti 30% ni, 2-zavodning mahsuloti 36% ni, 3-zavodning mahsuloti 34% ni tashkil etadi. 1-, 2-, 3-zavodlarning mahsulotlaridan mos ravishda 4% i, 3% i, 2% i yaroqsizdir. Korxonadan tavakkaliga olingan mahsulot yaroqsiz bo'lib chiqdi. Shu yaroqsiz mahsulot birinchi zavodga tegishli bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{15}{37}$.

21-masala. 26-masala shartlari bajarilganda terma komanda safiga olingan talaba 1-guruh talabasi bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{18}{59}$.

22-masala. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning talabga muvofiqligini 2 ta tovarshunos tekshiradi. Mahsulotlarning 1-tovarshunosga kelib tushish ehtimoli 0,55 ga, 2-tovarshunosga kelib tushish ehtimoli 0,45 ga teng. Mahsulotni talabga muvofiq deb qabul qilish ehtimoli 1-tovarshunos uchun 0,9 ga teng, 2- tovarshunos uchun esa bu ehtimol 0,98 ga teng. Tekshirishda mahsulot talabga muvofiq deb qabul qilindi. Bu tovarni 2-tovarshunos tekshirgan bo'lish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,47$

23-masala. Zavod sexida tayyorlanadigan detallar ularning standartligini tekshirish uchun 2 ta tekshiruvchiga kelib tushadi. Detalning 1-nazoratchiga tushish ehtimoli 0,6 ga, 2-nazoratchiga tushish ehtimoli esa 0,4 ga teng. Yaroqli detalni standart deb tan olish ehtimoli 1-nazoratchi uchun 0,94 ga, 2-uchun esa 0,98 ga teng. Tekshirish vaqtida yaroqli detal standart deb qabul qilindi. Shu detalni 1-nazoratchi tekshirgan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,59$.

24-masala. Yig'ish sexiga 1-dastgohdan barcha detallarning 40%, 2-va 3- dastgohdan ham 30% kelib tushadi. Har bir dastgoh uchun yaroqsiz detal ishlab chiqarish ehtimollari mos ravishda 0,01, 0,03 va 0,05 ga teng. Tavakkaliga olingan detal yaroqsiz ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu detal 1-dastgohda ishlab chiqarilganligi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{1}{7}$.

25-masala. 10 ta bir xil idishlardan 9 tasida 2 ta oq va 2 ta qora sharlar bor. Qolgan 1 ta idishda esa 5 ta oq va 1 ta qora shar bor. Tavakkaliga olingan idishdan oq shar olindi. Shu shar 5 ta oq va 1 ta qora shar bor bo'lgan idishdan olingan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{5}{32}$,

26-masala. Talabalarning saralash sport musobaqalarida qatnashish uchun 1-guruhdan 4 ta talaba, 2-guruhdan 6 ta talaba va 3-guruhdan 5 ta talaba ajratilgan. 1-guruh talabasining institut terma komandasiga kirish ehtimoli 0,9 ga, 2-va 3-guruh talabalari uchun esa bu ehtimol 0,7 va 0,8 ga teng. Tavakkaliga olingan talaba musobaqa natijasida terma komanda safiga olindi. Shu talaba 2-guruh talabasi bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{21}{59}$.

27-masala. 18 ta mergandan iborat 4 ta guruh bo'lib, 1-guruhdagi 5 ta merganning nishonga tekkizish ehtimoli 0,8 ga, 2-guruhdagi 7 ta merganning nishonga tekkizish ehtimoli 0,7 ga teng. 3-guruhdagi 4 ta mergan uchun bu ehtimol 0,6 ga, qolgan 4-guruhdagi 2 ta merganning

nishonga tekkizish ehtimoli 0,5 ga teng. Tavakkaliga tanlangan mergan nishonga qarata o`q uzdi, lekin nishonga tegmadi. Qaysi guruhga tegishli mergan uchun bu ehtimol kattadir?

Javob: 2-guruh uchun.

28-masala. 3 ta bir xil xaltalarning har birida 4 tadan oq va 6 tadan qo`ra sharlar bor. 1-xaltadan tavakkaliga bitta shar olinib, 2-xaltaga solindi, so`ngra 2-xaltadan 1 ta shar olinib, 3-xaltaga solindi. Shu 3-xaltadan tavakkaliga olingan sharning oq rangli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,4$.

29-masala. 3 ta bir xil turdagi qutilar bor. 1-qutida 20 ta yaroqli detallar, 2-qutida esa 10 yaroqli va 10 yaroqsiz detallar, 3-qutida 20 ta yaroqsiz detallar bor ekanligi ma`lum. Tasodifan tanlangan qutidan 1 ta yaroqli detal olindi. Bu detalning 1-qutidan olingan bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{2}{3}$.

30-masala. 29-masala shartlari bajarilganda tanlangan yaroqli detalning 2- qutidan olingan bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{1}{3}$.

4-§. Bernulli formulasi.

1-masala. Tanga 4 marta tashlandi. «Gerbli» tomon ko`pi bilan 2 marta tushish ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{11}{16}$,

2-masala. 2 marta o`q otishda hech bo`lmaganda bir marta mo`ljalga o`q tekkizish ehtimoli 0,96 ga teng. 4 marta o`q otishda, 3 marta mo`ljalga tekkizish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,4096$.

3-masala. Talaba dasturning 60 ta savolidan 50 tasini biladi. Imtihon bileti 3 ta savoldan iborat quyidagi hodisalarning ehtimolini toping:

a) Talaba faqat 2 ta savolga javobni biladi;

b) Talaba 3 ta savolga ham javobni biladi.

Javob: $a) P = \frac{75}{216} : b) P = \frac{125}{216}$.

4-masala. Agar 1 ta sinashda biror hodisaning ro`y berish ehtimoli 0,3 ga teng bo`lsa, u holda 3 ta erkli sinashda shu hodisaning kamida 2 marta ro`y berish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,216$.

5-masala. O`yin kubigi 3 marta tashlandi. Bunda 6 raqamining 2 marta tushish ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{5}{72}$.

6-masala. Tanga tavakkaliga 8 marta tashlangan. Bunda «Gerbli» tomoni 6 marta tushish ehtimolini toping.

Javob: $P = \frac{7}{64}$.

7-masala. Agar har bir sinashda A hodisaning ro`y berish ehtimoli 0,4 ga teng bo`lsa, 5 ta erkli sinashda hodisaning ko`pi bilan bir marta ro`y berish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,337$.

8-masala. 7-masala shartlari bajarilganda 5 ta erkli sinashda hodisaning kamida 2 marta ro`y berish ehtimolini toping.

Javob: $P=0,663$.

9-masala. Tanga 3 marta tashlangan. «Gerbli» tomoni kamida 2 marta tushish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,5$.

10-masala. Agar merganning 1 ta o`q uzganda nishonga tekkizish ehtimoli 0,9 ga teng bo`lsa, ketma-ket tavakkaliga uchta o`q uzganda ko`pi bilan ikki marta nishonga tekkizish ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,271$.

11-masala. 2 teng kuchli shaxmatchi shaxmat o`ynamoqda. Qaysi birida yutish ehtimoli kattaroq, 4 partiyadan 3 tasini yutishmi yoki 5 partiyadan 4 tasini yutishmi?

Javob: 4 partiyadan 3 tasi.

12-masala. Tanga 4 marta tashlandi. «Gerbli» tomoni kamida 3 marta tushish ehtimolini topilsin.

Javob: $P = \frac{5}{16}$,

13-masala. Agar yaroqsiz detal ishlab chiqarish ehtimoli 0,01 ga teng bo`lsa, tavakkaliga olingan 3 ta detaldan 2 tasining yaroqli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,03$.

14-masala. O`yin kubigi tavakkaliga 3 marta tashlanganda 2 raqamining kamida 1 marta chiqish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,42$.

15-masala. Do`konga kelgan mahsulotlar orasida yaroqsiz mahsulotlar 10% ni tashkil etadi. Tavakkaliga tanlangan 3 ta mahsulotdan kamida 1 tasining yaroqli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,999$.

16-masala. Nishonga qarata o`q uzilganda, o`qning nishonga tegish ehtimoli 0,9 ga teng bo`lsa, 3 marta o`q uzilganda uchala o`qning ham nishonga tegmaslik ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,001$.

17-masala. Yaroqsiz detalni ishlab chiqarish ehtimoli 0,05 ga teng bo`lsa, tavakkaliga olingan 5 ta detallar orasida 4 tasining yaroqli bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,2$.

18-masala. Ma`lum o`simlik urug`ining unib chiqishi 70% ni tashkil etadi. 5 ta ekilgan urug`dan kamida 4 tasining unib chiqish ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,528$.

19-masala. 1 ta lotereya bileti bor bo`lgan kishining yutish ehtimoli 0,01 ga teng bo`lsa, sotib olingan 6 ta biletdan 2 tasiga yutuq chiqishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,0014$.

20-masala. Tanga 6 marta tavakkaliga tashlangan. «Gerbli» tomonining kamida 2 marta tushish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{57}{64}$,

21-masala. Tanga 4 marta tavakkaliga tashlangan. «Gerbli» tomonining ko`pi bilan bir marta tushish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{5}{16}$,

22-masala. 16-masala shartlari bajarilganda uchchala o`qning ham nishonga tegish ehtimoli topilsin.

Javob: $P= 0,729$.

23-masala. Mergan nishonga qarata 4 ta o'q uzdi. Agar har bir otishda o'qning nishonga tegish ehtimoli 0,4 ga teng bo'lsa, u holda kamida 1 ta o'qning nishonga tegish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,8704$.

24-masala. Tanga 6 marta tashlangan. «Gerbli» tomonining ko'pi bilan ikki marta tushish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = \frac{11}{32}$.

25-masala. Erkli sinashlarning har birida biror A hodisaning ro'y berish ehtimoli 0,1, ga teng bo'lsa, 5 ta erkli sinashlarda A hodisaning kamida 2 marta ro'y berish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,0814$.

26-masala. Basketbolchi jarima to'pini 3 marta otmoqda. Har bir otishda to'pning to'rga tushish ehtimoli 0,8 ga teng bo'lsa, to'pning biror marta ham to'rga tushmaslik ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,008$

27-masala. 26- masala shartlari bajarilganda to'pning kamida 1 marta to'rga tushish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,992$.

28-masala. Zavoddan kelayotgan detallar partiyasida yaroqsiz detallar bo'lishi ehtimoli 0,1ga teng bo'lsa, tavakkaliga tanlangan 3 ta detal ichida ko'pi bilan 1 ta yaroqsiz detal bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,972$.

29-masala. Uskuna «N» ta elementlardan iborat bo'lib, biror T vaqt ichida shu elementlarning ishdan chiqmaslik ehtimoli P ga teng. Elementlar bir biriga bog'liq bo'lmagan holda ishdan chiqadi. Shu elementlardan T vaqt ichida 2 tadan kam bo'lmaganini ishdan chiqish ehtimoli topilsin.

30-masala. Ishchi 6 ta bir xil dastgohga xizmat ko'rsatadi. T vaqt davomida ishchining dastgohga e'tibor qilish ehtimoli $P = \frac{1}{3}$ ga teng bo'lsa, T vaqt davomida ishchining 4 ta dastgohga xizmat qilishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,08$.

5-§. Laplasning lokal va integral teoremlari

1-masala. Ma'lum o'simlik urug'ining unib chiqish ehtimoli 0,75 ga teng, 500 ta ekilgan urug'dan 130 tasining unib chiqmaslik ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,036$.

2-masala. 1 ta o'q uzishda nishonga tekkizish ehtimoli 0,4 ga teng bo'lsa, 320 ta o'q uzishda aniq 100 tasining nishonga tegish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,00028$.

3-masala. Detalning texnikaviy kontrol bo'limi (OTK) tekshirmagan bo'lish ehtimoli $P = 0,2$ ga teng. Tasodifan olingan 400 ta detaldan 70 tadan 100 tagachasining texnikaviy kontrol bo'limi tekshirmagan bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,8882$.

4-masala. Agar biror A hodisaning har bir erkli sinovlarda ro'y berish ehtimoli 0,25 ga teng bo'lsa, bu hodisaning 243 ta sinovda rosa 70 marta ro'y berish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,0231$.

5-masala. Agar o'g'il bolaning tug'ilish ehtimoli 0,516 ga teng bo'lsa, 200 ta bir vaqtda tug'ilgan bolalardan o'qil va qiz bolalar sonining teng bo'lishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,05$.

6-masala. Tajriba o'tkazilayotgan davrda mahsulotning ishdan chiqish ehtimoli 0,05 ga teng bo'lsa, tasodifan tanlangan 100 ta mahsulotdan tajriba natijasida kamida 5 ta mahsulotning ishdan chiqish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,5$.

7-masala. 6-masala shartlari bajarilganda 100 ta mahsulotdan ko'pi bilan 4 ta mahsulotning ishdan chiqish ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,312$.

8-masala. Xaridorga 41-o'lchovli poyabzal zarurligi ehtimoli 0,2 ga teng. 750 ta sotib oluvchidan 120 tasidan ko'p bo'lmagani shu o'lchovli oyoq kiyimni talab qilishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,003$.

9-masala. Darslik 2000 nusxada bosib chiqarilgan. Darslikning varaqlari noto'g'ri terilgan bo'lishi ehtimoli $P = 0,01$ bo'lsa, butun nusxada rosa 5 ta yaroqsiz kitob bo'lishi ehtimolini toping. (Masalani Puasson formulasi yordamida yeching).

Javob: $P = 0,0003$.

10-masala. Agar chapaqaylar aholining 1% ini tashkil etsa, 200 ta tavakkaliga tanlangan kishilar orasida 4 ta chapaqaylar bo'lishi ehtimolini toping (Masalani Puasson formulasi yordamida yeching).

Javob: $P = 0,1039$.

11-masala. Zavod do'konga 500 ta sifatli mahsulotlar jo'natdi. Mahsulotlarning yo'lda shikastlanish ehtimoli 0,002 ga teng. Do'konga 3 ta yaroqsiz mahsulot kelgan bo'lishi ehtimolini toping (Masalani Puasson formulasi yordamida yeching).

Javob: $P = 0,06$.

12-masala. Avvalgi masala shartlari bajarilganda do'konga 3 tadan kam yaroqsiz mahsulot kelgan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,9195$.

13-masala. Agar merganning 1 ta o'q uzganda nishonga tekkizish ehtimoli 0,75 ga teng bo'lsa, uning 100 ta o'q uzganda kamida 70 marta va ko'pi bilan 80 marta nishonga o'q tekkizish ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,7498$.

14-masala. Avvalgi masala shartlarida 100 ta o'q uzilganda nishonga ko'pi bilan 70 ta o'q tekkan bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P = 0,1251$.

15-masala. Tanga 1000 marta tashlandi. «Gerbli» tomoni rosa 500 marta tushishi ehtimolini toping.

Javob: $P = 0,025$.

16-masala. Tanga 400 marta tashlangan. Uning «Gerbli» tomonining 196 tadan kam bo'lmagan va 206 tadan ko'p bo'lmagan sonda tushish ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,3811$.

17-masala. O'yin kubigi 12000 marta tashlandi. Bir raqamining kamida 1900 va ko'pi bilan 2150 marta chiqish ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,99$.

18-masala. Agar bitta lotereya билетining yutuqli chiqish ehtimoli $P = 0,6$ bo'lsa, 2400 ta lotereya bileti orasida 1400 tasining yutuqli bo'lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,0041$.

19-masala. Agar zavodda ishlab chiqarilgan detalning yaroqsiz chiqishi ehtimoli 0,5 ga teng bo'lsa, 400 ta detaldan iborat partiyadagi yaroqsiz detallar soni 200 ta bo'lish ehtimolini toping.

Javob: $P \approx 0,039$.

20-masala. Urug`lik bug`doy orasidan begona o`rta urug`ining chiqish ehtimoli $P = 0,36$ bo`lsa, tavakkaliga olingan 10000 dona urug`lik orasida 3600 ta begona o`rta urug`i bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,00829$.

21-masala. Birinchi sinfga 200 ta o`quvchi qabul qilinishi kerak. Agar o`g`il bola tug`ilish ehtimoli 0,515 ga teng bo`lsa, birinchi sinfga qabul qilinganlar orasida 100 ta qiz bola bo`lishining ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,051$.

22-masala. Bir xil va bog`liq bo`lmagan sinashlarning har birida A hodisaning ro`y berish ehtimoli 0,04 ga teng bo`lsa, 2400 ta erkli sinashlarda A hodisaning 110 marta ro`y berish ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,014$.

23-masala. Bir xil va bog`liq bo`lmagan sinashlarning har birida A hodisaning ro`y berish ehtimoli 0,2 ga teng bo`lsa, 100 ta erkli sinashlarda A hodisaning:

a) 20 marta; b) kamida 20 marta ro`y berish ehtimoli topilsin.

Javob: a) $P \approx 0,099$; b) $P \approx 0,5$.

24-masala. Tajriba vaqtida uskunaning ishdan chiqish ehtimoli 0,8 ga teng. 100 ta tajriba o`tkazilganda:

a) kamida 70 ta uskunaning,

b) ko`pi bilan 74 ta uskunaning ishdan chiqish ehtimoli topilsin.

Javob: a) $P \approx 0,88$, b) $P \approx 0,066$.

25-masala. Avvalgi masala shartlarida 75 tadan 90 tagacha bo`lgan uskunaning ishdan chiqishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,88$.

26-masala. Agar hodisaning har bir tajribada ro`y berish ehtimoli 0,2 ga teng bo`lsa, 400 ta tajriba o`tkazilganda hodisaning rosa 104 marta ro`y berish ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,00055$.

27-masala. Bir xil va bog`liqsiz tajribalarning har birida A hodisaning ro`y berish ehtimoli 0,8 ga teng bo`lsa, A hodisaning 160 ta tajribada 120 marta ro`y berish ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,02$.

28-masala. Bog`liqsiz tajribalarning har birida hodisaning ro`y berish ehtimoli 0,8 ga teng. 100 ta tajriba o`tkazilganda shu hodisaning 70 tadan kam bo`lmagan va 80 tadan ko`p bo`lmaganda ro`y berish ehtimolini toping.

Javob: $P \approx 0,4938$.

29-masala. Biror shaharda 3% aholi sil bilan kasallangan. Tekshirish uchun tavakkaliga 500 ta kishi tanlangan. Shu kishilar orasida sil bilan kasallanganlar soni 14 ta bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,1$.

30-masala. Tanga 400 marta tashlangan. «Gerbli» tomonning tushish soni 190 va 210 sonlari orasida bo`lishi ehtimoli topilsin.

Javob: $P \approx 0,6826$.

6-§. Diskret tasodifiy miqdorlar va ularning sonli xarakteristikalar

1-masala. Ikkita o`yin kubigi 1 marta tashlanganda chiqadigan raqamlar yig`indisining matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x) = 7$.

2-masala. Sakkista detallardan iborat idishda 3 ta nostandart detallar bor. Tavakkaliga ikkita detal olindi. X-diskret tasodifiy miqdor olingan ikkita detallar orasidagi nostandart detallar sonining matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x) = 0,75$.

3-masala. 2 ta o'yin kubigi 1 marta tashlanganda chiqadigan raqamlar ko'paytmasining matematik kutilishi topilsin.

Javob : $M(x)=12,25$.

4-masala. 1 ta o'q uzganda nishonga tekkizish ehtimoli $p=\frac{1}{3}$ a teng bo'lsa, 4 ta o'q uzganda X-diskret tasodifiy miqdor nishonga tegish sonining matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x)=\frac{4}{3}$.

5-masala. X-tasodifiy miqdor ikkita $x_1=1, x_2=-1$ qiymatlarni 0,5 ehtimol bilan qabul qiladi. Shu tasodifiy miqdorning dispersiyasi topilsin.

Javob: $D(x)=1$.

6-masala. X-diskret tasodifiy miqdor 3 ta erkli sinovlarda biror A hodisaning ro'y berishlar sonining matematik kutilishi $M(x) = 6$ ga teng bo'lsa, shu tasodifiy miqdorning dispersiyasi topilsin.

Javob: $D(x)=\frac{3}{4}$.

7-masala. Agar biror A hodisaning har bir sinovda ro'y berish ehtimoli 0,3 ga teng bo'lsa, X-tasodifiy miqdor A hodisaning 6 ta erkli sinovlarda ro'y berish sonining dispersiyasini toping.

Javob: $D(x)= 1,26$.

8-masala. Idishda 5 ta sharlar bo'lib, ulardan 2 tasi qora, 3 tasi oq rangli. Tavakkaliga idishdan 2 ta shar olindi. X-tasodifiy miqdor shu olingan 2 ta sharlar orasida qora sharlar sonining matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x)=\frac{4}{5}$.

9-masala. Avvalgi masala shartlari bajarilganda X-tasodifiy miqdor shu olingan 2 ta sharlar orasidagi qora sharlar sonining dispersiyasi topilsin.

Javob: $D(x)=\frac{9}{25}$.

10-masala. Tanga 4 marta tashlandi. X-tasodifiy miqdor tanganinig raqamli tomonining tushish sonining matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x)= 2$.

11-masala. Diskret tasodifiy miqdor X faqat ikkita X_1 va X_2 qiymat qabul qiladi. ($x_1 < x_2$) X ning x_1 qiymatini qabul qilish ehtimoli 0,2 ga teng. Agar X ning matematik kutilishi $M(x) = 2,8$ va dispersiyasi $D(x) = 0,16$ ga teng bo'lsa, bu tasodifiy miqdorning taqsimot qonunini toping.

Javob:

x	2	3
P	0,2	0,8

12-masala. Avvalgi masala shartlarida $P_1=0,6$ bo'lib, X ning matematik kutilishi $M(x) = 3,4$ va dispersiyasi $D(x) = 0,24$ ga teng bo'lsa, X-tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni topilsin.

Javob:

x	3	4
P	0,6	0,4

13-masala. Aspirant tajriba maydonidan 6 ta namuna olib keldi. Shulardan 4 tasida izlanayotgan temir qorishmasi bor. Tavakkaliga 3 ta namuna ajratildi. X-diskret tasodifiy miqdor ajratilgan namunalar orasida izlanayotgan temir qorishmasi borligi soni taqsimotining o'rtacha kvadratik chetlanishi topilsin.

Javob: $\sigma(x)=0,63$.

14-masala. Futbol bo'yicha institut terma komandasi 12 kishidan iborat bo'lib, ulardan 5 tasi 1-razryadlidir. Tavakkaliga shu komandadan 3 kishi tanlab olindi. Shu tanlanganlar orasidagi 1-razryadlilar soni X-diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x) = 1,25$.

15-masala. Idishda 2 ta oq va 1 ta qora sharlar bor. Shu idishdan ketma-ket 3 marta shar olindi. Har bir keyingi shar olinishidan avval oldingi shar idishga qaytariladi. Olingan sharlar orasidagi o'q sharlar soni X-diskret tasodifiy miqdorning matematik kutilishi va dispersiyasi topilsin.

Javob: $M(x) = 2$; $D(x) = \frac{2}{3}$.

16-masala. X-diskret tasodifiy miqdor faqat 2 ta X_1 va X_2 ($X_1 > X_2$) qiymatlarni qabul qiladi. Agar bu tasodifiy miqdorning X_1 qiymat qabul qilish ehtimoli $P_1 = 0,6$ bo'lib, matematik kutilishi $M(x) = 2,6$ va dispersiyasi $D(x) = 0,24$ ga teng bo'lsa, X ning taqsimot qonuni topilsin.

Javob:

x	3	2
P	0,6	0,4

17-masala. Diskret erkli tasodifiy miqdorlar quyidagi taqsimot qonunlari orqali berilgan. XY-ko'paytmaning matematik kutilishi topilsin.

x	1	2
P	0,2	0,8

y	0,5	1
P	0,3	0,7

Javob: 1,53.

18-masala. Idishda 10ta bir xil mahsulotlar bo'lib, ulardan 3 tasi sifatsizdir. Shu idishdan tavakkaliga 2 ta mahsulot tanlandi. X-diskret tasodifiy miqdor tanlangan 2 ta mahsulotlar orasidagi sifatsiz mahsulotlar sonining matematik kutilishi topilsin.

Javob: $M(x) = 0,6$.

19-masala. X-diskret tasodifiy miqdor faqat 2 ta X_1 va X_2 ($X_1 > X_2$) qiymatlarni qabul qiladi. $P_1=0,5$, $M(x) = 3,5$. $D(x) = 0,25$ berilgan bo'lsa, X-diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni yozilsin.

Javob:

x	4	3
P	0,5	0,5

20-masala. Agar X-diskret tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni berilgan bo'lsa, uning dispersiyasi topilsin.

x	2	3	4
P	0,3	0,2	0,5

Javob: $D(x) = 0,76$.

